

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

3.7.

**“SPORT PSIXODIAGNOSTIKASI”
MODULI BO‘YICHA
moduli bo‘yicha**

O‘QUV – USLUBIY MAJMUA

**“Sport psixologiyasi” 3 oylik qayta tayyorlash maxsus o‘quv kursi uchun
(oliy ma’lumotli sportchilar)**

Toshkent – 2023 yil

Mazkur oliy ma'lumotli sportchilar uchun "Sport psixologiyasi" bo'yicha qayta tayyorlash maxsus o'quv kursi modulning o'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan 2019-yil 16 - aprelda tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va o'quv dasturga muvofiq ishchi dastur asosida ishlab chiqilgan

Tuzuvchi:

O.E.Hayitov Institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Taqrizchilar:

J.A. Pulatov	-	Institutning "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini mudiri, dotsent (PhD)
D. S.Karshiyeva	-	TDFU "Amaliy psixologiyasi" kafedrasini dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Ushbu o'quv-uslubiy majmua "Pedagogika va psixologiya" kafedrasining 2023 yil 27-maydagi 5-sonli yig'ilishida ko'rib chiqildi va institut ilmiy kengashining 20__yil "__" _____ da o'tkazilgan yig'ilish ___-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri**J.Pulatov**

MUNDARIJA

- I. Ishchi dastur**
- II. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan interfaol ta’lim metodlari .**
- III. Nazariy materiallar**
- IV. Amaliy mashg‘ulot materiallari**
- V. Keyslar banki .**
- VI Testlar to‘plami**
- VII Glossariy**
- VIII Adabiyotlar ro‘yxati**

I. ISHCHI DASTUR

Modulning maqsadi va vazifalari

O‘quv modulining maqsadi – tinglovchilarning sport psixodiagnostikasi fanining maqsad vazifalari hamda psixodiagnostik metodlarning tatbiq qilinishi va qo‘llanilishi. Sportchining temperament xususiyati va tipologik o‘ziga xosligini baholash, Sport jamoalari va guruhda shaxs xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini diagnostika qilish. Psixik jarayonlar diagnostikasi. Psixomotor jarayonlar diagnostikasi. Emotsional holatlar diagnostikasi. Ziddiyatli vaziyatlar sharoitini, stress holatlarini aniqlashga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

O‘quv modulining vazifasi – Sportchilarning psixologik tayyorlashda psixodiagnostikaning o‘rni va samaradorligi. Sotsiometriya metodi asosida guruhda ijtimoiy muhitni aniqlash va baholash. Psixodiagnostikani tashkillashtirish va uni amalga oshirishga aloqador bo‘lgan amaliy masalalar haqida tasavvurga ega bo‘lish, Amaliy psixologiyadagi “samara” tushunchasi va uni o‘lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi “samara mezon”larining bir-biridan farqini. Amaliy psixologiyaning asosiy aspektlari va yo‘nalishlarini. Ilmiy va amaliy psixodiagnostikaning asosiy masalalarini. Sportda ziddiyatli xulq va uni his qilishning yosh va jins xususiyatlarini aniqlash. Guruhiy testlar va diagnostik metodlarni qo‘llash. Sport jamoalari yoki guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilishga doir bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar.

“Sport psixodiagnostikasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida **bilishi** kerak;

Tinglovchi:

- Sport psixodiagnostikasi fanining predmeti va vazifalari;
- Sport psixodiagnostikasining predmetiga oid yondashuvlar;
- Psixodiagnostik metodlarning tatbiq qilinishi va qo‘llanilishi.;
- Sport psixodiagnostikasi tatbiq qilinishi va qo‘llanilishi.bilimlarning nazariy manbalari;
- Sportchining temperament xususiyati va tipologik o‘ziga xosligini baholash;
- Sport jamoalari va guruhda shaxs xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini diagnostika qilish;
- Psixik jarayonlar diagnostikasi ;
- Sport faoliyatida tashkilotchilik va boshqaruv jarayonlari psixodiagnostikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- Sport psixodiagnostikasida shaxs muammosi bo‘yicha bilimga ega bo‘ladi.

“Sport psixodiagnostikasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida **ko‘nikmalarga** ega bo‘lishi;

Tinglovchi:

- Psixomotor jarayonlar diagnostikasi. Emotsional holatlar diagnostikasi. Ziddiyatli vaziyatlar sharoitini, stress holatlarni aniqlash va amaliyotga tatbiq etish;

- Psixodiagnostika, uning rivojlanishi va psixologik diagnostikaning shakllanish qonuniyatlari;
- Psixodiagnostikaning yuqori hamda kam shakllangan metodikalari;
- Psixodiagnostikani tashkillashtirish va uni amalga oshirishga aloqador bo‘lgan amaliy masalalar haqida ko‘nikma va tasavvurga ega bo‘lishi;
- Amaliy psixologiyadagi “samara” tushunchasi va uni o‘lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi “samara mezon”larining bir-biridan farqini;
- Amaliy psixologiyaning asosiy aspektlari va yo‘nalishlarini. Ilmiy va amaliy psixodiagnostikaning asosiy masalalarini;
- Sportda psixodiagnostik tajribalarga qo‘yiladigan asosiy talablarni o‘zaro farqlash;
- Psixik va psixomotor jarayonlarni o‘lchaydigan testlar va ularning turlarini bir-biridan tafovutlashga doir ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

“Sport psixodiagnostikasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida **malakalarga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- Zamonaviy ijtimoiy psixologik va psixotreninglardan foydalanish va tashkil etish;
- Sportda ta’lim va tarbiya jarayonlarini boshqarish;
- Psixologik maslahatlar berish;
- Muomalada xulq-atvorni belgilovchi ijtimoiy ustanovkalarini;
- Korreksion ishlardan foydalanishning turli ko‘rinishlarini;
- Psixologik-pedagogik konsilium ko‘rinishlarini;
- Muomalada muammoli vaziyatlar va ijtimoiy-psixologik trening asosida hal qilish yo‘llarini;
- Sportda ziddiyatli xulq va uni his qilishning yosh va jins xususiyatlarini aniqlash;
- Guruhiy testlar va diagnostik metodlarni qo‘llash;
- Sport jamoalari yoki guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilish bo‘yicha malakalarga ega bo‘ladilar.
- O‘z kasbiy faoliyat sohalarida normativ - huquqiy hujjatlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish kabi **kompetensiyalarni** egallashi lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi.

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Pedagogika asoslari”, “Jismoniy tarbiya va sportda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar”, “Jismoniy tarbiya va sport tarixi”, “Jismoniy tarbiya gigienasi va sport tibbiyoti asoslari”, “Pedagogning kasbiy kompetensiya va kreativligi”, “Anatomiya, fiziologiya asoslari”, “Sport psixologiyasi”, “Shaxs psixologiyasi” kabi o‘quv modullari bilan o‘zviy bog‘langan holda tinglovchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini ortirishga xizmat qiladi.

Modulning sport ta’limidagi o‘rni.

Ushbu modul psixologiya fanining boshqa sohalaridan tubdan farq qilib, uning ahamiyatliligi sportda psixodiagnostika asosida sport faoliyatga individual yondashish, saralash, tanlash, motivatsiya, seleksiya va sportchining irodaviy

faoliyatini rivojlantirishda muhim sanaladi. Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar sportchi shaxsining psixologik holatlar, jismoniy sifatlaridagi holatlari va psixologik muammolarni, aniqlash, psixologik jixatdan tayyorlashni tadqiq etishning zamonaviy usullari va psixologik tayyorlashga doir kasbiy malakaga ega bo'ladilar.

Modul buyicha soatlar taqsimoti:

№	Mavzular	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soatlari				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			
			Jami	Nazariy	Amaliy	Mustaqil tayyorgarlik
1	Psixodiagnostika fanini tarixi, predmeti, maqsad va vazifalari	2	2	2		
2	Psixodiagnostik metodikalarning tatbiq qilinishi va qo'llanilishi	2	2	2		
3	Sotsiometriya metodi va guruh tomonidan o'zaro baholanish	2	2		2	
4	Sportchining temperament xususiyati va tipologik o'ziga xosligini baholash	2	2	2		
5	Sportchining psixik jarayonlar va uni psixodiagnostikasi	2	2	2		
6	Sportchi shaxsida o'z-o'zini anglash va baholash usullari	2	2		2	
7	Sportda psixik holatlar va uni diagnostikasi	2	2		2	
8	Sport jamoalari yoki guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilish.	2	2		2	
9	Sport faoliyatida tashkilotchilik va boshqaruv jarayonlari psixodiagnostikasi	2	2		2	
10	Psixologiyada tashxis tushunchasi uning mohiyati va rivojlanishi, shakllanish qonuniyatlari	2				2
	Jami:	20	18	8	10	2

NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

1-Mavzu: Psixodiagnostika fanini tarixi, predmeti, maqsad va vazifalari.

Reja

1.1. Psixodiagnostika fanining predmeti, maqsad va vazifalari

1.2. Psixodiagnostika doirasidagi muammolar.

Psixodiagnostika fanining predmeti va vazifalari. Psixodiagnostika

predmetiga oid yondashuvlar. Dastlabki psixodiagnostika tasavvurlar va ularning namoyon bo'lishi. Psixodiagnostikani ijtimoiy tarixiyligi va rivojlanish bosqichlari. Psixodiagnostikaning eksperimental fan sifatida shakllanish qonuniyatlari.

2-Mavzu: Psixodiagnostik metodikalarning tatbiq qilinishi va qo'llanilishi.

Reja

- 2.1. Psixodiagnostik metodikalarning turkumlashuvi
- 2.2. Psixodiagnostik metodikalarning o'rni va samaradorligi.

K.K. Platonovning "Shaxs xaritasi". Shaxs va sport. Faoliyatga nisbatan yo'nalganlik va asosiy ehtiyojlardan qoniqqanlik darajasi tadqiqi. psixodiagnostikaning yuqori hamda kam shakllangan metodikalari. Psixodiagnostikani tashkillashtirish va uni amalga oshirishga aloqador bo'lgan amaliy masalalar haqida tasavvurga ega bo'lishi. Amaliy psixologiyadagi "samara" tushunchasi va uni o'lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi "samara mezon"larining bir-biridan farqini. Amaliy psixologiyaning asosiy aspektlari va yo'nalishlarini. Ilmiy va amaliy psixodiagnostikaning asosiy masalalarini.

3-mavzu. Sportchining temperament xususiyati va tipologik o'ziga xosligini baholash.

Reja

- 3.1. Sportchining temperament xususiyatlari va o'ziga xosligi.
- 3.2. Sportchilarning temperamenti to'g'risida kuzatishlar olib borish.

Sportchining individual-tipologik xususiyatlarini aniqlash. Sport jamoalarida muomala diagnostikasi. Xolerik, sangvenik, flegmatik, melanxologik shaxs tipologiyasi, xarakter, qobiliyat tushunchalari. Shaxs teperamentida muomalaning tarkib topish qonuniyatlari.

4-mavzu. Sportchining psixik jarayonlar va uni psixodiagnostikasi.

Reja

- 4.1. Psixik jarayonlar.

Sportchining psixik jarayonlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq, diqqat, xayol va uni psixodiagnostikasi. Sportda psixodiagnostik tajribalarga qo'yiladigan asosiy talablarni o'zaro farqlash. Psixik va psixomotor jarayonlarni o'lchaydigan testlar va ularning turlarini bir-biridan tafovutlash. Fanga oid psixologik kategoriyalarning mohiyatini tushunish.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

5-Mavzu: Sotsiometriya metodi va guruh tomonidan o'zaro baholanish

Reja

- 5.1. Sotsiometriya metodini qo'llash texnologiyasi
- 5.2. Ijtimoiy munosabatlar diagnostikasi

Sotsiometriya metodi va guruh tomonidan o'zaro baholanish. Ijtimoiy munosabatlar diagnostikasi kontekstida sportchi va murabbiy. Shaxs tomonidan ijtimoiy ta'sirlarning anglanishi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Oilaviy ijtimoiylashuv va uning o'ziga xosligi. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari. Axborot xavfsizligi mohiyati va shaxsni ijtimoiy psixologik himoya qilish muammolari.

6-Mavzu sportchi shaxsida o'z-o'zini anglash va baholash usullari

Reja

- 6.1. Ijtimoiy so'rovnomalar, anketalar va ular bilan ishlash usullari.
- 6.2. Psixologik testlar va uni psixodiagnostikasi. Guruhiy testlar va diagnostik metodlarni qo'llash Psixodiagnostikaga oid testlar va metodikalar. Mustaqil ravishda ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar tuza olish. Tadqiqotlarda olingan natijalarni ilmiy asoslab tahlil qila olish

7-Mavzu sportda psixik holatlar va uni diagnostikasi

Reja

- 7.1. Emotsional holatlar diagnostikasi.
- 7.2. Stress holatlar diagnostikasi.

Psixomotor jarayonlar diagnostikasi. Emotsional holatlar diagnostikasi. Ziddiyatli vaziyatlar sharoitini, stress holatlarini aniqlash va xulq psixogigienasi. Psixologik-pedagogik konsiliumning bosqichlari. Sportchining mavjud psixologik holati va xususiyati haqida qaror qabul qilish

8-Mavzu sport jamoalari yoki guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilish.

Reja

- 8.1. Shaxsda xulq-atvor diagnostikasi
 - 8.2. Sport jamoalari va guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilish
- Sport jamoalari yoki guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilish. Sport faoliyatidagi ehtiyojlar, motivlar va qiziqishlarni tadqiq etish. Sportda ziddiyatli xulq va uni his qilishning yosh va jins xususiyatlarini aniqlash. Guruhiy testlar va diagnostik metodlarni qo'llash. Sport jamoalari yoki guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilish.

9.Mavzu sport faoliyatida tashkilotchilik va boshqaruv jarayonlari psixodiagnostikasi

Reja

- 9.1. Sport faoliyatida boshqaruv psixologiya uni psixodiagnostikasi.
- 9.2. Guruhda lider psixologiyasi va uni aniqlash usullari.

Psixologiyada boshqaruv usullari. Sport faoliyatida tashkilotchilik va boshqaruv jarayonlari psixodiagnostikasi. Guruhda lider psixologiyasi va uni aniqlash usullari. Guruh-Jamoa psixologiyasi unda shaxsning ishtiroki va ijtimoiylashuvi.

MUSTAQIL TAYYORGARLIK

10-mavzu Psixologiyada tashxis tushunchasi uning mohiyati va rivojlanishi, shakllanish qonuniyatlari

Psixologiyada tashxis tushunchasi va uning mohiyati. Psixodiagnostika, uning rivojlanishi va psixologik diagnostikaning shakllanish qonuniyatlari. psixodiagnostikaning yuqori hamda kam shakllangan metodikalari. Psixodiagnostikani tashkillashtirish va uni amalga oshirishga aloqador bo'lgan amaliy masalalar haqida tasavvurga ega bo'lishi. Amaliy psixologiyadagi "samara" tushunchasi va uni o'lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi "samara mezon"larining bir-biridan farqi. Amaliy psixologiyaning asosiy aspektlari va yo'nalishlari.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimediya mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

Interfaol metodlar deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- bolalarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- bolalar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshutilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

“Blis-o'yin” metodi

Metodning maqsadi: Bolalarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq,

ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.
4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. Shundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaqlida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shaqlari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va No'tq tarbiyaining rivojlanishiga yordam beradi.

Psixotrening mashg'ulotlar.

O'zini-o'zi qabul qilish va o'zini boshqalar tomonidan qabul qilinishini anglash xususiyatlari uchun mashqlar

“O'zini- o'zi tanqid” mashqi.

Har bir kishining o'zi haqida mustaqil fikri bor, u o'zining takrorlanmasligi, nodirligi bilan boshqalardan ajratib turadi. Shu bilan birga beixtiyor savol

tugʻiladi: boshqalar ham uning oʻzi haqidagi fikrlarini bilishadimi, boshqalar ham uni oʻzi koʻrganidek koʻradilarmi? Berilgan mashq bu savolga javob topishga yordam beradi. Ishtirokchilar qogʻoz varaqlarini oladilar va unga ishlarini yozadilar va uni uchta vertikal chiziq bilan boʻladilar.

1-grafa: “Men kimman?” 10ta epitet soʻz, javoblar tez yoziladi, miyaga kelgan fikrni qanday boʻlsa shunday ifoda qilinadi.

2-grafa: “Bu savolga sizning ota-onangiz, tanishlaringiz qanday javob bergan boʻlar edilar?” (ulardan bittasini tanlash mumkin).

3-grafa: Xuddi shu savolga guruhdan bir odam javob beradi. Kimligini, ishtirokchini tanlaydi.

Keyin har bir ishtirokchi oʻz varagʻini oladi, javoblarini solishtiradi, bir-biriga oʻxshash joylarini ajratib chiqadi. Xatti-harakatini kuchli tomonlarini ajratib oʻtish mumkin, u uchchala grafada ham takrorlanadi. Mos kelgan soʻzlar hisoblanadi. Mos kelgan soʻzlarning salmogʻi Oʻquvchini qanchalik ochiqligini koʻrsatib beradi.

“Hamkorni tasavvur qilish” mashqi.

Guruhlar juft-juft boʻlib boʻlinadilar (juftlikka notanish boʻlgan Oʻquvchilar birlashadilar). Besh daqiqa mobaynida har bir ishtirokchi oʻz hamkori bilan suhbatda u haqida koʻproq axborotni olishi kerak. Oʻzini-oʻzi taqdim qilishda quyidagi savollarni berishi mumkin: men oʻzimda nimani qadrlayman, men faxrlanadigan narsa, men nimani hammadan yaxshi bajaraman va boshqalar. Taqdimot quyidagicha tartibda oʻtadi: juftlikning bir aʼzosi stulda oʻtiradi, ikkinchisi uning orqasida turadi, birinchi odamning yelkasiga qoʻlini qoʻyib, turgan odam oʻtirgan odam nomidan gapiradi, oʻzini sherigining nomi bilan ataydi. Gapirayotganning vazifasi oʻz taqdimotni bir daqiqa mobaynida gapirib oʻtishi kerak. Oʻtirgan odamni taqdim etib boʻlganidan soʻng guruhdagi hohlagan odamga savol berishi mumkin, bularga esa u oʻtirgan odam nomidan javob beradi. Taqdimot qilinayotgan Oʻquvchi jarayonga qoʻshilishga haqqi yoʻq, uning vazifasi jim oʻtirish va eshitish.

“Rolli oʻyin” metodining toʻzilmasi

“Rolli oʻyin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Taʼlim beruvchi mavzu boʻyicha oʻyinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli oʻyin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. Oʻyinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. Oʻyinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Taʼlim oluvchilar oʻz rollarini ijro etadilar. Boshqa taʼlim oluvchilar ularni koʻzatib turadilar.
5. Oʻyin yakunida taʼlim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Koʻzatuvchi boʻlgan taʼlim oluvchilar oʻz yakuniy mulohazalarini bildiradilar va oʻyinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy t'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, keraqli xulosa chiqarishlari lozim.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU: PSIXODIAGNOSTIKA FANINI TARIXI, PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja

1.1. Psixodiagnostika fanining predmeti, maqsad va vazifalari

1.2. Psixodiagnostika doirasidagi muammolar.

Tayanch iboralar: Psixodiagnostika fanining predmeti va vazifalari. Psixodiagnostika predmetiga oid yondashuvlar. Dastlabki psixodiagnostika tasavvurlar va ularning namoyon bo'lishi. Psixodiagnostikani ijtimoiy tarixiylik va rivojlanish bosqichlari. Psixodiagnostikaning eksperimental fan sifatida shakllanish qonuniyatlari.

1.1. Psixodiagnostika fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Psixodiagnostika – shaxs individual-psixologik xususiyatlarini o'lchash va aniqlash metodlarini ishlab chiquvchi psixologiya fani sohasi. Psixolog Gurevich K.M. fikriga ko'ra, psixodiagnostika – insonlarni psixologik va psixofiziologik belgilariga ko'ra tasniflash hamda farqlash metodlari haqidagi fan. Nemov R.S. ning ta'kidlashicha, psixodiagnostika –bu maxsus bilimlarning shunday sohaski, u individ yoki guruh tomonidan erishilgan psixologik rivojlanish darajasi hamda psixik holat, xususiyatlarni aniq baholashning nazariyasi, metodologiya va metodlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Hozirgi zamon psixologik diagnostikasining maqsadi - insonlar va guruhlar o'rtasidagi psixologik farqlarni qayd qilish hamda yoritib berishdir. Masalan, texnik tafakkur darajasi bo'yicha 12 yoshli bola o'zining tengdoshidan farq qilishi mumkin. Yoki umumlashtirish darajasiga ko'ra, shaharning 30 nafar 5- sinf o'quvchilari qishloq o'quvchilaridan farq qilishini muayyan metodikalar yordamida aniqlash mumkin. Bunda tadqiqotchining vazifasi qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tartibga solish (masalan, o'sib boorish darajasiga ko'ra). Diagnostika qilinayotgan belgilar tadqiqot vazifalaridan kelib chiqib, turlicha psixologik farqlarni o'z ichiga oladi: - Yosh bo'yicha. - Ma'lumotiga ko'ra.

- Madaniy darajasiga ko'ra.

- Psixik holatlariga qarab,

- Genetik, psixofiziologik xususiyatlari bo'yicha.

Amaliy faoliyat turlaridan biri sifatida psixodiagnostika quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Muayyan xususiyatning rivojlanish holatini aniqlash.

2. Uning rivojlanish dinamikasini hamda ma'lum vaqt otalig'ida qayta tuzilishini aniqlash.

3. Individ yoki guruh psixologiyasi hamda xulq-atvorida o'quv-tabiiyaviy ta'sirot natijasida vujudga kelgan real o'zgarishlarni aniqlash.

4. Shaxs xususiyatlari rivojlanish dinamikasi va qonunlarini tahlil qilish asosida uning rivojlanish perspektivasini aniqlash.

5. Tekshirilgan kishilar yoki guruhni kelgusida rivojlanishda erishilgan natijalarni

hisobga olgan holda differentsial tarzda ish olib borish uchun kategoriyalarga ajratish.

6. Individ yoki guruhning (u yoki bu ishni bajarish, masalan, o'z xizmat vazifalarini bajarishga) kasbiy tayyorgarligini, layoqatliligini aniqlash.

7. Individ yoki guruh psixologiyasi va xulq-atvorini psixokorreksiya ishlarni olib borish maqsadida o'rnatilgan tibbiy, ijtimoiy normalarga mos yoki mos emasligini aniqlash.

8. Individ yoki guruhga hayotiy yo'lini (kasb, umr yo'ldoshi) tanlash maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish. Psixodiagnostika-bu insonning individual-psixologiya xususiyatlarini aniqlashga doir turli xil metodlarni ishlab chiqish va ushbu metodlar yordamida psixologik tashxis qo'yish bilan bog'liq bo'lgan fan hamda amaliyotdir.

Diagnostika- tushunchasi grekcha so'z bo'lib, —dia-farq, tafovut, —gnosis-bilish degan ma'noni anglatadi. Amaliy psixolog odatda yangi psixodiagnostik metodikalarni yaratish bilan shug'ullanmaydi. U tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan metodlardan foydalanuvchi hisoblanadi.

Amaliy psixologik psixodiagnostika yordamida quyidagi asosiy vazifalarni hal qiladi:

1. Insonda u yoki bu psixologik xususiyat yoki xulq-atvor xislatlari mavjudligini aniqlash; 2. Mazkur xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlash, uni aniq miqdor va sifat ko'rsatkichlarida ifodalash;

3. Zaruriyat tug'ilgan vaziyatlardagina insondagi diagnostika qilinayotgan psixologik va xulq-atvor xususiyatlarini izohlash;

4. O'rganilayotgan xususiyatlarni turli insonlarda rivojlanganlik darajasini taqqoslash.

Psixodiagnostik metodlarning aksariyat qismi ikki guruhga ekspertga oid (klinik) va standartlashtirilgan testlarga ajratish mumkin. Psixodiagnostikada test bu taxmin qilingan xususiyat egasi sinalluvchida o'tkazilayotgan bir turdagi standartlashtirilgan qisqa topshiriqlar majmuidir. Psixodiagnostika faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxsga qator muhim talablar qo'yiladi. Eng oddiy va muqarrar bo'lgani-bu o'ziga insonlarni jalb qila olish hamda foydalaniladigan psixodiagnostik metodikalar va ularni qo'llash shartlarini mukammal bilishdir. Bundan tashqari psixodiagnostika sohasida faoliyat olib boruvchi har bir psixolog muhim kasbiy axloqiy tamoyillarni bilishi va amal qilishi zarur: -olib boradigan faoliyati uchun shaxsiy javobgarlik tamoyili; -kasbiy sir saqlash tamoyili (ilmiy psixodiagnostik metodikalarni tarqatmaslik); -mahfiylik (konfidensiallik) tamoyili (begonalardan olingan psixologik axborotlarni sir saqlash); -ilmiy asoslanganlik tamoyili (qo'llanilayotgan metodikalar natijalar ishonchliligi, validligi, differensiallashganligi va aniqligi, qo'yilgan talablariga muvofiq bo'lishi kerak); -ob'ektivlik tamoyili (natijalar interpretatsiyasi va xulosalar olingan ko'rsatkichlarga qat'iy muvofiqlikda amalga oshirilishi kerak); -shaxsning mustaqil huquqlarini ta'minlash tamoyili. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: A) psixologik tadqiqotda ishtirok etish ixtiyoriyligi (sud va ibbiy amaliyotdagi alohida vaziyatlardan tashqari); B) natijalarni psixoprofilaktik izohlash (bayon qilish, ifodalash) (ehtiyotkorlik va muloyimlik adekvatlik va tushunarli tilda izohlash,

ekvivalent metodikalardan foydalanishga tayyorlik); V) insonning o'zi anglab yetmagan o'zi haqidagi shunday bir axborotni berish ehtimoli xususida ogohlantirish; G) tadqiqot natijalarini bilish huquqi (bolalar testdan o'tkazilganda ota-onalar ham bunday huquqga ega). Psixodiagnostik metodlar tasnifi ularning umumiy tavsifnomasini va psixologik asoslash. Turli mualliflar psixodiagnostik metodlarni tasniflashning har xil usullarni taklif qilganlar. Jumladan, R.S.Nemov fikriga ko'ra, quyidagilarni ajratish mumkin: -kuzatish (standartlashtirilgan va erkin kuzatish) asosida psixodiagnostika metodlari; -so'rov psixodiagnostik metodlari (ochiq va yopiq turda bo'lishi mumkin.

bo'lgan so'rovnoma shuningdek, bevosita yoki bilvosita savollar, intervyu); -ob'ektiv psixodiagnostik metodlar shu jumladan insonning xulq-atvor reaksiyalari va uning mehnat mahsullari hisobi hamda tahlili; -psixodiagnostikaning eksperimental metodlari. A.G.Shmelev diagnostika metodikalarning quyidagi turlarini asosiy sifatida ko'rsatib o'tadi. Shu o'rinda tasnif uchun asos sifatida —ob'ektivlik sub'ektivlik me'yori xizmat qiladi. -asbob-uskunaga oid psixofiziologik metodikalar; -apparaturaga oid xulq-atvor metodikalari; -javobi tanlanadigan ob'ektiv testlar; -so'rovnoma testlar; -sub'ektiv shkalalashtirish metodikalari; -proektiv metodikalar; -standartlashtirilgan analitik kuzatish; -kontent-analiz (hujjatlarni o'rganish tahlil qilish); -keyinroq reyting shkalalashtirish amalga oshiriladigan ichki kuzatuv; -psixologik suhbat (intervyu); -rolli o'yinlar; -faol (shakllantiruvchi) eksperiment; -faoliyatning sifat tahlili. Psixodiagnostika metodikalaridan foydalanish uchun muhim asos bo'lib, ularning quyidagi talablarga muvofiqligi xizmat qiladi: Differensiallashuvchi imkoniyat-metodika orqali aniqlanuvchi tavovutlar doirasi. Ishonchlilik-olinadigan natijalarning turg'unlik, barqarorlik darajasi. Validlik-metodika xususiyati u nimaga qaratilgan bo'lsa, aynan shuni o'rganishi ya'ni inson xulq-atvor xususiyatlari bilan psixologik ko'rsatkichlar muvofiq kelishidir. Aniqlik-psixodiagnostik tadqiqot jarayonida yuz beradigan baholanayotgan xususiyatdagi eng kam o'zgarishlarga kuchli sezgirlik qobiliyati. Metodikaning me'yor ko'rsatkichlari reprezentativ tanlovdagi faoliyat ya'ni statistik qayta ishlash uchun yetarli bo'lgan miqdordagi sinaluvchila asosida tuzilgan bo'lishi muhim. Yuqorida ta'kidlangan vazifalar amaliy psixodiagnostikaning umumiy vazifalaridir. Ulardan ko'pchiligi u yoki bu darajada maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida turli yosh davridagi bolalar bilan mos tarzda ish olib borish uchun amalga oshiriladi.

Psixodiagnostika – psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fan. —Psixodiagnostika termini dastlab psixiatriyada G.Rorshaxning (1921yil) shu nomli asari nashr etilgach keng qo'llanilib, tez orada tibbiyot sohasi chegaralaridan chiqadi. —Diagnoz termini normal taraqqiyotdan har qanday og'ish va uni aniqlash sifatida tushunila boshlandi. Psixologik diagnoz (—diagnoziz grekcha aniqlash, bilish degan ma'noni anglatadi) – shaxs individual-psixologik xususiyatlarining ayni vaqtdagi holatiga baho berish, rivojlanishni oldindan aytib berish, ya'ni, prognoz qilish va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so'nggi natijasidir. Psixologik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi:

Simptomatik diagnoz empirik diagnoz deb ham ataladi. Bunda tashxis qo'yish muayyan belgi yoki xususiyatlarni ta'kidlash bilan cheklanadi va uning asosida amaliy xulosalar chiqariladi. L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, bunday tashxis ilmiy hisoblanmaydi, chunki belgilarni aniqlash avtomatik tarzda bevosita tashxis qo'yishga olib kelmaydi. Psixologik tashxis rivojlanishining ikkinchi bosqichi etiologik tashxis qo'yish bo'lib, bunda shaxsning muayyan xususiyatlari va belgilarning mavjudligi hisobga olinib qolmay, balki ularni keltirib chiqaruvchi sabablar ham inobatga olinadi. Eng yuqori bosqich – tipologik bosqich hisoblanadi. Bunda qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning shaxs tuzilishidagi o'rni va ahamiyati belgilanadi. Masalan, simptomatik diagnoz: Diqqat yetishmovchiligi sindromi va giperaktivlik. Etiologik diagnoz: Genetik hamda ijtimoiy-psixologik omillar (prenatal, postnatal rivojlanishda – bolaning muddatdan oldin tug'ilishi; toksikoz va infeksiyalar ta'siri; toksik, zaharli moddalar ta'siri; MNT ining buzilishi; gipoksiya va anoksiya, ya'ni vaznning haddan 53 ortiq yoki kam bo'lishi; ota-onalar o'rtasidagi emotsional murakkabliklar; moddiy sharoitlarning og'irligi; psixik deprivatsiya; o'zlashtirmaslik va hokazolar) ta'sirida kelib chiqqan diqqat yetishmovchiligi sindromi va giperaktivlik. Tipologik diagnoz – bu diqqatni to'plashdagi nuqsonlar, diqqatning chalg'ishi, xulq-atvorning impulsivligi, o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi va muammolarga olib keladi. Bunda asotsial yoki muammoli xulq-atvorli shaxs kelib chiqishini prognoz qilish mumkin. Bunday shaxslarda o'z-o'ziga baho berish, xavotirlanishning yuqori darajasi, qo'rquv kuzatilishi mumkin. O'quv muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayoni muayyan ilmiy psixologik bilimlar asosida olib borilishi uchun ta'lim tizimida psixologik diagnostika ishlari tashkil etiladi. Ushbu ishlarni amalga oshirish professional psixologlar, ya'ni psixologiya mutaxassisligi bo'yicha kasbiy tayorgarlikka ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi, chunki ular inson taqdiri, ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq masalalarni hal qilishda ishtirok etadilar. Umuman olganda, inson dunyoga kelgandan to voyaga yetgunga qadar professional psixologlar diqqat markazida bo'lishi zarur bo'lib, bola psixik taraqqiyotini uzluksiz tarzda kuzatib borish talab qilinadi. Buning uchun esa doimiy ravishda psixodiagnostik tekshiruvlar olib borilib, bola psixik taraqqiyotining borishi va xarakteri baholanib boriladi, uning ta'limtarbiyasi uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi va bu tavsiyalarning amalga oshirilishi nazorat qilib boriladi. Psixologik diagnostika psixologik xizmatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining intellektual va shaxsiy imkoniyatlarini, undagi layoqat, qobiliyatlar, qiziqish va mayllarning o'z vaqtida aniqlanishi hamda qo'llanilishini ta'minlaydi. Psixodiagnostik tekshiruv o'quvchi psixik taraqqiyoti rezervlarini aniqlash va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon qilinishini ta'minlashga ham qaratiladi. Agar bola taraqqiyotdan orqada qolayotgan bo'lsa, psixolog uning sabablari va oldini olish imkoniyatlarini o'rganib chiqadi. Iste'dodli bolalar bilan ishlashda psixologning vazifasi – layoqatlarning namoyon bo'lishini aniqlash va ularning yuksak darajadagi qobiliyatlarga aylantirish bo'yicha ish olib borishdan iborat. Ta'lim tizimidagi psixologik xizmatning yana bir murakkab vazifasi – ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish maqsadida uning borishini nazorat qilish, ya'ni pedagogik

jarayonlarni bola psixik taraqqiyoti tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlari asosida, ta'lim-tarbiyaning psixologik nazariyasi asosiy qoidalariga binoan tashkil etilishini ta'minlashdir

Psixodiagnostikaning muhim vazifalaridan yana biri – psixologning pedagogik jarayonda bevosita qatnashuvchilar: o'quvchi, o'qituvchi, ota-onalar, ta'lim muassasalari rahbarlariga amaliy jihatdan ta'sir o'tkazish, ularga ta'lim-tarbiya jarayonida amaliy psixologik yordam ko'rsatishdir. Bunda psixodiagnostika asosiy va eng muhim yo'nalish hisoblanadi, chunki psixologning barcha ishlari psixodiagnostika bo'yicha qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga tayanadi. Psixodiagnostika o'quvchini psixologik jihatdan o'rganish metodlari, testlarni professional darajada qo'llashni ko'zda tutadi. Psixologning vazifasi – o'tkazilgan tekshiruv jarayonida olingan ishonchli va aniq natijalarga asoslanib, o'quvchilar hamda ta'lim tizimida ishtirok etuvchi shaxslar psixologiyasi va xulq-atvorini baholashdan iborat. Psixodiagnostika bilan shug'ullanuvchi psixolog nafaqat u yoki bu psixodiagnostik metodikani amalda qo'llash texnikasini bilishi, balki ularning qanday nazariy asosda vujudga kelganini ham egallashi zarur. Psixodiagnostika mutaxassisi kerak bo'lgan paytda o'zi metodikalar yaratishi, ularni tekshirishi va adaptatsiya (moslashtirish) qilishni bilishi, ularning validligi va ishonchliligini ilmiy baholash usullarini o'zlashtirib olishi lozim. Shuningdek, o'tkazilgan metodika natijalarini ilmiy asosda interpretatsiya qila olishi ham talab etiladi. Psixodiagnostik tadqiqot yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun yetakchi faoliyat turining ta'siriga, individual – tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'ladi. Bola taraqqiyotining har – bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va metodlarini, eksperimental tadqiqotning o'z maqsadlari va vazifalarini talab qiladi. Kichik yoshdagi bolalarni psixodiagnostik tekshiruv yosh va pedagogik psixologiyaning sohasi hisoblanadi. Olingan natijalar yordamchi xarakterga ega bo'lib, pedagog tomonidan bola psixik taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlashda qo'llaniladi, ta'lim - tarbiya dasturi, turli hayotiy sharoitlarda, faoliyat, muloqot jarayonida shaxs xulq – atvori haqida ma'lumotnoma tuzishda xisobga olinadi. Eksperimental tadqiqotdan olingan natijalar oila, ta'lim-tarbiya muassasalari va jamoat joylarida individual va guruhiy tarbiyaviy pedagogik tadbirlar tashkillashtirishda qo'llanilishi mumkin. Shunday qilib, psixodiagnostika ta'lim – tarbiya amaliyotida katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy asoslangan diagnostik metodlarsiz bolaning maktabda o'qishga tayyorligini aniqlash va zarur bo'lganda ularga kerak bo'lgan yordamni berish mumkin emas. Shuningdek, diagnostik metodlarsiz, ta'limning rivojlantiruvchi samarasini kuzatish, o'quvchilarning ayrim fanlardan 55 o'zlashtirishi haqidagi asosli ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin bo'lmaydi, ta'limning turli metodlari, shakl va vositalarining samaradorligini taqqoslab, baholash mumkin emas. Kasbga yo'naltirish ishlarida ham xuddi shunday manzara kuzatiladi. Umumiy va maxsus qobiliyatlar rivojlanish darajasini diagnostika qilmasdan, shaxs turli sifatlarining shakllanish darajasini, o'quvchining o'zlashtirishi xarakterini aniqlamasdan ularga kasb tanlash bo'yicha asosli tavsiyalar berish mumkin bo'lmaydi. Diagnostik metodlarsiz turli xil yosh davrlarida o'quvchi shaxsiy va intellektual taraqqiyoti darajasini aniqlash; o'quvchilarning individual xususiyatlari haqidagi

ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin emas. O'quvchilarning individual xususiyatlarini bilish esa avvalom bor, ularga individual munosabatda bo'lish uchun, ular bilan korreksiya ishlarini olib borish zarur. Maktab psixologining diagnostik ishlari guruh yoki yakka tartibda, individual tarzda olib boriladi. Psixologik diagnostika doirasida psixolog quyidagi ishlarni amalga oshiradi: - psixolog ontogenetik taraqqiyotning muayyan mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida bolalar, o'quvchilarni psixologik tekshiruvdan o'tkazib, ularning rivojlanish darajalarini aniqlash; o'qituvchilarning kasbiy yaroqliligini va layoqatini diagnostika qilish, ularning shaxs xislatlari, irodaviy sifatleri, his-tuyg'ulari, o'z-o'zini boshqarish imkoniyati, intellektual darajasi va pedagogik qobiliyatini tekshiruvdan o'tkazish. - o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqish, mayl, ilk iqtidorligini o'rganish, ularga individual munosabat va yondashishni yo'lga qo'yish, mutaxassis va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam berish; - bolalar, o'quvchilarda uchraydigan o'quv malakalari va ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq-atvordagi kamchiliklar, aqliy taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlar sabablarini diagnostika qilish; - bolalar va o'quvchilarning kattalar va o'z tengdoshlari bilan muomalasi xususiyatini tekshirish, ularning etnopsixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda psixofiziologik metodikalarni muayyan sharoitga moslashtirish; - psixik rivojlanishdagi nuqsonlar mohiyatidan kelib chiqib, boshqa soha mutaxassislari bilan birgalikda tabaqalashgan differensial diagnostikani amalga oshirish; - bolalarda kuzatiladigan nuqsonlarning tibbiy va defektologik tabiatini aniqlash;

- deviant xulq sabablarini va ularning shakllarini o'rganish; - iqtidorli o'quvchilarni tanlash va ular bilan ishlash bo'yicha ilmiy psixologik tavsiyalar ishlab chiqish. Ushbu vazifalarni to'laqonli amalga oshirish psixolog tomonidan psixodiagnostik vositalardan, tadqiqot metodlaridan samarali foydalanish bilan bog'liq

1.2. Psixodiagnostika doirasidagi muammolar.

Psixologik diagnostika fan sifatida XIX asr oxirida eksperimental asosda vujudga keladi. Psixologik diagnostikaning vujudga kelishida F.Galton (1879); J.Cattell (1890); H.Ebbinghaus (1891); A.Binet va V.Henri (1896); A.Binet va Th.Simon (1905)larning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tadqiqotlarda individual farqlarni o'rganishning yangi statistikaga asoslangan quroli - test ishlatila boshlagan. Psixologiyada psixometrik yo'nalish asoschisi F.Galton birinchi marta testlar yaratgan. Dastlabki test aqlni o'lchash metodi sifatida qo'llanildi, keyinchalik esa undan shaxsni, uning reaksiyalarini o'rganishda foydalanila boshlandi. Psixodiagnostikada yangi metodlarni ishlab chiqarish psixiatrik shifoxonalarning ehtiyojlari bilan kuchaytirildi. Keyinchalik esa kasb tanlash ishlari bilan bog'liq psixotexnikaning taraqqiyoti bilan yanada rivojlantirildi. Psixologik diagnostika fan sifatida 1920 yillarda keng shakllana bordi. Shveysariyalik psixolog va psixiatr H.Rorschach (1921)ning «Psixodiagnostika» asari nashr etilishi bilan psixo-diagnostikaga asos solindi. Psixodiagnostika tushunchasi individni o'rganadigan barcha metodlar majmuini o'z ichiga oladi. Bu kitobning nashr etilishi bilan psixologik diagnostika taraqqiyotida yangi davr boshlandi, bu psixometriyadagi yangi shaxsni o'rganish

metodlari bo‘lmish proektiv metodlar bilan bog‘lantan edi. Proektiv psixologiya bir butun shaxsni o‘rganish mumkin emas, deb talqin qiluvchi psixometrik nukta nazar va bixeviorizmga qarshi e‘tiroz bildiruvchi fan sifatida rivojlana boshladi. Keyinchalik psixodiagnostikada yangi metodlar yaratilishi bilan birga birlashtirilgan (kombinatsiya qilingan) testlar qo‘llanila boshlandi. Masalan, akdni o‘rganish metodlari orasida amerikalik psixolog D.Wechsler (1939,1955)ning subtestlari keng tarqaldi. Yangi proektiv metodlar ham yaratilib, keng qo‘llanila boshlandi. (amerikalik psixolog G.Murray (1935, 1943)ning Tematik Appersepshon Testi (TAT), nemis psixologi S.Roslnwlig ning frustratsiyaga bo‘lgan reaksiyani o‘rganish bo‘yicha testi va boshqalar.) Shaxsiy savolnomalar (MMPI, 16 PF) keng tarqaldi. Sobiq sovet psixologiyasida diagnostik metodlardan foydalanish o‘z tarixiga ega. Bu jarayonda shartli ravishda 2 boskichni ajratish mumkin. Birinchi bosqich 20 yillarning boshidan 30 yillarning o‘rgasigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda pedagogika va psixotexnikada test metodlari keng tarqaldi. Bunga bog‘liq ravishda pedagogiya - bola haqidagi fan rivojlana boshlandi. Uning predmeti bolalar hayotini o‘rganish, irsiyatning rolini aniqlash, jismoniy va ma‘naviy taraqqiyot qonunlarini aniqlash, bolalar psixikasida kasallik ko‘rinishlarini o‘rganishdan iborat (K.N.Kornilov, 1917 y.) Bu davrda psixologik diagnostikaning rivojlanishida M.S.Bernshteyn, L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.G.Gellershteyn, N.D.Levitov, G.I.Rossolimo, P.I.Shpilreyn, A.M.Shubert va boshqalar katta hissa qo‘shdilar. Olimlar tomonidan ilgari surilgan qator ilg‘or fikrlar keyinchalik rivojlantirilmadi, chunki 1936 yildan keyin bu sohadagi barcha tadqiqotlar to‘xtatildi va psixodiagnostikaning keyingi rivojlanishiga jiddiy to‘siq yuzaga keldi. Mashhur rus psixologi L.S.Vigotskiy shaxs psixik taraqqiyoti xususiyatlarini o‘rganishga muhim hissa qo‘shdi. Uning ta‘limoti insonga xos bo‘lgan psixik jarayonlar va inson ongining tarixiy rivojlanishiga bag‘ishlandi. Uning fikricha, bola-lar psixik taraqqiyoti insoniyat madaniyatini o‘zlashtirishi natijasida ro‘y beradi. Bunda shaxs shakllanishida ta‘lim va tarbiya jarayonlari yetakchi rol o‘ynaydi. Psixodiagnostikaning rivojlanishidagi ikkinchi bosqich 50-60 yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda aqliy taraqqiyotni o‘rganishga katta e‘tibor berildi. Jumladan, A.A.Lyublinskaya tadqiqotlarida nutq va uning funksiyalarining rivojlanish xususiyatlari o‘rganilgan. A.R.Luriya rahbarligida faoliyatni boshqarishda nutqning roli o‘rganildi. A.N. Leontev va A.V. Zaporojes rahbarligida asosiy psixik jarayonlarning rivojlanishida faoliyatning roli o‘rganilgan. D.B.Elkonin rahbarligida nutqning rivojlanishi va bog‘cha davrida o‘yinning yetakchi faoliyat turi sifatidagi roli aniqlandi. Bu tadqiqotlardan olingan natijalar bolalar uchun ta‘lim va tarbiya dasturlarini tuzishda asos bo‘lib hizmat qiladi. Rus psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan aqliy taraqqiyotni sifatiiy tahlil qilish tamoyili qator vazifalarni hal qilishda o‘z mahsuldorligini namoyon qildi va ko‘pgina tadqiqotlarda o‘z aksini topdi (Z.I.Kalmikova, 1975, 1982; G.A.Vardanyan, 1979; L.A.Venger, 1974; K.M.Gurevich, 1980; V.I.Voytko, Yu.Z.Gilbuh 1981; D.B.Elkonin, 1982; V.V.Stolin, A.G.Shmelev, 1987; L.F.Burlachuq S.M.Morozov, 1989 va boshqalar). Psixologik diagnostikaga kichik amaliy yo‘nalish xos bo‘lib, u yoki bu hodisalarni bilishga va tavsiflashga qaratilgan. B.G.Ananev (1968) psixologik diagnostikani

psixologik tadqiqotlarga qaratilgan yoʻnalish, deb taʼriflab, uning maqsadi, psixofiziologik funksiyalar, jarayonlar va shaxs xususiyatlari rivojlanish darajasini aniqlash, turli qoʻzgʻatuvchilar taʼsir qilganda inson holatini bilish, insonning mehnat qobiliyatini, layoqatini aniqlashdan iborat. K.K.Platonov (1974) psixologik diagnostikani psixik hodisalarning xossa va xususiyatlarini oʻrganish haqidagi fan, deb hisoblagan. K.N.Gurevich (1974) insonlarni psixologik va psixofiziologik belgilari boʻyicha ajratish va tavsiflash metodlari haqidagi fan deb xisoblaydi. V.V.Stolin va A.G.Shmelev (1984) psixodiagnostikani psixologik diagnoz qoʻyish haqidagi fan deb xisoblaydi. Diagnoz (tashxiz) - sinaluvchining alohida koʻrsatkich va xarakteristikalarini chuqur tahlil qilish asosida uning xususiyati va holati haqidagi xulosadir. Shu bilan birga psixodiagnostik tadqiqot, eksperimental tadqiqotdan tubdan farq qiladi. Psixodiagnostik tadqiqotda aniq individ yoki individlar guruhi haqida maʼlumot olinadi, eksperimental tadqiqotda nazariy fa-raz tekshiriladi. Shuning hisobiga psixodiagnostika maxsus metodik tamoyillarga boʻysunadi. Lekin psixologik diagnostikaga turlicha taʼrif berishlariga qaramasdan, uning asosiy tushunchasi «psixologik diagnoz» tushunchasi boʻlib qoladi. Hayotda biz kasalxonalarda turli kasalliklarga diagnoz (tashhiz) koʻyishlariga oʻrganib qolganmiz. Bunda tashhizning toʻgʻriligi tekshirishning turli klinik metodlardan foydalanishga bogʻliq boʻladi. Qator hollarda bunday diagnostika murakkab apparaturali test metodlaridan foydalangandan keyingina mumkin boʻladi. Eksperimental diagnostikada ham tadqiqotchi turli metodlar, apparaturali testlar qoʻllaydi. Olingan maʼlumotlar asosida psixolog sinaluvchini xulq-atvori, faoliyati haqida xulosa chiqaradi, yaʼni shaxsga psixologik diagnoz qoʻyadi. Psixologik diagnoz koʻyishning umumiy sharoitlariga aloqador asosiy mezonlarni ajratib koʻrsatish mumkin: psixologik diagnoz insonga xos boʻlgan maxsus hodisa va xususiyatlarni ochib berishi kerak; har qanday diagnoz olingan natijalarni bayon qilishi bilan chegaralanmasligi, u yoki bu belgining vujudga kelish sababi, oqibati, keyingi rivojlanishi ham qoʻshilishi kerak. Bu davrda psixologik diagnostikaning rivojlanishida M.S.Bernshteyn, L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.G.Gellershteyn, N.D.Levitov, G.I.Rossolimo, P.I.Shpilreyn, A.M.Shubert va boshqalar katta hissa qoʻshdilar. Olimlar tomonidan ilgari surilgan qator ilgʻor fikrlar keyinchalik rivojlantirilmadi, chunki 1936 yildan keyin bu sohadagi barcha tadqiqotlar toʻxtatildi va psixodiagnostikaning keyingi rivojlanishiga jiddiy toʻsiq yuzaga keldi. Mashhur rus psixologi L.S.Vigotskiy shaxs psixik taraqqiyoti xususiyatlarini oʻrganishga muhim hissa qoʻshdi. Uning taʼlimoti insonga xos boʻlgan psixik jarayonlar va inson ongining tarixiy rivojlanishiga bagʻishlandi. Uning fikricha, bola-lar psixik taraqqiyoti insoniyat madaniyatini oʻzlashtirishi nati-jasida roʻy beradi. Bunda shaxs shakllanishida taʼlim va tarbiya jarayonlari yetakchi rol oʻynaydi. Psixodiagnostikaning rivojlanishidagi ikkinchi bosqich 50-60 yillarga toʻgʻri keladi. Bu davrda aqliy taraqqiyotni oʻrganishga katta eʼtibor berildi. Jumladan, A.A.Lyublinskaya tadqiqotlarida nutq va uning funksiyalarining rivojlanish xusu-siyatlari oʻrganilgan. A.R.Luriya rahbarligida faoliyatni boshqarishda nutqning roli oʻrganildi. A.N. Leontev va A.V .Zaporojes rahbarligida asosiy psixik jarayonlarning rivojlanishida faoliyatning roli oʻrganilgan. D.B.Elkonin rahbarligida nutqning rivojlanishi va bogʻcha davrida

o'yinning yetakchi faoliyat turi sifatidagi roli aniqlandi. Bu tadqiqotlardan olingan natijalar bolalar uchun ta'lim va tarbiya dasturlarini tuzishda asos bo'lib hizmat qiladi. Rus psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan aqliy taraqqiyotni sifatiiy tahlil qilish tamoyili qator vazifalarni hal qilishda o'z mahsuldorligini namoyon qildi va ko'pgina tadqiqotlarda o'z aksini topdi (Z.I.Kalmikova, 1975, 1982; G.A.Vardanyan, 1979; L.A.Venger, 1974; K.M.Gurevich, 1980; V.I.Voytko, Yu.Z.Gilbuh 1981; D.B.Elkonin, 1982; V.V.Stolin, A.G.Shmelev, 1987; L.F.Burlachuk S.M.Morozov, 1989 va boshqalar). Psixologik diagnostikaga kichik amaliy yo'nalish xos bo'lib, u yoki bu hodisalarni bilishga va tavsiflashga qaratilgan. B.G.Ananov (1968) psixologik diagnostikani psixologik tadqiqotlarga qaratilgan yo'nalish, deb ta'riflab, uning maqsadi, psixofiziologik funksiyalar, jarayonlar va shaxs xususiyatlari rivojlanish darajasini aniqlash, turli qo'zg'atuvchilar ta'sir qilganda inson holatini bilish, insonning mehnat qobiliyatini, layoqatini aniqlashdan iborat. K.K.Platonov (1974) psixologik diagnostikani psixik hodisalarning xossa va xususiyatlarini o'rganish haqidagi fan, deb hisoblagan. K.N.Gurevich (1974) insonlarni psixologik va psixofiziologik belgilari bo'yicha ajratish va tavsiflash metodlari haqidagi fan deb xisoblaydi. V.V.Stolin va A.G.Shmelev (1984) psixodiagnostikani psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fan deb hisoblaydi. Diagnoz (tashxiz) - sinaluvchining alohida ko'rsatkich va xarakteristikalarini chuqur tahlil qilish asosida uning xususiyati va holati haqidagi xulosadir. Shu bilan birga psixodiagnostik tadqiqot, eksperimental tadqiqotdan tubdan farq qiladi. Psixodiagnostik tadqiqotda aniq individ yoki individlar guruhi haqida ma'lumot olinadi, eksperimental tadqiqotda nazariy faraz tekshiriladi. Shuning hisobiga psixodiagnostika maxsus metodik tamoyillarga bo'ysunadi. Tadqiqot o'tkazish uchun eksperimental metodikalarni tanlashda quyidagilarni e'tiborga olish zarur: a) tadqiqot maqsadi - psixik taraqqiyot darajasini aniqlash, uning yoshiga, ma'lumotiga mosligi, shaxs xususiyatlarini aniqlash; b) sinaluvchining yoshi va uning hayot tajribasi, uning ta'lim va tarbiyasi amalga oshirilayotgan sharoit; v) bolaning eksperimental tadqiqotga moslashishi, muloqotga kirishishi, verbal aloqa o'rnatish hususiyatlari. Tanlangan eksperimental psixologik metodikalarni bolaga qiyinligi o'sib borish darajasida berish kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovanie: Kniga 2; Per. s angl./ Pod red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo. - M.; Pedagogika, 1982.-336 s.
2. Burlachuk L.F., Morozov S.M. Slovar-spravochnik po psixodiagnostike – SPb.: Piter Kom, 1999.- 528 s.
3. Romanova Ye.S. Psixodiagnostika: Uchebnoe posobie.- SPb.: Piter, 2005.- 400 s
6. Rogov Ye.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa: Ucheb.posobie: V 2-kn.- M.: Izd-vo Vlados-PRESS, 2002

Nazorat savollari

1. Psixologik dignostikaning maqsad va vazifalari?
2. Psixodiagnostika doirasidagi muammolar nimalardan iborat?
3. Psixodiagnostika yo'nalishida sport psixologi qanday vazifalarni amalga oshiradi?
4. Psixodiagnostik metodikalar qanday tasnif qilinadi?

5. Diagnostik kuyish boskich turlarini nomlarini ayting va ular xakida tushuncha bering?
6. Xozirgi davrda psixodiagnostika fanining rivojlanishiga uz xissalarini kushgan psixologlarning nomlarini keltiring?
7. Akliy ish kobilyatining yetarlicha davomiyligi xakida tushuncha bering?
8. Eksperimental-psixologik tadkikotni utkazish usullari xakida nimalarni bilasiz?

2-MAVZU: PSIXODIAGNOSTIK METODIKALARNING TATBIQ QILINISHI VA QO‘LLANILISHI.

Reja

- 2.1. Psixodiagnostik metodikalarning turkumlashuvi
- 2.2. Psixodiagnostik metodikalarning o‘rni va samaradorligi.

Tayan so‘zlar: K.K. Platonovning “Shaxs xaritasi”. Shaxs va sport. Faoliyatga nisbatan yo‘nalganlik va asosiy ehtiyojlardan qoniqqanlik darajasi tadqiqi.

psixodiagnostikaning yuqori hamda kam shakllangan metodikalari. Psixodiagnostikani tashkillashtirish va uni amalga oshirishga aloqador bo‘lgan amaliy masalalar haqida tasavvurga ega bo‘lishi. Amaliy psixologiyadagi “samara” tushunchasi va uni o‘lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi “samara mezon”larining bir-biridan farqini. Amaliy psixologiyaning asosiy aspektlari va yo‘nalishlarini. Ilmiy va amaliy psixodiagnostikaning asosiy masalalarini.

2.1. Psixodiagnostik metodikalarning turkumlashuvi

Hozirgi vaqtda bir qator psixodiagnostik metodikalar klassifikatsiyalari mavjud. Bunda turli olimlarning metodikalar tasnifi masalasiga bo‘lgan qarashlarini ko‘rish mumkin. Rus psixologlari Bodalev A.A., Stolin V.V. psixodiagnostik metodikalarni quyidagi tasnifini taklif etadilar. Birinchidan, diagnostik metodlarni to‘g‘ri javob talab qiluvchi topshiriqlarga yoki nisbatan to‘g‘ri javob mavjud bo‘lmagan topshiriqlarga asoslangan metodlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga ko‘plab intellekt testlari, maxsus qobiliyatlar testlari, bir qator shaxsiy xususiyatlar testlari (misol uchun, Raven testi, Uitkinning yarim tobelikyarim mustaqillikni aniqlash diagnostik protsedurasi, Luchins rigidlik testi va h. k.) kiradi. Diagnostik metodikalarning ikkinchi guruhi u yoki bu javobning to‘g‘riligi bilan emas, balki faqat chastotasi (va yo‘nalishi) bilan tavsiflanuvchi topshiriqlardan tarkib topadi. Bunga ko‘plab shaxs so‘rovnomalari misol bo‘ladi (misol uchun, R. Kettelning 16PF testi). Ikkinchidan, psixodiagnostik metodikalarni verbal va noverbal metodikalarga ajratish mumkin. Verbal metodikalar u yoki bu tarzda sinaluvchining nutqiy faolligi vositasida ifodalanadi; ushbu metodikalar tarkibiy qismlari xotira, xayol, ishonchlar tizimiga ularning tildagi shakli vositasida murojaat qiladi. Noverbal metodikalar sinaluvchi nutqiy qobiliyatidan faqatgina instruksiyani tushunish maqsadida foydalanadi, topshiriqni bajarishning o‘zi esa noverbal-perseptiv, motor qobiliyatlarga tayanadi. Psixodiagnostik metodikalar klassifikatsiyasi uchun foydalaniladigan uchinchi asos - bu muayyan metodika asosida yotuvchi asosiy metodik tamoyil xarakteristikasi

hisoblanadi. Odatda ular ushbu asosga ko‘ra farqlanadi:

- 1) ob‘ektiv testlar;
- 2) standartlashgan o‘zi haqidagi hisobotlar, ular o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi:
 - a) test-so‘rovnomalar;
 - b) natijalarni kontent-analiz qilishni talab etuvchi ochiq so‘rovnomalar;
 - c) Ch. Osgudning semantik differensial testi kabi tuziladigan shkalaviy texnikalar va tasniflash metodikalari;
 - d) rolli repertuar panjaralar tipidagi individual yo‘naltirilgan texnikalar;
- 3) proektiv texnikalar;
- 4) dialogik (interaktiv) texnikalar (suhbatlar, intervyular, diagnostik o‘yinlar). Ob‘ektiv testlar- to‘g‘ri javob, ya‘ni topshiriqni to‘g‘ri bajarish imkoni bor metodikalardir. Standartlashgan o‘zi haqida hisobot beruvchi metodikalarining barchasi uchun umumiy jihat sinaluvchining verbal qobiliyatlaridan foydalanish, shuningdek uning tafakkuri, xayoli, xotirasiga murojaat etish hisoblanadi.

Test- so‘rovnomalar sinaluvchi yuzasidan mulohaza hosil qiluvchi punktlar (savollar, tasdiqlar) to‘plamidan iborat bo‘ladi (odatda, javoblarning ikki yoki uch muqobilli tanlovidan foydalaniladi). Test-so‘rovnomalar punktlari oshkora, bevosita sub‘ekt tajribasiga murojaat qiluvchi (masalan: Siz qorong‘ulikdan qo‘rqasizmi?) yoki sinaluvchi shaxsiy tajribasi yoki taassuroti bilvosita namoyon bo‘luvchi uning fikrlari mulohazalariga murojaat etuvchi (misol uchun, Ko‘pchilik insonlar halolmi?) bo‘lishi mumkin. So‘rovnomalar bir o‘lchovli yoki o‘z ichiga ko‘plab psixologik o‘zgaruvchilar safini qamrab oluvchi ko‘p o‘lchovli qilib yaratiladi. Ochiq so‘rovnomalar sinaluvchining standartlashgan javobini ko‘zda tutmaydi; ishlov standartizatsiyasiga standart kategoriyalarga ixtiyoriy javoblarni solishtirish yo‘li bilan erishiladi. Shkalaviy texnikalar u yoki bu ob‘ekt (so‘zli tasdiqlar, tasviriy materiallar, muayyan shaxs va h.k) ni uning shkalada taqdim etilgan sifati bo‘yicha (misol uchun, issiq - sovuq, kuchli - zaif) baholashni nazarda tutadi. Odatda uch, besh, yetti nuqtali shkalalardan foydalaniladi. Shkalalashtirishning maxsus varianti - bu nomlar shkalasi darajasida ob‘ektlarning sub‘ektiv tuzilish hosil qilishini aniqlashni ko‘zda tutuvchi sub‘ektiv klassifikatsiya hisoblanadi. Repertuar panjaralar tipidagi individual-orientatsiyalangan (ideografik) texnikalar shakli bo‘yicha shkalaviy, so‘rov metodlari bilan o‘xshash bo‘lishi, suhbat yoki intervyuni esga solishi mumkin. Ularning testso‘rovnomalardan asosiy farqi shundan iboratki, baholanayotgan parametrlar (o‘qlar, o‘lchovlar, konstruktlar) tashqaridan olinmaydi, balki muayyan aniq sinaluvchi individual javoblari asosida belgilanadi. Bu metodlarning intervyu metodidan farqi shundaki, repertuar panjaralar zamonaviy statistik apparatni qo‘llash imkonini beradi va sub‘ektning individual o‘ziga xosliklari yuzasidan ishonchli diagnostik xulosalar beradi.

Proektiv texnikalar stimulyat sifati taqdim etiluvchi yetarlicha tugallanmagan materialga muvofiq tashkil etilgan butun eksperimentda maqsadli tarzda sub‘ektning u yoki bu xususiyatini ochib beruvchi tasavvur, xayol jarayonlariga sabab bo‘lishiga asoslanadi. Proektiv texnikalardan klinik foydalanishda ko‘p hollarda ma‘lumotlarni interpretatsiya qilish jarayonida zarur bo‘ladigan

psixodiagnost ko'rsatmasi va nazariy tayyorgarligiga tayaniladi. Odatda proektiv texnikalardan tadqiqotchilik maqsadlarida foydalanish ma'lumotlar ishlovini standartlashtiruvchi kontent-analiz protsedurasini ko'zda tutadi. Dialogik texnikalar psixodiagnost sinaluvchi bilan aloqaga kirishi va ushbu aloqaning maxsus xususiyatlari, relevant diagnostik vazifa hisobidan eng yaxshi diagnostik natijalarga erishishini hisobga oladi. Misol uchun, ishonchli aloqa oilaviy qiyinchiliklar, bolaning shaxsiy rivojlanishi xarakteri diagnostikasida va diagnost bir vaqtning o'zida ham konsultant, ham psixoterapevt rovida namoyon bo'ladigan boshqa ko'plab vaziyatlarda zarurdir. Dialogik texnikalar verbal (intervyu, suhbat) va noverbal (masalan, bola bilan o'ynash noverbal diagnostik protsedura vazifasini bajarishi mumkin) bo'lishi mumkin. Agar klassifikatsiyaning yagona asosi sifatida psixodiagnostni o'zining diagnostika jarayoniga jalb etilishi va uning tadqiqot natijalariga ta'siri darajasini o'lchovi qabul qilinsa, unda bu tasnif asosiga u yoki bu metodika yaratiladigan turfa xil metodik usullarni bir shkalaga joylashtirish mumkin. Apparaturaviy metodikalar va ob'ektiv psixologik testlarda psixodiagnost psixodiagnostika jarayoniga juda kam jalb etiladi, bunda psixodiagnostning shaxs va psixolog sifatidagi tajribasining tadqiqot natijalariga ta'siri minimal darajada bo'ladi. Bir qator standartlashgan o'zi haqida hisob(ma'lumot) beruvchi shakllariga ega ko'plab so'rovnomalar va shkalaviy texnikalarda deyarli shunday darajada kam psixodiagnost jarayonga jalb etilishi kuzatiladi. Aytish mumkinki, psixologning shaxsiy sifatleri metodikani yaratish jarayonida gavdalanadi; tadqiqot protsedurasining o'zi, uning natijalarini qayd etish asosan psixolog bo'lmagan laborant yoki kompyuter dasturi yordamida bajarilishi mumkin bo'lgan erkin operatsiya bo'ladi. Aksincha, diagnostik texnikalar psixodiagnostika jarayoniga psixodiagnostning maksimal darajada jalb etilishi, uning tajribasi, professional ko'nikmalari, muloqot qilish xususiyatlarining tadqiqot natijalariga maksimal ta'siri bilan tavsiflanadi. Bu sifatlariga suhbat, intervyu diagnostik o'yinlar turli ko'rinishlari ega bo'ladi. Misol uchun, patopsixologik eksperiment maxsus psixodiagnostik metod sifatida psixodiagnost jalb etilishining yuksak darajasi bilan tavsiflanadi: ekspertiza —motivli yaratilishi lozim (sinaluvchi uning javoblari asosida u uchun muhim diagnostik xulosa qilinishini tushunishi lozim), alohida urinishlar natijalari bu motiv qanchalik ifodalanishiga (psixodiagnost fikriga ko'ra) bog'liq ravishda interpretatsiya qilinadi. Psixologik konsultatsiya jarayonida mijoz bilan suhbat natijasida kelib chiquvchi diagnostik xulosaga psixodiagnostning ta'siri ancha jiddiydir. O'z reaksiyalari, javobga nisbatan beradigan luqmalari, harakatlari bilan psixodiagnost muhim diagnostik ahamiyatga ega ma'lumotlar olish uchun optimal sharoit yaratishi mumkin, shuningdek, bu ma'lumotni, uning ma'nosini tamoman buzib yuborishi ham mumkin. Barcha boshqa psixodiagnostik metodikalar ob'ektiv testlar va diagnostik texnikalar tashkil etadigan ikki qutb orasidagi oraliq o'rinni band etishadi. Agar bir vaqtning o'zida ikki asos - bir tomondan, psixodiagnostning jalb qilinishi, uning tadqiqot natijalariga ta'siri o'lchovi, boshqa tomondan esa-instrumentning predmetli yo'nalganligi kiritilsa, unda bugungi kunda ma'lum bo'lgan psixodiagnostik metodikalarni ikki o'lchovli klassifikatsion jadvalga joylashtirish mumkin. Mos keluvchi metodikalar jadval kataklariga joylashadi, shu bilan birga ustunlar jadval qatori bo'yicha tengsiz

tarzda to'ldiriladi. Misol uchun, qobiliyat va psixik funksiyalar psixodiagnost ta'siri minimal darajada ifodalanadigan metodlar-ob'ektiv testlar va test-so'rovnomalar asosida diagnostika qilinadi. Shaxs xususiyatlari asosan test-so'rovnomalar bilan diagnostika qilinadi; kognitiv tuzilma, boshqa individual xususiyatlar asosan o'rtacha darajadagi (psixodiagnostning diagnostika jarayoniga ta'sir darajasi bo'yicha) metodikalar-repertuar panjaralar, proektiv texnikalar bilan aniqlanadi. Motivatsiya, munosabatlar asosan proektiv texnikalar bilan diagnostika qilinadi. Psixodiagnost jalb qilinishi maksimal darajada bo'lgan dialogik metodikalar roli o'zaro munosabatlar, muloqot (aktuallashtirish uchun muloqotning real vaziyatini qayta tiklashni talab etuvchi xususiyatlar) diagnostikasi sohasida g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Psixologik-pedagogik tashxisning vazifalari: 6-7 yoshdagi bolalarning boshlang'ich sinflarda o'qishga tayyorgarligini o'rganish maqsadida ularning psixologik rivojlanishi va qobiliyatlarini aniqlash; 60 ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablariga qabul qilishda o'quvchilarning bilish va boshqa maxsus qobiliyatlarini aniqlash hamda baholash; turli psixologik tashxis metodikalari yordamida o'quvchilar bilan testsinovlari o'tkazish va suhbatlashish, natijalarni maktabda ta'lim olish davri mobaynida Psixologik-pedagogik tashxis daftari da qayd etib borish; o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar)ning iqtidori va potensial qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish maqsadida ulardagi iqtidorni tashxis qilish orqali aniqlash; umumta'lim muassasalari o'quvchilari va bitiruvchilarining kasb-hunar, mutaxassislik va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim yo'nalishini (kasb-hunar kolleji va akademik litsey) tanlashida ularning qiziqishi, layoqati va bilish qobiliyatlarini aniqlash; tarbiyasi og'ir bolalar va o'smirlar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish, ularni tarbiyalash, maktab hamda ijtimoiy muhitga moslashishini ta'minlash maqsadida individual-psixologik va shaxs xususiyatlarini aniqlash; tashxis natijalari bilan o'quvchilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillar, pedagoglarni tanishtirish, shaxsning ongli ravishda kasb-hunar tanlashini shakllantirish va rivojlantirishda ularga buning ahamiyatini tushuntirish; shaxsiy muammolarning yechimini topish va ularga zarur psixologik yordam ko'rsatish maqsadida ota-onalar yoki qonuniy vakillar, pedagoglar (ularning roziligi bilan) bilan tashxis ishlarini olib borish. Psixologik diagnostika, bu faoliyat turining maqsadi bolalikning barcha maktabgacha va maktab davrida bolani chuqurlashtirilgan psixologikpedagogik o'rganish, shaxsiy xususiyatlarini ochib berish, o'quv va rivojlanishdagi nuqsonlarning sabablarini aniqlashdir o'quvchilarning qiziqish, qobiliyat va iqtidorini diagnostikalash, maxsus sinflar, ixtisosga yo'naltiruvchi dasturlar tuzishda o'qituvchilarga yordamlashish, davra suhbatlarini tashkil etish; Iqtidorli va iste'dodli bolalarni aniqlash va rivojlantirish ishlarini tashkil etish hamda fan o'qituvchilari va ota-onalarga tavsiyalar berish. Psixologik diagnostika bo'yicha psixolog har bir voqea, hodisa, jarayon, holatlar asl sababini o'rganuvchi va shu asosda taklif hamda mulohazalarni tavsiya etuvchidir. O'quvchilarning shaxsiy va intellektual jihatdan rivojlanishini, ta'lim va tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni, ularning qobiliyat, qiziqish va layoqatlarini hamda kasb-hunarga moyilliklarini psixologik diagnostika yordamida aniqlaydi. Mavjud kamchilik va buzilishlarning oldini olish bo'yicha maslahat va tavsiyalar

ishlab chiqadi. Agar diagnostika guruhda o'tkazilayotgan bo'lsa, u holda jurnalning 2-grafasida guruh kategoriyasi ko'rsatiladi (masalan: 6—B sinf) va diagnostikadan o'quvchilar ro'yxati ilova qilinadi. Diagnostika metodikalarini psixolog ish tajribasidan kelib chiqib bilimlariga tayangan holda o'z nuqtai nazariga ko'ra tanlaydi. Odatda diagnostika jarayonida bir nechta metodlar qo'llaniladi. Qaysi metodikalardan eng ko'p qo'llanilsa, qayd etish jurnalida (Namunalarda berilgan ilovalarga qarab to'ldiriladi) amalga oshirgan ishlari belgilab boriladi. Shuningdek, umumta'lim maktablarining 1-sinflariga qabul qilingan bolalarning umumetuklik darajasi, yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, aqliy o'zgarishlar, shaxs rivojlanishidagi sifat ko'rsatkichlar, 4-sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishidagi sifat o'zgarishlar, 5-sinf o'quvchilarining yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, o'quv faoliyati, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasi (qobiliyat), shaxs sifatleri, shaxslararo munosabatlar, 9-sinf o'quvchilarining kasbiy qiziqishi, qobiliyat va moyilliklari o'rganiladi. Ish turlarini qayd etish jurnalni yuritish bo'yicha tavsiyalar. Ish turlarini qayd etish jurnali psixolog tomonidan ta'lim muassasasida amalga oshirilayotgan kundalik turli xil tadbirlarni kuzatib borish imkoniyatini beradi. Jurnal hujjat bo'lib hisoblanib, ma'muriyat ta'lim muassasasi amaliyotchi psixolog faoliyatini nazorat qiladi. Jurnalda har bir faoliyat turi bo'yicha: psixologik profilaktika, psixologik targ'ibot, psixologik diagnostika, psixologik korreksiya va rivojlantirish, psixologik konsultatsiya, kasb-hunarga yo'naltirish va tashkiliy-metodik faoliyat uchun ma'lum bir sahifalar sonini ajratish taklif etiladi. Amalga oshirilgan ishlarni yozib borishni quyida berilgan shakllarda olib borish mumkin. Taklif etilayotgan shakllar faoliyatni taxlil etish uchun psixolog uchun zurrur bo'lgan boshqa informatsiyalarga ham ega bo'lishi mumkin.

Agar psixologik-pedagogik diagnostika guruhiy tarzda o'tkazilayotgan bo'lsa, u holda jurnalning 2- grafasida guruh kategoriyasi ko'rsatiladi (masalan : 6- —B sinf) va o'quvchilar ro'yxati ilova qilinadi. Psixologik-pedagogik tashxis metodikalarini psixolog o'z xoxishiga, o'z nuqtai nazariga ko'ra tanlaydi. Odatda tashxis jarayonida bir nechta metodlar qo'llaniladi. Taklif etilayotgan faoliyatni qayd etish shaklida aynan qaysi metodikalardan foydalanilganligini ko'rsatish shart emas. Lekin shu vaqtning o'zida eng ko'p qo'llaniladigan metodikalarni qayd etish alohida shaklga ega bo'lish tavsiya etiladi.

«Validlik» - atamasi yevrotillardan olingan bo'lib, u quyidagi ma'noni anglatadi: «to'laqonli», «yaroqli», «mos». Psixodiagnostik metodikaning validlik sifatidagi tavsifi uning aynan o'rganilayotgan psixologik xususiyatga mo'ljallanganligi va ushbu psixologik xususiyatni baholashga mosligi hamda yaroqligini ko'rsatib beradi. Barcha metodlarni L.F.Burlachuk bo'yicha tadqiqotchilik va diagnostik metodlarga ajratish mumkin. Tadqiqotchilik metodlari o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

- Noeksperimental metodlar.
- Eksperimental metodlar.

Noeksperimental metodlarga kuzatish, suhbat, faoliyat mahsulini o'rganish metodlarini kiritish mumkin. Eksperimental metodlar tadqiq qilinayotgan omillarni o'rganish uchun maqsadga qaratilgan sharoitlarni yaratishga asoslanadi va

tadqiqotchining sinaluvchi faoliyatiga faol tarzda aralashish imkoniyatini beradi. Ushbu metod negizida psixologiyada an'anaviy bo'lgan ko'p sonli laboratoriya va tabiiy eksperiment metodikalari yaratiladi. Psixodiagnostik metodning asosiy xususiyati uning o'lchash-tekshirish xarakterda ekanligida bo'lib, shu tufayli o'rganilayotgan holatni miqdoriy hamda sifatiy tavsiflashga erishiladi. L.F.Burlachuk fikriga ko'ra, psixodiagnostik metodlarni uch xil yondashuv asosida tasniflash mumkin: Ob'ektiv yondoshuv - diagnostika faoliyatni bajarish samaradorligiga qarab amalga oshiriladi. Sub'ektiv yondashuv – sinaluvchining o'zi haqida bergan ma'lumotlari, o'z-o'zini tavsiflash va baholash asosida diagnostika qilinadi.

Proektiv yondashuv – tashqi jihatdan neytral, noaniq stimul bilan o'zaro ta'sirni tahlil qilish asosida diagnostika qilinadi. Akimova M.K.,Gurevich K.M. bo'yicha, hozirgi zamon psixodiagnostikasida mavjud bo'lgan vositalarni sifat darajasiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin: Formallashgan metodikalar. Kam formallashgan metodikalar. Formallashgan metodikalar – aniq shakldagi qoidalarga qat'iy amal qilishni talab qiluvchi metodikalar. Kam formallashgan metodikalar – bu qo'llashning qat'iy, aniq qoidalarga ega bo'lmagan metodikalar bo'lib, ko'proq psixodiagnostning psixik intuitiviyasi va kasbiy tajribasiga bog'liq metodikalar. Birinchi guruh metodikalariga quyidagilarni kiritish mumkin: Testlar; So'rovnomalar; Proektiv texnika metodikalari, Psixofiziologik metodikalar. Ushbu metodikalar uchun xarakterli jihatlari: Aniq reglamentatsiya. Psixodiagnostik metodikalar Ob'ektiv yondoshuv Sub'ektiv yondashuv Proektiv yondashuv intellekt testlari, maxsus qobiliyat testlari, shaxs testlari, muvaffaqiyat testlari Shaxs so'rovnomalari, kayfiyat va psixik holatni o'rganish so'rovnomalari, anketa so'rovnomalari motor-ekspressiv., perseptivstrukturaviy, apperseptiv-dinamik metodikalar Tadqiqot yoki tekshiruv jarayonining ob'ektivizatsiyasi (ko'rsatmaga to'g'ri amal qilish, stimul materialini namoyish qilishning qat'iy usullari, sinaluvchi faoliyatiga tadqiqotchining aralashmasligi). Standartlashtirish (ya'ni, diagnostic eksperiment natijalarini qayta ishlash va taqdim etishning qabul qilingan tartibini joriy etilishi). Ishonchlilik. Validlik. Ushbu metodikalar nisbatan qisqa vaqt ichida diagnostik axborotni qo'lga kiritish hamda individlarni o'zaro miqdor va va sifat jihatdan taqqoslash imkoniga ega. Kam formallashgan metodikalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Kuzatish. Suhbat. Faoliyat mahsulini tahlil qilish. Bu guruhga kiruvchi metodikalar sinaluvchi haqida qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkonini beradi. Ayniqsa buni tadqiqot predmeti ob'ektivlashtirish mumkin bo'lmagan psixik jarayonlar va holatlar bo'lganida yaqqol sezish mumkin. Masalan, yaxshi anglanilmaydigan sub'ektiv kechinmalar yoki mazmun jihatdan juda o'zgaruvchan psixik jarayon va holatlar – maqsad, kayfiyat, holatlar dinamikasi. Shuni inobatga olish vat a'kidlash zarurki, kam formallashgan metodikalarni o'tkazish katta mehnatni talab etadi (masalan, sinaluvchini kuzatish ba'zida oylab davom etishi mumkin) va ko'p jihatdan psixodiagnostning psixologik tayyorgarligi va professional tajribasiga asoslanadi. Psixologik suhbat, kuzatuvlarning yuksak madaniy darajada o'tkazilishi tekshiruv natijalariga tasodifiy omillar ta'siridan saqlashi mumkin. Kam formallashgan diagnostik metodikalarni formallashgan metodikalarga qarshi

qo'yish mumkin emas. Odatda ular o'zaro bir-birini to'ldiradi. To'laqonli diagnostik tadqiqotda ikkala turdagi metodikalarni uyg'un holda qo'llash darkor. Masalan, test yordamida ma'lumot to'plashdan avval sinaluvchi bilan tanishish (tarjimai holi, moyilliklari, faoliyat motivatsiyasi haqidagi axborot) bosqichi o'tkaziladi. Bunda interv'yu, suhbat, kuzatishdan foydalaniladi. Tajribada eng ko'p qo'llaniladigan empirik metodlar haqida kengroq ma'lumot beramiz. Kuzatish metodi. Yosh davri psixologiyasida bu metodning ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (o'zini o'zi) kuzatish turlari bor.

Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;
 - 2) kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi;
 - 3) sinaluvchining yosh, jinsi aniqlanadi;
 - 4) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;
 - 5) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi;
 - 6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi;
 - 7) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o'tkazilishi) tayinlanadi;
 - 8) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon va boshqalar) taxt qilinadi.
- Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imoishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokazolari o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi. Masalan, go'dak bolani kuzatishda uning harakatlari, o'yinchoqlarga munosabati, his-tuyg'usi, talpinishi, mayli, xohishi aniqlanadi. O'quvchining darsdagi holatini kuzatishda esa diqqatining xususiyati, tashqi qo'zg'atuvchi bilan ta'sirlanishi, temperamenti, xatti-harakatining sur'ati, emotsional kechinmasining o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar to'plashga imkoniyat tug'iladi. Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish: ish ustidagi kayfiyatini, fikrning muayyan ob'ektga yo'naltirilganini, tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga berilmaslikni, chehradagi tashvish va iztirobni, ko'zdagi g'ayritabiiylikni, shuningdek, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib tafakkurning kechishidagi o'zgarishni aniqlash mumkin. Bulardan tashqari, qo'lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi, hissiyotning beqarorlashuvi ham inson ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumot beradi. Psixologiya fanida o'zini o'zi kuzatishdan (introspeksiyan) ham foydalaniladi. Ko'pincha tajribali psixolog yoki yuqori malakali mohir o'qituvchi o'zini o'zi kuzatish orqali ilmiy xulosa chiqara biladi. Masalan, o'z tafakkurini kuzatib o'zidagi emotsional o'zgarish haqida, shuningdek, tafakkurning ichki mexanizmlari vujudga kelishi va kechishi haqida ma'lumot oladi. Natijada tafakkurning sifati, mazmuni, mohiyati va qay tarzda, qanday tezlikda, qay shaklda ro'y berishini kuzatadi. Chet el psixologiyasida o'zini o'zi kuzatishning inson ruhiyatini o'rganishdagi rolini ifodalovchi ilmiy-amaliy materiallar to'plangan. Introspeksiya yo'nalishining yirik namoyandalari o'zlarini o'zlari kuzatganlar va to'plagan materiallarini tahlil qilib umumiy psixologik qonuniyatlarni yaratishga harakat qilganlar. Lekin inson turli

vaziyatlarda o'zini bir xil boshqara olmaydi va shuning uchun bu metodning ilmiy ahamiyati katta emas. Shunday qilib, kuzatish metodining qulay va samarali jihatlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud. Shu sababli insonning murakkab psixikasi boshqa metodlardan foydalanib tadqiq qilinadi. Suhbat metodi. Bu metod bilan inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, mavzusi, o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aqlzakovati, xulq-atvori, qiziqishi, ziyrakligi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olinadi. Test metodi. Test - inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standart masala topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi.

Testlar har xil mezonlar asosida turli guruhlariga bo'linadi:

Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llanadi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan «psixologik ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog'liqdir. Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozensveyg, Kettel, Vartegg, Veksler, Meyli, Ayze, Anastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalari kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga yetish) testlari (ular darsliklarda berilgan va bilim, malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy rivojlanish darajasini o'lchashga mo'ljallangan), shaxs testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va xulqini baholashga yo'naltirilgan diagnostik usullardan iboratdir), shaxs «loyihasi» (proektiv) testlari (savollarga bitta aniq javob berish talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib shaxs xususiyatining «loyihasi» ishlab chiqiladi) kiradi. Tajriba (eksperiment) metodi. Bu metod turli yoshdagi odamlar (chaqaloq, bola, o'spirin, balog'atga yetgan va qarilar)ning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shakllanishi, nutqning o'sishi, favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg'ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog'lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, qonunlari, xossalari, murakkab mexanizmlari tekshiriladi. Buning uchun eksperiment materialini tekshiruvchi sinchkovlik bilan tanlashi, ob'ektiv tarzda har xil holat va vaziyatlarni, yaratishi, bunda sinaluvchining yoshi, aql-idroki, xarakter, xususiyati, his-tuyg'usi, qiziqishi va saviyasiga, turmush tajribasiga, ko'nikma va malakalariga e'tibor berishi lozim.

Tajriba metodi o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llanadi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda A. F. Lazurskiy ta'riflagan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar

xodimlarining, o'qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilar (bog'cha bolalari, maktab o'quvchilari, ishchilar, dehqonlar, xodimlar va hokazolar) ning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Laboratoriya (klinika) metodi ko'pincha individual (goho guruh va jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblardan, yo'lyo'riqlar, tavsiyalar, ko'rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlaydigan asboblardan, murakkab elektron hisoblash mashinalari (displeylar), qurilmalar, moslama va jihozlardan mavjud. Ular odamdagi psixologik jarayonlar, holatlar, funksiyalar, vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o'lchashda qo'llanadi. Ko'pincha detektorlar, elektron va radio o'lchagichlar, sekundometr, refleksometr, xronorefleksometr, luksometr, anomaloskop, taxistoskop, audiometr, esteziometr, elektromiogramma elektroensefalogramma kabilardan foydalaniladi.

Laboratoriya metodi yordami bilan diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari, emotsional hamda irodaviy va aqliy zo'riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, shofyor, operator, elektronchilar) va kutilmagan tasodifiy vaziyatlar (halokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko'tarilishi)ning modellari yaratiladi. Asboblarning ko'rsatishi bo'yicha o'zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, emotsional-irodaviy, asabiy zo'riqish, jiddiylik, tanglik qanday sodir bo'layotganini ifodalovchi ma'lumotlar olinadi. Biografiya (tarjimai hol) metodi. Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgarishlar ijodiga bergan baholari, tanbehleri, taqrizlari alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga o'zgarishlar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitofon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarni ochishda yordam beradi. Masalan, mazkur ma'lumotlar orqali ijodiy xayol bilan bog'liq jarayonlar; she'riyat, musiqa, nafosat, tasviriy san'at, texnik ijodiyotning nozik turlari va kashfiyotdagi tafakkurning o'ziga xosligini, shaxsning ma'naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste'dod singari fazilatlarini o'rganish mumkin. Inson ongining xossasi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi, o'ziga xos va ijtimoiy xususiyatlari atoqli odamlar bildirgan mulohazalarda o'z ifodasini topadi. Allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta'rifu tavsiflari orqali avloddan avlodga o'tadi. Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etishi, o'zining uslubini yaratishi, kamolot cho'qqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

Anketa metodi. Yosh davri psixologiyasida keng qo'llanadigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uchta xil tuziladi. Ularning birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xil anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi

2.2. Psixodiagnostik metodikalarning o'rni va samaradorligi.

Psixologiyada **test** deb, o'rganilayotgan xususiyatni rivojlanganlik darajasini, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini bir-biriga taqqoslash imkonini beruvchi standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikaga aytiladi. Metodikaning standartlashtirilgan tushunchasini ma'nosi shundan iboratki, u voqea, hodisalardan boshlab sinaluvchiga beriladigan ko'rsatmalar, hisoblash usuli, olingan natijalarni sharhlash bilan tugaydigan, butun jarayonning hammasi, doimo va har joyda bir xil qo'llanilishiga aytiladi. Testlar yordamida olingan baholarni, agar test to'g'ri qo'llanilgan bo'lsa, test qachon, qaerda, qanday qilib va kim tomonidan qo'llanilgandan qat'iy nazar ularni bir-biri bilan tenglashtirish, taqqoslash deb yuritiladi. Har xil psixodiagnostik metodikalarda testlarning validliq ishonchlilik aniqlik va bir xillik mezonlariga juda qat'iy talablar ko'yiladi. Testlarning juda ko'p turlari mavjud va ularni ko'llanish asoslariga qarab bir necha guruhlarga bo'lish mumkin: test predmetligi bo'yicha (sifati bo'yicha ya'ni aynan sifatni testlar yordamida baholash); testlar da topshiriqlardan foydalanishning alohida xususiyati; materiallar bo'yicha sinaluvchiga talablar; ob'ekt bo'iicha baholash. Predmetligi bo'yicha testlar intellektual shaxsiy va shaxslararo testlarga bo'linadi. Testlarda topshiriqlardan foydalanishning alohida xususiyati bo'yicha amaliy, obrazli va so'zli testlar. Test materiallarining tavsifi bo'yicha sinaluvchiga talablar, blankali va apparaturali testlarga bo'linadi. Ob'ekt bo'yicha baholash - protsessual testlar yutuqqa erishish testi, holat va xususiyatlar testi. Intellektual testlar shaxsni aqliy faoliyati rivojlanganlik darajasi va ularni alohida bilish jarayonlarini (idrok, diqqat, xayol, xotira, nutq) baholashda qo'llaniladi. Shaxs testlari insonning barqaror individual xususiyatlari, xatti - harakatlarini aniqlash bunga: temperament, xarakter, motivatsiya, emotsiya va qobiliyatlarni aniqlovchi testlar kiradi. Bundan tashqari gaaxeda har tomonlama, shaxs xolatini kompleks baholash yoki alohida xususiyatining rivojlanganlik darajasini baholash testlari ham mavjuddir. Bunga Kettell, MMPI va boshqa testlar kiradi. Xususiy testlar yordamida, shaxsning alohida belgilari, motivlar, emotsiyalar, masalan xarakter aksentuatsiyasi, xavotirliq lokus nazorati, yutuqqa erishish motivi, tajovuzkorlik va boshqalar aniqlanadi. Shaxslararo testlar har xil ijtimoiy guruhlarda odamlarning munosabati sifatida ijtimoiy-psixologik o'z-o'zini attestatsiya qilish testi.

Amaliy testlar o'ziga topshiriq va shakllarni qamrab oladi, bunda sinaluvchi aniq predmet materiallari yoki ularni almashtiruvchi materiallar bilan ko'rgazmali-harakatli reja bilan amaliy ish bajaradi. Obrazli testlar, obrazlar, surat, rasm, sxema va tasavvurlar bilan mashqlarni o'zi ichiga oladi. Verbal testlar so'zli

topshiriqlardan iborat, unda tushunchalarni aniqlash xulosa chiqarish, har xil soʻzlarning maʼnosini anglash va taqqoslash hamda bu soʻzlar bilan har xil mantiqiy operatsiyalarni bajarishni oʻz ichiga oladi. Testlarda qoʻllaniladigan koʻpgina topshiriqlar kompleks xarakterga ega va bu testlarda amaliy, nazariy, obrazli va verbal toshliriqlar mujassamlashgan. Bu odamning, real hayotidagi koʻp vazifalari kompleks xarakterga ega ekanligi bilan bogʻlikdir. Shuning uchun xam, testlar, odamni real hayotdagi yutuqqa erishish imkoniyati va xulkini aytib berish uchun oʻtkaziladi. Blankali testlar sinaluvchida test materiallari sifatida har xil shakldagi blankalarda foydalaniladi, masalan, rasmlar, sxemalar, jadvallar va savolnomalar. Apparaturali testlar - bu shunday testlarki, unda test natijalarini qayta ishlash va koʻrsatish uchun har xil turdagi apparaturalar qoʻllaniladi, masalan, audio va videotexnika, elektron hisoblash mashinalari. Protsessual testlardeb, uning yordamida qandaydir bir psixologik yoki xulqiy jarayon oʻrganiladi va unta aniq miqdoriy va sifatiy tahlil beriladi, masalan, materiallarni esda olib qolish jarayoniga, indivydlarning guruxda shaxslararo hamkorlik jaryoniga tahlilni misol sifatida keltirish mumkin.

Yutuqqa erishish testlari kishining qandaydir bir faoliyatida, bilish sohasini qandaydir bir turida yutugʻini baholashda qoʻllaniladi, masalan, tafakkurning mantiqiyliigi, diqkatning barqarorligi, verbal tafakkurning rivojlanganlik darajasi. Holatlar va xususiyatlar testlari shaxs psixologik sifatlarining barqarorligini diagnostika qilish bilan bogʻlikdir, masalan, shaxs xislatlari, temperament xususiyati, qobiliyatlari va boshqalar. Proektiv testlar maxsus guruhga ajratiladi. Proektiv test kishining u yoki bu psixologik sifatini toʻgʻridan-toʻgʻri emas, balki bivosita baholaydi. Bunday baholash kishining koʻp maʼnoli obʻektlarni qanday qabul qilishi va talqin qilishining analizi natijasida olinadi. Bunga: surat syujetining noaniqligi, shak-lsiz dogʻlar, tugallanmagan jumlar va boshqalar kiradi. Bunday obʻektlarni tahlil qilish va baholashda kishi ongsiz ravishda oʻz-oʻzining «proeksiyasini» koʻrsatib berish deb yuritiladi. Bu guruh testlariga, Rorshax testi, Tematik Apperseptiv Test (TAT) va boshqalar kiradi. Proektiv testlar sinaluvchining yashirin va anglanilmagan psixologik xususiyatlarini psixodiagnostika qilish zarurati tugʻilganda qoʻllaniladi. Psixodiagnostik eksperiment metod sifatida kamdan-kam voqelikda asosan kishining zarur psixologik sifatini boshqa usullar bilan aniqlash va baholash imkoniyati boʻlmaganda qoʻllaniladi. Protsessual testlar, tadqiqotchini sinaluvchida kechayotgan psixik va xulqiy jarayonlarning xususiyatlari qiziqtirganda qoʻllaniladi, yutuqqa erishish testlari esa kishining qobiliyati, koʻnikma va malakalarini baholash vazifasini oʻtaydi. Intellekt testlari kishining intellektual taraqqiyotining umumiy koʻrsatkichini aniqlash va miqdoriy baholash zarurati tugʻilganda foydalaniladi.

Psixodiagnostik metodlar singari testlarga ham qaʼtiy talablar qoʻyiladi:

1. Testning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi. Bu soʻzlar tuzilmasi test topshiriqlari va test baholari hamda sinaluvchiga berilayotgan ushbu test topshiriqlari ushbu jamiyat madaniyati milliy qadriyatlariga mos boʻlishligi zarur degan maʼnoni anglatadi. Masalan, Yevropada tuzilgan test boshqa bir mamlakatda birinchi marta qoʻllanilayotgan boʻlsa va bu mamlakatda intellekt strukturasi soʻz-

mantiqiy bo'lsa, balki obrazli yoki amaliy tafakkurli bo'lsa test albatta ijtimoiy madaniy moslashtirilgan bulishi shart. Agar test moslashtirilmagan holda, ya'ni qanday bo'lsa shundayligiga qo'llanilsa, u holda biz juda past natijalar olamiz va natijalar ushbu mamlakatda yashovchi kishilarning tafakkuri taraqqiyotini ko'rsatkichiga mos kelmaydi. Yoki buning aksi, ya'ni ushbu mamlakatda so'z-mantiq tafakkuri asosiy rolga ega bo'lsa test topshiriqlari amaliy tafakkurga oid bo'lsa, u holda biz aqliy taraqqiyotning noadekvat ko'rsatkichiga ega bo'lamiz.

2. Test topshiriqlarining sodda tuzilganligi va bir ma'noliligi. Ushbu talabga binoan, testni so'z va boshqa topshiriqlarida ya'ni, so'z, rasmlar kishilar tomonidan har xil idrok qilinishi va tushunish momentlari bo'lmasligi kerak.

3. Test topshiriqlarini bajarishda vaqtning chegaralanganligi. Bunda psixologik test topshiriqlarini bajarishda vaqt 1,5-2 soatdan oshmasligi, chunki kishi o'zining ish qobiliyatini yuqori saviyada uzok muddat ushlab turishi juda mushkuldir.

4. Ushbu test uchun me'yorlarining mavjudligi. Test me'yorlari deb, ushbu testning reprezentativligini o'rtacha ko'rsatkichi tushuniladi, ya'ni ko'p odamlardan to'plab olingan ko'rsatkichlarning o'rtacha ko'rsatkichi bilan individning ko'rsatkichini taqqoslash va uning psixologik taraqqiyotni baholash tushuniladi. Test me'yorlari asosan, sinaluvchilarning yoshga, jinsini aniq bilgan holda, katta tanlama guruhidan olingan test natijalarining o'rtacha bahosi va keyinchalik ularni yoshi, jinsi va bir qancha relevant ko'rsatkichlarini differensiyalash bilan aniqlanadi. Test me'yorlari - bu kishilar taraqqiyotining o'rtacha ko'rsatkichi. Har qanday me'yor, o'lchov ham vaqti bilan o'zgarib turadi, chunki ishlar davomida kishilarning ham psixologik taraqqiyotida o'zgarishlar bo'ladi, masalan, XX asrning birinchi choragida kishilarning intellektual taraqqiyotiga qo'yilgan me'yorlar, shu asrning oxirgi choragiga qo'yilgan me'yorlarga to'g'ri kelmaydi, chunki ushbu yillar mobaynida kishilarning aqliy taraqqiyot ko'rsatkichlari ancha yuqoridir. Bundan tashqari empirik qoidalar mavjud unga ko'ra kamida har besh yilda test me'yorlari qayta ko'rib chiqilishi shartdir, asosan bu intellektual testlarga taluqlidir. Test me'yorlari qo'yilgan talablardan tashqari, test o'tkazishni, natijalarni qayta ishlash va tahlil qilishni qagiy qoidalari mavjuddir.

Bular quyidagilardir:

1. U yoki bu testni ko'llash uchun psixolog test bilan tanishib chiqib, o'zida yoki boshqa bir kishida sinab ko'rishi kerak. Bu testni o'tkazish bilan bogliq bo'lgan xatoliklarni oldini olish imkonini beradi.

2. Sinaluvchi test topshiriqlarini bajarishidan oldin va ko'rsatmalarini yaxshi tushunib olishi uchun odsindan tayyorgarlik ko'rib qo'yish.

3. Test o'tkazish vaqtida, sinaluvchilar mustaqil ishlashi, bir-biriga halaqit bermasligini va ta'sirini o'tkazmasligini nazorat qilib turish, chunki bu test natijalarini o'zgartirib yuborishi mumkin.

4. Har bir test natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish uchun asoslangan va aniq ishlangan matematik-statistik usullarni oldindan tayyorlab qo'yish. Biz test turlari va test me'yorlariga qo'yilgan talablarni o'rganib chiqsiq endi test me'yorlarini reprezentativligi, validligi, ishonchligiga to'xtalib o'tsak. Test

tuzilishining asosiy statistik prinsiplari 1980-yillarda V.S.Avanesov, A.Anastazi, V.K.Gayda, V.P.Zaxarovlarning adabiyotlarida to'liq yoritib o'tilgan. Ammo ko'rsatib o'tilgan adabiyotlarda psixometrik testlarning asosiy muammosi, test me'yorlari, to'liq yoritib o'tilmagan. Bu birinchi navbatda amerikalik testolog A.Anastazining adabiyotiga talluqlidir. Anastazining yaratgan qo'llanmasi, g'arb testologlari tomonidan ikkita asosiy prinsiplari zaruriy tanqidky muhokamalarga ega bo'lmaydi, bular diagnostik me'yoriy sifati tarzida statistik me'yorlarning qo'llanilish muammolari va normal modellarga hamma empirik ma'lumotlarning taqsimlanishi haqidagi ma'lumotlar muammosi. Endi biz differensial asosiy tushunchalar tizimi tuzilishining qisqacha kontekstini analiz qilib o'tamiz. 1. Test shkalalarining statistik tabiati. Psixodiagnostikada tipik o'lchov testi - bu qisqa topshiriqlarning yoki punktlarning ketma-ketligi, sinaluvchi tomonidan topshiriklar bajarilishi natijasida so'ng ularning bir xil miqdoriy tahlil qilinishi demakdir. Masalan: alohida topshiriqlardan tuzilgan intellektual testlarni interpretatsiya qilinishi: «yechimi to'g'ri», «yechimi noto'g'ri», —javob yo'q, (topshiriqni o'tkazilib yuborilishi, vaqt yetishmasligi sababli), shaxsiy savolnomalarning tahlil qilinishi: sinaluvchi tomonidan ta'kidlanishi lozim bo'lgan javoblar ko'rilishi: «tasdiqlashi», «inkor qilinishi» (javoblar, «rozi emasman», «yo'q»). Umumiy ballar kalit orqali hisoblab chiqiladi, kalit har bir punkt bo'yicha sonlar bilan ifodalanadi.

Masalan, toshpiriqning to'g'ri yechimiga - noto'g'ri yoki o'tkazib yuborilganiga - «0». Bunda ballar to'g'ri javoblarning miqdorini ko'rsatib beradi. 2. Psixometrikada o'lchov muammolari va test punktlarining xususiyatlari. O'lchov ko'rsatkichi «etalon» hisoblanadi. Etalon bu -o'lchanayotgan xususiyatga berilgan kattalikni bir maromda saqlab turuvchi fizik ob'ektdir, differensial psixometrikada bunday fizik etalonlar mavjud emas. Psixometrikada etalon rolini testlarning o'zi bajaradi, buni shunday tushunish kerak topshiriqning murakkabligi kishi qobiliyatiga to'g'ri proporsional kattalik deb qarash mumkin. Ya'ni topshiriq qancha murakkab bo'lsa, uning yechimini topish uchun kishi qobiliyatining darajasi shuncha yuqori bo'lishi kerak. Test punktlarning kuchi va murakkab-ligini test o'tkazish yordamidagina aniqlash mumkin. Murakkablikni aniqlash «foizli o'lchov» bilan belgilanadi, test topshiriqlariga «to'g'ri» javob bergan sinaluvchilar foiz bilan aniqlanada, ya'ni «foiz» qancha kichik bo'lsa murakkablik shuncha yuqorida bo'ladi. Test punktlarning xususiyatini test ballarining taqsimlanishi ko'rsatib beradi. Agar test ballarining taqsimlanishi egriligi o'ng tomonli assimetriyaga ega bo'lsa, unda test murakkab topshiriqlardan tuzilgan, agar egrilik chap tomonli assimetriyaga ega bo'lsa, u holda test topshiriqlari sodda tuzilgan hisoblanadi va quyidagi ko'rinishga ega: 2.3. Metodikalarga qo'yiladigan talablar Pedagogik-psixologik eksperiment, tadqiqotning ishonchli vositasi bo'lishi hamda natijalarning haqqoniyligiga ishonch hosil qilish uchun va ushbu natijalar asosida to'g'ri xulosa chiqarish uchun tadqiqotda qo'llanilgan psixodiagnostik metodika ilmiy asoslangan bo'lishi kerak bunda metodlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: validliq ishonchlilik bir sifatlilik va aniqlik. Endi har bir talabni alohida ko'rib chiqamiz. «Validlik» - atamasi Yevropa tillaridan olingan bo'lib va u quyidagi ma'noni anglatadi: «to'laqonli», «yaroqli», «mos». Psixodiagnostik

metodikaning validlik sifatidagi tavsifi uning aynan o'rganilayotgan psixologik xususiyatga mo'ljallanganligi va ushbu psixologik xususiyatni baholashga mosligi hamda yaroqligini ko'rsatib beradi. Metodikaning validlik tavsifi o'ziga ushbu metodika orqali haqiqatdan xam psixologik sifatni o'lchash mumkin degan xulosadan tashqari uning qo'llash mumkin bo'lgan sohasini va uning sharoitlari haqidagi ma'lumotlarni ham o'ziga qamrab oladi Psixodiagnostik metodikaning validligi haqida mulohaza qilar ekanmiz, validlikning bir nechta turlari borligini va ularning har birini alohida ko'rib chiqish hamda baholash zarurdir. Validlik - nazariy, amaliy, empirik, ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Nazariy validlik - qo'llanilgan metodika yordamida olingan ko'rsatkichlarni, boshqa metodik vositalardan olingan ko'rsatkichlar bilan ya'ni ko'rsatkichlar orasida nazariy asoslangan bog'liqlik borligini va tadqiq qilinayotgan sifat ko'rsatkichlari mosligi bilan aniqlanadi. Nazariy validlikni bitta nazariyaga tayangan holda, aynan bir xususiyatga tegishli har xil metodikalardan foydalanish natijasida olingan ko'rsatkichlarni korrelyatsiyasi bilan tekshiriladi. Empirik validlik - sinaluvchining reaksiyasi va xatti-harakatini kuzatish orqali, uning haqqoniy xulqidagi diagnostik ko'rsatkichlarining bir-biriga mosligi bilan tekshiriladi. Agar sinaluvchining xarakterini qo'llanilgan metodika yordamida baholasaq ushbu odamning hayotdagi xarakter ko'rinishini qo'llanilgan metodikadan olingan ko'rsatkichlar bilan bir xilligini aniqlasak u holda metodikani empirik va amaliy validli deb hisoblasak bo'ladi. Empirik validlik mezonlari bo'yicha metodika odamlarning amaliy faoliyat natijalari hamda haqqoniy hayotiy huquqlarining ko'rsatkichlarini taqqoslash bilan tekshiriladi. Ichki validlik - metodikadagi topshiriqlar, subtestlar, mulohazalarning umumiy maqsadga mosligini anglatadi. Metodikadagi subtestlar, topshiriqlar va undagi savollar qisman yoki butunlay biz o'rganayotgan xususiyatni o'lchay olmasa, u holda ushbu metodika ichki validli emas yoki ichki validlik yetarli darajada emas, deb hisoblanadi. Tashqi validlik - ham xuddi empirik validlikka o'xshash, undan farqli tomoni pgundaki, sinaluvchining xulqiga taaluqli asosiy tashqi ko'rinishlarning ko'rsatkichlari bilan metodikadagi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratiladi. Metodikani tuzish jarayonida darhol uning validligini baholash juda murakkabdir. Odatda metodikaning validligini tekshirish va aniqlashda metodikani uzok muddat qo'llanilgandan so'ng u haqida xulosa chiqarish mumkin, chunki yuqorida ko'rsatib o'tilgan validlikning to'rt turi ham tekshirilishi zarurdir.

Validlikning turlaridan tashqari uning mezonlarini bilish ahamiyatga molikdir:

A) Xulqiy ko'rsatkichlar - sinaluvchining har xil hayotiy voqealiklardagi reaksiya va xatti- harakatlari;

B) Sinaluvchining faoliyatidagi yutuqlari: o'quv, ish, ijodiy vahokazolar

B) Har xil nazorat sinov va topshiriqlarning bajarilganligi haqida ma'lumotlar.

G) Boshqa metodikalar yordamida olingan ma'lumotlar - validlik yoki tekshirilayotgan metodikani boshqa metodika bilan boglikligining yetarli darajadali. Metodikaning ishonchliligi - metodika yordamida barqaror, qa'tiy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Psixologik test natijalarini

nazorat qilish murakkab omillarga tobedir va bu quyidagilardir: - asbob uskunalarning o'lchov sifati - psixologik testlarning doimiy relevant tavsifi - sinaluvchining ko'rsatmalarni to'g'ri tushinishi - sinaluvchining xulqi, xatti-harakati - sinaluvchining dolzarb psixologik holati. Psixodiagnostik tadqiqot jarayonida ushbu omillarning o'zgarishi o'lchovning ishonchlilik darajasini pasaytiradi, chunki bu omillarning doimiylikini saqlab turishning imkoniyati yo'q, shuning uchun ham psixodiagnost metodikaning yuqori darajada ishonchligiga amin bo'lishi juda qiyin. Ushbu omillarning asosiylaridan biri metodikaning o'zini ishonchligidir, chunki qolgan omillar olingan natijalarning doimiylikiga ta'sir hissassi ancha kichikdir.

Psixodiagnostik metodikalarning ishonchligini ikki xil usul bilan tekshirib chiqish mumkin:

1. Ushbu metodika yordamida har xil odamlarda olingan natijalarni taqqoslash;

2. Aynan bir xil sharoitda metodikani qo'llash va undan olingan natijalarni taqqoslash; Metodikaning aniqligi - psixodiagnostik tadqiqot paytida biror bir xususiyatni baholashda ozgina o'zgartirishga ham javob qaytarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Metodikaning aniqligini texnik o'lchov asbob uskunalarning aniqligi bilan izohlash mumkin. Masalan: santimetrga bo'lingan metr dan, millimetr ga bo'lingan chizg'ich bilan o'lchov aniqrokdir. Psixodiagnostik metodika qanchalik aniq bo'lsa, o'lchovning sifati shunchali yuqori bo'ladi. Ammo amaliy psixodiagnostikada hamma vaqt ham o'lchovning aniqligi baholashning yuqori darajasi talab qilinmaydi. Masalan, butun tadqiqotda tanlama sinaluvchilarni ikkiga bo'lish kerak bo'lsa, u holda qo'llanilayotgan metodika aynan shunchaga mos holda bo'linishi kerak undan ko'pga ham kamga ham emas. Agar sinaluvchilar beshta guruhga bo'linishi shart bo'lsa, u holda beshta o'lchov shkalasi bor metodikani qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi va ular beshta punktdan iborat bo'lishi kerak masalan «ha», «yo'qdan ko'ra ha», «yo ha, yo yo'q», «yo'q hadan ko'ra», «yo'q» shaklida. Metodikanig bir sifatligi ushbu metodika yordamida olingan natijalar qay darajada, aynan bir xususiyatga taaluqli o'zgarishni o'lchashi bilan tavsiflanadi. Agar o'rganilayotgan xususiyatlardan olingan ko'rsatkichlar, ushbu metodika bilai bogliq bo'lmagan boshqa bir xususiyatni ko'rsatkichlarni namoyon qilsa, u holda ushbu metodika bir sifatlilik mezoniga mos bo'lmaydi. Masalan, tadqiqotchini shaxsning xulq motivlarini baholash qiziqirsas, u sinaluvchining xulq motivlariga taaluqli to'g'ridanto'g'ri savollar berishi mumkin, u holda olingan javob-lar bir xillik mezoniga mos tushishi kamdan-kam hollarda ro'i berishi mumkin, chunki sinaluvchi o'z xulq motivlarini anglagan holda eksperimentatorga xulq motivlarining ijobiy tomonlarini ko'rsatishga harakat qiladi. O'quvchi, talabani faqat bilimlarni o'zlashtirishini baholash ham bir sifatlik mezonini to'liq qanoatlantira olmaydi, chunki bilimni o'zlashtirishiga hamisha ham ob'ektiv baho qo'yilmaydi, bunda o'quvchining bilimlaridan tashqari, uning o'kituvchi bilan munosabati va o'quvchining xulqi ko'rinishi ham namoyon bo'ladi. Psixodiagnostikada biror bir metodikani qo'llashdan oldin tadqiqotchi ushbu metodikani validli, ishonchli, aniqligi va bir sifatlilik talablariga javob bera olishiga to'liq ishonch hosil qilishi

shart. Aytib o'tilgan mezonlardan asosiylari: validlik va ishonchlilikdir, agar o'lchov uskunalarini bu ikkala mezonga mos kelmasa, u holda psixodiagnostikada bu vositalarni umuman qo'llash mumkin emas. Mabodo metodikaning aniqligi va bir sifatliligi to'liq bo'lmasa ham metodikani aniq shartlar asosida qo'llash mumkin. Ammo quyidagilarni unutmaslik zarurdir: - noaniq metodika, o'tkazilayotgan eksperiment natijalari biror bir xususiyatdagi kichik o'zgarishlarni aniqlash imkonini bermaydi; - metodika bir sifatliligining to'liq emasligi, hamisha ham aynan baholanayotgan xususiyatdagi o'zgarishlar darajasi bilan olingan ko'rsatkichlarni taqqoslash imkonini bermaydi. Psixodiagnostik natijalarga qo'llanilgan metodikadan tashqari vokea hamda hodisalar ham ta'sir qiladi, ya'ni berilgan ko'rsatmalarni sinaluvchi tomonidan to'g'ri tushunmasligi va test vaqtida sinovchining xulqi va shaxs xususiyatlari o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Agar vokealikni sinaluvchi imtihon sifatida qabul qilsa, o'zini shu vokelikka mos tarzda tutadi. Yuqori xavotirli odamni hamisha va hamma payt yukori «xavotirlik» holati qamrab oladi, har qanday hodisani xavf sifatida qabul qiladi. Kichik darajali xavotirli odam buning aksidir, ya'ni o'zini erkin tutadi. Sinaluvchilarning xulqi, xatti-harakati va ularning ko'rsatgan natijalari, ko'rsatmalarni kanday tushunishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham ko'rsatmalarning aniq tuzilishi va ularni tez anglab olinishiga, psixologik tashxisda qat'iy talablar qo'yiladi: - ko'rsatma sodda va tushunarli bo'lishi; - bir xil ma'nodagi so'z va talaffuzlarni o'ziga qamrab olinmasligi; - ko'rsatmani iloji boricha yozma shaklda bo'lishiga (ko'rsatma berayotgan shaxs, ko'rsatmani har xil paralingvistik tarkibiy qismlar orqali ifodalashi mumkin: mimika, talaffuz, temp, pauza va xatti-harakatlar). Ba'zan tadqiqot natijalariga sinovchining xulqi va xatti-harakati ham ta'sir qilishi mumkin. Masalan, eksperimentator haqida sinaluvchining fikri ijobiy bo'lsa, uning xatti-harakatida, munosabatida imkoni boricha sinovchiga yaxshi natija berishga harakat qiladi. Buning aksi bo'lsa, eksperimentatorga nisbatan sinaluvchida antipatiya bo'ladi. Asosiy ko'rsatma: eksperimentator bosiq, muvozanatli, xatti-harakati sinaluvchilarga nisbatan, yaxshi va do'stona bo'lishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Uchebnik dlya studentov vuzov. – Izd., 6-ye., pererab. i dop.- M.: Akademicheskij Proekt, 2001.- 704 s.
2. Averin V.A. Psixologiya lichnosti: Uchebnoe posobie, 2-ye izdanie.- SPb.: Izd-vo Mixaylova V.A., 2001.- 191 s.
3. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovanie: Kniga 2; Per. s angl./ Pod red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo. - M.; Pedagogika, 1982.-336 s.
4. Burlachuk L.F., Morozov S.M. Slovar-spravochnik po psixodiagnostike – SPb.: Piter Kom, 1999.- 528 s.
5. Romanova Ye.S. Psixodiagnostika: Uchebnoe posobie.- SPb.: Piter, 2005.- 400 s
6. Rogov Ye.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa: Ucheb.posobie: V 2-kn.- M.: Izd-vo Vlados-PRESS, 2002

Nazorat savollari

1. Psixologik xizmatning psixologik diagnostika yo'nalishi mohiyati nimadan iborat?

2. Psixologik dignostika amaliy psixologiyaning boshqa yo‘nalishlari bilan qanday bog‘langan?
3. Psixologik diagnoz qanday bosqichlardan iborat?
4. Psixodiagnostika yo‘nalishida maktab psixologi qanday vazifalarni amalga oshiradi?
5. Psixodiagnostik metodikalar qanday tasnif qilinadi?
6. Psixodiagnostik tekshiruv o‘tkazish qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
7. Psixodiagnostikaning tamoyillari qaysilar?
8. Psixodiagnost shaxsiga qo‘yiladigan talablar haqida nimalarni bilamiz?
9. Psixodiagnostikaning ma‘naviy-axloqiy me‘yorlari.
10. Testlarning turlari, me‘yorlari. 5. Psixodiagnostik tadqiqotlarni o‘tkazish.
11. Metodikaning validligi, validlik turlari, mezonlari.
12. Metodikaning ishonchliligi.
13. Metodikaning aniqligi haqida nimalarni bilamiz?

3-mavzu. Sportchining temperament xususiyati va tipologik o‘ziga xosligini baholash.

Reja

- 3.1. Sportchining temperament xususiyatlari va o‘ziga xosligi.
- 3.2. Sportchilarning temperamenti to‘g‘risida kuzatishlar olib borish.

Sportchining individual-tipologik xususiyatlarini aniqlash. Sport jamoalarida muomala diagnostikasi. Xolerik, sangvenik, flegmatik, melanxologik shaxs tipologiyasi, xarakter, qobiliyat tushunchalari. Shaxs teperamentida muomalaning tarkib topish qonuniyatlari.

3.1. Sportchining temperament xususiyatlari va o‘ziga xosligi.

Temperament lotincha temperamentum – narsalarning tegishli nisbati degan so‘zdan olingan. Temprament xakida dastlab eramizdan oldingi beshinchi asrda yashagan vrach Gippokrat, eramizdan oldingi ikkinchi asrda yashagan Galen, uninchi asrda yashagan ibn Sino va boshkalar o‘z karashlarini bildirganlar. Galen birinchi bulib temperamentning kengaytirilgan tasnifini berib, uning 13 turini sanab o‘tgan. Keyinrok vatandoshimiz Ibn Sino temperamentni mizoj deb atab, uning issik va sovuk turini, bu odamning rangi, koni mikdori, kuyuk yoki suyukligiga boglikligini aytgan. Xozirgi kunda temperament oliy nerv tizimi va uning xillari bilan boglikligi asos kilib olinib, 4 tipi borligi kabul kilingan. Bu temperamentning antik davr klassifikatsiyasiga nomi bilan uxshash bo‘lishi kabul kilingan. Sangvinik – kon so‘zi bilan boglik bulib, serxarakat, kuchli ta‘sirilanish, muvozanatsiz bulish nazarda tutiladi.

Gippokratning to‘rt xil moddalar (suyuqliklar) aralashmasi, ya‘ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma‘noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo‘llanilib kelinmoqda.

Temperamentning ilmiy psixologik asoslari va uning fiziologik mexanizmlari

keyingi ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning bosqichlarida ishlab chiqilib, bu borada izlanilishlar davom ettirilmoqda. Temperamentning fiziologik asoslariga o'zining ulkan hissasini qo'shgan olimlardan biri rus fiziologi I.P.Pavlov hisoblanib, u hayvonlarning oliy nerv faoliyatini tadqiq qilayotganida itlarda shartli reflekslarning paydo bo'lishi, kechishi, davom etishi xususiyatlari insonlarnikidan farq qilishi va bu hodisa temperamentda ham uchrashi mumkinligini kashf etadi. I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosani berib, mazkur ta'limot bo'yicha, shartli reflekslar paydo bo'lishining individual xususiyatlari ro'yobga chiqishining sabablari nerv tizimi xususiyatlari mohiyatidandir. Muallif nerv tizimining uchta asosiy xususiyatiga alohida ahamiyat beradi: 1) qo'zg'alish jarayoni va tormozlanish (to'xtalish) jarayonining kuchi; 2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlik darajasi (nerv tizimining muvozanatlashgani); 3) qo'zg'alishning tormozlanishi bilan almashinishi tezligi (nerv jarayonlarining harakatchanligi). Uning ko'rsatishicha, har bir hayvonning temperamenti ham mazkur xususiyatlarning u yoki bunisiga aloqador bo'lmay, balki ularning majmuaviy tarziga, qonuniy birlashuviga bog'liq bo'ladi. I.P.Pavlov shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari bilan temperamentga aloqador nerv tizimi xususiyatlarining o'zaro qo'shiluvini nerv tizimining tipi deb nomlaydi va uni to'rtta tipga ajratadi: 1) kuchli, muvozanatli, epchil; 2) kuchli, muvozanatsiz, epchil; 3) kuchli, muvozanatli, sust; 4) kuchsiz tip. Yirik rus psixologlaridan biri B.M.Teplov (1896-1965) va uning shogirdlari I.P.Pavlovning tadqiqotlarini davom ettirib, inson nerv jarayonlari xususiyatlarining o'ziga xos tomonlarini ochishga muvaffaq bo'lib, ular nerv-fiziologik jarayonlarning nozik qirralarini o'rganishda maxsus moslamalar yordami bilan o'zgarishlarni qayd qilish hamda olingan natijalarni (omillarini) matematik statistika metodlari orqali hisoblashni tatbiq etganlar. B.M.Teplov ilmiy maktabi namoyandalari tomonidan olingan ma'lumotlarga qaraganda, insonda hosil qilinadigan shartli reflekslarning ba'zi bir individual xususiyatlari o'zaro uyg'unlikka ega bo'lib, ular o'zaro bog'liq individual xususiyatlar tizimi nerv tizimining muayyan xususiyati bilan tavsiflanadi. Jumladan, o'zaro bog'langan xususiyatlar, birinchidan, shartli qo'zg'ovchi mustahkamlanishi davom etishidan qat'iy nazar, shartli reflekslar so'nishi darajasiga, ikkinchidan, qo'zg'ovchilarning kuchli yoki kuchsizligi bilan shartli reaksiyaning hajmi orasidagi tafovutlarga, uchinchidan, asosiy qo'zg'ovchi sezgirligiga begona (notanish) qo'zg'ovchini ijobiy (salbiy) ta'sir o'tkazish darajasiga, to'rtinchidan, boshqa ko'rinishdagi yoki kuchlanishdagi qo'zg'alish jarayonlarining kuchiga bog'liq ekanligini ma'lum qiladilar. Ma'lumotlarning tahliliga binoan, tormozlanishning (to'xtalishning) kuchi bilan nerv jarayonlarining muvozanatlashuviga taalluqli shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlari turkumlari shunga o'xshash usul yordami bilan kashf qilingan. Shuningdek, B.M.Teplov ilmiy maktabining namoyandalari tomonidan ijobiy va tormozlovchi shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligini tavsiflovchi individual xususiyatlar turkumi ham izohlab berilgan. Ushbu individual xususiyatlar mohiyatida ifodalanuvchi nerv tizimining notanish xususiyati *dinamiklik* deb tavsiflangan.

Bundan tashqari, ular shartli reflektor faoliyatining bir guruh individual xususiyatlari qo'zg'alish jarayonining to'xtalishining tezligi mahsuli sifatida taxmin qilingan xususiyatni (yangi xislatni) labillik (*lot. «labialis» - beqarorlik*) deb ataganlar. Shuning bilan birga ular nerv tizimining boshqa xususiyatlari mavjudligi to'g'risida ilmiy taxminlar ilgari surganlar, jumladan: senzitivlik, reaktivlik va hokazo. Yigirmanchi asrning 60-70 yillarida ushbu soha bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, temperamentning psixologik tavsifi bilan I.P.Pavlovning tiplari o'rtasida aloqa hukm surishiga hech qanday shak-shubha yo'q. Temperamentga taalluqli nerv tizimining tiplari ham insonga, ham hayvonlarga tegishli bo'lib, ular umumiy tiplar deb nomlanadi. Binobarin, temperamentning *fiziologik asosi* – bu nerv tizimining umumiy tiplari bo'lsada, biroq I.P.Pavlovning tiplari – bu nerv tizimi xususiyatlarining tanho tipik birikmasi emas ekan, chunki keyinchalik bu borada yangi birikmalar topildi. Lekin ajratilgan tiplarning barchasi bir xil ahamiyatga molik emasligi tufayli ularning eng asosiylari kuchli va kuchsiz tiplardan tashkil topadi. Shunday qilib, asab tizimi bilan bog'liq individual sifatarni bilish shart, chunki ular bevosita mehnat va o'qish jarayonlarini har bir inson tomonidan, uning manfaatlariga mos tarzda tashkil etishga xizmat qilib, asabga bog'liq bo'lgan tabiiy xususiyatlarni ham umuman o'zgarmas deb bo'lmas ekan, chunki tabiatda o'zgaraydigan narsaning o'zi yo'q. Masalan, V.S.Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'lishini boshqarish masalasida ko'p ishlar qilib, uning fikricha, insonda mavjud bo'lgan faollik, bosiqlik, emotsional tetiklik, hissiyotlarning tezda namoyon bo'lishi va o'zgaruvchanligi, kayfiyatning turg'unligi, behalovatlilik, ishchanlik, yangi ishga kirishib ketish, malakalarning tez hosil bo'lishi kabi qator sifatlar asosida shaxsdagi o'sha ekstraversiya va intraversiya xossalari yotadi va ularni ham o'zgartirish va shu orqali temperamentni boshqarish mumkin. Shulardan kelib chiqqan holda, shaxsning mehnat qilish uslubini tanlash va professional mahoratni o'stirishda ayni shularga e'tibor bersa ularning faoliyat natijasi samarador ko'rsatkichga ega bo'lishi kuzatiladi. Masalan, ba'zilar xoleriklarga o'xshash qiziqqon, tezkor bo'lib, ular mehnat jarayonida faollik, ishni tez bajarishga layoqati ijobiy bo'lsa, uning salbiy tomoni ishni chala tashlab ketish xavfi, ba'zi tomonlariga esa yuzaki qarashi kishini o'ylantiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, hayotda sof temperament ham bo'lmaydi va u yoki bu temperament tipi juda yaxshi ham emas, har bir tipning o'ziga xos nozik, kuchsiz tomonlari va shu bilan birga kuchli, ijobiy tomonlari ham bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, psixik faoliyatning dinamikasi nafaqat temperamentga, balki motivlarga, psixik holatlarga, his-tuyg'ularga ham bevosita bog'liqdir.

Nerv sistemasining umumiy tiplari kelib chiqishi yuzasidan mulohaza yuritilganda, albatta I.P.Pavlovning ta'limotini eslash maqsadga muvofiqdir, chunonchi irsiyat yo'li bilan shartlangan tip–bu genotip demakdir. Hozirgi davrda nerv sistemasining umumiy tipi (genotip) irsiyatga bog'liq ekanligi haqidagi ma'lumotlar, juda ko'p bo'lib, ular qiyosiy jihatdan hayvonlarni o'rganish natijasida topilganidir.

Temperamentning tipologiyasi mobodo insonlar temperamentlari bo'yicha

qiyoslansa, u holda uning xususiyatlari jihatidan o‘zaro o‘xshash shaxslarning guruhi mavjudligi namoyon bo‘ladi. Bu asnoda eramizdan oldingi davrda ham temperament tiplari to‘g‘risida materiallar to‘plangan. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma‘lum insonlar guruhi uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o‘zaro bog‘liqligi tushunilib, uning tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o‘zaro bog‘liqligini turlicha aks ettirgan holda, yangi omillar mazkur tiplarning psixologik tavsifini qayta tahlil qilishni taqozo etadi.

Temperament tiplarining psixologik tavsifi quyidagi muhim xususiyatlar yordami bilan aniqlanishi mumkin:

1. Sensitivlik (lot. «sensus» - sezish, his qilish) – insonda bironta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo‘lgan o‘ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi jumladan, sezgilarning paydo bo‘lishi uchun kerak qo‘zg‘ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmaligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashishi tushuniladi.

2. Reaktivlikda aynan bir xil kuch bilan ta‘sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildirilib, uning yorqin ro‘yobga chiqishi – emotsionallik, ta‘sirchanlikda ifodalanadi. **3. Faollik** – inson qandaydir faollik darajasi bilan tashqi olamga ta‘sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishida ob‘ektiv hamda sub‘ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan yengishidir.

4. Reaktivlik bilan faollikning o‘zaro munosabatida odamning faoliyati ko‘p jihatdan nimaga bog‘liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarda (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlarga ko‘ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5. Reaksiya tempi – turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechishi tezligiga, binobarin, harakat tezligiga, nutq sur‘atiga, farosatlilikka, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqarishdir.

6. Harakatlarning silliqligi va unga qarama-qarshi sifat – rigidlik (qotib qolganlik) – shaxsning o‘zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik yengillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligi (rigidligi – qotib qolganligi)ga nisbatan baho berishdan iboratdir.

7. Ekstravertlik va intravertlik - shaxsning faoliyati va reaksiyasi ko‘p jihatdan nimalarga bog‘liqligiga, chunonchi favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki, aksincha, timsollarga, tasavvurlarga, o‘tmish hamda kelajak bilan uyg‘unlashgan mulohazalarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Turli temperament tipiga mansub insonlarda har xil xarakter xususiyatlari, shaxs sifatleri, holatlari ro‘y beradi. Temperament tiplariga mos xususiyatlarni muhimlari quyidagi jadvalda aks ettiriladi. Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo‘lar-bo‘lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo‘lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo‘r qo‘zg‘alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko‘rinib turadi. Uning aft-

basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi. Sust sezitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak. Juda kuchsiz tovushlarni va yorug'lik qo'zg'ovchilarni payqamaydi. Aktivligi yuksak, juda g'ayratli va ishchan, darslarda tez-tez qo'l ko'tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g'ayrat bilan kirishadi. Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o'z hissiyotlarining namoyon bo'lishini va o'zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to'playdi. Aqli tez ishlaydi, topqir. Harakatlari nihoyat darajada silliqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlari, qiziqishlari va intilishlari juda o'zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. Yangi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko'cha oladi. Malakalarni tez o'zlashtiradi va tez qayta o'zgartiradi. Aqli ixcham. Ekstrovertlik xususiyatiga ega. O'tgan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashqi taassurotlarga javob beradi.

Sangvinik – juda faol, qiziquvchan bo'lib, atrofdagi narsalar, insonlar diqqatini tez jalb etadi. U imo-ishoralarni ko'p ishlatib, uning chehrasiga qarab kayfiyatini anglab olish qiyin emas. Juda sezgir bo'lishiga qaramay, kuchsiz ta'sir(qo'zg'atuvchilar)ni seza olmaydi, serg'ayrat, ishchan, toliqmasdir. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatli bo'ladi, intizomli, o'zini tiya biladi va boshqara oladi. Uning xatti-harakati jo'shqin, nutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql idroki teran, topqir, qiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o'zgaruvchandir. Ko'nikma va malakalarni tez egallaydi, ko'ngli ochiq, dilkash, muloqotga tez kirishadi, uning xayoloti (fantaziyasi) yuksak darajada rivojlangan, tashqi ta'sirlarga hozirjavob bo'ladi.

Xolerik xuddi sangvinik kabi sust sezitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o'zini ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va qo'proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo'r qatilylik bor, diqqatini ko'chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga yetkazadi, ammo unga qiziqsa.

Xolerik – sust sezitivlik xususiyatiga ega bo'lib, juda faol va reaktivdir. Ko'pincha reaktivligi faollikdan ustun kelib, u betoqatlik, serzardalik va giperaktivlikni namoyon qiladi. Sangvinikka qaraganda qo'zg'aluvchan, lekin ko'proq rigid, qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti-harakatlarda qat'iylik mavjud bo'lsada, biroq diqqatni bir joyga to'plashda qiynaladi, nutq sur'ati tez va h.k.

Flegmatik – sezitivligi sust, hissiy qo'zgaluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko'ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz. G'ayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan to'playdi. Rigid (qotib qolgan), diqqatini qiyinchilik bilan ko'chiradi. Yangi sharoitga qiyinchilik

bilan moslashadi. Introvert. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo‘shiladi. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

Flegmatik – senzitivligi sust, his-tuyg‘usi (emotsiyasi) kam o‘zgaruvchan, shunga ko‘ra bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin bo‘lib, ko‘ngilsiz hodisa xavf-xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo‘ladi. Vazmin, kam harakat, imo-ishorasi, mimikasi ko‘zga yaqqol tashlanmasada, lekin serg‘ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatlidir. Uning nutq va harakat sur‘ati sust, farosati qiyiqroq. Diqqatni to‘plashi osoyishta, rigid ko‘rinishida bo‘lib, diqqatni ko‘chirishi qiyin kechadi. Intravertlashgan, kam gap, ichimdan top toifasidan bo‘lib, yangilikni qabul qilishi murakkab va tashqi taassurotlarga sustlik bilan javob beruvchandir. Melanxolik – yuksak senzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko‘ra, ko‘zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig‘laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust. O‘ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug‘iladigan bo‘lsa, qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urib qo‘ya qoladi. G‘ayratsiz qatiy emas. Diqqati tez chalg‘iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega.

Melanxolik – senzitivligi yuksak, tortinchoq, g‘ayratsiz, arazchan, xafaqon bo‘ladi. U jimgina yig‘laydi, kam kuladi, qat‘iyligi va mustaqilligi zaif, tez toladi, ortiqcha ishchan emas. Diqqati barqaror, his-tuyg‘usi sust o‘zgaruvchan, rigid va intravertlashgan. Psixologik ma‘lumotlarda e‘tirof etilishicha, irsiyat va turmush sharoitlari temperament tiplari o‘rtasidagi tafovutlarning sababchisi ekan. Shuning uchun irsiy fiziologik xususiyatlari bir xil va bitta tuxumdan yaralgan (gomozigot) egizaklarning temperament xususiyatlarini ikkita tuxumdan vujudga kelgan (geterozigot) egizaklarning temperament xususiyatlari bilan qiyoslansa, bu omil tasdiqlanishi mumkin ekan.

Shaxsning individual xususiyatlari uning tug‘ma, biologik xususiyatlariga bog‘liq. Chunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo‘lsa, ikkinchi tomondan biologik – yaxlitlik, tug‘ma sifatlarni o‘z ichiga olgan individ hamdir. Temperament va layoqatlar individning dinamik – o‘zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta‘minlovchi sifatlarini o‘z ichiga olib, ular shaxsda ontogenetik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo‘ladi. Temperament xususiyatlari odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emotsional holatdan yoki bir malakalardan boshqasiga almashtirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta‘minlaydi. Temperament xususiyatlari shaxsning ichki tuzilmasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi, ya‘ni ularning namoyon bo‘lishi uning konkret vaziyatlarga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o‘zini qanday tutishini belgilab beradi. Shuning uchun bir xil vaziyatni turli shaxslar, biri og‘ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o‘zini yo‘qotgudek darajada his-hayajon bilan boshidan kechiradi. Shuning uchun ham temperament shaxs shakllanishi va ijtimoiy muhitda o‘ziga xos mavqeni egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Temperamentning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u hayotiy voqealar va vaziyatlarni, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarni «yaxshi - yomon», «ahamiyatli - ahamiyatsiz» mezonlari asosida ajratishga imkon berib, bunda temperament

odamning ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan «sezgirligini» tarbiyalaydi, professional mahorat va kasb malakasining oshib borishiga yordam beradi. Temperament xususiyatlari aslida tug'ma hisoblansada, shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo'lgani uchun ham ma'lum ma'noda dinamik ko'rinishda bo'ladi. Shuning uchun ham tug'ilgan chog'ida sangvinikka o'xshash harakatlar namoyon qilgan bolani umrining oxirigacha faqat shundayligicha qoladi, deb bo'lmas ekan.

3.2.Sportchilarning temperamenti to'g'risida kuzatishlar olib borish.

Sportchilarning temperamenti tabiiy tug'ma hususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan individual hususiyatlarini tushunamiz. I. P. Pavlov temperamenti quyidagicha tariflaydi: «har bir ayrim kishining va shuningdek, har bir hayvonning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har bir individning butun faoliyatlariga muayyan qiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir». Temperament psixologik jihatdan olganda, sportchidagi xissiyotning qo'zg'alishlarida va sportchidagi umumiy xarakatchanglikda ko'rinadigan individual xususiyatlardir. Ba'zi sportchidagi xissiyotning qo'zg'alish tezligi va kuchi barqaror bo'ladi. Ba'zi sportchilarda esa bunday qo'zg'alish sust, zaif bo'lib, uzoqqa bormaydi. Temperamentning bunday xususiyatlari sportchidagi xissiyotning qo'zg'alishlari bilan birga, organizmning atrofda muxit ta'siriga javoban ko'rsatiladigan ixtiyorsiz reaksiyalarida ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Bu xususiyatlar tashqi tomondan sportchilarning mimikalarida, pantomimalarida (xursand yoki g'azabli xolatlarida) xarakat va imo-ishoralarida ko'rinib turadi. Sportchi xissiyotining bunday qo'zg'aluvchanlik xususiyatlari diqqatning kuchli va barqarorligida, iroda sifatlarida, sport mashg'uloti jarayonlarida va sport musobaqalarida aks etadi. Mana shunday ixtiyorsiz faoliyatning qanday yuz berishiga qarab, bir xil sportchilarni «tez», «betoqat», «serg'ayrat», «jo'shqin» deymiz. Ba'zilarini esa «sustkash», «lapashang» va hokazolar deb yuritamiz. Bu xildagi individual xususiyatlardan sportchining temperamenti (mijozi) tarkib topadi. Ayrim sportchilarda temperamentlarning alomatlari sportchining bolalik chog'larida yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir sportchi o'ziga xos temperamentga ega bo'ladi. Lekin har qaysi sportchining temperamentlarida manashunday individual tofovudlar bo'lishi bilan birga bunday temperamentli sportchilar umumiy o'xshash belgilar va alomatlari ham bo'ladi. Sportchilarning temperamentlarini umumiy belgilarga qarab ajratish, ya'ni kelasifikatsiya qilish mumkin. Barcha temperamentlarga qarab to'rt tipga: 1) Xolerik, 2) Sangvenik, 3) Melanxolik, 4) Flegmatik temperamentga ajratishgan. 1. Xolerik temperamentli sportchilar – bu tipdagi sportchilar xissiyotning tez va kuchli qo'zg'aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Xolerik temperamentli sportchilarning xissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, sport mashqulot jarayonlarida va musobaqalashish vaqtida yaqqol ko'rinib turadi. Xolerik temperamentli sportchilar qo'zg'aluvchanlik va tajanglikka moyil bo'ladilar: Bunday temperamentli sportchilar, chaqqon umuman xarakatchan, serg'ayrat va har doim tengqurlaridan ustun bo'lishni, jismoniy mashqlarni bajarishda ham xarakatchan bo'ladi. Bu xildagi temperamentli sportchilar serg'ayrat bo'ladilar, ular sport mashg'ulotlariga tezda kirishib ketadilar va tezda o'zlashtirib oladi. Boshlagan sport mashg'ulotini oxirigacha yetkazadilar. Bu tipdagi sportchilar jamoaviy sport o'yinlarini yaxshi

ko'radilar va bunday, sport turlarida o'zlari o'yinni boshlab beradilar. O'yin oxirigacha faol qatnashadilar. Xolerik temperamentli sportchilar arazchan, serjaxil va tajang bo'ladilar bir narsadan xafa bo'lsa bu xafachilik ularda uzoq saqlanadi. Bunday sportchilarni kayfiyati ancha barqaror va davomli bo'ladi. Bunday sportchilar judayam ko'p sport turiga tez moslashib kirishib ketishga harakat qiladilar. Sangvenik temperamentli sportchilar – bu tipdagi sportchilar hissiyotning tez quzg'aluvchanligi, lekin barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Sangvenik temperamentli sportchilarning kayfiyati tez- tez o'zgarib, bir kayfiyat o'ziga teskari bo'lgan ikkinchi kayfiyat bilan tez almashib turmog'i mumkin. Sangvenik tipdagi sportchilarda muxim jarayonlar holerik temperamentli sportchilardagidek tez o'tadi. Bu hil temperamentli sportchilar sport mashg'ulotlarida ildam, chaqqon, serharakat va hushchaqchaq bo'ladilar. Sangvenikning temperamentli sportchilar tevarak atrofdagi voqe'alardan tez ta'sirlanadilar va muvaffaqiyatsizliklar hamda ko'ngilsiz xodisalar uchun qattiq hafa bo'lmaydilar. Bunday temperamentli sportchilar o'zi sevgan sport turiga tez va g'ayrat bilan kirishadigan bo'ladilar. Lekin jismoniy mashqlardan tez soviydilar bir zayildagi sport mashg'ulotlarini uzoq davomli suratda bajarishni istamaydilar. Sangvenik temperamentli sportchilar juda ser harakat, ildam va chaqqon bo'ladilar. Ular har qanday sport mashg'ulotlariga va musobaqalariga qatnashish uchun doim tayyor bo'ladilar. Ko'pincha, bir qancha vaziyatlari o'z zimmasiga oladilar lekin har bir mashg'ulotga ishtiyoq bilan tez kirishganliklari singari boshlagan mashg'ulotlaridan tez qaytishlari ham mumkin. Sangvenik temperamentli sportchilar chin ko'ngildan vadalar berishni, lekin ko'pincha vadasini unutilib, uni bajarmasliklari ham mumkin. Bu hil temperamentli sportchilar sportning ko'p turlariga tez va zavq bilan kirishadilar. Lekin o'yin davomida, o'z rollarini tez – tez o'zgartirib turishga harakat qiladilar. Bunda temperamentli sportchilar darrov hafa bo'ladi va hafaligni tez unutiladigan bo'ladilar. Ularning hafaligi kulgu bilan tez almashinadi. Bunday temperamentli sportchilar sport turini tez – tez almashinib turadilar.

3. Melonxolik temperamentli sportchilar – bu temperamentli sportchi hissiyotining sekin, lekin kuchli quzg'aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Melonxolik tipdagi sportchilar barqaror davomli bir kayfiyatga moyil bo'ladilar. Lekin hissiyotlarning tashqi ifodasi juda zayif bo'ladi. Melonxolik temperamentli sportchilar harakatlarni sekin bajaradigan bo'ladilar. Melonxolik temperamentli, sportchi sport mashg'ulotiga va musobaqalariga birdan kirishmasligi mumkin. Lekin bir kirishsa boshlagan sport mashg'ulotini oxirigacha yetkazmay qo'ymaydi. Bunday temperamentli sportchilar mumin-qobil yuvosh bo'ladilar. Ko'pincha birov savol bilan murojaat qilsa uyalib tortinib javob beradilar. Bunday sportchilarni darrov xafa yoki hursan qilish yengil emas lekin bir narsadan hafa bo'lsalar bu hafalik uzoq davom etadi barqaror bo'ladi. Melonxolik temperamentli sportchilar sport mashg'ulotlariga yoki biror o'yinga tez kirishib kermaydilar, lekin qandaydir ish yoki sport mashg'ulotini boshlasalar bunday vaqtda chidam va matonat ko'rsatadilar.

4. Feligmetik temperamentli sportchilar – bu tipdagi sportchilarni xissiyoti juda sekin, kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi. Feligmetik temperamentli sportchilar hissiyotning tashqi ifodasi kuchsiz bo'ladi. Bunday temperamentli sportchilarni xursand qilish,

xafa qilish yoki g'azablantirish ancha qiyin. Feligmetik temperamentli sportchilarda psixik jarayonlari sust bo'ladi. Bunday temperamentli sportchilar nihoyatda og'ir, yuvosh, bosiq, sport mashqlarini va harakatlar salmog'li bo'ladi. Sport bilan shug'ullanishni boshlasalar, boshlagan mashg'ulotini qobiliyat bilan davom ettiradi. Feligmetik temperamentli sportchilar yuvosh, mumin-qobil bo'ladi. Bunday sportchilar ko'pchilikka aralashmaydigan, jamoaviy sport turlarini yoqtirmaydigan tortinchoq va hech kimga tegmadigan, birovlarini ranjitmaydigan bo'ladilar. Agar birov ular bilan urush chiqarmoqchi bo'lsa, o'zini chetga olishga harakat qiladilar. Ular shovqin-suronli, harakatli o'yinlarga va jangovor sport turlariga qiziqishi bo'lmaydi. Bunday temperamentli sportchilar jizzaki bo'lmaydilar va odatda ular o'yin –kulgularga moyil emaslar. Feligmetik temperamentli sportchilar tashabbus ko'rsatishga moyil bo'lmaydilar, lekin ular sport faoliyatini yo'lga qo'yilsa, ancha qunt bilan bajaradilar. Sport mashg'ulotlariga kirishib ketishi mumkin. Bunday sportchilar sportda ko'pincha muvoffaqiyatsizlikka uchraydilar

Har bir sportchi temperamentini batomom bir tip doirasigagina «sig'dirib» bo'lmaydi albatta. Tip tushunchasining o'zi faqat bir – biriga o'xshash bir gurux sportchilarnigina o'z ichiga olishligini nazarda tutadi. Har qaysi sportchi temperamentida o'ziga xos individual xususiyatlari bo'ladi. Sportchilarda bu xususiyatlarni batomom muayyan bir temperament tipiga kiritib bo'lmaydi. Bu xususiyatlar ayni individual xususiyatlardir, ya'ni shu sportchining o'zigagina xos xususiyatdir. Ko'pchilik sportchilarda bir tip temperament alomatlari ikkinchi bir tip temperament alomatlari bilan qo'shilgan bo'lishi ham mumkin, misol uchun: xolerik temperamentli sportchida melonxolik yoki feligmatik temperament alomatlari bo'lishi, songvanik temperamentli sportchida xolerik va feligmatik temperament alomatlari bo'lishi mumkin va hokazo. Sportchilarni faqat ularda qaysi temperament belgilari ustun bo'lsa, shunga qarab. Ma'lum bir temperament tipiga kiritish mumkin. Ammo temperament haqida bayon qilingan fikrlardan sportchi temperamentining barcha xususiyatlari albatta nerv sistemasining tuzulish xususiyatlari bilan qat'iy ravishda belgilanadi va o'zgarmaydi, degan xulosa chiqarish yaramaydi nerv sistemasining ma'lum bir tipii faqat sportchi shaxsida ma'lum sifatlarga moyillikni vujudga keltiradi, unga zamin xozirlaydi, xolos. Temperamentga xos bo'lgan xususiyatlarni sportchi o'z irodasi, istagi bilan o'zi o'stira oladi, birmuncha yuqotadi yoki o'zgartira oladi. Sportchi temperamenti xususiyatlaridagi bunday o'zgarishlar sportchining shaxsiy istagi bilangina vujudga kelib qolmaydi balki, sportchining sportda erishgan tajribasi asosida tevarak atrofdagi muxit ta'siri, asosida tarbiya, sport mashg'uloti, ta'siri ostida ham vujudga keladi. Nerv faoliyatining o'zi qandaydir o'zgarmaydigan bir narsa emasligini I.P.Pavlov aytib o'tgan edi. U nerv sistemasining faoliyati «sportchilarning hayot faoliyatida tarbiya ta'siri bilan» o'zgarishi mumkin va bir shakilga kirgan nerv 54 faoliyati tug'ma nerv sistema tipii bilangina belgilanmasdan, balki organizim hayotning butun o'tgan tarixi bilan ham belgilanadi, deb hisoblaydi. «Odam bilan hayvonning hatti – harakati» - deydi I.P.Pavlov farq nerv sistemasining tug'ma xususiyatlarigagina bog'liq bo'lib qolmay, balki organiimning individual xususiyatlari bilan hayotda uning doim

ko'rsatilgan va ko'rsatilayotgan ta'sirlariga ham bog'liqdir. Ya'ni, keng ma'noda olganda, doimiy tarbiya yoki o'rgatishga bog'liqdir. Buning sababi shuki, nerv sistemasining yuqorida ko'rsatilgan xossalari bilan bir qatorda, uning eng muhim xossasi bo'lgan, eng yuksak plastikligi ham to'xtovsiz kor qilib turadi. Demak agar gap nerv sistemasining tabiiy tipii to'g'risida borar ekan, u vaqtda bola tug'ilgan kundan boshlab manna-shu organizmga ta'sir etgan va hozirgi vaqtda ham ta'sir etib turgan barchi jismoniy va ruhiy ta'sirlarni hisobga olmoq kerak. Sportchilar kechiradigan ma'naviy hislar shaxsiy tuyg'ular, ya'ni sportchining shaxsiy xatti-harakatiga bog'liq bo'lgan hislar bilangina cheklanib qolmaydi. Sportchidagi ma'naviy hislarning xususiyati shundan iboratki, kishilarning xatti-harakati jamiyat axloqiy me'yorlariga muvofiq bo'lgan taqdirdagina u xursand bo'ladi, bu xatti-harakatlar jamiyat axloqiy meyorlariga nomuvofiq bo'lganida g'azablanadi. Sportchilardagi tashabbuskorlik ularning boshqa sportchilarda tug'ilgan hislarni o'z tuyg'u-kechinmalaridek qabul qilish qobiliyatlarida ham ifodalanadi. Sportchilar kishilarga xayrixoh bo'lib, ularning xursandchiligiga va g'am-g'ussasiga, do'stlari va jamoadoshlarining dushmanlariga nisbatan g'azab va nafratiga sherik bo'lishdan o'zlarini chetga tortmaydilar. Yuqoridagi firklardan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkinki, sportchining barcha individual-psixologik hususiyatlari asosan sport faoliyati jarayonida namayon bo'ladi. Xarakter, temperament, qobiliyat va qiziqish kabilar sportchining individual xususiyatlaridir. Sportchilar turli sport faoliyatlarida, mashg'ulotlarda biror mashq yoki sport o'yinlarini tez yoki sekin bajarishlarida taktik xarakterlar rejasini amalda katta mahorat bilan namoyish etishda bir-birlaridan farq qiladilar. Masalan, bir sportchi 100 metrli masofaga sekinroq chopsa, ikkinchi bir sportchi bu masofani tezlikda yugurib o'tadi. Ayrim sportchilarning sport faoliyati samarali bo'lsa, boshqa bir sportchilarning faoliyat natijalari kutilganidek samara bermaydi. Tabiiyki, sportchilar har xil temperamentli bo'lib, ularning har biri g'alabaga o'z yo'li bilan boradi. Jamoada hech qachon 6 ta bir xil gimnastikachi bo'lmaydi, har qanday holatda ham hech kim birov-ning eng yaxshi sifatini takrorlay olmaydi. Har xil fazilatlarini o'zida to'la ma'noda birlashtira oladigan gimnastikachilar haqida orzu qilish mumkin xolos. Albatta har bir gimnastikachi hal qiluvchi daqiqalarda barcha sportchilarga xos yorqin jihatlarni to'liq namoyon etishga harakat qiladi. Bir gimnastikachi musobaqa jarayonida o'z kuch va imkoniyatlarini shoshilmasdan qat'iyat bilan safarbar qila boshlaydi. Ikkinchisi dalil, g'alabaga chanqoq, musobaqalashish xususiyatlari barqaror bo'lib, o'z kuchiga ishonadi. Uchinchisi sabotli, to'rtinchisi o'ta chidamli, beshinchisi yumshoq, jozibali va shu bilan birga temperamentli, oltinchisi serzavq va ochiq ko'ngilli, ettinchisi kuchli, matonatli, dadil va h.k. Har bir sport turi mashg'ulotlar va musobaqa jarayonida sportchining taktik mahoratini oshirib borish uchun ma'lum talablar qo'yadi. Masalan, bokschi ringda raqibining taktik harakatlarining o'zgarishiga qarab, unga qarshilik ko'rsatish usullarini o'zgartirib borish talab qilinadi. Jamoadagi intizom sportchidan o'z hissiyotlari va xohishlaridan tiyilishni, baydarka qayig'ini eshkak bilan haydash muvozanatning har qanday buzilishiga sportchining o'z vaqtida yo'l qo'ymasligini talab qiladi. Bu talablarni ixtiyoriy ravishda o'zgartirish mumkin emas, chunki ular obektiv sabablarga, ya'ni faoliyat mazmuniga bog'liq

bo'ladi. Shunday ekan, barqaror va o'zgarmas temperament tipiga ega bo'lgan sportchi o'zining asab tizimi dinamikasi kuchini ma'lum sport faoliyatining shartlariga va murabbiyning talablariga qanday qilib moslashtira oladi? Buning mumkin bo'lgan yo'llaridan biri shuki, avvalo, sportchi temperamentiga mos keladigan sport turini tanlashi kerak. Masalan, sportning parashutdan sakrash, avtomobil va motosport turlari bilan shug'ullanish melanxolik uchun nihoyatda qiyin yoki bunday temperamentga ega bo'lgan alpinistda to'satdan paydo 56 bo'ladigan, xavfli va qisqa vaqtda hal qilish, yechimini topish talab qilinadigan murakkab vaziyatlarda o'zini boshqarish og'ir kechadi. Temperamentning ayrim jihatlarini qisman qayta tarbiyalash orqali uni sport faoliyati talablariga ma'lum darajada moslashtirish mumkin. Masalan, sportchida yuksak faollikni uyg'otadigan juda qiziqarli mashg'ulotda xolerikning vazminlik darajasi xuddi sangviniktemperamentli sportchilarnikidek bosiq bo'ladi. Futbol o'yinida melanxolik o'z vazifasini chuqur his qilgani tufayli o'ziga xos bo'lgan xavotirlanish xususiyatlariga qaramay, o'yinda sangvinik darajasida taktik mahoratini ko'rsatishi mumkin. Demak, temperament moslashuvning bu yo'li ham cheklanmagandir. Chunki juda qiyin sharoitlarda taxminan, o'ylab ko'rmasdan va tayyorgarliksiz juda tez harakat qilish lozim bo'lib qolgan taqdirda, temperament xususiyatlari eng chuqur va faol hissiyotlarning ta'siriga qaramay namoyon bo'lishi mumkin. Sport mashqlari va sog'lomlashtirish tadbirlari yordami bilan melanxolikning ishonchligini oshirish mumkin. Biroq tashqi hayot sharoitlari va tarbiyaga bog'liq holda temperamentning hamma xususiyatlarini o'zgartirib bo'lmaydi. Sport faoliyatining individual uslubi sportchi uchun xarakterlar va muvaffaqiyatli natijaga erishishda maqsadga muvofiq bo'lgan harakatlar usuli va yo'lining individual tizimidir. Sportchi individual uslubining tarkib topish shartlaridan biri temperament xususiyatlarini hisobga olishdir. Sportchi o'yinda temperamentga ko'p jihatdan mos keladigan harakatni bajarish usullari va yo'llarini tanlaydi. Temperamentga eng mos keladigan harakat usullari va yo'llari temperamentga sabab bo'lgan, ko'pincha mutloqo ixtiyorsiz va behuda javob berish formulalariga hamda harakat xususiyatlariga bog'liqdir. Masalan, muvozanatsiz xolerik gimnastika snaryadlarida taqiqlangan harakatni fikran xotirada saqlab qolish uchun sangvinikka qaraganda ancha ko'p marta mutloqo beixtiyor va behuda qarama-qarshi harakatlarni bajaradi. Melanxolik sportchi musobaqadan oldin o'z kuchiga ishonmasligi, bezovtalanishi va xavotirlanishi tufayli o'yin usullarini bajarishda ixtiyorsiz ravishda xatolikka yo'l qo'yadi, uning musobaqada o'zini o'nglab olishi juda qiyin kechadi. Temperamentga bog'liq bo'lgan xuddi mana shunday individual uslub motosportda, avtomobilchilarda, akrobatchilar va shu kabilarda kuzatiladi. Sportchida individual uslubning tarkib topishida eng muhim shartlardan biri sportchi bajarayotgan jismoniy mashq harakatlariga ongli, ijodiy munosabatda bo'lishidir. Agar sportchi musobaqada eng yaxshi natijalarni qo'lga kiritishga yordam beruvchi qulay usullarni qidirsam, ana shundagina individual uslub yuzaga kelishi mumkin. Sport faoliyatida individual uslub mahoratli sportchilarda, chempionlarda yaqqol namoyon bo'lishi kuzatiladi. Sportchining individual xususiyatlari sport faoliyatida o'zaro chambarschas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Temperament insonning oliy nerv faoliyatining funksiyasi

hisoblanib, tugʻma va ayni vaqtda rivojlanuvchidir. Qobiliyatlar esa bilim, koʻnikma va malaka orttirish yoʻli bilan rivojlanib boruvchi individual-psixologik xususiyatlar sirasiga kiradi. Sportchining muayyan bir qobiliyati va isteʼdod daraja-si uning maʼlum sport turida bilim va koʻnikma hosil qilish tezligi darajasi bilan belgilanadi. Sportda nazariy bilim olish va amaliy koʻnikma hosil qilish esa oʻz navbatida, qobiliyat va isteʼdodning yuzaga chi-qishiga, oʻsishiga sabab boʻladi. Biror-bir sport turi boʻyicha faoliyat samarasi jihatidan sportchilarning qobiliyat darajasi har xil boʻladi. Baʼzi sportchilar oʻzlarining yuksak darajali qobiliyatlari bilan boshqa sportchilardan ajralib turadi. Bundaylar mahoratli, qobiliyatli, talantli sportchilar hisoblanadilar. Sportchining qobiliyati uning layoqati asosida muhitga bogʻliq ravishda, olayotgan jismoniy yuklamalariga hamda psixologik tayyorgarligiga, shuningdek, sportchining oʻz ustida ishlashi bilan bogʻliq holda oʻsib, kamol topib boradi. Sportchidagi qobiliyatlar uning barcha ruhiy jarayonlarida namoyon boʻladi. Sportchi qobiliyatining tarkib topishida qiziqish muhim oʻrin tutadi. Sportchidagi taktik harakatlar, vaqtni tez va harakatni toʻgʻri idrok etishi uning qiziqishi orqali faollashadi. Jismoniy mashqlar va harakatlarning yuqori darajada bajarilishida xayol va tafakkur muhim oʻrin tutadi. Qiziqish jismoniy mashq va sport mashgʻulotlari jarayonining kuchli va barqaror boʻlishiga yordam qiladi. Sportchining gʻalabaga intiluvchanligini oshiradi, uning gʻayratiga gʻayrat qoʻshib, 58 tashabbus koʻrsatishga, faol harakat qilishga, ijod etishga, yangidan yangi taktik harakatlar yaratishga undaydi. Sportchilarda gʻalabaga boʻlgan hissiyotlar va qiziqishlarning kuchliligi bilim, malaka va koʻnikmalarni ongli va mustahkam oʻzlashtirishning muhim shartidir. Shuning uchun murabbiy oʻz shogirdlaridagi maʼlum bir sport turiga oid mavjud qiziqishlarni hisobga olishi, sportchi qiziqishlarining qanday oʻsib borayotganligini kuzatib borishi, shogirdlari sport faoliyatida barqaror, mustahkam qiziqish paydo qilishga harakat qilishi zarur. Sportchilarning individual qiziqish va qobiliyatlari ularning sport faoliyatlari jarayonida yana mustahkamlanib boradi. Diqqat sportchi faoliyati aqliy jarayonining sifatini taʼminlaydigan ichki faollikdir. Sportchining mashqlarning barcha elementlarinibajarishidagi harakatlari ham diqqat ishtiroki bilan sodir boʻladi. Masalan, mashhur karatechilar, qisqa vaqt davomida bir nechta hujum uslublari yordamida juda koʻp harakatlarni tez va aniq bajaradilar. Karatechi agar har bir mashqni bajarganida diqqatini faqat bir obektgagina qaratib harakat qiladigan boʻlsa, musobaqada boshqa muhim obektlar sportchi diqqatidan tashqarida qolib ketadi. Bu holat sportchiga noqulay vaziyatlar yuzaga keltiradi. Sportchi kuchli markazlashgan diqqat bilan toʻpni nishonga urishi yoki toʻpni jamoadagi oʻz sherigiga toʻgʻri uzatishi bilan bir vaqtning oʻzida raqiblarning oʻyin joylarini almashtirib turgan harakatlarini ham doimo diqqat bilan kuzatib turishi kerak. Yosh oʻyinchi bilan ishlayotgan murabbiylar shogirdlarini keng markazlashgan diqqatni yaxshi rivojlantirish orqali bajarilayotgan har bir harakatni oʻzlari ham diqqat bilan kuzatib borishga odatlantirishlari zarur. Sportchi har bir daqiqada diqqatini tashqi va ichki obektlarga yoʻnaltirib turadi. Baʼzi sabablarga koʻra kuchli xayajonlanish natijasida fikran moʻljallangan reja oʻzgargan holatlarda sportchining texnik yoki taktik vazifalarni hal etishida diqqat alohida oʻrin tutadi. Sportchi ichki his-tuygʻularini qattiq nazorat qilgan holda

diqqatini tashqarida bo'layotgan hodisalarga yo'naltirishga o'rganishi maqsadga muvofiqdir. Agar sportchi diqqatini ichki obekt (xalaqit berayotgan fikr)dan tashqi obekt (musobaqa jarayoni)ga ko'chira olmasa yoki kechikib ko'chirsa, raqibining taktik fikri va harakatlarini kechikib idrok qiladi. Natijada sportchi murakkab taktik masalalarni to'g'ri hal qilishda qiynaladi, sergaklik va ishchanlik harakati, ya'ni xavfli vaziyatlarda o'zini to'g'ri boshqarish va nazorat qilish qobiliyati pasayib ketadi. Sportchi diqqatini muhim obektga yo'naltirishi bilan birga, boshqa harakatlarni ham diqqat bilan kuzatib borishi, jismoniy mashq harakatlarini avtomatlashtirish darajasiga yetkazishi, musobaqa paytida kuchli barqaror markazlashgan diqqatni vujudga keltirishi kerak. Irodaviy diqqati yaxshi rivojlanmagan sportchilarning diqqati musobaqa paytida tashvishlanishi va vahimaga tushishi natijasida tez tormozlanadi, diqqat hajmi torayadi, sportchiga xos maxsus qobiliyatlar pasayib ketadi; turli-tumana salbiy fikrlarning vujudga kelishi oqibatida, tashqi axborotlarni qabul qilishga xalaqit beradi. Sportchi musobaqada yuqori natija ko'rsatgan holatini, shuningdek, mag'lubiyati sabablarini o'zi tahlil qilishga odatlansa, sportchi diqqati yaxshi rivojlanadi va bo'lajak musobaqalarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Amerikalik mashhur ruhshunos M. Naydiffer tomonidan sportda to'rt tip diqqat mavjudligi aniqlangan: 1. Ichki keng markazlashgan diqqat. 2. Tashqi keng markazlashgan diqqat. 3. Tashqi tor markazlashgan diqqat. 4. Ichki tor markazlashgan diqqat. Birinchi tip - ichki keng markazlashgan diqqat sohihi bo'lgan sportchining diqqati barqaror, ichki dunyosi, fikri doimo nazoratda bo'ladi; musobaqada sodir bo'layotgan hodisalarni yaxshi tushunadi va tahlil qiladi. Katta hajmdagi axborotlarni qabul qilib, fikran aniq xulosa chiqara bilish qobiliyati yaxshi rivojlangan sportchilar musobaqa jarayonida yo'l qo'ygan xatolarini o'z vaqtida tez tushunib oladi va boshqa takrorlamaslikka harakat qiladi. Bu tip diqqat egalari musobaqa vaziyatiga qarab o'zini tezda o'nglab oladi, doimo yuqori ishchanlikda bo'ladi, raqibining o'yin vaqtida bajarayotgan xarakatlaridan tezda aniq xulosalar chiqaradi, o'yinda har xil taktik harakatlar bilan raqibini vahimaga tushiradi, o'yinidagi vaziyatni o'zgartiradi va o'yinni qanday natija bilan tugashi haqida oldindan to'g'ri xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Katta hajmdagi ichki keng markazlashgan diqqatga ega bo'lgan sportchilardagi kamchiliklardan biri shundaki, muhitni nihoyatda chuqur, o'zoq muddat tahlil qilishi natijasida tashqi obektda bo'layotgan hodisalarga diqqatini tez ko'chirishda sustkashlik qiladi; o'z jamoasi o'yinchilaridan birortasi yoki raqibi kutilmaganda harakatini o'zgartirsa, tezda javob qaytarishga qiynaladi. Masalan, to'p ustasi o'zi bilan o'yinda to'pni olib yurishni yaxshi namoyish etadi. Lekin raqibining taktik harakatlari yoki mahoratini o'z vaqtida emas, kechikib anglaydi, natijada raqib vaziyatdan tezkorlik bilan foydalanadi. Bunday diqqat sohibi bo'lgan murabbiylar o'yin taktikasining yechimini musobaqa boshlanmasdan oldin to'g'ri topa oladi. Lekin musobaqadagi vaziyat kutilmaganda o'zgarsa, murabbiy ikkinchi qarorga kelib, uni qo'llashga kechikadi; o'zining ko'rsatmalariga doimo amal qilavermaydi. Bunday murabbiylar tashqaridan qaraganda, go'yo sportchilarning g'am-tashvishlariga befarq qarayotgandek bo'ladi. Lekin vaqt o'tishi bilan musobaqa jarayonida murabbiyning irodali, bilimdon shaxs ekanligi seziladi. Natijada sportchilar o'z

murabbiyiga ijobiy baho bera boshlaydilar. Ikkinchi tip - tashqi keng markazlashgan diqqat turi sportchilar uchun muvaffaqiyat keltiradi. Bu tip diqqat sohiblari tashqi ta'sirlarga nisbatan qisqa vaqtda, tez va aniq qarorga kelishi bilan farqlanadi. Futbolchilarning ko'pchiligi tashqi keng markazlashgan diqqatga ega-dir. Ular tashqi vaziyatning o'zgarganini tezda sezib oladi va shunga qarab o'zlarining o'yin harakatlarini osonlik bilan o'zgartiradi. O'yin paytida ochiq turgan o'yinchiga to'pni tezda yetkazib berish qobiliya-ting ustunligi yaqqol sezilib turadi. Bu diqqatga ega bo'lgan sportchilar bir vaqtning o'zida katta hajmdagi axborotlarni qabul qiladi va uning obekt uchun zarur bo'lgan tomonlarini tezkorlik bilan ajratib olib, tezda aniq bir qarorga keladi. Katta hajmda qabul qilingan axborot-larning eng muhimlarini o'ta ziyraklik va zudlik bilan ajratib olib, o'z raqibining o'yin harakatlarini tez va aniq tahlil qiladi. Agar u axborot-lar tahlilida va qarorga kelishda kechiksa, raqibiga qulay imkoniyat yaratib bergan bo'ladi, ya'ni o'sha vaziyatdagi imkoniyat raqib foy-dasiga hal bo'ladi. Agar raqib tezkor tafakkurga ega bo'lsa, o'yinchining oldin yo'l qo'ygan xatosini qaytadan takrorlatish maqsadida yana o'shanday vaziyat vujudga keltiradi. Tashqi keng markazlashgan diqqatga ega bo'lgan murabbiylar, o'zining xattiharakatlarini to'g'ri boshqarish va nazorat qilishda o'z ta'sirini kuchli hissiyotlilik sababli tashqi ta'sirlar uni noqulay ahvolga solib qo'yadi. Bu tip diqqat sohibi bo'lgan murabbiy ba'zan musobaqada vaziyatni to'g'ri va tez tahlil qilishda qobiliyatsizlik qiladi. Murabbiyning ta'sirchanligi sababli musobaqalarda kutilmaganda xavfli vaziyat vujudga kelgan vaqtlarda, uning aql bilan bajaradigan ishchanlik holati pasayadi va taktik vazifalarni kechikib hal qiladi. Agar jamoada o'yin ko'tarinki ruhda davom etsa, murabbiyning kayfiyati ham ko'tarinki ruhda bo'lib, sportchilarning kayfiyatini ko'tarish maqsadida ularning yelkasiga urib, maqtab, olqishlab ham qo'yadi. Bordi-yu, jamoaning o'yin jarayoni salbiy tomonga o'zgarib, murabbiyning ham xatti-harakatlari o'zgaradi: sportchilarga baqiribqichqirib, ba'zan so'kinib, har xil ko'rsatmalar va buyruqlar bera boshlaydi; sport hakamlariga va atrofdagi odamlarga ham o'z ta'sirini, hukmini o'tkazmoqchi bo'ladi. Ammo murabbiyning bu uslubi ijobiy natija bermaganidan so'ng, o'shanda yuzaga kelgan holat haqidagi fikr va mulohazalarini atrofdagi odamlarga bir necha bor bir necha kunlar tushuntirib, gapirib yuradi. Bunday murabbiylarning o'z shogirdlari orasida izzat-hurmatga sazovor bo'lishi juda qiyin kechadi. Tashqi tor markazlashgan diqqat barcha yakka kurash sport turlari vatennischilar uchun qulay imkoniyatlar yaratib berishga xizmat qiladi. Bu diqqat xususiyati yaxshi rivojlangan sportchilar bir necha obektda .bo'layotgan harakatlarga diqqatini tez ko'chira oladilar va tezda aniq qarorga keladilar. Biroq bu tip diqqat sohibi bo'lgan sportchilar tashqari-dan qabul qilingan axborotning o'ziga xos tomonlarini kechikib qayta ishlaydi. Masalan, sportchi xayolan oldindan aniq bir o'yinchiga to'pni uzatishni mo'ljallab qo'ygan bo'ladi, lekin raqib oxirgi daqiqada o'sha o'yinchini to'sib qo'ysa, sportchi o'yin sur'atini pasaytirmasdan boshqa o'yinchiga to'pni uzatish harakatini qiyinchilik bilan bajaradi. Mashhur basketbol o'yinchisi Uolt Frezer: «Men bunday diqqat xususiyatiga ega bo'lgan raqibni jonu dilim bilan sevaman», — degan ekan. Chunki bu o'yinchi diqqatini faqat yaqinida turgan raqibiga yo'naltiradi, to'satdan boshqa bir o'yinchi undan osonlik bilan to'pni olib

qo'yadi. To'rtinchi tip — ichki tor markazlashgan diqqat uzoq masofaga chopishda, og'ir atletika, uloqtirish, suzish va chidamlilikni talab qiladigan boshqa sport turlari bilan shug'ullanuvchi sportchilarga muvaffaqiyat keltiradi. Ennday diqqat sohibi bo'lgan sportchi o'zining jismoniy imkoniyatini aniq baholay oladi, musobaqada masofani qanday tezlikda chopib o'tishni aniq his qiladi, yuqori ko'rsatkichlarga erishadi, ammo ular tashqi ta'sirlarning ichki salbiy his-tuyg'ularidan saqlanishga odatlanishi zarur. Ichki tor markazlashgan diqqatga ega bo'lgan sportchilar psixologik egiluvchanlikning yetishmasligi natijasida, kutilmaganda tashqi vaziyatning yoki raqibining taktik harakatlarini o'zgartirishi tufayli o'zini tezda o'nqlab, moslashib ola bilmasligi bilan ajralib turadi. Lekin irodali sportchilar o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishish uchun yuqori ishchanlikni oshiradi va g'alabaga erishadi. Masalan, biz sport ko'rsatkichlari va diqqati bir xil bo'lgan ikkita suzuvchini taqqoslaymiz. Shulardan birinchi suzuvchi katta kuchlanish bilan mashq qilishi, maqsadga intiluvchanligi, o'ziga ishonchi va his-tuyg'usi kuchliligi bois, musobaqada yuqori ko'rsatkichga erishadi, ko'pchilik holatlarda g'alaba qozonadi. Ikkinchi suzuvchi ham katta kuch bilan mashq qiladi, biroq ba'zan o'z kuchiga ishonmasligi tufayli, maqsadga erishishda ikkilanadi, oldingi mag'lubiyatdan vahimaga tushadi, natijada musobaqada yutqazib qo'yadi. Ichki tor markazlashgan diqqat egasi bo'lgan sportchi ko'pincha o'z raqibining yuqori malakali sportchi ekanligini bilib qolsa, unga g'alabani berishga tayyor bo'ladi, o'ziga nisbatan «qobiliyatsizman» degan xulosani chiqaradi. Shundan ma'lumki bir xil diqqat xususiyatiga ega bo'lgan sportchilarning iroda sifati mashq va musobaqalarda qanday natijalarga erishuvda muhim o'rin tutadi. Musobaqa paytida juda nozik diqqat xususiyatlari ham murakkab-lashib ketadi. Masalan, golf o'yinini endi o'rganayotgan o'yinchida birinchi navbatda katta hajmdagi tashqi markazlashgan diqqatning yaxshi rivojlangan bo'lishi juda muhimdir. Chunki bu sport turi o'yinchidan bir vaqtning o'zida to'pni tushiradigan oysimon chuqurchaning uzoq va yaqinligini, shamolning yo'nalishini, qarshiligini, havoning zichligini, o'zining jismoniy kuchini inobatga olishni talab etadi. Golf o'yinchisi bundan so'ng o'zida katta hajmdagi ichki markazlashgan diqqat yordamida tashqi axborotni umumlashtirgan holda, tashqi va ichki to'siqlarni inobatga olib, musobaqa paytida taktik masalalarni to'g'ri hal qiladi, o'zining real imkoniyatlarini aniq va to'g'ri baholaydi, diqqatini bir vaqtda tashqi va ichki ta'sirlarga ko'chira oladi. Sportchi diqqatini bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket zudlik bilan birtipdan ikkinchi tipga ko'chira olsa, bunga odatlansa, musobaqalarda jiddiy g'alabalarni qo'lga kiritadi. Masalan, sportchi tayyorgarlik davri diqqatini to'pni urushga qaratishi, undan keyin diqqatini ichki tor tipga ko'chirish orqali musobaqadagi umumiy vaziyatiga to'g'ri baho berishi, musobaqada xato qilmaslikning oldini olishi mumkin. Eng muhimi, sportchi o'z diqqatini qisqa vaqt ichida, bir tipdan ikkinchi tipga ko'chirishga odatlanishi zarur. Agar sportchi diqqati egiluvchan bo'lmasa, o'yinda juda ko'p xatolarga yo'l qo'yadi. Masalan, ichki tor markazlashgan diqqati yaxshi rivojlanmagan bo'lsa, o'yinda to'pni uzatish yoki darvozaga yo'llashda xatosini tez anglab tahlil qilishda va boshqa takrorlamaslikda qiyinchilikka uchraydi. Musobaqa paytida vaziyatga qarab sportchining diqqati «torayadi», «kengayadi», tashqi obektda yoki fikrda yoxud

sezgilarda diqqatning markazlashuvi turli shaklda bo'ladi. Ba'zan odam og'ir ishni bajarganida, charchaganida yoki tanida og'riq paydo bo'lgan paytda diqqat qilayotgan ishni vaqtincha to'xtatib qo'yish haqida ogohlantirish hamda organizmni himoya qilish uchun signal vazifasini bajaradi. Agar harakat davom etsa, odamda asabiylashish holati vujudga keladi. Bu signal sportchining musobaqada yuqori ko'rsatkichlarga erishish maqsadida tezkorlik bilan ishlash his-tuyg'usini vujudga keltiradi. Buning uchun sportchi o'z organizmining chiniqqanligi yoki jismoniy imkoniyati haqida to'g'ri xulosa chiqarishi; xavfli vaziyatlarda o'zini to'g'ri boshqarish uchun o'z organizmining «xohishiga» muvofiq «Mep boshqa bajarmayman» degan fikrini «Men bajarishim kegak» degan fikr bilan almashtira bilishi zarur. Shunday holatdagina sportchi o'z oldiga qo'ygan talabni bajara oladi. Tajribali sportchilar musobaqa jarayonida o'ziga buyruq berish, majburlash yoki har xil obrazli fikrlardan, formulalardan foydalanadilar. Tish doktorlari inson organizmida og'riq paydo bo'lganida, diqqatini boshqa obektga ko'chirish yordamida emas, balki kasalning diqqatini har tomonga taqsimlash yo'li bilan og'riqni kasal ongida to'xtatishga muvaffaq bo'ladi. Ba'zi uzoq masofaga yuguruvchi sportchilar organizmida paydo bo'lgan og'riqni diqqat yordamida miya markazidan boshqa oyoq harakatlarini nazorat qilishga, qo'lning tirsakdan bukilgan burchagiga, nafas olish maromiga ko'chirish yordamida pasaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sport faoliyatining sifatli bo'lishida, diqqatning hajmi, kengligi, kuchi va barqarorligining ahamiyati juda katta. Diqqat ko'lami, kengligi yaxshi rivojlangan odamlar zarur bo'lgan axborotdan ham ko'p axborotni o'ziga qabul qiladi va o'zlashtiradi. Bu ortiqcha vaqtni oladi va qisqa vaqt ichida bir qarorga keiishda qiynaladi. Masalan, o'yinchi bo'lajak musobaqada kutiladigan barcha vaziyatni fikran hisobga ola boshlaydi. Lekin sportchi fikran son-sanoqsiz vaziyatlarni hisobga olganligi bois, zarur bo'lgan vaziyatni yo'qotishi mumkin. Diqqat tiplari e'tiborga olinmasa, murabbiy va sportchilarning bir-birlarini tushunishlari qiyin kechadi: murabbiy yoki sportchilar, jamoadoshlari bilan o'zaro munosabat o'rnatishda qiynaladilar. Masalan, o'yinda basketbolchi jarima to'pini halqaga tashlaganida to'p tushmasa, uning sababini tahlil qila olmasligi mumkin. Ayni shu vaziyatda murabbiyning diqqati tashqariga yo'naltirilgan bo'lsa, bu vaqtda u shogirdining faqat tashqi harakatlarini aniqlash bilan band bo'ladi. Jarima to'pi tushmagani sababini o'yinchining tashqi harakatlaridan ya'ni to'pni ushlashi, oyoq qo'yishi kabilardan izlashga harakat qiladi. Lekin sportchining kuchli ta'sirchanligi, hissiyotlilikgi to'pni ushlab tashlashda o'ziga ishonmasligi, vahimaga tushishi kabilarni yaxshi tahlil qilib, boshqa xato qilmaslik yo'lini o'rgatishda murabbiy qobiliyatsizlik qiladi. Murabbiy sportchining ruhiy sifatlarini, sportda diqqatning ahamiyatini yaxshi bilsa, yuqorida aytilgan kamchiliklarga yo'l qo'ymaydi. Demak, sportda diqqat alohida ahamiyatga molik: diqqat tiplari, diqqat va harakat uyg'unligini bilish ham sportchi uchun, ham murabbiy uchun juda muhimdir. Sport sohasidagi ko'pgina mutaxassislar - pedagoglar, psi-xologlar, fiziologlar va shifokorlar o'rtasida sportchilarning asab tizimi kuchli bo'ladi, ularning ruhiy xususiyatlari, shu jumladan, temperamentlari sportda yuksak muvaffaqiyat qozonish uchun zaruriy shart hisoblanadi, degan fikr keng tarqalgan. Bu fikr ayrim tadqiqot ishlari

natijasida qisman tasdiqlangan. A.I.Kresotovnikov va uning hamkasblari 1937 yildayoq asab tizimi turi xususiyatlarini test usulida aniqlab, ko'p sportchilar kuchli tipning turli varivsiyalariga mansub, degan xulosaga kelgan. Ushbu muammoni o'rganishni davom etgan olimlar sportdagi muvaffaqiyat asab tizimining tipologik xususiyatlariga shartli ravishda bog'liqligi to'g'risida xulosaga keldilar (A.N.Krestov-nikov, 1951-1955). K.M.Smironov (1954,1962) musobaqalarning yuqori toifadagi sportchilar faoliyatiga ta'sirini o'rganar ekan, qo'zg'alish jarayon kuchsiz kechadigan shaxslar muhim musobaqalarda yomon natijalarga erishishini aniqladi. V.V.Medvedev, A.V.Rodionov, N.A.Xudadov (1973) tadqiqot-lar natijasida sportchilarning musobaqalarda, ruhiy zo'riqish sharoitida asab tizimining qo'zg'alish jarayoniga bog'liq xususiyatlari yetakchi rol o'ynaydi, degan fikrga keldilar. Olingan ma'lumotlar qator mualliflar (K.M.Gurevich, L.A.Kopitova, V.F.Matveeva, V.S.Merlin va h.z.) to'plagan ma'lumotlarga mos keladi. Bu fikrlar ommaviy va o'smirlar sportida boshqacha tus oladi. N.D.Sinani (1967,1968) velosipedchilar faoliyati xususiyat-larini o'rganar ekan, turli malakali sportchilar o'rtasida asab tizimi bo'sh shaxslarni uchratmadi. Ammo bunday fikrlar zamo-naviy ma'lumotlarga (ayrim xususiyatlar kompensasiyasi, tempe-ramentning faoliyat talablariga moslashishi) ko'p ham to'g'ri kelavermaydi (V.S.Merlin, V.D.Nebiglisin, V.M.Teplov, K.M. Gurevich va h.z.) toifasi, yoshi, jinsi, sportdagi staji turlicha bo'lgan sportchilar o'rtasida inertli, yengiltak, jizzaki, asab tizi-mi bo'sh shaxslarning ham uchrashi o'rganishlar natijasida isbot qilingan. Temperament xususiyatlarini ommaviy sport bilan shug'ul-lanishga bo'lgan qobiliyat, deb qarash noto'g'ri. Asab tizimining kuchsizligi, inertliligi yoki barqaror emasligi va bu bilan bog'liq temperament xususiyatlari muvaffaqiyatli 66 sport faoliyatiga xalaqit bermaydi (B.A.Vyatkin, 1964, 1967, 1970; Yu.Ya.Kisyolev, 1971;V.P.Merlikin, 1967,1968; O.A.Chernikova, 1961; V.M.Shadrin, 1967). B.A.Vyatkin (1978) ikki nuqtai nazar mavjud, degan fikrga kelgan: 1) istalgan sport turidagi muvaffaqiyat asab tizimi va temperament xususiyatlariga bog'liq; 2) ommaviy sportda va sportning alohida turlarida asab tizimi va temperament muhim rol o'ynamaydi, turli tipdagi asab tizimi va har hil temperamentli shaxslar sportda birdek natijaga erishishlari mumkin.

4-MAVZU. SPORTCHINING PSIXIK JARAYONLAR VA UNI PSIXODIAGNOSTIKASI.

Reja

4.1. Psixik jarayonlar.

Sportchining psixik jarayonlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq, diqqat, xayol va uni psixodiagnostikasi. Sportda psixodiagnostik tajribalarga qo'yiladigan asosiy talablarni o'zaro farqlash. Psixik va psixomotor jarayonlarni o'lchaydigan testlar va ularning turlarini bir-biridan tafovutlash. Fanga oid psixologik kategoriyalarning mohiyatini tushunish.

4.1. Psixik jarayonlar.

Psixik hodisalar psixik holatlarni, psixik jarayonlarni va psixik xususiyatlarni uz ichiga oladi. Bularning barchasi tirik organizmning tashki olamni

u yoki bu darajada aks ettirishi bilan bog‘lik bulganligi uchun ham bir suz bilan ruhiy, psixik hodisalar deb ataladi. Psixik hodisalarning birinchisi hisoblangan psixik holatlar deganda tashki olamni aks ettirish va javob kaytarish xususiyati, mexanizmlari tushuniladi. Masalan, bolalar va kattalarning dunyoni aks ettirishlari, sog‘lom yoki betob odamning aks ettirishi, bardam, tetik yoki horg‘in, charchagan odamning aks ettirishi sifat xususiyatlari va holatlari bir-biridan fark kiladi. Psixik xususiyatlar deganda odam – sub‘ektning betakror, bir-biridan fark kiladigan xususiyatlaritushuniladi. Bunda asosan odamning temperamenti, kobiliyati va xarakteri nazarda tutiladi. Psixik hodisalar ichida psixik jarayonlar yetakchi va asosiy mazmunni kasb etadi. Psixik jarayonlar tashki olamni ongda aks ettirish, unga javob reaksiyalarini berish bilan bog‘lik jarayonlarning barchasini uz ichiga oladi. Psixik jarayonlar ongning uzida paydo bulib, ongning uzida tugallanadi degan fikrni Sechenov mutlako notug‘ri fikr deb hisoblagan edi. Psixik hodisa hali yuzaga kelmagan natijadan ham darak beradi. Psixik jarayonlar signal yoki boshkaruv funksiyasini bajarib, sharoitga moslashtirishga yoki javob reaksiyasini berishga xizmat kiladi. Psixik jarayon, ma‘lumki uzicha sodir bulmaydi, balki, miyaning mohiyati, uning tegishli bulmalari funksiyasi sifatida olam hakidagi axborotlarning kayokka ketishi, kaerda saklanishi va kayta ishlanishini kursatuvchi javob reaksiyasining boshkaruvchisidir. Psixik jarayonlar o‘z navbatida bilish jarayonlari, emotsional jarayonlar, shaxsning irodaviy holatlari va shaxsning individual xususiyatlari deb nomlangan kislmlarga bulib urganiladi. Psixik hodisalar - bu faoliyatning hozir ta‘sir etayotgan (sezgi, idrok) yoki kachonlardir, ya‘ni turmush tajribasida (xotira) yuz bergan kuzg‘oluvchiga javob tarzida ruy beradigan, ana shu ta‘sirni umumlashtiradigan, ular pirovard natijada olib keladigan natijalarni (tafakkur, xayol) oldindan kura olishga yordam beradigan, bir xil ta‘sirlar natijasida faoliyatni (his-tuyg‘u, iroda) kuchaytiradigan yoki susaytiradigan, umuman faollashtirib yuboradigan va boshka xildagi ta‘sirlar okibatida uni tormozlaydigan, odamlar xulk-atvoridagi (temperament, xarakter va b.) tafovutlarni aniklaydigan doimiy boshkaruvchilaridir. Tashki olamni aks ettirishda rol uynaydigan jarayonlar deganda sezgi, idrok, tafakkur, xayolni tushunamiz. Birok boshka psixik jarayonlar ham ta‘sir kursatadi. Psixik jarayonlarda birinchi signallar tizimi bilan bir katorda odam uchun xos bulgan ikkinchi signallar tizimi ham ahamiyatlidir. Xohlagan psixik jarayonning sodir bulishi va davom etishi shunday bir ruhiy hodisaga bog‘likki u barcha jarayonlarda ishtirok etadi, uning samaradorligiga ta‘sir utkazadi. Bu dikkatdir.

Dikkat ongning bir nuqtaga karatilishi bulib, shaxsning faolligini hamda uning ob‘ektiv borlikdagi narsa va hodisalarga tanlovchi munosabatini ifodalaydi. Dikkat bulmasa, anik maksadga karatilgan faoliyat ham bulmaydi. Dikkatning uch turi bor: ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ixtiyoriydan sunggi dikkat turi. Dikkatning kuyidagi xususiyatlari bor: dikkat kulami, davomiyligi, taksimlanishi, chalg‘ishi, kuchishi, mazmuni va b. Dikkat barcha kasb egalari uchun ham birday zarurdir. Ilm olish, kasb egallash, sifatli mahsulot ishlab chikarish, el-yurt hurmatiga sazovor bulish uchun ongni bir nuqtaga tuplab faoliyat kursatish zarur. MS: Tashki olamni aks ettirishda I va II signallar bog‘likligi nimalarda kurinadi?

Sezgililar. Tevarak atrofdaagi olamning boyligi hakida, tovushlar va ranglar,

hidlar va harorat, miqdor va boshka kuplab narsalar tug'risida biz sezgi a'zolari vositachiligida axborotlarga ega bulamiz. Sezgi deb sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa yoki hodisalarning ayrim sifat va xossalarning ongimizda aks ettirilishiga aytamiz. Biz turli ranglarni, ta'mlarni, og'ir-yengilni, issik-sovukni, tovushlarni sezamiz.

Sezgi a'zolari axborotni kabul kilib oladi, saralaydi, jamlaydi va miyaga yetkazib beradi. Sezgi a'zolari tashki olamning kishi ongiga kirib keladigan yagona yulidir. Sezgi a'zolari kishiga tevarak atrofdagi olamda muljal olish imkonini beradi. Sezgilarning hosil bulishi uchun quyidagi shartlar bulishi kerak: Birinchidan, sezgi a'zolarimizdan birontasiga ta'sir etadigan narsa yoki hodisa bulishi kerak. Ikkinchidan, sezuvchi apparat soz bulishi kerak. Bu apparat quyidagi kislardan iborat: 1. Sezuvchi organ (retseptor). 2. utkazuvchi yul (afferent nerv). 3. Bosh miya pustlog'idagi markaz 4. Miyadan javob impulsini uzatuvchi yul (efferent nerv). Bitta sezgi apparatini tashkil kiladigan kislarni I. P. Pavlov umumlashtirgan nomda analizator deb atagan. Sezgi mohiyatiga kura ob'ektiv olamning sub'ektiv siyosidir. Lekin sezgilarning hosil bulishi uchun organizm moddiy kuzg'atuvchining tegishli ta'sirga berilishi kifoya kilmaydi, balki organizmning uzi ham kandaydir ish bajarishi darkor. Sezgilarning muayyan davr mobaynida retseptorga ta'sir utkazayotgan kuzg'otuvchining uziga xos kuvvatini nerv jarayonlari kuvvatiga aylanishi natijasida hosil buladi. Sezgilarning hosil bulishiga kuchli ta'sir kiladigan jarayonlarning ishtirokini urganishga bag'ishlangan kuplab va kupkirrali tadkikotlar olib borilgan. Sezgi a'zolari fakat moslashuvchanlik, ijro kilish funksiyalarini bajaribgina kolmasdan, balki axborot olish jarayonlarini bevosita ishtirok etadigan harakat organlari bilan mustahkam bog'langandir. Analizator. Sezgi nerv sistemasining u yoki bu kuzg'otuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil buladi va har kanday psixik hodisalar kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. kuzg'otuvchining aynan uziga uxshaydigan analizatorga ta'siri natijasida hosil buladigan nerv jarayoni sezgining fiziologik negizi hisoblanadi. Analizator uch kismdan tarkib topadi: 1) tashki kuvvatni nerv jarayoniga aylantiradigan maxsus transformator hisoblangan periferik bulim (retseptor). 2) analizatorning periferik bulimini markaziy analizator bilan boglaydigan yullarini ochadigan afferent nerv (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan kochuvchi) nervlar. 3) Analizatorning periferik bulimlaridan keladigan nerv signallarining kayta ishlanishi sodir buladigan kobik osti va kobik (miyaning uzi bilan tugaydigan) bulimlar. Analizator periferik bulimlarining muayyan hujayralari miya kobig'idagi hujayralarning ayrim kislmlariga mos buladi. Jumladan, kuz tur pardasining turli nuktalarida hosil buladigan tasvir miya kobig'ida ham har xil nuktalarda shuni aks ettiradi; eshitishda ham xuddi shu jarayonni kuzatishimiz mumkin: nog'ora parda va miyadagi aks sado. Sezgining hosil bulishi uchun hamma analizatorlar yaxlit bir narsa sifatida ishlashi darkor. kuzg'otuvchining retseptorga ta'siri kuzg'alishning yuz berishiga olib keladi. Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yuli manbai va eng muhim kislmini tashkil etadi. Reflektor yoyi retseptordan, ta'sirni miyaga olib boruvchi afferent nerv yullari va efferent nervlardan tarkib topgandir. Reflektor yoyi elementlarining uzaro munosabati murakkab organizmning tevarak atrofdagi

olamda tug'ri muljal olishining, organizmning yashash sharoitlariga muvofik tarzda faoliyatning negizini ta'minlaydi. Sezgilarning tasniflanishi. Aks etish xususiyatiga va retseptorlarning joylashgan urniga karab sezgilar odatda uch guruhga ajratiladi: 1. Tashki muhitdagi narsalar va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradigan hamda retseptorlari tananing yuzasida joylashgan ekstrotseptiv sezgilar; 2. Retseptorlari tananing ichki a'zolarida va tukimalarida joylashgan hamda ichki a'zolarining holatini aks ettiradigan interotseptiv sezgilar; 3. Retseptorlari mushaklarda va paylarda urnashgan propriotseptiv sezgilar; ular gavdamizning harakati va holati hakida axborot berib turadi. Harakatni sezadigan propriotseptiv sezgi turi, shuningdek, kinesteziya deb ham atalib, uning retseptorlari kinestezik yoki kinestetik retseptorlar deb ham ataladi. Ekstrotseptorlarni ikki guruhga: kontakt va distant retseptorlarga ajratish mumkin. Teri orkali paypaslab kurishga asoslangan sezgilarni taktil sezgilar deyiladi, bular ham uz funksiyasiga kura bir necha xil bulishi mumkin, masalan, haroratni sezish, sillik yoki g'adir-budirni, kattik yoki yumshokni, issik-sovukni sezish va hokazo. Sezgilarning umumiy konuniyatlari. Sezgilar aynan bir xil kuzg'atuvchilarni aks ettirish shakllaridan iboratdir. Jumladan, elektro magnit nurlanishi kurish sezgisining kuzg'otuvchisi hisoblanadi. Bu nurlanish tulkini uzunligi 380 dan 770 millimikron doirasida buladi va kurish analizatorida nerv jarayoniga aylanadi. Eshitish sezgilari-retseptorlarga tebranish tezligi (chastotasi) 16 dan 20 ming gersgacha bulgan tovush tulkinlari ta'sirini aks etish natijasidir. Ta'sir kuchi shundan past bulsa ham, baland bulsa ham sezgi paydo bulmaydi. Taktil sezgilar mexanik kuzg'otuvchining teri yuzasiga ta'siri natijasida hosil buladi. Sezgilarning sifat, jadalligi, davomiyligi, joylarda yuz berishi kabi xususiyatlari bor. Sifat-mazkur sezgining asosiy xususiyati bulib, uni boshka sezgi turlaridan farklaydi va ayni shu sezgi turi doirasida uzgartirib turadi. Jumladan eshitish sezgisi past-balandligi, mayinligi, zurligi bilan, kurish sezgisi boyligi, ranglarning tusi bilan fark kiladi va hokazo. Sezgining jadalligi - uning mikdorini ifoda etadigan xususiyati bulib, ta'sir kilayotgan kuzg'otuvchining kuchi retseptorning funksional holati bilan belgilanadi. Sezgining davomiyligi uning vaktinchalik xususiyati hisoblanadi. kuzg'otuvchi sezgi a'zosiga ta'sir kilishi bilanok hosil bulmaydi, balki, bir oz vakt utgach hosil buladi. Bu sezgining latent (yashirin) davri deb ataladi. Latent davri har xil sezgi turi uchun har xil: masalan, taktil sezgilar uchun 130 millisekund bulsa, og'rik sezgisi uchun 370 millisekunddir. Ta'm bilish sezgisi esa tilning ustiga kimyoviy kuzg'otuvchi surtilgandan keyin 50 millisekund utgach hosil buladi. Sezgi kuzg'otuvchi ta'sir kila boshlashi bilan bir paytda hosil bulmaganidek, ta'sir tuxtashi bilan birdan yukolmaydi. Sezgining bu xildagi sustligi okibat deb atalgan hodisada namoyon buladi. Kurish sezgisi bir muncha sust bulib, uni kuzg'agan kuzg'otuvchi ta'sir kilishni tuxtatishi bilanok darhol yukolib ketmaydi. (Kinematograf shunga asoslangan). Nihoyat, sezgilar kuzg'otuvchining muayyan joylarda yuz berishi xususiyatiga egadir. Distant retseptorlar tomonidan amalga oshiriladigan fazoviy tahlil kuzg'otuvchining muayyan joyda yuz berishi hakida axborot beradi. Taktil sezgilar tananing kuzg'otuvchi ta'sir kiladigan kismi bilan munosabatga kirishadi. Sezuvchanlik va uning ulchovi. Sezgi a'zolarining sezuvchanligi

muayyan sharoitlarda sezgini hosil qilishga layokatli bulgan eng kuchsiz kuzg'otuvchi yordamida aniklanadi. Bilinar bilinmas sezgi hosil kiladigan kuzg'otuvchining eng kam kuchi sezuvchanlikning kuyi absolyut chegarasi deb ataladi. Eng kam kuchga ega bulgan va kuyi chegaradagi kuzg'otuvchilar sezgi hosil kilmaydi va ular hakidagi signallarni bosh miya kobig'iga utkazmaydi. Sezgilarning kuyi chegarasi mutlak sezuvchanligi darajasini belgilaydi. Mutlak (absolyut) sezuvchanlik bilan kuyi chegara ulchami urtasida teskari bog'lanish mavjud: kuyi chegara ulchami kanchalik kichik bulsa, muayyan analizatorning sezuvchanligi shunchalik yukori buladi. EK1/P, Ye - sezuvchanlik, R - kuzg'otuvchining ta'sir chegarasi me'yor. Bizning analizatorlarimiz har xil sezuvchanlikka egadir. Kishining birgina hid bilish hujayrasining chegarasi tegishli hid tarkatuvchi moddalar uchun 8 molekuladan oshmaydi. Ta'm sezgisini hosil qilish uchun hid bilish sezgisini hosil qilishga sarflanadiganiga karaganda kamida 25 ming marta kup molekula talab kilinadi. Kurish va eshitish analizatorlarining sezuvchanligi juda yuksakdir. S. I. Vavilov (1891-1951) ning tajribalari kursatganidek, kishining kuzlari turpardaga bor-yug'i 2-8 kvant atrofida nur tushgan takdirda ham yorug'likni seza oladi. Buning ma'nosi shuki, biz tim korong'uda 27 km masofada yonib turgan shamni kurish kobiliyatiga egamiz. Ayni paytda biz badanimizga biror narsa tekkanini sezishimiz uchun kurish va eshitish sezgilari hosil bulishiga sarflanadiganiga nisbatan 100-hatto 10 mln baravar ziyod kuvvat talab kiladi. Sezginging mutlak yukori sezuvchanligi deb, kuzg'otuvchining eng kup kuch bilan ta'sir qilishiga aytiladi. Bunda ta'sir kursatayotgan kuzg'otuvchiga aynan uxshaydigan sezgi hosil buladi. (Masalan, kattik tovush, kuchli yorug'lik og'rik paydo kiladi). Sezgilar urtasida bilinar bilinmas farkni hosil kiluvchi 2 ta kuzg'otuvchi urtasida mavjud bulgan minimal fark - fark ajratish chegarasi deb ataladi. Ajratish chegara sezuvchanligi yoxud fark ajratish sezuvchanligi ham farklanish chegarasining ulchamiga nisbatan teskari bog'lanishda buladi: farklanish chegarasi kanchalik katta bulsa, ayirma sezuvchanlik shunchalik kam buladi. Sezgi a'zolari sezuvchanligining oshishiga olib boradigan 2 sohani ajratib kursatish mumkin: 1) sensor nuksonlar (kurlik, karlik)ning urnini tuldirish zaruratidan stixiyali tarzda kelib chikadigan sensibilizatsiya; 2) sub'ekt faoliyati tufayli kasbiga xos talablardan kelib chikadigan sensibilizatsiya. (Tokar sezgirligi, sinovchi-degustator sezgirligi va hokazo). Kurish va eshitish sezgisining yukotilishi ma'lum darajada sezuvchanlikning boshka turlarini rivojlantirish hisobiga tuldiriladi. (Kurlarda tuyish sezgisi rivojlanishi, barmoklari bilan ukishi, pulni ajrata olishi, haykaltaroshlikka moyilligi; karlar havo tebranishidan ma'no anglay olishlari; Olga Skoroxodova (kur va kar olim ayol) kulini hamsuhbati tomog'iga yakin keltirib, gapni «eshitishi» va hokazo). **Idrok.** Idrokning ta'rifi va uning xususiyatlari. Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning kishi ongida butunligicha aks ettirilishi idrok deyiladi. Idrokning sezgidan farki, narsalarni umumlashgan holda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir. Idrokning muhim xususiyatlari uning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyiligi (konstantligi) va anglashilganligidir. Idrokning predmetliligi ob'ektivlashtirish hodisasi deb atalgan hodisada, ya'ni tashki

olamdan olinadigan axborotlarning usha narsaga mansubligida ifoda kilinadi. Predmetlilik idrokning belgisi sifatida hatti-harakatni boshkarishda alohida rol uynaydi. Biz narsalarga ularning kurinishiga karab emas balki ularni amaliyotda kay tarzda ishlatishimizga muvofik holda, yoki ularning asosiy xususiyatlariga karab ham baholaymiz. Predmetlilik persektiv jarayonlarning uzini, ya'ni idrok jarayonlarning bundan keyingi shakllanishida ham rol uynaydi. Idrokning yana bir xususiyati uning yaxlitligidir. Sezgi a'zolariga ta'sir kiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farkli ularok, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. Yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari hakida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi. Idrokning yaxlitligi uning strukturaligi bilan bog'langandir. Idrok ma'lum darajada bizning bir lahzalik sezgilarimizga javob bermaydi va ularning shunchaki oddiy yig'indisi ham emas. Biz ana shu sezgilardan amalda mavhumlashgan va bir muncha vakt davomida shakllanadigan umumlashgan strukturani idrok etamiz. Agar kishi biror kuyni tinglayotgan bulsa, oldinrok eshitgan ohangi yangisi eshittirila boshlagandan keyin ham uning kulogiga chalinayotganday tuyulaveradi. Idrokning yaxlitligi va strukturaliligi manbalari, bir tomondan, aks ettiriladigan ob'ektlarning uziga xos xususiyatlaridir, va ikkinchi tomondan insonning konkret faoliyatida gavdalanadi, ya'ni analizatorlarning reflektor faoliyati natijasidir. Idrokning doimiyligi, konstantligi narsani idrok kilish sharoitlari uzgarishiga karamay, narsaga xos bulgan kattalik, shakl, rang va boshka xususiyatlarning idrokimizga nisbatan bir xilda aks etishidir. Masalan, yoritish darajasi uzgarishiga karamay, biz korni ok, kumirni kora narsa sifatida idrok kilaveramiz. Qizil chirok ostida kitob sahifasi kizil bulib kurinsa ham uni ok deb, samolyotdan karaganda yerdagi odamlar va narsalar kichkina bulib kurinsa ham ularni odatdagiday kattalikda deb idrok kilaveramiz. Kitob kandy kurinsa ham uni turtburchak deb, stakandagi koshik sinik kurinsa ham uni butun deb idrok kilamiz. Narsalarning shakli, katta kichikligi, rangini doimo bir xilda idrok kilish amaliy jihatdan nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Idrokning konstantliligi tevarak atrofda narsalarni aslida kandy bulsa shundayligicha ob'ektiv ravishda bilishga imkon beradi. Persektiv sistemaning faol ta'sir kursatishi idrok konstantliligining hakikiy manbaidir. Bir narsaning bir necha kurinishda bulishi uning invariantliligi deb, ya'ni obraz invariantliligi, xilma xilligi deb aytiladi. Idrok yaxlitligi va konstantligi kishining utmish tajribasiga bog'lik bulib, bu xususiyat appersepsiya deyiladi. Demak, idrok fakat narsaga emas, idrok etayotgan sub'ektning uziga ham bog'likdir. Idrokda hamisha idrok etuvchi kishi shaxsining xislatlari, uning idrok etilayotgan narsalarga munosabati, kishining ehtiyojlari, kizikishlari, intilishlari, istaklari va his-tuyg'ulari u yoki bu tarzda aks etadi. (Qandaydir shakllarni «uchburchak», «aylana», «krujka» deb idrok kilish). Shunday kilib, idrokning yaxlitligi va konstantligi uning teskari aloka mexanizmi mavjud bulgan va idrok etilayotgan ob'ektning xususiyatlariga hamda uning hayot sharoitlariga moslashadigan, uzini-uzi tartibga soluvchi uziga xos hodisa ekanligi bilan ham izohlanadi. Idrokning anglangan bulishi. Garchand idrok kuzg'atuvchisining retseptorlarga bevosita ta'siri natijasida hosil bulsa ham, persektiv obrazlar hamisha muayyan ma'noli ahamiyatga ega buladi. Kishining

idroki uning tafakkuri bilan, narsaning mohiyatini tushunib yetishi bilan, uning kuplab xossalarini bilishi bilan ham bog'likdir. Narsani anglab idrok etish - unga fikran nom berish, ya'ni idrok etilgan narsani narsalarning muayyan guruhiga, sinfiga kiritish, uni suz vositasida umumlashtirish demakdir. Shunday kilib, idrok sub'ektning bundan oldingi tajribasiga bog'lik buladi. Kishining tajribasi kanchalik boy bulsa, uning bilimlari kanchalik boy bulsa, uning idroki shunchalik tulik buladi, buyumda u shunchalik kup narsalarni kura oladi. Idrokning mazmuni kishi oldiga kuyilgan vazifa bilan ham uning faoliyati sabablari bilan ham belgilanadi. Sub'ektning ustanovkasi (yul-yurig'i) ham, his-hayajonlari ham idrok mazmuniga ta'sir etadi. Idrok ham sezgi kabi reflektor jarayondir. Shartli reflekslar, miya pustlog'idagi muvakkat bog'lanishlar idrokning fiziologik asosini tashkil etadi. Bosh miya pustida eng kuchli, dominant kuzg'alish uchastkalarining yuzaga kelishi shaxsning xususiyatlari yoki holati bilan bog'lik bulgan idrok yunalishining fiziologik asosini tashkil etadi. Idrokning fiziologik asosi nerv boglanishlarining ikkita turidan - bitta analizator doirasida hosil buladigan bog'lanishlardan va analizatorlar aro bog'lanishlardan tarkib topadi. (Bitta retseptor va bir necha retseptor bilan idrok kilish). Idrokni klassifikatsiya kilinishida ham sezgilardagi kabi idrok etishda ishtirok etuvchi analizatorlardagi mavjud farqlarga asoslanadi. Idrok etishda kaysi analizator ustunrok kelganiga muvofik kurish-eshitish, paypaslab kurish, kinestezik, hidlash va ta'm bilish yuli bilan idrok kilinishi farkanadi. Idrok kilish jarayoni odatda uzaro birgalikda bir kancha analizatorlar vositasida sodir buladi. Harakat sezgilari u yoki bu darajada idrokning barcha turlarida ishtirok etadi. Materiyaning mavjud bulish shakllari - fazo, vakt va harakat idrokni tasniflashga (klassifikatsiyalashga) binoan fazoni idrok etish, vakti idrok kilish va harakatni idrok etish kabi alohida turlari ajratib kursatiladi. Idrok - preseptiv harakatlar sistemasi bulib uni egallash maxsus urgatishni va tajribani talab kiladi. Ixtiyoriy idrok etishning muhim shakli kuzatish bulib, u narsalarni yoki tevarak atrofdagi hodisalarni kura bilish, bila olish va rejali idrok etishdir. Kuzatishning muvaffakkiyati kup jihatdan vazifaning anikligiga, kuzatuvchining tajribasiga va bilimiga bog'likdir. Fazoni idrok kilish. Fazoni idrok kilinishi kishining uzini kurshab turgan muhitni chamalashining mukarrar shartlaridan bulib, uning ushbu muhit bilan uzaro birgalikdagi harakatida katta rol uynaydi. Fazoni idrok kilish ob'ektlarning shakli, hajmi va uzaro birgalikda joylashuvi, ularning sathi, olisligi va yunalishlarining idrok etilishini uz ichiga oladi. Fazoni chamalashda harakat analizatori alohida rol uynaydi. Fazoni chamalashning maxsus kurollari katoriga analizatorlar faoliyatida har ikkala yarim sharlar urtasidagi nerv bog'lanishlarini: binokulyar kurishni, binoural eshitishni, terining bimanual tuyishini, dirinik hid bilishni va shu kabilarni kiritish lozim. Kuzlarning turli olislikdagi narsalarni anik ravshan kurishga moslashuvi 2 ta mexanizm - akkomodatsiya va konvergensiya yordamida yuz beradi. Akkomidatsiya - kuz gavharining egriligini uzgartirish yuli bilan uning aksini sindirib kaytarish kobilyatini uzgartirish demakdir. Akkomodatsiya, odatda konvergensiya bilan ya'ni kurish uklarini kayd kilinayotgan narsaga yunaltirilishi bilan bog'likdir. Konvergensiya burchagi bevosita masofa indikatoru ya'ni uziga xos masofa ulchagich (dalnomer) sifatida foydalaniladi. Ikkita kuzg'otuvchi -

narsaning kuz turpardasidagi tasviri akkomodatsiya hamda konvergensiya natijasida kuzdagi mushaklarning zurikishi ulchamlari bir biriga moslangan holda birga kushilishi idrok etilayotgan narsaning hajmi hakidagi shartli refleks tarzidagi signal hisoblanadi. Vaktni idrok kilishda turli analizatorlar ayniksa eshitish va kinestezik sezgilar ishtirok etadi. Makon va vakt oraliklari vaktni idrok etishda juda muhimdir. (Quyosh holati va vakt, turli tovushlar: xurozning kichkirishi, azon tovushi, bir xil vaktida chalinadigan gudok, ma'lum jadval buyicha katnaydigan poezdning utishi yoki kechkurun ayrim kushlarning tuplanib utishi, sayrashi va boshkalar eshitish sezgilari ta'sir kilayotgan kuzg'otuvchining vaktga oid xususiyatlarini: uning davomiyligini, ritmik xususiyatlarini va shu kabilarni aks ettiradi.) Vakt doimiyligini idrok etish kup jihatdan ichki kechinmalarga, hissiyotga ham bog'lik. Qizikarli va chukur asoslangan faoliyat bilan band bulishdagi vakt juda kiska, zerikarli va mazmunsiz faoliyatda vakt utishi kiyin, uzok deb idrok kilinishi mumkin. Harakatni idrok kilinishi - ob'ektlarnig fazoda egallagan holati uzgarishini aks ettirishdir. Harakatni idrok etilishi hayotiy muhim ahamiyatga ega. Hayvonlar uchun harakat kiluvchi ob'ektlar xavf-xatar yoki oziklanish imkoniyati paydo bulishi hakida signal vazifasini utaydi va shunga javob berishga undaydi. (Masalan, baka fakat harakatlanadigan hashorotlarnigina yeydi, bazi baliklar ma'lum harakatlardan- tulkindan kochadi, hurkiydi va hokazo). Harakatni idrok etishda kurish va eshitish, kinestezik analizatorlar asosiy rol uynaydi. Tezlik, tezlanish, harakat yunalishi harakatdagi ob'ektning perimetri hisoblanadi. Sportchi ob'ektning fazoda u yokdan bu yokka kuchishiga oid ma'lumotlarni 2 ta har xil yul bilan, ya'ni kuchish hodisasining uzini bevosita idrok etish va bir muncha vakt mobaynida boshka joyda turgan ob'ektning harakati hakida xulosa chikarish asosida olish mumkin. Harakatlanayotgan ob'ektning harakatsizligi, agar u muayyan vakt vaziyat birligini kuz bilan idrok kilish mumkin bulmasa, harakatni utgan vakt birligida idrok kilamiz lekin bu harakat natijasini idrok etish buladi. (Soat millari siljishini bevosita kuzatib idrok kila olmasak ham bir necha vakt dan keyin uning siljiganligini vakt birligida idrok kilamiz) Kurish orkali ob'ektlar harakati hakidagi axborotni 2 yul bilan: kayd etilgan nigoh va kuzlarning kuzatuvchi harakati bilan olishimiz mumkin. Kuzni uzmay kuzatish, kuzni, gavnani burib kuzatish. Masalan, biz utirgan vagon harakatlanmasada, yonimizda turgan vagonga karab bizning vagon yura boshladi deb idrok kilamiz yoki aksincha, biz urnimizda turibmizu, temir yul chetidagi stolbalar, daraxtlar yurmokda deb idrok kilishimiz mumkin. Xissiy tuyish - stroboskopik tuyish harakatni idrok kilishga ham taaluklidir. Stroboskopik harakat tuyulma harakatga misol buladi. Kinematograf ana shunday tuyushga asoslanadi. Kurish sezgisi kuzgatgich tasir kila boshlashi bilan darhol hosil bulmaydi va kuzgatgich ta'siri tuxtagandan keyin birmuncha vakt utgach yukoladi. Kinoda sekundiga 24 kadr olmoshgani holda biz lip-lip utib turgan manzaralar turkumini emas, balki ma'lum darajada barkaror bulgan ta'sirni - tasvirni kuramiz. Ketma-ket yonadigan lampochkalar harakatdagi nurni tasavvur kilishga olib keladi. Bu hodisa «F-fenomen» ya'ni g'ayritabiiy, fakat harakatni idrok kilishda kurinadigan hodisa deb nomlangan. Harakat eshitish analizatorlari yordamida ham idrok etilishi mumkin. Poezdning yakinlashib kelayotganligini yoki uzoklashayotganligini, odam

tovushining pastlashib yoki balandlashib borayotganiga karab, uning harakat yunalishini idrok kilish mumkin. Harakatni idrok kilishda harakat tasavvurlarini vujudga keltiruvchi yordamchi belgilar, masalan, gavdaning tegishli holatlari – oyok kutarilishi, kuloch yoyilishi, gavdaning biror yokka bir muncha egilgan holatda bulishi va hokazolar katta rol uynaydi. Ta’lim jarayonida ukuvchilar idrok «texnikasini» egallaydilar: narsani sinchiklab kuzdan kechirishga, tinglashga, narsaning asosiy va muhim xususiyatlarini ajrata olishga urganadilar, idrok maksadga yunalgan, boshkariladigan, ongli jarayonga aylana boradi. ukuvchining yoshi ulg’aygan sari, uning idroki yanada mazmunli bulib boradi. ukuvchi idrokining kulami kengayadi, ukuvchi narsalarni rejali, izchil, ixtiyoriy ravishda va har tomonlama idrok kilishga urganib boradi. usmirlar uzlariga yokadigan narsalarni kunt va sabot bilan idrok kiladilar. usmirlar bir narsaning uzini kup marta idrok kilishni uncha yoktirmaydilar - bu hol ham usmirlar idrokiga xos bulgan xususiyatlardan hisoblanadi. Ammo maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalar yoktirgan narsalarini kayta-kayta eshitib yoki kurib rohatlanaveradilar. usmirga narsa va hodisalarning yangi tomonlarini mustakil ochish juda yokib tushadi. usmirlar hamisha narsa va hodislarning akl va xayolni maftun etuvchi kandaydir yangi, g’alati tomonlarini izlaydilar. Bu yoshdagi bolalarni kahramonlar jasorati, buyuk vokealar, ulkan kashfiyotlar hakidagi va shu kabi hikoyalarni zur e’tibor bilan tinglashlariga kahramonona ishlar, sarguzashtlar hakidagi hamda ilmiy - fantastik adabiyotlarni sevib ukishlariga sabab ham shundadir. O’smirlar amalda ishlatib kurish mumkin bulgan narsalarni zur kizikish bilan idrok kiladilar.

Tafakkur. Sezgi, idrok orkali narsa va hodisalarning sezgi organlari orkaligina bilish mumkin bulgan xususiyatlari aks etsa, bu bilan bilish doirasi cheklandi degani emas. Narsa va hodisalar bevosita bilib bulmaydigan xususiyatlarga, uzaro alokaga, rivojlanish konuniyatiga ega. Masalan, yer bilan kuyoshgacha, yulduz va oygacha bulgan masofani bevosita aniklash mumkin emas; elektr tokining simdan utishini, atom tuzilishini, yorug’lik tezligini, uzok tarixiy jarayonlar rivojlanishini va shunga uxshashlarni bevosita kurish mumkin emas. Shunga karamay, inson ulchaydi, aniklaydi, bilib oladi. Shunday kilib, vositali aks ettirish tafakkur jarayonining xususiyalaridan biridir. Tafakkurning yana bir xususiyati - bu vokelikni umumlashtirilgan holda aks ettirilishidir. Tafakkur vokelikni umumlashtirilgan holda, konuniy bog’lanishlarni suz va tajriba vositasida aks ettirishdir. Narsa va hodisalar rivojlanish konuniyatlarini aniklash bilan odam, tabiat va kishilik jamiyati tarakkiyotini boshkarish imkoniyatiga ega buladi. Odam tafakkuri til bilan chambarchas bog’likdir. Tafakkur, barcha psixik jarayonlardek, miya faoliyatining natijasidir. Odam fikr yuritayotganda miyada murakkab jarayonlar sodir buladi, miya pustlog’ida markazlar urtasida bog’lanishlar yuzaga keladi. Xilma-xil muvakkat nerv bog’lanishlari (assotsiatsiyalar)ni hosil kilish miya pustlog’ining murakkab sintetik faoliyatidir. Fikrlar muvakkat nerv bog’lanishlari differensirovka kilinishi, ya’ni ayrim nerv bog’lanishlarini mustahkamlashi, boshkalarining tarmoklanishi natijasida mukammallashadi va aniklanib boradi. Miya pustlog’ining bunday faoliyati analitik faoliyat deyiladi. Tafakkur turlari va aklning muhim sifatlari. Tafakkurning

konkret-amaliy, konkret obrazli, abstrakt turlari bor. Konkret-amaliy tafakkur narsalar bilan ish bajarish jarayonida ularni bevosita idrok etishga suyanuvchi tafakkur. Masalan, bola uyinchok ichini kurib, usta priyomnikning uyok-buyog'ini burab kurib sung fikrlaydi. Konkret obrazli tafakkur tasavvurga tayanadi. Tafakkurning bu turi kichik maktab yoshidagi bolalar uchun xosdir. Lekin katta yoshdagilarda ham uchrab turadi. Masalan, ukituvchi darsga tayyorlanishda uz ukuvchilarini kuz oldiga keltirib, materialni kandy kabul kilishlarini, dars jarayonida kandy shaklni, kachon chizib kursatishni, kaysi kurgazmali kuroidan kachon, kandy foydalanishni uylaydi. Abstrakt (mavhum) tafakkur - narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va suzda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Tafakkurning bu turi dastavval har xil nazariy masalalarni yechish bilan bog'likdir. Lekin u kundalik hayotda ham keng kullaniladi. usmirlilik va katta maktab yoshida abstrakt tafakkur tez shakllanadi. (Krugozor - bilim saviyasi). Hozirgi zamon mutaxassisining ijodiy mehnat kilishi uchun tafakkurning bu turlaridan unumli, mustakil, tankidiy foydalanish talab kilinadi. Shuningdek, ijodiy ishlash uchun fikrning ildamligi, ya'ni vazifalarni konkret sharoitga karab yecha olish, vazifani hal kilishning yangicha yulini topa bilish talab kilinadi. Tafakkurning bu turlari va xussiyatlari turli odamlarda turlicha bulib, akl sifatlari deb ataladi. Fikrlash operatsiyalari. Tafakkur faoliyati analiz, sintez, takkoshlash, umumlashtirish, abstraksiyalash va konkretlashtirish kabi fikrlash operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi. Analiz-masalarni fikran kislarga ajratish, masala shartini tasavvur kilishdir. Sintez-buning aksi, kislarni birlashtirish. Takkoshlash-uxshash va farklarini aniklash. Masalan, biror texnikani dvigatel kuchiga, yonilg'i turiga, bajaradigan ishiga karab takkoshlash, afzalligini aniklash mumkin. Umumlashtirish-umumiy va muhim belgilariga karab fikran birlashtirish. Abstraksiyalash-mazkur vaziyatdagi eng muhim bulmagan xususiyatlarini e'tiborga olmay, eng asosiy vazifani nazarda tutib fikr yuritish. Konkretlashtirish-fakat aynan shu narsa va hodisaga taallukli sifatlarni topa olish, yukoridagi operatsiya turlarini yakuniy kismi, kurinishi va boshkalarni oydinlashtirish. Bulardan tashkari odam fikr yuritishi tushunish, izohlay olish, muhimini ajrata olish singari mantiqiy operatsiyalarga ham suyanadi. Tafakkur jarayoni tushuncha, hukm, xulosa chikarish shaklida ham davom etadi. Tushuncha-umumiy, yakka, tur, juz'iy buladi. Hukm-umumiy, juz'iy, yakka buladi. Muhokama yuritish natijasida bir necha hukmdan yangi hukmni keltirib chikarish xulosa chikarish deyiladi. Bu ikki usulda induktiv va deduktiv xulosa chikarish shakllari mavjud. Insonning bilish jarayonlarida xayol yoki fantaziya katta ahamiyatga ega.

Xayol sezgi, idrok, tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog'lik bulib, borlikni yangi buyoklarda, uz xohishi, istagi, tasavvuri shaklida aks ettirishidir. Kurgan, eshitgan, kiskasi uz tajribasidan utkazgan narsa hodisalarni kuz oldiga keltirish - kayta tiklovchi, uz istagi xohishi asosida yangi obrazlar yaratib tasavvur kilish - ijodiy xayol shaklida buladi. Ijodiy xayol - fantaziya deb ham aytiladi. (Shoir, yozuvchi, ixtirochi - konstruktor uchun zarur sifatlari). Ijodiy xayol ijodkor-ixtirochi uchun, yozuvchi yoki rassom uchun juda zarurdir. Ijodkor uz boshidan kechirgani, bilgani doirasidan vakt va fazo jihatidan ilgarilab ketadi. Xayoliy yoki

yangi obraz yaratishning bir necha usullari bor: 1) agglyu-tinatsiya - yelimlash, bir necha obrazdan yangi obraz yaratish - masalan - suv parisi, kentavr, uchar ot - pegas va hokazo fantastik obrazlarni yaratish. 2) giperbolizatsiya - burttirish yoki kichraytirish (Gulliver sarguzashtlarini eslang), 3) kayd etish-narsa va hodisalarning eng muhim belgilariga diqqatni jalb qilish. (urtoklik hazili, sharj). Bulardan tashkari tipiklashtirish, orzu xayol (uchar gilam - samolyot), kayd etish, tipiklashtirish shaklida ham buladi. Bolalar uyini ham, konstruktor tasavvuri ham ijodiy xayol, lekin mazmuni va operatsiyalari bir-biridan fark kiladi. Inson bilish jarayonlari xotira jarayonida mustahkamlanadi.

Xotira esga olish, saklash va kayta tiklash jarayonidir. Individning uz tajribasini esda olib kolishi, esda saklashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotirasi past odam hayotining barcha sohalarida juda kiynaladi. Kurgan-bilganlarini, urganib olgan ishlarini davom ettira olmay har safar yangidan boshlashga majbur buladi. Esga olish, esda saklash va esga tushirish va unitish xotira jarayonlari deyiladi. Xotira jarayonlarini, mexanizmlarini tadmik kilinishi hozirgi “aklli mashinalar”-komp’yuterlarni ixtiro kilish, ularni takomillashtirish uchun ham juda muhimdir. Xotira turlari kuyidagicha bulishi kuzatilgan:

1. Psixik faollikka karab harakat xotirasi, emotsional xotira, obraz xotirasi va suz-mantik xotirasi deb farklanadi.

2. Faoliyat maksadiga karab ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira turlariga ega.

3. Eslab kolish va unutish muddatiga kura kiska muddatli, o‘zoq muddatli va operativ xotira turlariga bulinadi. Xotiraning turli xillari: ayrim kasb egalari uchun hayotiy professional kasbiy ahamiyatga ega. Masalan, harakatni eslab kolish gimnast-akrobat, rakkosa uchun, tasvirni, obrazni eslab kolish rassom, haykaltarosh, tergovchi, konstruktor uchun, mazmunni eslab kolish yozuvchi, shoir, hofiz uchun uta zarurdir. Esda saklash va unutish tezligiga karab odamlarni turt guruhga ajratish mumkin: 1. Tez esga oladi, sekin unutadi. 2. Sekin esga oladi, sekin unutadi. 3. Tez esga oladi, tez unutadi. 4. Sekin esga oladi, tez unutadi. Xotira kishining bilim, kasb hunar egallashida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, odamlarni xotira sifati va turiga karab ham farklash mumkin. Masalan, obraz xotirasi, suz-mantik xotirasi, his-hayajonga taallukli emotsional xotira singari xillarini farklash mumkin.

IV. AMALIY MASHG'ULOT

5-MAVZU: SOTSIOMETRIYA METODI VA GURUH TOMONIDAN O‘ZARO BAHOLANISH.

Reja

5.1. Sotsiometriya metodini qo‘llash texnologiyasi

5.2. Ijtimoiy munosabatlar diagnostikasi

Tayanch so‘zlar: Sotsiometriya metodi va guruh tomonidan o‘zaro baholanish. so‘rov, hujjatlarni o‘rganish, faoliyat mahsulini o‘rganish, alohida holatlarni o‘rganish, qiyoslash, suhbat, intervyu, kuzatish, test, eksperiment, modellashtirish, prognozlash, ekstrapolyatsiya, tizimli – strukturaviy, tizimli - funksional, tizimli - kommunikativ, tizimli - integrativ, tizimli – tarixiy, natija, sharhlash modeli.

5.1. Sotsiometriya metodini qo‘llash texnologiyasi

Sotsiometriya (J. Moreno tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, o‘zaro munosabatlar tuzilishi bilan psixologik qovushuvchanlikni aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganish. Bugungi kunda sotsiometriyani turli variantlari ishlab chiqilgan) usuli; - test (standartlashtirilgan sinov bo‘lib, uning yordamida u yoki bu xildagi psixik jarayon baholanib, shaxsni bir butunligicha o‘rganish mumkin) usuli; - eksperiment (muammoli vaziyatni hal qilish jarayoni, shaxsning histuyg‘ulari, xarakteri, qobiliyati, aql-zakovatini o‘rganish mumkin. Bunda, ob‘ektga ta‘sir etadigan barcha omillar kat‘iy nazorat kilgan holda kuzatiladi) usuli; - modellashtirish (jarayonni bilvosita o‘rganishga asoslangan bo‘lib, bunda biron ob‘ektning xususiyatlarini o‘rganish uchun maxsus ravishda tuzilgan boshqa ob‘ektda qayta xosil qilish tushuniladi) usuli; - prognozlash (biror-bir hodisaning kelajaqdagi holati haqidagi mulohaza) usuli; - ekstrapolyatsiya (lot. ekstra-tez, polio-silliqlayman, to‘g‘rilayman) biror hodisaning alohida qismini kuzatish natijasida olingan xulosani shunga o‘xshash hodisaning boshqa bir qismiga, boshqa hududiga (manzilga, joyga) tadbiq etish) usuli. Shu bilan birga biografik va tarixiy-qiyosiy usullarni ham ko‘rsatib o‘tish mumkin. Biografik metod (yunon tilida bios – hayot, graho – yozayapman) – shaxs hayot yo‘lini tadqiq etish, tashxislash, korreksiyalash, rejalashtirish uslubi. Biografik usul XX asrning birinchi choragida tatbiq etila boshlandi. Birlamchi biografik usullardan yordamida siyosatchilar, tarixiy shaxslar o‘tmishdagi siyosiy hayotni retrospektiv tahlil etish maqsadida foydalanilgan. Keyinchalik bunga muhim va kelajakda bo‘lishi mumkin bo‘lgan hodisalarni (bo‘lajak avtobiografiya, boshqariladigan fantaziya, hayotni rejalashtirish, kauzometriya)ni, shuningdek, shaxsning muloqot doirasini (qo‘shimcha biografiya, sub‘ektning munosabatlar doirasini) qo‘shishdi. Zamonaviy biografik metodlar siyosatchi shaxsini tarixiy, ijtimoiy va individual borliq doirasida o‘rganishga asoslangan bo‘lib, shaxs rivojining ssenariysi va hayotiy dasturlari, uning kasbiy, oilaviy, ma‘naviy, tabiiy va ijtimoiy makonda «makon-vaqt» doirasida tahlil etadi. Biografik metodlarni qo‘llashda so‘rovnoma, intervyu, test, yaqinlarining ko‘rsatmalari, zamondoshlarining xotiralari, faoliyat mahsulini o‘rganish(xatlari va kundaliklarini, ma‘ruzalari nutqlarining kontent-tahlili va b.)dan manba va vosita

sifatida foydalaniladi. Tarixiy-qiyosiy usullarga tarixiy tavsif, aniq tahlil, qiyoslash, davriylashtirish, xronologik, muammoli-xronologik, retrospektiv, istiqbolni belgilash, tarixiy analogik va boshqa uslublar kiradi. Qiyosiytarixiy uslublar siyosiy-psixologik dalillar va hodisalar yuzaga kelganda hamda amalga oshganda, rivojlanishning turli bosqichlarida sifat ko'rsatkichi jihatidan o'zgarib borishini tarixiy muhit bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkonini beradi. Shu asnoda tizim deganda, nafaqat tizimning (boshqarish ob'ektining) o'zaro bog'langan tarkibiy qismlarini yig'indisi va uning o'zaro ichki bog'liqlik darajalari tushunilishi lozim. Balki tashqi aloqadorliklarni darajalari ham uning tarkibiga kirishini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Bu o'z navbatida tizimli tahlilni amalga oshirish yo'lini, ya'ni yondashuvni belgilab olishni taqozo etadi. Tahlil, bu turli hajm va mazmundagi axborotni jamlab, manba shakliga keltirish bo'lib, bunga tizimli yondashish maqsadga muvofiqdir. Tizimli yondashish, bu ob'ektni yaxlit majmua sifatida o'rganishga asoslangan metodologiya, ilmiy anglashni ta'minlovchi "yo'l"dir. Fanda, tizimli yondashuv turli fan sohalarning vakillari tomonidan shakllantirilgan. Tizimli yondashuv, bu o'zaro aloqador bo'lgan jihatlarni qamrab olgan majmua bo'lib, tahlilni amalga oshirishda metodologiya vazifasini bajara oladi. Bular: – tizimli – xossaviy (elementli), tizim nimalardan tarkib topgan degan savolga javob topish uchun xizmat qiladi; – tizimli - strukturaviy, tizimni ichki tuzulishini, uning tarkiblarini ta'minlashuvini belgilash uchun xizmat qiladi; – tizimli - funksional, tizim va uni vujudga keltiruvchi qanday vazifalarni bajarishini ajratib berish uchun xizmat qiladi; – tizimli - kommunikativ, tizimning boshqa tizimlar bilan gorizontaal va vertikal aloqadorliklarni mohiyatini belgilash uchun xizmat qiladi; – tizimli - integrativ, tizimning saqlanish mexanizmi, saqlanish omillari va takomillashuvini belgilash uchun xizmat qiladi; – tizimli - tarixiy, "tizim qanday shakllangan?", "rivojlanish davomida qanday bosqichlardan o'tgan?", "tizimni istiqboli qanday?" degan savollarga javob berish uchun xizmat qiladi. Ko'rinib turibdiki, tizimli yondashuv, bu tizimli tahlilni amalga oshirish yo'lini belgilab berish uchun xizmat qiladigan majmua hisoblanadi. Tizimni (ob'ektni) boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan masalani xavfsizlikni ta'minlash nazari asosida tizimli tahlil qilishni tadqiqotchi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirishi maqsadga muvofiq: - o'zining ilmiy salohiyatini inobatga olib, tadqiqotning vazifa va maqsadini (ya'ni, istiqboldagi istakli holatini) belgilab olishi; - tahlil uchun tanlangan tizimni (bunda faoliyat sohalari nazarga olingan) hamda tashqi muhitning rivojlanish tarzi va prognozini tadqiqotda belgilanishi; - tashqi muhit omillarini (iste'molchilar bozori, mol yetkazib beruvchi hamda raqobatchilar va boshqalar) tadqiq qilib, uning istiqbolini belgilashi; - maqsad va vazifalarning tizim tuzilishi(yaratilishi)da ifodalanishini belgilab olishi lozim.

Tizimli tahlilni umumiy va xususiy jihatlarini inobatga olib, pedagogik faoliyat doirasida uni amalga oshirish uchun to'rttadan ortiq tadqiqiy usullardan vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Garchi, pedagogik faoliyat doirasida tizimli tahlil usulidan foydalanishga oid alohida yondashuv bo'lmasada, ammo pedagogik reallikni amaliy jihatlaridan kelib chiqqan holda mazkur masalaga funksional tarzda yondashish maqsadga muvofiqdir.¹ Usul, biron bir

natijaga erishish vositasi hisoblanib, reallikni amaliy yoki nazariy jihatdan o'rganish tarzi. Muammoni alohida tartib asosida o'rganish uchun qo'llaniladigan harakatlar ketmaketligini ta'minlash uchun, aniq o'lchov birligiga (son, foiz, ball, gramm, kilogramm, shakl, rang, koeffitsent, o'rin va b.) ega bo'lgan majmuadir. Tizimli tahlilni amalga oshirish uchun turli usullar tanlanishi mumkin. Nisbatan ko'proq qo'llaniladiganlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin: - so'rov (anketa tarzida yozma, og'zaki savol-javob (masofali)) usuli; - hujjatlarni o'rganish (DTS, hisobot, xulosalar va b.) usuli; - faoliyat mahsulini o'rganish (insho, maqola, talabalarning bilimi va b.) usuli;

- alohida holatlarni o'rganish (alohida pedagogik vaziyatni. Masalan, a'lochilar guruhini, faollarni va b.) usuli; - qiyoslash (raqamlar, dalillar, bildirilgan fikr va munosabatlarni qiyoslash) usuli; - suhbat (nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bilvosita ma'lumot olish) usuli. - biografik (kishini uning tarjimai holi bilan bog'lik bo'lgan xujjatlar orqali o'rganish) usul; - intervyu (muammoga oid bo'lgan savollarga berilgan javob tariqasida axborot to'plash) usuli; - kuzatish (kishining harakatlarida namoyon bo'ladigan turli holatlarni hisobga olish, biron bir jarayonni kechishiga oid axborot olish) usulidir.

5.2. Ijtimoiy munosabatlar diagnostikasi

Hozirgi zamon psixologiyasi har xil usullar bilan ijtimoiy munosabatlarda shaxsning amaliy faoliyatiga ta'sir qilish imkoniga ega. Mana shunday usullardan biri, bu har xil toifadagi odamlarga psixologik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ammo, psixologiya yordam ko'rsatish uchun avvalo ulardagi psixik o'zgarishlar sabablarini va unta ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash zarurati tug'iladi. Bunda biz psixodiagnostika faniga va uning metodlari hamda metodikalariga murojaat qilamiz. O'z-o'zidan savol tug'iladi «psixodiagnostika» atamasi nimaning anglatadi va u nimalarni o'rganadi hamda uning nazariy amaliy vazifalari nimalardan iborat. «Psixodiagnostika» atamasi psixologik tashxis qo'yish degan ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holatida to'liq yoki biror bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir, bunda «tashxis» shaxsning taraqqiyot ko'rsatkichi va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holat va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iboratdir. «Psixodiagnostika» atamasi ilk bor Rorshaxning «Psixodiagnostika» asarining chop etilishidan so'ng psixiatriyada tarqalgan bo'lib, u tez orada tibbiyotdan tashqarida ham keng miqyosda ommalasha boshlandi. «Diagnoz», ya'ni «tashxis» esa shaxs rivojlanishidagi har qanday og'ishlarni, hattoki uning holat va xususiyatlarini konkret taraqqiyot darajasini aniqlash demakdir. Psixodiagnostika - bu maxsus bilimlar sohasi bo'lib, individ yoki guruhni psixologik taraqqiyot ko'rsatkichlarini, holat va xususiyatlarini baholash uchun metodika va metodologiyalar nazariyasi ishlab chiqish bilan bog'likdir. Psixodiagnostika baholash ob'ekta sifatida, psixologiya fani o'rganayotgan har qanday jarayon bo'lishi mumkin. Masalan: o'zaro hamkorlik qilayotgan shaxslarning bir-biri bilan kechayotgan xatti-harakati va muloqatida yuzaga keladigan, alohida bir odam sezgisidan boshlab, murakkab ijtimoiy - psixologik jarayon bilan tugatish mumkin. Psixodiagnostika fanining nazariy vazifalari quyidagilardan iborat: - psixik ko'rinishlar tabiati va ularni ilmiy jihatdan prinsipial baholashning imkon darajasini aniqlashtirish; - hozirgi paytda psixologik

ko'rinishlarning miqdorini baholash va uning ilmiy asoslanganlik holatini o'rganish; - psixodiagnostik usul va uslublarning asosiy metodologik talablari nimalardan iborat; - psixodiagnostik tadqiqotning shart-sharoitlari, natijalarni qayta ishlash hamda ularni interpretatsiya usullarining ishonchiligi nimalarga asoslangan; - test va psixodiagnostik metodlarning tuzilishi hamda ilmiyligini tekshirishning asosiy muolajalarini nima tashkil qiladi. Psixodiagnostika fanining amaliy vazifalari psixolog faoliyatining maxsus sohasiga taaluqli bo'lib, amaliy psixologik tashxis qo'yish bilan bog'likdir. Bunda muammo na faqat nazariy jihatdan, balki psixodiagnostik tadqiqotni tashkil qilish va o'tkazishning amaliy jabhalarini qamrab oladi hamda quyidagi vazifalardan iboratdir: 1. Psixologiya psixodiagnostika mutaxassis sifatida qo'yiladigan kasbiy talablarni aniqlashtirish; 2. Psixolog haqiqatdan ham u yoki bu psixodiagnostik me-todlarni mutaxassis sifatida muvaffaqiyatli o'zlashtirib olgani haqida minimal amaliy shartlar ya'ni kafolat sifatida; 3. Psixodiagnostika sohasida o'z ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish psixolog o'zida mujassamlashtirishi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar; 4. Psixologning psixodiagnostika sohasida malakali mutaxassis ekanligini hamda amaliy jihatdan tayyorgarligini baholash mezonlarini hamda dasturlarini ishlab chiqish. Bu vazifalar majmuasi ya'ni psixodiagnostika fanining nazariy va amaliy vazifalari bir-biri bilan bog'likdir. Ushbu sohada yetuk mutaxassis bo'lib yetishish uchun, psixolog nazariyani va amaliy psixodiagnostikaning asoslarini yuqori darajada o'zlashtirib olgan bo'lishi shart.

Amaliyot individ guruhning psixik taraqqiyot darajasini hamda quyidagi vazifalardan birini amalga oshiradi:

1. Biror bir xususiyatga ma'lum taraqqiyot holatini aniqlash;
2. Taraqqiyot dinamikasini va qandaydir vaqt davri mobaynida qayta tarbiyalash imkonini aniqlash;
3. Ta'lim-tarbiya tarixi natijasida, o'tkazilgan pedagogik eksperiment natijasida individ yoki guruh xulqida va ruhiyatidagi real o'zgarishlarni kuzatib borish.
4. Shaxs sifatlarining oldingi taraqqiyot dinamikasi va qonuniyatlarini tahlili asosida kelajakdagi taraqqiyotni aniqlab olish.
5. Sinaluvchi odamlar yoki guruxlarni taraqqiyot darajasi natijasiga asoslanib kelajakdagi ishlar uchun toifalarga ajratish.
6. U yoki bu topshiriqlarni bajara olishiga qarab individ yoki guruxlarni yaroqliligini aniqlash, masalan o'z xizmat vazifasini bajara olishda kasbiy tayyorligini tekshirish.
7. Psixokorreksion ishlar olib borish maqsadida individ yoki guruhni ijtimoiy me'yorga mos yoki mos emasligini aniqlash.
8. Individ yoki guruhning kelajak hayot yo'liga yordam berish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalar psixodiagnostika fani uchun umumiy hisoblanadi. Bu vazifalardan ko'pchiliklari maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktab-ta'lim jarayonlarida har xil yoshdagi bolalarga mos ravishda olib boriladigan ish jarayonlarida u yoki bu darajada hal qilinadi. Psixodiagnostika xususiy jihatdan quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: - bolani tug'ilgandan

boshlab maktab ta'lim jarayonidagi yosh davrlarini psixologik taraqqiyot dinamikasini o'rganadi (biyosh jarayonlarini, intellektual qobiliyatlarini, shaxs sifatlarini hamda shaxslararo munosabatlarini). Bunda har bir bolaga maxsus psixodiagnostik kartochka to'ldiriladi va uning rivojlanish ko'rsatkichlari har oyda yoki yilda qayd qilinib boriladi. - har bir bolani psixik va xulqiy rivojlanishidagi indi-nidual qobiliyatlarini tekshirish, uning o'rtacha standart me'yorlardan chetlashishlari, ya'ni ijobiy (rivojlanishda oldinddmi) yoki salbiy (rivojlanishdagi qoloqligi) tomonlarini aniqlash - bolani ta'lim va tarbiya jarayonidagi yutuqlarini aniqlash maqsadida psixologik xizmat ko'rsatish va uning natijasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. - o'z vaqtida bolani yanada rivojlantirish maqsadida uni iqtidorini, layoqatini va individual qobiliyatlarini hamda qiziqishlarini tashxislash hamda ilmiy asoslangan psixologik maslahat va proforientatsiya ishlarini olib borish. - ota-onalarga, o'qituvchilarga zarur bo'lgan bolaning mazkur psixologik holati haqida har tomonlama ma'lumotlar to'planib, bolaga mos ravishda ta'lim va tarbiya metodlarini tanlash. Psixodiagnostika fani psixologiya tarmoklaridan biri bo'lib, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini, aqliy taraqqiyotini aniqlab o'lchash, ya'ni hisoblab chiqaruvchi metodlarini o'rgatuvchi fandır. Psixodiagnostika - shaxsning individual-psixologik xususiyatlari farqlarini (aniqlab o'lchashda) har xil metodlar bilan aniqlab o'lchashda, keyinchalik proektiv metodlar, so'rovnomalar paydo bo'lishi jarayoniga asos bo'lib qoldi. Shu bilan birga psixodiagnostikaning rivojlanishida nazariy jihatdan metodikalarning kamligi ko'rinib qoldi. Psixodiagnostikaga matematik-statistik metodlar va korrelyatsiya hamda tahlil qilish, faktorli analiz paydo bo'lipsh va takomillashuvi, psixometrik tadqiq qilish amaliy jihatidan juda katta ahamiyat kasb etadi. Psixodiagnostikaning juda ko'p turlari bor. Masalan: tibbiyot diagnostikasi kasalning kelib chiqishini o'rganadi va aniqlaydi; texnik diagnostika - har xil texnika sistemalari, elektron hisoblash mashinalari, kompyuterlarning salbiy xususiyatlari aniqpanib, ularni bartaraf qilishni o'rgatadi; sport diagnostikasi - jismoniy jarayonlarning o'zgarish holatlarini o'rganadi va aniqdaydi; psixologik diagnostika -shaxs yoki guruxlarning psixik xususiyatlari, holatlari va taraqqiyot ko'rsatkichlarini aniqlab, sifatli va miqdoriy jihatdan o'lchab beradi. Test - shaxsning aqliy taraqqiyotini, qobiliyatini, irodaviy sifatlarini va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa standart masalalar. Testlashtirish - psixodiagnostika metodlaridan biri bo'lib, standartlashtirilgan savol va topshiriklar yordamida individual farqlarni o'rganish alohida shkalalar bilan o'lchash. Yetuklik testlari psixodiagnostika metodlaridan biri bo'lib, konkret bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirish darajasini aniqlab beradi. Yetuklik testi 3 ga bo'linadi: harakat testlari, og'zaki va yozma testlar. Harakat testlari mexanizmlar, materiallar asboblari bilan ishlash layoqatini aniqlab beradi. Intellektual testlar - psixodiagnostika metodlaridan biri bo'lib, individning aqliy taraqqiyoti darajasini aniqlab beradi. Proektiv test motivatsiyaning anglanilmagan yoki to'lik anglanilmagan shakllarini o'rganishga qaratilgan va bu jihati bilan inson psixikasining tobora intim sohasiga kirishning yagoia psixologik metodidir. «Proektiv» atamasi ilk bor Lourens Fenk tomonidan 1939 yilda qo'llangan.

Shuningdek u shaxsni tadqiq etishning proektiv metodlari tasnifini ham

keltiradi:

1. Strukturalash metodlari (Rorshaxning siyoh dog‘lari testi, bulutlar testi, uch o‘lchamli proeksiya testi)
2. Konstruksiyalash metodikalari (MAP, olam testi)
3. Sharhlash metodikalari (SATO, TAT, Rene Jil testi)
4. To‘ldirish metodikalari (tugallanmagan gaplar, hikoyalar, One assotsiativ testi)
5. Katapsis metodikalari (psixogramma, proektiv o‘yin)
6. Ekspressiyani o‘rganish metodikalari (dastxat, muloqot tahlili)
7. Ijod mahsulini o‘rganish metodikalari (rasmi testlar, yozma ishlar va hokazo). Bunday metodikalarning asosiy farqi material aniqmasligi, hayrihohlik muhiti va qadriyatli fikrlar mavjud emasligidir. Ular avvalo shaxsning munosabatlar sohasini aks ettiradi va maktab nevrozi uchun xos bo‘lgan maxsus reaksiyalarni aniqlash imkonini beradi. Mazkur ishlar o‘kuvchilarni maktab, kollej va litseylarda o‘qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularyushg individual xususiyatlarini ta‘lim va tarbiyadagi nuqsonlar sabablarini oritishga yo‘natirilgandir.

Psixodiagnostika ishlari guruxda yoki yakka holda o‘tkaziladi. Bu asosda amaliy psixologlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Yosh davri taraqqiyoti mezonlariga muvofikligini ongli
2. Ota-onalar, ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlardan tashqari mutaxassis psixolog psixodiagnostik tadqiqot natijalari asosida tayyorlagan xulosalarini bilishga haqlidir. Psixolog o‘z navbatida otaonalarning o‘z farzandlari ruhiyati haqidagi savollariga to‘liq ishonchli va haqkoniy javob berishi shartdir.
3. Psixologik tashxis natijalari, shaxs tarasqiyotiga ta‘sir qiluvchi har xil omillarni hamda ota-onalarning, pedagoglarning fikrlarini inobatga olmasdan, bolaning ta‘lim va tarbiyasiga taalluqli takliflarni hal qilishga asos bo‘la olmaydi.
4. Ta‘lim tizimida ishlayotgan psixolog, psixologik tashxis imtlarini, o‘qituvchi va tarbiyachi bilan hamkorlikda olib borgan holda, ularni bola ruhiyati haqida zarur ma‘lumotlar bilan ta‘minlab borishi shart.

Psixodiagnostika qo‘llanilayotgan ko‘pgina metodikalar yosh me‘yorlari atamasi bilan bog‘liqsir: Bu birinchidan ruhan va jismonan sog‘lom hamda tasodifan tanlab olingan bolalar guruhida o‘rganilayotgan xususiyatlarning o‘rtacha taraqqiyot darajasi bilan bog‘liq holda tavsiflanadi. Bolada yosh me‘yorlari o‘rganilayotgan xususiyatlarning taraqqiyot darajasining og‘ishi, o‘tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalar bilan aniqlanadi. Agar uning individual ko‘rsatkichlari me‘yordan yuqori bo‘lsa, u holda bola o‘z tengqurlaridan ilgarilab ketgan, uning aksi bo‘lsa tengqurlaridan orqada qolgan degan, xulosa chiqariladi. Ikkinchidan - bu o‘z-o‘zidan me‘yorlarni o‘rganib turishdir. Bizga ma‘lumki, jamiyatning rivojlanib borishi bilan bolalardagi intellektual, shaxsiy va xulqiy taraqqiyotning o‘rtacha ko‘rsatkichi o‘zgarib boradi. Bu, albatta bundan o‘n yil oldingi me‘yorlardan hozirgi paytda foydalanish mumkin emasligini ko‘rsatib beradi, shuning uchun ham har bir metodikani har 3-5 yilda albatta qayta tekshirib ko‘rishni talab qiladi. Uchinchidan, boladagi u yoki psixologik xususiyatlarni taraqqiyot darajasini baholash uning kelajakdagi taraqqiyoti haqida muhokama

qilib bo'lmaydi. Chunki bu uning na faqat taraqqiyot darajasi bilan, balki bolaning o'quvchanlik qobiliyati, yangi hayotiy tajribalarni o'zlashtira olishi ta'lim sifati hamda ko'pgina boshqa omillar va sharoitlar bilan bog'likdir. Bundan tashqari har qanday psixodiagnostik metodikalarni baholarda qo'llash va xulosa chiqarish uchun, avvalo uni sinab ko'rish kerak. Psixodiagnostik metodikalarni ishlab chiqish va sinab ko'rish bosqichlari quyidagilardir. Psixodiagnostika so'zi psixologiyada ikkita asosiy ahamiyatni kasb etadi. Birinchi ilmiy psixologik bilimlar va tadqiqotlar sohasi hisoblansa, ikkinchisi psixologik bilimlarni amaliyotda ko'llay olish sohasidir. Ilmiy soha sifa-tida psixodiagnostika: prinsiplar, har xil psixodiagnostik metodlarning ilmiyligini tekshirish muolajalarini va usullarini kamrab oladi. Amaliy soha sifatida psixodiagnostik metodlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarni psixologdiagnostda shakllantirishga qaratilgan. Ilmiy va amaliy sohada ham odamni psixologik jarayonlarni, xususiyat va holatlarni baholash haqida fikr yuritiladi. Hozirgi zamon psixologiyasida juda ko'p har xil psixodiagnostik metodlardan foydalaniladi, ammo ularning hammasi ilmiy asoslangan deb ayta olmaymiz. Bundan tashqari, metodlar ichida tadqiqot va xususiy psixodiagnostik metodlar mavjud. Xususiy psixodiagnostik metodlar shunday metodlar sirasiga kiradiki, ular o'rganilayotgan psixologik xususiyatni aniq miqdoriy va sifatiy tavsiflarini ko'rsatib bera oladi, ya'ni bir xususiyatni baholash maqsadida qo'llaniladi.

Yuqorida aytib o'tilgan maqsad uchun qo'llanilmaydigan metodlar faqat, psixologik jarayonlarni, insonning xususiyat va holatini o'rganadigan metodlar tadqiqot metodlari deb yuritiladi. Ular asosan empirik va eksperimental ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladi. Ularning asosiy maqsadi - ishonchli bilimlar, faktlarni olishdir. Psixodiagnostik va tadqiqot metodlari farqlarini ko'rsatib beruvchi ikkita misol ko'rib o'tsak: 1 misol. Shaxsni psixodiagnostik tekshiruv metodi. Bu 16 faktorli R.Kettell testi. Bu standartlashtirilgan savolnoma o'ziga 187 ta mulohazani qamrab olgan bo'lib, 16 ta guruhga bo'lingan shkalalar mavjud. Har bir shkala yordamida shaxsni aloqida bir belgisini baholash mumkin, bunda baholash standart ballarda beriladi. Ushbu testdagi mulohaza, ko'rsatma, qo'llashdagi muolajalar, natijalarni sharhlash va xulosalar - hamma voqea hodisalarda bir xil qo'llaniladi va o'zgartirilmaydi. 2 misol. Shaxsni tadqiqot qilish metodlari. Masalan, odamni maxsus sharoitda kuzatish orkali. aniq bir xulqini o'rganish uchun mo'ljallangan eksperiment ishlab chiqilmoqda. Eksperimentni shunday tuzish mumkinki, tadqiqotchini qiziqtirayotgan shaxs xulqidagi ko'rinish, belgilarni har birini alohida o'rganish imkonini bersin. Sinovchi, sinaluvchilar xulqini kuzatish orqali shaxs belgilarini alohida xususiyatlarini va unga mos xulq-atvor shakllari xakida xulosa chiqarish uchun ishlab chiqarilgan eksperiment o'tkazadi. Bundan tashqari bolalar bilan o'tkaziladigan psixologik-pedagogik eksperiment ularni maxsus eksperimental sharoitda kuzatish imkonini beruvchi izlanishlar ham tadqiqot metodi deb yuritiladi. Bu psixodiagnostik metodlar har xil psixologiya sohalarida va har xil insonlar faoliyatida qo'llaniladi. Ilmiy psixologiyada bu metodlar asosan eksperimental izlanish va bu jarayonni tashkil kilishda, amaliy psixologiyada esa - psixologik maslahat, psixokorreksiyada hamda psixologning kasbiy faoliyatidagi boshqa jabhalarda, masalan, kasb tanlashida malakali mutaxassislar tayyorlashda

qo'llaniladi. To'g'ri tashkil qilingan eksperimentda hamma vaqt ham sinaluvchining u yoki psixologik xususiyatini taraqqiyot darajasini aniq baholash zurur, chunki o'tkazilgan eksperiment o'rganilayotgan xususiyatga ta'sirini ko'rsatdimi, yo'qmi bilib olishimiz shart. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlar psixologik maslahat va psixologik korreksiya ishlariga ham taalluqlidir. Psixologik maslahat olib borayotgan, psixolog mijozdagi har xil psixologik xususiyatlarning taraqqiyot darajasini baholashi shart. Uning bu ishi, bu hodisada shifokor mehnatini yodga soladi, ya'ni shifokor bemorning kasalini aniqlash va muolaja metodiki aniqlashda diagnostik ishlar o'tkazadi. Psixolog ham diagnostika bilan shug'ullanar ekan, avval mijozni psixologik taraqqiyot darajasini tashxislab, so'ngra maslahat va korreksiya ishlarini amalga oshiradi. Jahonda psixodiagnostik metodlarning mingdan ortiq turi mavjud bo'lib, biror bir sxematik qilib olinmasa, farqlab olish juda ham mushkul ishdir. Psixodiagnostik metodlarning umumiy sxema klassifikatsiyasini quyidagicha ko'rsatib o'tish mumkin: 1. Kuzatish asosidagi psixodiagnostik metodlar. 2. Savolnomali psixodiagnostik metodlar. 3. Ob'ektiv psixodiagnostik metodlar, bunga inson xuld-atvor reaksiyalari analiz va faoliyat mahsuldorligini o'rganish ham kiradi. 4. psixodiagnostikaning eksperimental metodlari. Kuzatish asosidagi psixodiagnostik metodlar albatta, o'ziga kuzatish olib borish hamda olingan natijalardan psixodiagnostiq xulosalar chiqarishning muvaffaqiyatli garovidir. Bunday kuchatishdp standart sxemalar va sharoitlar kiritiladi, unda ninimani kuzatish, qanday kuzatish, kuzatish natijalarini qanday qilib belgilab borish, qanday baholash hamda sharhlash asosida xulosa chiqarish amiq belgilab olinadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan psixodiagnostik talablar-standartlashtirilgan kuzatish deb yuritiladi, Bunga misol qilib, qandaydir topshiriqning yechimi to'g'risida, kichik guruhning ish faoliyatini kuzatsak (R.Beyls metodi bo'yicha). By sxema xulq-atvorni kuzatishning 12 xil tipini qamrab olgan, unda b ta ijobiy va b ta salbiy ko'rinishlarni ifodalab berilgan. Kuzatish ratijalarini miqdoriy tahlil qilishda statistik metodlarni quyidagichatartibdaqo'llash lozim: Olingan natijalarni foizlar bo'yicha hisoblash - O'rtacha arifmetik qiymatni topish - O'rtacha kvadrat og'ishni topish (σ) - Son qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash (dispersiya) - Omillar o'rtasidagi muayyan munosabatlar mavjudligini tahlil qilish (korrelyatsion bog'lanish) - Metodikalar ishonchlilik darajasini aniqlash (Styudent mezoni) Savolnomali psixodiagnostik metodlar maxsus standart tanlab olingan savollarga yozma yoki og'zaki javoblarni tahlil qilishdir. Ushbu metodning bir necha turlari mavjud: anketa, savolnoma, intervyu. Anketa metodi deb, sinaluvchi savollarga javob beripshdan tashqari, o'zi haqida ma'lumot berishga aytiladi. Savolnoma metodi deb, sinaluvchiga beriladigan savollar majmuasi aytiladi. Bu savollar ochiq va yopiq usulda bo'ladi. Yopiq savollar deb, standartlashtirilgan javoblar mavjud bo'lib unta sinaluvchi o'ziga mos javobni berishiga aytiladi. Masalan: «ha», «yo'q», «bilmayman», «roziman, rozi emasman», «ay-tish qiyin». Ochiq savollar deb, sinaluvchi mustaqil ravishda hohlagan javobni berishga aytiladi, bu javoblar yopiq savollardan farqli ravishda, faqat sifatliy taxlil qilinadi. Bundan tashqari savolnomali psixodiagnostik metodlar shaxs sifatlarini to'g'ridan-to'g'ri aks ettiruvchi savollar hamda to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmagan savollar usulida

bo'lishi mumkin. To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan savollarga sinaluvchining o'zida u yoki bu psixologik sifatlarning ko'rinishlari bor yoki yo'qligi haqidagi javobidir. To'g'ridan to'g'ri yo'naltirilmagan savollar, sinaluvchidagi o'rganilayotgan xususiyatga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmagan bo'lib, ammo uning shaxs sifatining bu xususiyatini psixologik taraqqiyotini o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, shaxs sifatlaridan «xavotirlanishni» diagnostika qilish uchun savollarga murojaat qilsak (bezovtaliq o'ychanlik): 1. Xavotirlanishga ochiq savol: «Kuchli xavotirlanish holatiga tushib qoladigan hodisalar haqida gapirib bersangiz». 2. Yopiq savol: «Siz ko'p hollarda xavotirlanish holatida bo'lasizmi? Quyidagi javoblardan birini tanlang va belgilang «ha», «yo'q», «ba'zan», «bilmayman». 3. To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan savol: «Sizda xavotirlanish degan shaxs sifati mavjudmi?» 4. To'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmagan savol: «Sizda imtihon paytida bezovtalik holati vujudga keladimi?» Bundan tashqari yozma savolnomalardan tashqari, og'zaki sanolnomalar ham mavjud, bu intervyu deb yuritiladi. Unda psixolog sinaluvchiga o'zi savol berib, uchi javoblarni yozib boradi, bu savollar oldindan aniqlanib, tayyorlab qo'yiladi bu savollar xuddi yozma savollar tipidagi kabi bo'lishi mumkin. Yana bir psixodiagnostik metodlardan biri faoliyat mahsuldorligini analiz qilish orqali kontent-analiz xisoblanadi. Kontent-analizning vazifasi shundan iboratki, Odamni psixologik tavsifini aniqlash va baholashda, uni nima ish qilayotganligi, asosan yozma ijodi mahsulini tahlili orkali o'rganishga qaratilgandir. Eksperimentni psixodiagnostik metod sifatidagi muhim jihatlari shundan iboratki, sinaluvchining biron bir xususiyatini baholashda maxsus psixodiagnostik eksperiment ishlab chiqiladi va tashkil kilinadi. Bunday eksperiment muolajalari uchi a bir qancha tibbiy voqeliklarni tashkil kiladi, ya'ni bu hodisalar sinaluvchining o'rganilayotgan xususiyatini namoyon qilsa, hamda bu sifatning taraqqiyotini baholash va belgilashni standart metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan. Psixodiagnostik eksperimentni tashkil qilish va o'tkazish natijasida tadqiqotchi o'zini qiziktirayotgan muammolarga, maxsus tarzda tashkil qilingan eksperimental tadqiqotda sinaluvchi xulq-avtorini kuzatish orkali ma'lumotlarga ega bo'ladi. Masalan, tadqiqotchini shaxs sifatlaridan, xavotirlanish muammosi qiziktiradi. Unda diagnostik eksperiment kuyidagi tarzda olib boriladi. Sinaluvchini imtihon sinovlari kabi voqelik holatiga tushiriladi yoki qandaydir murakkab ishni vaqt tig'izligida qat'iy natijalar olingan bajarishga undaydi. Sinaluvchi topshiriqni bajarayotgan ishida, uning xulqida har xil yuqori darajali «xavotirlanish» qilib va belgilab borish mumkin. Biz yuqorida ko'rsatib o'tgan psixodiagnostik metodlar va trning turlari hamda qo'llanishi haqida ma'lumotlar berdiq har qiday psixolog yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishi uchun, albatta ushbu psixodiagnostik metodlarni o'zlashtirishi va amaliyotda foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi shartdir.

Psixodiagnostika - bu psixologning kasbiy faoliyatidagi murakkab va juda ma'suliyatli sohasidir. Mana shuning uchun ham psixodiagnostikaga bir qator ijtimoiy-axloqiy talablar qo'yilgan va bular quyidagilardir: 1. Psixodiagnostika sirlarini saqlash; 2. Psixodiagnostik metodikalarning ilmiy asoslanganligi; 3. Sinaluvchiga ziyon yetkazmaslik; 4. Xulosalarning ob'ektivligi; 5. Taklif qilingan

tavsiyalarning samaradorligi. Yuqorida qayd qilinib o'tilgan talablarni, psixodiagnostikaning tamoyillari sifatida har birini alohida ko'rib chiqamiz. Psixodiagnostikaning sir saqlash tamoyili - sinaluvchi-ning ruxsatisiz olingan natijalarni e'lon qilmaslik bu birinchi navbatda balog'at yoshiga yetgan odamlarga taaluqlidir. Agar sinaluvchilar balogat yoshiga yetmaganlar bo'lsa hamda psixodiagnostik natijalarni e'lon qilish uchun ota-onalarning yoki bolalar uchun ma'naviy va huquqiy ma'sul bo'lgan shaxslar ruxsati bo'lishi shart. Faqat ba'zi hollarda ilmiy maqsadda, ya'ni eksperimental tadqiqotning bir qismi sifatida e'lon qilish bundan istisnodir, ammo sinaluvchilarning aniq ismi, shariflarini bayon qilish tavsiya qilinmaydi. Psixodiagnostik metodikalarning ilmiy asoslangaklyak tamoyilida metodikaga validliq ishonchlilik talabi qo'yiladi, ya'ni olingan natijalarga to'liq ishonch imkonini bersin. Ziyon yetkazmaslik tamoyilida psixologik tashxis natijalarini hech qachon tadqiqotda qatnashgan odamlarga nisbatan zarar yetkazish maqsadida foydalanmaslik. Xulosalarning ob'ektivlik tamoyili test o'tkazayotgan odamning sub'ektiv ustanovkalarga tobe bo'lmasligi, test olingan natijalaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan bo'lib validligini ishonchli metodika yordamida o'tkazilgan bo'lishi shart. Taklif qilinayotgan tavsiyalarning samaradorlik tamoyilida tavsiyalar albatta taklif qilinayotgan odamga yordam berishi shart. Test natijalari asosida taklif qilinayotgan tavsiyalar befoyda yoki qo'shilmagan tasodifiy holatlarni keltirib chiqarmasligi kerak. Psixodiagnostika bilan shug'ullanuvchi odamlarga, maxsus malakaviy talablar qo'yiladi. Asosiylari quyidagilardir: - Nazariy tayyorgarlik; - Psixodiagnostik metodikalarni va ularni o'tkazish shartsharoitlarini mukammal bilishi; - Biron bir metodikani amaliyotda qo'llay olishda zaruriy tajribaga ega bo'lishi. Har qanday psixodiagnostik metodika bo'shliqdan paydo bo'lmaydi, balki (tashxislash) o'rganilayotgan ob'ektning psixologik nazariyasi asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Masalan, intellekt testlari, intellektning hayotiy voqeliklarda namoyon bo'lishi, ahamiyat tuzilishi va uning tabiati haqidagi ilmiy ta-savvurlarga asoslanadi. Shaxs testlari, shaxsning tuzilishi shaxs xususiyatlarining taraqqiyoti va tabiati, ilmiy ma'nosi haqidagi nazariyalarga asoslanadi. Psixodiagnostik metodikalardan to'g'ri foydalana olish uchun albatta uning nazariy asoslarini bilish shart, aks holda psixodiagnost tadqiqot natijalarining analizi, sharhlash va xulosalarda xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Eksperimentator biron bir psixologik testni mukammal o'zlashtirib olmagan bo'lsa va hech bo'lmaganda o'zida yoki boshqa bir odam sinab ko'rmagan bo'lsa, uni qo'llashga haqli emas.

Bundan tashqari psixodiagnostik metodikalarni qo'llashning shart-sharoitlariga qattiy amal qilish shart. Ammo har qanday voqelikda ham psixologik tashxis bilan kim shug'ullanishidan qa'tiy nazar - mutaxassismi yoki qiziquvchimi quyidagi ma'naviy-ahloqiy me'yorlarga qat'iy rioya qilishi shart:

1. Shaxsni o'z hohishsiz psixologik tadqiqotga jalb qilish man qilinadi, faqat ba'zi bir hodisalar bundan istisno, ya'ni sud yoki tibbiyot amaliyotlari agar qonun bilan chegaralanmagan bo'lsa;

2. Psixologik testlar o'tkazishdan oldin sinaluvchi. tadqiqot jarayonida o'zi anglamagan holda, o'z fikri va hissiyotlari haqida ma'lumotlar berib qo'yishi to'g'risida ogohlantirib qo'yilishi kerak;

3. Har bir odam agar qonun bilan chegaralanmagan bo'lsa, test natijalarini qachon, kim va qanday maqsadda qo'llanilishi haqida bilishga haqlidirlar;

4. Psixologik test natijalari tadqiqot o'tkazgan shaxs tomonidan sinaluvchiga tushunarli bo'lgan shaklda tayyorlab taqdim qilinadi;

5. Balog'at yoshiga yetmagan bolalar bilan o'tkazilgan test natijalarini ularning ota-onalari yoki ularga ma'sul shaxslar bilishga haqlidir;

6. Agar test shaxsning psixologik taraqqiyot darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilsa, u holda sinaluvchi na faqat testning maqsadini, balki kim tomonidan nima asosida test natijalarining xulosasi chiqarilishini bilishga haqlidir;

7. Amaliyotda psixologik testlarni qo'llashda asosiy javobgarlik ulardan foydalanayotgan shaxslar, tashkilotlar va psixologlar zimmasidadir.

6-MAVZU SPORTCHI SHAXSIDA O'Z-O'ZINI ANGLASH VA BAHOLASH USULLARI

Reja

6.1. Ijtimoiy so'rovnomalar, anketalar va ular bilan ishlash usullari.

6.2. Psixologik testlar va uni psixodiagnostikasi.

Guruhiy testlar va diagnostik metodlarni qo'llash Psixodiagnostikaga oid testlar va metodikalar. Mustaqil ravishda ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar tuza olish. Tadqiqotlarda olingan natijalarni ilmiy asoslab tahlil qila olish

6.1. Ijtimoiy so'rovnomalar, anketalar va ular bilan ishlash usullari.

So'rov – odatda sotsiologik tadqiqot o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan sotsiologik tadqiqotning o'ziga xos usuli. Ushbu usuldan mohirona foydalanish uchun nima haqida so'rash, qanday so'rash, qanday savollarni berish, va nihoyat olingan ma'lumotlarning to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qilish kerak bo'ladi. Ushbu empirik sotsiologik usul ko'pchilik insonlardan cheklangan hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha tengsiz bo'lib ikki xil ko'rinishda ishlatilishi mumkin: Anketa so'rovida, so'rovnoma ishtirokchisi anketa so'rovnomasini anketa o'tkazuvchi ishtirokida yoki o'zi yakka holda ya'ni yuzma-yuz yoki masofaviy ravishda mustaqil to'ldiradi. Masofaviy tarzda anketa so'rovnomasini o'tkazish borasida OAV so'rovi(gazeta, jurnal, televideniya orkali), so'nggi yillarda esa internet so'rovi keng tarqalgan shakllari hisoblanadi. Anketa so'rovining muhim ustun tamoni uning anonimlik tamoyiliga asoslanishi hisoblanadi. Anketa so'rovining muhim yutug'i uning anonimlik tamoyili hisoblanadi. Biroq bu ham respondentning (so'rovnoma qatnashchisining) javoblari to'g'ri ekanligini kafolatlamaydi, shu sababli tadqiqotchi to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilishda bu omilni doimo inobatga olishi zarur. So'rov quyidagicha turlanadi, ochiq so'rov – respondentlar erkin usulda fikr bildiradilar. Yopiq so'rov varaqasida barcha javob variantlari oldindan belgilangan bo'ladi. Yarim yopiq anketalarda yuqoridagi ikki usulni ham qo'llaniladi. Zondaj, yoki ekspress so'rov jamoatchilik fikrini o'rganishda qo'llaniladi hamda 3-4 banddan iborat asosiy ma'lumot va unga qo'shimcha so'rovda ishtirok etayotganlarning demografik va ijtimoiy xususiyatlari bilan bog'liq bir nechta bandlardan iborat. Ma'lum guruh ichida anketa so'rovi o'tkazish individual so'rovdan farq qiladi.

Birinchi vaziyatda 30-40 nafar insonlardan bir vaqtning o'zida so'rov o'tkaziladi: anketa so'rovi o'tkazuvchi respondentlarni bir joyga to'plab, ularga ko'rsatma beradi va anketalarni ularga to'ldirishlari uchun qoldiradi, ikkinchi vaziyatda u har bir respondentga individual ravishda murojaat qiladi.

Quyida ushbu usullarning qisqacha tavsifini keltiramiz:

1. Savolnoma-testlar o'ziga xos bandlarni taqdim etib (ushbu bandlar ba'zan savollar, ba'zan hukmlar tarzida bo'ladi) sinovdagi shaxs ularga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini bildiradi (ular da bir yo'la ikki-uchta muqobil javoblar beriladi). Yagona psixologik o'zgaruvchan fikr (yoki boshqacha qilib aytganda, o'lchanayotgan xususiyat) esa bir necha bandlar guruhi tarzida beriladi (kamida 6-7 ta guruh). Bandlar sub'ektning shaxsiy tajribasiga bevosita tegishli bo'lishi ham ("Siz qorong'ulikdan qo'rqasizmi?") bo'lmasligi ham ("Dunyodagi hamma odamlar halol va vijdonlimi?") mumkin. Savolnomalar bir o'lchamli, ya'ni shaxsning faqat bitta xususiyatini o'lchashga mo'ljallangan bo'lishi, shuningdek, ko'p o'lchamli-uning bir nechta xususiyatlarini o'lchaydigan ham bo'lishi mumkin.

2. Ochiq savolnomalar sinovda ishtirok etayotgan shaxsning standart javob berishini ko'zda tutmaydi; standart ishlov berishga uning ixtiyoriy javoblarini standart kategoriyalar bilan taqqoslash orqali erishiladi.

Anketa fransuzchadan tarjima qilinganda tekshirish (raseledovaniya) demakdir. Anketa metodi ommaviy faktlar, umumiy sabablar, tendensiya va voqealarning belgilari kabilarni bilishga mo'ljallanadi. Anketa tekshirilayotgan guruh javob berishi lozim bo'lgan, ma'lum mavzuga oid savollar ro'yxatidan iborat bo'ladi. Uning maqsadi boshlangich, chamalash uchun zarur bo'lgan materiallarni yig'ishdir. Anketa pedagogik tadqiqotga sosiologiya va psixologiya orkali kelganligi uchun ham shu fanlar tadqiqot metodlari xususiyatlarini saklaydi. Savollar faqat bir o'quvchiga berilmasdan, balki ko'pincha, o'quvchilar ommasigaberiladi., javoblar yozma shaklda olinadi. Anketa jamoatchilik fikrini bilishga xizmat qiladi. Lekin anketa metodining ommaviy kullanishininig ba'zi bir xaflitomonlari ham bor. Anketa savollari berilgan javoblarbolaning haqiqiy tarbiyalanganlik darajasini hamma vakt ham ko'rsatavermaydi. Chunki ba'zan tadqiqot ob'ekti yoki undan nima so'ralayotganini tushunmaydi yoki undan nima talab qilinayotganini anglyaydi va shunga mos javob qaytarishga urinadi. Savol to'g'ri berilmasa ham bolalar javobga xakikatni bo'zib ko'rsatadilar. Savollar to'g'ri kuyilgan bo'lsa, ob'ektiv ma'lumotlar olinadi. Shuningdek, anketadagi savollarning ko'pchiligi ularning tuzilishidagi kamchiliklar, savolga to'g'ri javob berishdagi psixologik tayyorgarlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Amaliyot anketalarning turli xillari mavjud. Anketa intervallarida anketa savollarini tadqiqotchining o'zi tuldiradi. O'quvchilarning fikrlarini aniqlashtirish, savollarni to'g'ri tushunishlarga yordam berish, javobning motivini tushuntirish uchun ham tadqiqotchi shunday qiladi. Lekin tadqiqotchi savolga javoblarning bir necha variantini ko'rsatish bilan birga o'quvchilarning o'z fikrini aytishi uchun ham alohida joy qoldiradi. Anketalar pochta orqali ham jo'natilishi mumkin. Bolalar o'rtasidagi anketa savollarini

tashkil qilish ham mumkin. Anketa qo'llash juda kulay va shubxasiz, juda katta kimmatga ega: 1) o'quvchilar savollariga javob berish o'z qarashlarini asoslashga majbur bo'ladilar va bu esa bolaning fikrlarini asoslashga o'rgatadi, undan nima xakda so'ralayotgan bo'lsa, unga munosabati harakterini belgilaydi. 2) anketa juda ko'p kishilar guruhi jalb etiladi, bu esa bolalarning umumiy qarashlari, tushunchalaridagi umumiy yutuq va kamchiliklarini aniqlashga imkon beradi: 3) anketa yordamida bu yoki bu masalada bolalarning jamoatchilik fikrlarini aniqlash mumkin. 4) anketa materiallari asosida ma'lum sharoitda bolaning atrof olam bilan bir tomonlama aloqasi o'rnatiladi, uning ma'naviy rivojlanish darajasi belgilanadi va x. Ma'lumotlar ishonchli bo'lishi uchun anketa so'roqlariga bolalardan kamida 100 tasi qatnashishi lozim. Anketa so'roqlari natijasiga olingan materiallar qayta ishlanadi bir guruh boshqa guruhlar bilan solishtiriladi va chiqarilgan xulosalar bolalar tarbiyasi uchun foydalaniladi. Anketani tuzishda quyidagi umumiy rioya qilish zarur. 1) Avval o'rganilayotgan proses, voqea va hodisaning strukturasi aniq predmetini, tadqiqot ob'ektini aniqlash va ular asosida ma'lum bir holda kuzatish, boshqasida maxsus tashkil qilingan vaziyat, uchinchisidan anketa ma'lumotlari va boshqalar orkali ulchsh lozim bo'lgan kriteriyalarni tanlash. Anketalar yordamida quyidagi aniq son ma'lumotlarni olish mumkin. a) belgilar buyicha o'quvchilar mikdori: jinsi, yoshi, ma'lumoti, oilasining ta'minoti, demagrafik ma'lumotlar kishloklik yoki shaharlik o'quvchi, kishlokda to'g'ilgan joyi va yashaydi, kishlokda to'g'ilgan va shaharda yashaydi, shaharda to'g'ilgan va yashaydi va shunga o'xshashlar. b) faoliyatining turli xillari davomida sarf qilingan vakt ish vakti, bosh vakt va boshqalar. v) u yoki bu faoliyatning harakteri va mazmuni. Masalan: uyin soni ma'lum yoshdagi turi, o'z ma'lumotini oshirishga o'quvchilar informasiyasini qaysi manbalardan foydalandi, o'quvchi ularga kanchalik vakt sarfladi, ya'ni televizor kurish, gazeta o'qish, teatrqa borish va boshqalarga. g) jixoz, predmet, vaziyat, sharoit, vazifa umuman nima o'quvchi ota-onasi hayoti obrazini harakterlasa shular haqida: d) bolaning oilasidagi, sinf jamoasidagi o'rni, bolalarning bir-birlari bilan kattalar bilan munosabatlari. ye) anketalar jamoatchilik fikrini, tipik muloxaza va boshqa tadqiqot metodlari bilan bog'langan holda kullanishi talab qilinadi. 2. Anketani tuzishda uning mazmunini o'rganilayotgan proses yoki hodisaning strukturasi bilan mos kelishi talab etilishi e'tiborga olish lozim. Buning uchun anketa so'roqlaridan olinadigan asosiy informasiyani oldindan aniqlash mumkin. Anketadagi savollar shunday tuzilishi kerakki, javoblar tadqiqot predmetining bosh programma-siga mos, maksimal ishonchli ma'lumotlar bersin. Anketadagi savollarda bosh savolga javobning ob'ektivligini tekshiradigan savollarning bo'lishi ham nazarda to'tishi lozim. Masalan: "Sening matematikaga munosabating qanday?" degan savol "O'z sevgan predmetingni ayt?", "Sening sevgan o'qituvching?", "Sening sevgan mashg'uloting?" kabi savollar bilan tekshiriladi. Anketa savollariga javoblar prognozining tuzish nima uchun shunday sonli natijalar kutilishini tushuntirish maqsadga muvofiq. Bu anketa natijasida olingan materiallarni tushuntirishda muhim ahamiyatli bo'ladi. Nihoyat informasiya tuplash metodikasini ishlab chiqish kerak, qachon qanday sharoitda anketa so'roqlari utkaziladi va ma'lumotlarni qanday aniqlashtirish kerak va

boshqalar. 3. Boshlang'ich to'zilgan savolni ishchi darajasiga keltirish. a) shunday qilish kerakki, savolga javoblar matematik statistik va sosiometrik yordamida matematik natijalar chiqarishga imkon bersin. b) gaplar shunday tuzilishi kerakki, unda so'ralayotgan shaxsga xurmat, aks etsin, savol ob'ektiv javobga chorlasin: " Sizdan iltimos klamiz", " Marhamat qilib ayting", " sizni fikringiz qanday", "javoblaringiz uchun cheksiz minnatdorman" va boshqalar.v) boshlang'ich to'zilgan savolni hamma uchun tushunarli holga keltirgunga kadar qayta ishlash zarur. g) anketa savollari izchil bo'lishi va unda ma'lum ichki logika bo'lishi lozim: d) savollarni aniq tuzish kerak va unda kat'iylikka yo'l kuymaslik kerak. Masalan, "4" va "5" baholarda ukiy olasanmi? yoki " yaxshirok ukiy olasanmi?", " o'zingni bosh kamchiligingni ayt?" kabi savollarning kuyilishi maqsadga muvofiq emas.4. Kuchma doskaga anketani oldindan yozib kuyish kerak, yoki uni bosmadan chiqarib ko'paytirish kerak. Respondent savolga diqqat bilan uylab javob qaytarish lozim. Lekin shuni unitmaslik kerakki, uzoq o'ylash ham foyda keltirmayadi. Chunki respodet tadqiqot-chining maqsadini anglab oladi va shunga mos javob qaytaradi. Ba'zan esa javob qaytarishga kiynalib, tengdoshining javobini qaytaradi. 5. Anketa ma'lum bir yoshdagi va sostavdagi respondentining katta guruhsi jalb qilinsa, ishonchli javob olinadi. lekin bu anketaga ming yoki undan ko'prok javob olish degan gap emas. Ba'zan ma'lum tipik guruhdagi o'quvchilar tanlanib ular orasida suxbat bilan anketa o'tkazish mumkin. Bu anketa ob'ekti asosli javoblar olishga yordam beradi. Anketa savollari respondentni qiziqtiradigan, uni to'g'ri javob berishga undaydigan qilib tuzilishi kerak. Buning uchun esa avval umumiy savollar berilib, respondentini tekshirilayotganda muammo doirasiga olib kirishi, uni qiziqtirishga va u bilan kontrakt o'rnatishga yordam berishi lozim. Maxsus savollar asta - sekin suxbat-ning o'rtarogida berilishi ancha kulaydir. Savollarning boy, ularning yoshi haqida, ish joyi haqidagi ma'lumotlarning so'ralishi va shunga o'xshash savollarning berilishi ham maqsadga muvofiq emas, bunday savollar anketaning oxirida so'ralishi, yoki bunday ma'lumlarini boshqa yo'llar bilan aniqlanishi ma'kuldir. Agar respondent to'g'ri javob aytishdan tortinsa, unda yashirin anketalar to'ziladi. Bunday anketalarda o'quvchilar javob qaytarib, o'z familyalarini aytmaydilar. Bunday anketalar ancha to'g'ri javoblar olishga yordam beradi. 7. Anketani o'tkazishdan oldin, savollarga izog' berish va qanday holda javob to'g'ri, qanday holda noto'g'ri bo'lishini tushuntirish kerak. Ba'zan esa, javoblarning bir necha variantlarini berish kerakki, o'quvchi undan o'z muloxazamiga to'g'ri keladigan javobni tanlasin.

Sport faoliyatida anketalarni o'rni va samaradorligi muhim o'rin egallaydi, chunki, anketa orqali sportchining muammolari, istiqbol yo'llariga imkon choralarni izlash va aniqlash maqsadiga qaratiladi. Anketalar sport faoliyatida ikkita turga asoslanib o'tkaziladi.

1 Shaxsi ma'lum

2 Shaxsi noma'lum tarzda

Anketa savollari keng ma'noga ega va keng ma'lumot olishga qaratilgan bo'lib, ammo unda keltirilgan savollar 10-15 tagacha bo'lgan savollarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik tadqiqotda anketa bilan birga kulaniladigan sotsiologik metodlardan biri suxbatdir. Pedagogik faoliyatning o'rganishda suxbat metodidan o'zok yillardan beri foydalaniladi. 1899 yildayoq pedagogik faoliyatning motivi to'g'risida 600 o'qituvchi fikrini analiz qilish asosida tadqiqot bosilib chiqqan edi. 1911 yilda 14 yuzdan ortiqroq o'qituvchidan olingan anketa so'roqlari statistik tuldirdi.(anketa ma'lumotlari suxbatlar yordamida tekshiriladi.) Standartlashtirilgan eski rasmiylashtirilgan suxbatlar bo'ladi. Pedagogik tadqiqotchilar standartlash-tirilgan suxbatdan boshlanadi.Chunki u hayotiy vaziyatda, respondentga uning o'rganilayotganligini bildirmasdan utkaziladi. Lekin bunday suxbatning yakunlarini yozib borish biroz kiyinchilik tugdiradi, ba'zan suxbat davomida tadqiqot maqsadga mos bulmagan informasiyalar ham bulib turadi.(ba'zan suxbatdosh boshqa narsaga qiziqib suxbat predmetidan tashqari chikib ketadi) Bunday suxbatlarni yozib borish kiyinligidan, uni yoddan yozishga to'g'ri keladi, bunday suxbatlarni tadqiqotchi savolning harakterini o'zgartirishi, vaziyatga moslab olib borishi ham mumkin. Ba'zan shunday suxbatlar ham utkaziladiki, uning uchun umuman savollar tayyorlanmaydi. Bunday suxbatlar shaxsning pozisiyasi, uning xulqini chukkurok o'rganishga yordam beradi. Tadqiqotchi shunday savollar beradiki, respondent o'z halki savoblarini erkin bayon kila boshlaydi.Standartlashtirilgan suxbatda ma'lum izchillikda aniq to'zilib chiqilgan bo'ladi. Bunday suxbatlar natijasida ro'yxatda olish, uni analiz qilish va taqqoslash ancha engil bo'ladi. Bu metodning kamchiliklariga vaziyatga chukur kirib borish imkoniyatning yo'qligi, to'g'ri ahamiyatli tushunchalar-ni hisobga olish imkoniyatini ta'minlaydigan xususiyat-larning yo'qligi va shu kabilar kiradi. Suxbatning bu turdagi kamchiliklar yarim standartlashtirilgan suxbat metodidan foydalanish hisobiga yo'qotiladi. Bu metod o'z ichiga aniq standart-lashtiralgan savollarni olish bilan birga tadqiqotchi erkn foydalanishi va suxbat davomida o'zgartirish mumkin bo'lgan savollarni ham oladi.Yarim standartlashtirilgan va standartlashtirilmagan suxbatlar muammo etarli o'rganilgan va xatto javoblarni ham bilish mumkin bo'lgan davrda kulaniladi. Standartlashtirilmagan suxbatlar esa muammo hali o'rganilmagan u bilan tanishish endi boshlangan davrda qo'llaniladi.

6.2. Psixologik testlar va uni psixodiagnostikasi.

Psixologiyada test deb, o'rganilaetgan xususiyatni rivojlanganlik darajasini, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini bir-biriga taqqoslash imkonini beruvchi standartlashtirilgan psixodiagnostik metodikaga aytiladi. Metodikaning standartlashtirilgan tushunchasini ma'nosi shundan iboratki, u voqea, hodisalardan boshlab sinaluvchiga beriladigan ko'rsatmalar, hisoblash usuli, olingan natijalarni sharhlash bilan tugaydigan, butun jaraenning hammasi, doimo va har joyda bir xil qo'llanilishiga aytiladi. Testlar erdamida olingan baholarni, agar test to'g'ri qo'llanilgan bo'lsa, test qachon, qaerda, qanday qilib va kim tomonidan qo'llanilgandan qatiy nazar ularni bir-biri bilan tenglashtirish, taqqoslash deb yuritiladi. Har xil psixodiagnostik metodikalarda testlarning validliq ishonchlilik aniqlik va bir xillik mezonlariga juda qatiy talablar ko'yiladi. Testlarning juda ko'p turlari mavjud va ularni ko'llanish asoslariga qarab bir necha guruhlariga bo'lish mumkin: test predmetligi bo'yicha (sifati bo'yicha ya'ni aynan sifatni testlar

èrdamida baholash); testlar da topshiriklardan foydalanshpning alohida xususiyati; materiallar bo'yicha sinaluvchiga talablar; ob'ekt bo'iicha baholash. Predmetligi bo'yicha testlar intellektual shaxsiy va shaxslararo testlarga bo'linadi. Testlarda topshiriqlardan foydalanishning alohida xususiyati bo'yicha amaliy, obrazli va so'zli testlar. Test materiallarining tavsifi bo'yicha sinaluvchiga talablar, blankali va apparaturali testlarga bo'linadi. Ob'ekt bo'yicha baholash - protsessual testlar yutuqqa erishish testi, holat va xususiyatlar testi. Intellektual testlar shaxsni aqliy faoliyati rivojlanganlik darajasi va ularni alohida bilish jaraenlarini (idrok, diqqat, xaèl, xotira, nutq) baholashda qo'llaniladi. Shaxs testlari insonning barqaror individual xususiyatlari, xatti - harakatlarini aniqlash bunga: temperament, xarakter, motivatsiya, emotsiya va qobiliyatlarni aniqlovchi testlar kiradi. Bundan tashqari gaaxeda har tomonlama, shaxs xolatini kompleks baholash èki alohida xususiyatining rivojlanganlik darajasini baholash testlari ham mavjuddir. Bunga Kettell, MMPI va boshqa testlar kiradi. Xususiy testlar èrdamida, shaxsning alohida belgilari, motivlar, emotsiyalar, masalan xarakter aksentuatsiyasi, xavotirliq lokus nazorati, yutuqqa erishish motivi, tajovuzkorlik va boshqalar aniqlanadi. Shaxslararo testlar har xil ijtimoiy guruhlarda odamlarning munosabati sifatida ijtimoiy-psixologik o'z-o'zini attestatsiya qilish testi. Amaliy testlar o'ziga topshiriq va shakllarni qamrab oladi, bunda sinaluvchi aniq predmet materiallari èki ularni almashtiruvchi materiallar bilan ko'rgazmali-harakatli reja bilan amaliy ish bajaradi. Obrazli testlar, obrazlar, surat, rasm, sxema va tasavvurlar bilan mashqlarni o'zi ichiga oladi. Verbal testlar so'zli topshiriqlardan iborat, unda tushunchalarni aniqlash xulosa chiqarish, har xil so'zlarning ma'nosini anglash va taqqoslash hamda bu so'zlar bilan har xil mantiqiy operatsiyalarni bajarishni o'z ichiga oladi. Testlarda qo'llaniladigan ko'pgina topshiriqlar kompleks xarakterga ega va bu testlarda amaliy, nazariy, obrazli va verbal toshliriqlar mujassamlashgan. Bu odamning, real haetidagi ko'p vazifalari kompleks xarakterga ega ekanligi bilan bog'likdir. Shuning uchun xam, testlar, odamni real haetidagi yutuqqa erishish imkoniyati va xulkini aytib berish uchun o'tkaziladi. Blankali testlar sinaluvchida test materiallari sifatida har xil shakldagi blankalarda foydalaniladi, masalan, rasmlar, sxemalar, jadvallar va savolnomalar. Apparaturali testlar - bu shunday testlarki, unda test natijalarini qayta ishlash va ko'rsatish uchun har xil turdagi apparaturalar qo'llaniladi, masalan, audio va videotexnika, elektron hisoblash mashinalari. Protsessual testlardeb, uning èrdamida qandaydir bir psixologik èki xulqiy jaraen o'rganiladi va unta aniq miqdoriy va sifatliy tahlil beriladi, masalan, materiallarni esda olib qolish jaraeniga, indivydlarning guruxda shaxslararo hamkorlik jarèniga tahlilni misol sifatida keltirish mumkin. Yutuqqa erishish testlari kishining qandaydir bir faoliyatida, bilish sohasini qandaydir bir turida yutug'ini baholashda qo'llaniladi, masalan, tafakkurning mantiqiyliqi, diqkatning barqarorliqi, verbal tafakkurning rivojlanganlik darajasi. Holatlar va xususiyatlar testlari shaxs psixologik sifatlarining barqarorligini diagnostika qilish bilan bog'likdir, masalan, shaxs xislatlari, temperament xususiyati, qobiliyatlari va boshqalar. Proektiv testlar maxsus guruxga ajratiladi. Proektiv test kishining u èki bu psixologik sifatini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bavoita baholaydi. Bunday baholash kishining ko'p ma'noli ob'ektlarni qanday qabul qilishi va talqin

qilishining analizi natijasida olinadi. Bunga: surat syujetining noaniqligi, shak-lisiz dog‘lar, tugallanmagan jumlar va boshqalar kiradi. Bunday ob‘ektlarni tahlil qilish va baholashda kishi ongsiz ravishda o‘z-o‘zining «proeksiyasini» ko‘rsatib berish deb yuritiladi. Bu guruh testlariga, Rorshax testi, Tematik Apperseptiv Test (TAT) va boshqalar kiradi. Proektiv testlar sinaluvchining yashirin va anglanilmagan psixologik xususiyatlarini psixodiagnostika qilish zarurati tug‘ilganda qo‘llaniladi. Psixodiagnostik eksperiment metod sifatida kamdan-kam voqelikda asosan kishining zarur psixologik sifatini boshqa usullar bilan aniqlash va baholash imkoniyati bo‘lmaganda qo‘llaniladi. Protsessual testlar, tadqiqotchini sinaluvchida kechaëtgan psixik va xulqiy jaraënlarning xususiyatlari qiziqtirganda qo‘llaniladi, yutuqqa erishish testlari esa kishining qobiliyati, ko‘nikma va malakalarini baholash vazifasini o‘taydi. Intellect testlari kishining intellektual taraqqiëtning umumiy ko‘rsatkichini aniqlash va miqdoriy baholash zarurati tug‘ilganda foydalaniladi. Psixodiagnostik metodlar singari testlarga ham qa‘tiy talablar qo‘yiladi: 1. Testning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi. Bu so‘zlar tuzilmasi test topshiriqlari va test baholari hamda sinaluvchiga berilaëtgan ushbu test topshiriqlari ushbu jamiyat madaniyati milliy qadriyatlariga mos bo‘lishligi zarur degan ma‘noni anglatadi. Masalan, Yevropada tuzilgan test boshqa bir mamlakatda birinchi marta qo‘llanilaëtgan bo‘lsa va bu mamlakatda intellekt strukturasi so‘z-mantiqiy bo‘lmasa, balki obrazli ëki amaliy tafakkurli bo‘lsa test albatta ijtimoiy madaniy moslashtirilgan bulishi shart. Agar test moslashtirilmagan holda, ya‘ni qanday bo‘lsa shundayligiga qo‘llanilsa, u holda biz juda past natijalar olamiz va natijalar ushbu mamlakatda yashovchi kishilarning tafakkuri taraqqiëtni ko‘rsatkichiga mos kelmaydi. Yoki buning aksi, ya‘ni ushbu mamlakatda so‘z-mantiq tafakkuri asosiy rolga ega bo‘lsa test topshiriqlari amaliy tafakkurga oid bo‘lsa, u holda biz aqliy taraqqiëtning noadekvat ko‘rsatkichiga ega bo‘lamiz. 2. Test topshiriqlarining soddaga tuzilganligi va bir ma‘noliligi. Ushbu talabga binoan, testni so‘z va boshqa topshiriqlarida ya‘ni, so‘z, rasmlar kishilar tomonidan har xil idrok qilinishi va tushunish momentlari bo‘lmasligi kerak. 3. Test topshiriqlarini bajarishda vaqtning chegaralanganligi. Bunda psixologik test topshiriqlarini bajarishda vaqt 1,5-2 soatdan oshmasligi, chunki kishi o‘zining ish qobiliyatini yuqori saviyada uzok muddat ushlab turishi juda mushkuldir. 4. Ushbu test uchun me‘ërlarining mavjudligi. Test me‘ërlari deb, ushbu testning reprezentativligini o‘rtacha ko‘rsatkichi tushuniladi, ya‘ni ko‘p odamlardan to‘plab olingan ko‘rsatkichlarning o‘rtacha ko‘rsatkichi bilan individning ko‘rsatkichini taqqoslash va uning psixologik taraqqiëtni baholash tushuniladi. Test me‘ërlari asosan, sinaluvchilarning ëshga, jinsini aniq bilgan holda, katta tanlama guruhidan olingan test natijalarining o‘rtacha bahosi va keyinchalik ularni ëshi, jinsi va bir qancha relevant ko‘rsatkichlarini differensiyalash bilan aniqlanadi. Test me‘ërlari - bu kishilar taraqqiëtning o‘rtacha ko‘rsatkichi. Har qanday me‘ër, o‘lchov ham vaqti bilan o‘zgarib turadi, chunki ishlar davomida kishilarning ham psixologik taraqqiëtida o‘zgarishlar bo‘ladi, masalan, XX asrning birinchi choragida kishilarnish intellektual taraqqiëtiga qo‘iilgan me‘ërlar, shu asrning oxirgi choragiga qo‘yilgan me‘ërlarga to‘g‘ri kelmaydi, chunki ushbu yillar mobaynida kishilarning aqliy taraqqiëtni ko‘rsatkichlari ancha yuqoridir. Bundan tashqari

empirik qoidalar mavjud unga ko'ra kamida har besh yilda test me'èrlari qayta ko'rib chiqilishi shartdir, asosan bu intellektual testlarga talluqlidir. Test me'èrlari qo'yilgan talablardan tashqari, test o'tkazishni, natijalarni qayta ishlash va tahlil qilishni qagiy qoidalari mavjuddir. Bular quyidagilardir: 1. U èki bu testni ko'llash uchun psixolog test bilan tanishib chiqib, o'zida èki boshqa bir kishida sinab ko'rishi kerak. Bu testni o'tkazish bilan bilan bogliq bo'lgan xatoliklarni oldini olish imkonini beradi. 2. Sinaluvchi test topshiriqlarini bajarishidan oldin va ko'rsatmalarini yaxshi tushunib olishi uchun odsindan tayèrgarlik ko'rib qo'yish. 3. Test o'tkazish vaqtida, sinaluvchilar mustaqil ishlashi, bir-biriga halaqit bermasligini va ta'sirini o'tkazmasligini nazorat qilib turish, chunki bu test natijalarini o'zgartirib yuborishi mumkin. 4. Har bir test natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish uchun asoslangan va aniq ishlangan matematik-statistik usullarni oldindan tayèrlab qo'yish. Biz test turlari va test me'èrlariga qo'yilgan talablarni o'rganib chiqsiq endi test me'èrlarini reprezentativligi, validligi, ishonchligiga to'xtalib o'tsak. Test tuzilishining asosiy statistik prinsiplari 1980-yillarda V.S.Avanesov, A.Anastazi, V.K.Gayda, V.P.Zaxarovlarning adabiètlarida to'liq èritib o'tilgan. Ammo ko'rsatib o'tilgan adabiètlarda psixometrik testlarning asosiy muammosi, test me'èrlari, to'liq èritib o'tilmagan. Bu birinchi navbatda amerikalik testolog A.Anastazining adabiètiga talluqlidir. Anastazining yaratgan qo'llanmasi, g'arb testologlari tomonidan ikkita asosiy prinsiplari zaruriy tanqidky muhokamalarga ega bo'lmaydi, bular diagnostik me'èriy sifati tarzida statistik me'èrlarning qo'llanilish muammolari va normal modellarga hamma empirik ma'lumotlarning taqsimlanishi haqidagi ma'lumotlar muammosi. Endi biz differensial asosiy tushunchalar tizimi tuzilishining qisqacha kontekstini analiz qilib o'tamiz. 1. Test shkalalarining statistik tabiati. Psixodiagnostikada tipik o'lchov testi - bu qisqa topshiriqlarning èki punktlarning ketma-ketligi, sinaluvchi tomonidan topshiriklar bajarilishi natijasida so'ng ularning bir xil miqdoriy tahlil qilinishi demakdir. Masalan: alohida topshiriqlardan tuzilgan intellektual testlarni interpretatsiya qilinishi: «yechimi to'g'ri», «yechimi noto'g'ri», —javob yo'qll, (topshiriqni o'tkazilib yuborilishi, vaqt yetishmasligi sababli), shaxsiy savolnomalarning tahlil qilinishi: sinaluvchi tomonidan ta'kidlanishi lozim bo'lgan javoblar ko'rilishi: «tasdiqlashi», «inkor qilinishi» (javoblar, «rozi emasman», «yo'q»). Umumiy ballar kalit orqali hisoblab chiqiladi, kalit har bir punkt bo'yicha sonlar bilan ifodalanadi. Masalan, toshpiriqning to'g'ri yechimiga - noto'g'ri èki o'tkazib yuborilganiga - «0». Bunda ballar to'g'ri javoblarning miqdorini ko'rsatib beradi

Xorijiy psixologiyada psixologik testlarni qo'llanilishining o'ziga xosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Hattoki, testologiya sohasida qo'llaniladigan metodikalarning o'rni va rolini ahamiyatini belgilash uchun ular tomonidan statistikani yuritilishini ham ahamiyat molik ekanligini e'tirof etish kerak. XX asrning 90- yillarda ko'proq individullikning xulq-atvoriga e'tibor qaratilgan. Hattoki e'tibor ko'proq inson faoliyatining murakkab, stressli sharoitlarini baholashga qaratilgan. Tadqiqot metodikalari ham shunga ko'ra ishlab chiqilishiga zarurat tug'diradi. Biz shuni qayd etishimiz kerakki, psixologik adabiyotlarni o'rganishimizda psixologik testlarni tatbiq etish xorijiy psixologiyada ma'lum tizimni yuzaga keltirgan va

ularning foydalanishni muvofiqlashtiruvchi uyushma faoliyat ham olib boradi. Xorijiy psixologiyada testlarni tatbiq etish jarayonida ularning sifatini baholash va standartlariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuning uchun psixodiagnostik metodikalarni tatbiq etish yoki diagnostika sifatini aniqlashda uning darajalari va jihatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda golland olimi Yan Ter Laakning yondashuvini e'tiborga olish lozim. Uning fikricha psixodiagnostikada sifatni muhokama qilishdan oldin, testlar nazariyasi (klassik va zamonaviy), muhit bilan taraqqiyot borasidagi nazariyalarni, metodika bilan tadqiqot muammosning mosligini, diagnostik jarayoning borishidagi talablarni yaxshi bilish muhim degan xulosani beradi. Ammo psixodiagnostikada sifatni aniqlash masalasi keng ko'lamdagi ishlarni bajarishni talab etadi. Buning uchun psixodiagnostik metodikalar sifatini belgilovchi asosiy jihatlariga murojaat etish o'rinli. Psixodiagnostik metodikalar sifatini belgilashda beshta kategoriyaga tayaniladi: testlarni yaratish maqsadi, testni strukturalashtirish, me'yorlar (normalar), ishonchlik va validlik. Bundan ko'rinadiki, testlar va so'rovnomalarni yaqqol psixodiagnostik ishlanmalar natijasi sanaladi. Ularni baholash esa o'ziga xos tizimi mavjud. Baholash tizimidagi yetakchi kategoriyalar, ya'ni ishonchlik va validlikni o'zini ham to'g'ri farqlay olish lozim. Psixodiagnostik adabiyotlarda qayd etilgan ma'lumotlarga tayanganimizda, test nazariyalari borasida o'ziga xos tajribalar va talablar aniq belgilab qo'yilganligini guvohi bo'lamiz.

Testlar va so'rovnomalarni yaratish, ularni bir muhitdan ikkinchisiga moslashtirish yoki yangi modifikatsiyalarni yaratishni o'zi ulardan muttasil foydalanish lozim degan xulosani bermaydi. Testlar va so'rovnomalarni ishonchli va validligini belgilovchi standartlar mavjud. AQShda har yili ob'ektiv ko'rsatkichlarga ega bo'lgan testlar va so'rovnomalarni haqida "Aqliy qobiliyatlarni o'lchash yilnomasida" ma'lumotlar berib boriladi. Bundan ko'rinadiki, qator mamlakatlarda testlar va so'rovnomalarni rasmiylashtiriladi va baholanib borilgan ekan. Bundan ko'rinadiki, xorijiy psixologiyada test amaliyoti borasidagi tajribalarni biz o'zlashtirmiz va o'zimizda tatbiq etishimiz lozim. Mabodo testlarni turlari va tatbiq etish sohalarini murojaat etib ko'radigan bo'lsak ham o'ziga xoslik kuzatiladi. Testlarni tatbiq etish turlarini xarakterli tomonlarini hisobga olib A.Anastazi quyidagi individual faoliyatni o'rganish, ma'lum populyatsilarni o'rganish, guruhviy faoliyatni o'rganish, intellektni baholash, shaxs faoliyatini baholash testi, qiziqshlar va attityudlarni o'rganish, proektiv metodikalar. Situatsiyalarni baholash testlari, kuzatish va biografik ma'lumotlar. Xorijiy psixologiyada tarixida nazar tashlanadigan bo'lsa aynan testologiya sohasida o'rganish lozim bo'lgan anganishga arziydigan anchagina ma'lumotlar borligini ta'kidlab o'tamiz.

1. Testologiya sohasida mutaxassis faoliyatini izga solib turuvchi, testlar bilan ishlash tizimini tartib soluvchi zarur faoliyatning me'yorviy talablari bor.
2. Testlar bilan ishlash jarayonida aynan testlarga quyiladigan talablarning aniq talablari yo'lga qo'yilgan.
3. Psixologik testlardan foydalanish tartibi ishlab chiqilganligi.
4. Testlarni o'tkazish, test o'tkazish sharoitlari, test o'tkazish bosqichlariga qo'yiladigan talablar.

5. Psixologik va ta'lim testlarini standartlari ishlab chiqilganligi.

Test sohasida mamlakatimizda olib borilishi zarur bo'lgan ishlarni tartibga solishda albatta ushbu tajribalar asos bo'lib xizmat qiladi.

Sobiq sovet psixologiyasida psixologik testlarni vujudga va ulardan foydalanishning rivojlanishi tarixi Sobiq sovet psixologiyasida psixologik testlar tarixiga e'tibor qaratishimiz oldimizda turgan eng asosiy vazifa sanalardi. Chunki, O'zbekistonda testlardan foydalanishning asosiy vositachisi va xorijiy psixologiya tajribalarini yurtimizga kirib kelishiga sabab bo'lgan narsa rus, xususan, sobiq psixologiya maktabining izlanishlari sanaladi. Bu tomondan ularning tarixiy rivojlanishini doimo hurmat bilan eslash lozim.

Rus psixologiyasida testlarni tatbiq etilishi tarixini ikki davrga ajratishga to'g'ri keladi:

1. Sobiq Ittifoqni tuzilishiga qadar

2. Sobiq Ittifoq davri. Biz har ikki holatini ham inobatga olib o'tamiz. Chunki psixologiyada testlardan foydalanishga qaratilgan e'tibor rus olimlarining diqqat markazidan ham chetga qolmadi. Balki XX asrning boshlarida bu sohada dastlabki qadamlar qo'yildi. Hattoki revolyusiyaga qadar Rossiyada testlar anchagina keng omma ichiga kirib kelgan edi. Bu borada pedagoglarning faoliyatini alohida e'tirof etish kerak. Ular testlarda bolalarning iqtidor darajasini, ularning shaxs xususiyatlarini, psixik rivojlanish prognozi va diagnoziga qaratdilar. Maktablar qoshida o'quvchilarni eksperimental psixologik tekshirishga mo'ljallangan kabinetlar tashkil etildi. Psixologik testlarning rivojlanishi va psixologiyaning tabiiy ilmiy tomonlarini rivojlanishida A.P.Nechaev, N.Ye.Rumyansev, G.I.Rossolimalarning xizmatlarini e'tirof etish o'rinli. Psixologik testlar bo'yida Rossiyada 1917 yilga qadar yetakchi psixiatr va psixologlar G.I.Rossolimo va F.Ye.Ribakovlarning ishlarini alohida o'ringa egaligini ta'kidlash zarur. 1908 yilda G.I.Rossolimo umumiy qobilyaitni o'lchovchi shkala, ya'ni "Psixologik profllar" nomi bilan kirgan shklani yaratdi. G.I.Rossolimo testlarni tuzishda empirik yo'ldan ema, balki shaxs va intellekt tuzilishi haqidagi nazariy tasavvurlarni tizimlashtirish orqali bordi. Unig testining asosiy maqsadi normal bolalarni taraqqiyotdan ortda qolayotgan bolalarning har xil darajalaridan farqini ko'rsatishda iboratligini (A.Bine tadqiqotlari bilan qiyoslab) ko'rsatmoqda. Uning testi 11 ta subtestdan iborat bo'lib, unda besh guruhga ajratilgan 11 ta psixik jarayon, diqqat, xotira, idrok etuvchanlik, iroda, esga olib qolish, assotsiativ jarayonlar va olingan natijalarni profilli tarzda ifodalash ko'zga tashlanadi. Topshiriqlar tadqiqotchilar kategoriyalariga ko'ra har xil variantlarda qo'llangan. F.Ye.Ribakovning qiziqish va izlanishlari fazoviy xayol muammosiga bag'ishlangan bo'lib, "Ribakov figuralari" nomi bilan tanildi. Hattoki uning ushbu testi ta'sirida psixologik testlashtirish sohasida 1955 yilda R.Meyli tomonidan intellekt testi yaratildi va taqdim etildi. 1912 yilda psixologik testlarni ahamiyatini ta'kidlab G.I.Chelpanov, "psixologik testlar ilmiy xarakterga ega, ularni amaliy maqsadlarda emas, balki ularni faqat ilmiy tadqiqotlarda foydalanilish lozim" degan edi. Testlar sohasidagi ikkinchi davr sobiq Ittifoq davri hisoblanib, bu davrning ham o'ziga xos ijobiy va o'ziga xos

mushohada etishni talab etadigan tomonlari mavjud. Psixologik testlar tarixining bu bosqichini pedologiya va psixotexnika davri sanalib (1920-30 yillar), psixologik testlarda burilish yuz berdi. Testlar keng ko‘lamda, ya’ni o‘quv-tarbiya muasssalarida qo‘llanila boshlandi. Psixologik testlashtirish borasida M.Ya Basov, M.S.Bernshteyn, P.P.Blonskiy, A.P.Boltunov, M.S.Vasileyskiy, S.G.Gellershteyn, V.M.Kogan, N.D.Levitov, A.A.Lyublinskaya, G.I.Rossolimo, I.N.Shpilreyn, A.M.Shubert va boshqalarning ishlarning faoliyatini aytib o‘tish mumkin. L.F.Burlachukning Ukrainada testlarni qo‘llanilishi tarixi borasidagi ma’lumotlarida, A.M.Mandirka va M.Yu.Sirkinlarning ishlari xususida to‘xtalib o‘tilgan. Ularning ishlarida asosiy e’tibor psixologik testlarda amaliy statistikasi tatbiq etish masalasiga qaratilgan. Test sohasida L.S.Vigotskiyning ham izlanishlarini e’tirof etish lozim. Ammo o‘z navbatida testlarni yolab chiqish bilan bir qatorda unga qarshi chiqqan olimlar borligini aytib o‘tish lozim. Bu borada taniqli psixologlar K.N.Kornilov, A.V.Zalkind, S.S.Molojaviy. Hattoki bu masala keng hukumat darajasidagi kengashda muhokama etilib, VKP (b) MKning 1936 yilning 4 iyulidagi “Xalq maorif qo‘mitasi tizimida pedgogik buzilishlar haqida” qabul qilingan Qarorida psixologik testlar masalasi ancha bahs-munozaraga sabab bo‘ldi. Hattoki testlashtirishni keng tarzda tatbiq etish cheklab qo‘yildi. Hattoki, 20 yillarda O‘zbekistonda o‘tkazilgan tadqiqot natijalarida test orqali milliy va ijtimoiy tafovutlar aniqlanganligi va bu esa o‘sha dvar uchun qanchadan qancha bollarning aqliy taraqqiyotdan ortda qolayotganligini ko‘rsatgan edi. Bunda aqliy taraqqiyotdan ortda qolishning sababi og‘ir ijtimoiy-maishiy sharoit, asosan fiziologik taraqqiyotdan ortda qolishi aniqlangan edi. Hattoki, bu boradagi ortda qolish masalasi faqat o‘rta osiyo mintaqasida, balki slaviyan ishchi-dehqon farzandlari orasida ham mavjud edi. 1920 yillarda sobiq ittifoqdagi o‘quvchilarning IQ si amerikalik o‘quvchilarnikidan 7% da past ekanligi ta’kidlangan edi. Shu sababli, xizmatchilarning bolalarining aqliy taraqqiyoti ishchi bolalarinikidan yuqori, dehqonlarni bolalarida esa bu ko‘rsatkich past chiqqan edi.

Hattoki 30 -yillardagi bunday test sohasidagi cheklanishlar bir qator olimlarning qurbon etilishiga ham olib keldi. Masalan, I.N.Shpilreyn Qizil arimiyaga saralash va tanlov ishlarini tashkil etish, professionallik faoliyatini o‘rganisha qaratgan izlanishlarida antisovetcha ish olib borish aybi bilan 1937 yilning dekabrda otib tashlangan. Ushbu davrning ta’siri sobiq sovet psixologiyasida individual farqlar va ularni o‘lchash masalasi bo‘yicha ikkinchi jahon urush oldi davri va undan keyingi yillar orasida o‘rganishdan o‘zini cheklab keldi. 1967-1970 yillarda kelib esa, sovet psixologiyasi aqliy taraqqiyot diagnostikasi masalasida “sifat yondashuvini” amalga oshirdi. 1969 yildagi ittifoq Psixologlar jamiyatida psixodiagnostika psixologiya fani sohasida mamlakatda oqsayotgan tarmoqlardan biri ekanligi va uning rivojlantirishga e’tibor qaratish kerakligi masalasi muhokama qilingan edi. Shundan so‘ng uzoq izlanishlardan so‘ngra sovet ittifoqida psixolgik testlardan foydalanish masalasi bo‘yicha rasman ruxsat berildi. Testlar to‘g‘risidagi munozara XX asrni 70-yillarining o‘rtalariga qadar davom etdi va 1980 yilning boshlarida bu susaydi.

Ko'pchilik psixolog olimlar testlarni ideologik xarakteridan ko'ra balki, hayot faoliyatining turli yo'nalishlarining psixologik aspektlarini o'rganishga e'tibor berish tashabbusini, ya'ni maktab, klinika, sport, ishlab chiqarishga tatbiqi masalasini ko'rib chiqish muhimligini ilgari surdilar (V.N.Myasimov, B.G.Ananov, I.N.Gilsheva, Ye.I. Steanova, F. L.Burlachuk, K.M.Gurevich va boshqalar). 70-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, psixodiagnostikaga xorijiy testlarga qiziqish ortganligini kuzatish mumkin. Bu yo'nalishda ko'plab monografilar, maqolalar nashr etila boshladi (V.G.Norikadze, F.B. Berizin, V.M.Bleyxer va L.F.Burlachuk). Sekinlik bilan psixodiagnostika va test sohasi psixologiyaning amaliy qismi sifatida tan olib boshlandi. Deyarli sobiq psixologiyasidagi testlar masalasi tahlil etish tarixiga nazarda shuni sezish mumkinki, testlarni differensial psixologik (B.M.Teplov, V.D, nebilitsin) xarakterga ega bo'lgan davri ham mavjud. Birinchi original testlar ishlab chiqishga va psixologik tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi (Ye.A.Lichko va boshqalar, 1983, V.M.Melnikov va L.T. Yampolskiy, 1985; K.Akimov, 1988; V.V.Stolin va boshqalar, 1988; A.A.Kronik va boshqalar, 1991). Bunda testlar bilan ishlash jarayonidagi psixometrik tartibsizliklarga barham berilishi, metodikalardagi ishonchlik, validlik va ishonchlilik masalalari katta e'tibor qaratish lozim ekanligi ko'tarildi. Psixologik testlarni ishlab chiqish va ularning tatbiqi masalalari sobiq ittifoqda 1990 yillarga qadar hali tanqis ekanligi sezilib turdi. Ittifoq tarqagach diagnostik metodikalar borasidagi ittifoq psixologiya maktablari faoliyati turli respublikalarga ajralib ketishiga sabab bo'ldi. Statistik ma'lumot sifatida 1999 yil Rossiyada o'tkazilgan psixologik metodikalarning ommaviyligi masalasida o'tkazilgan so'rovnomada, eng ommalashgan va yetakchilik qilayotgan metodika Lyusherning test bo'lib, 51 foiz ovozga ega ekan.

O'zbekistoda psixologik testlarni tatbiq etilishining tarixiy ildizlari Biz Respublikamizda psixologik testlar va metodikalarning tatbiq etilishi va ularning psixologik amaliyotda qo'llanilishi, psixodiagnostik maqsadlarda testlarni o'rni borasidagi tarixiy manbalarga murojaat etishimiz anchagina muammoli holatlarni keltirib chiqardi. Shuni inobatga olib, tarixiy holatlarni tahlil etishga ehtiyoj tug'ildi. Psixologik testlar Respublikamizda tatbiqi va ularning samaradorligi masalasidagi erishilgan tarixiy manbalar biz uchun eng ishonchli manbalar topishga qiyinchilik tug'dirdi. Ammo testlarni paydo bo'lishi borasidagi jahon amaliyoti tarixida sinov-tekshiruv masalalari turli xil ko'rinishlarda gavdalanganligini e'tirof etishimizga to'g'ri keldi. Biz sobiq ittifoqda testlar muammosini o'rganilishidagi tahlillarimizda, aynan psixologik testlarni paydo bo'lishi emas, balki ularni tatbiq etilishidagi urinishlar 20-asrning 20 yillarida amalga oshirilganligi to'g'risidagi tarixiy ma'lumotni keltirgan edik. Bunda dastlabki testlarning tatbiqi aholining intellektual salohiyati masalasini tekshirish uchun olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq edi. Testlarning tatbiq etilishi bolalarningaqliy taraqqiyotdan ortda qolishiga bog'liq ma'lumotlar qayd etilganligi bilan xarakterlanganligi, ularning sababi, bolalarning fiziologik, ijtimoiy rivojlanishiga bog'liq omillarning o'rni orqali tushuntirilganligi.

Ushbu xoslik faqat osiyo mintaqasidagi ishchi-dehqon aholisi uchun emas, balki butun Ittifoqdagi boshqa millat vakillariga ham xosligi ta'kidlangan edi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, avlodlarimiz ham inson psixologiyasi tekshirish uchun o'z sharoitlari va imkoniyatlari darajasida sinov-tajribalar o'tkazganliklarini guvohi bo'lishimizga to'g'ri keladi. Chunki o'z davridayoq Abu Ali Ibn Sino emotsional holatlarni tadqiq etish uchun oddiygina usul. Biroq samarali taassurot qoldiruv psixologik ma'lumot olishga imkon beruvchi dalilni keltira olgan. U emotsiyaning inson tabiatidagi rolini quyidagi tajriba: qo'y bilan bo'ri misolida isbotlagan edi.

O'zbekistoda psixologik testlarni tatbiq etilishi holati 1990-2008 yillar oralig'ida psixologik testlarni tabiiq etilishi va ularni rivojlanishi tarixini Respublikamizdagi holatiga e'tibor qaratishimiz bugungi kunda qo'llanilayotgan psixodiagnostik metodikalar, testlar, so'rovnomalar bilan bog'liq tahliliy materiallar to'plash imkonyaitini keltirib chiqardi. Biz ushbu masaga to'xtalishimizda oldin Respublikamiz olimlari tomonidan yaratilgan testlarning ayrimlaini sanab o'tishimizga to'g'ri keladi, bunda prof.E.G'. G'ozieviing "Shaxs irodasini o'rganish testi", "Fidoyilik xislatini baholash" shkalasi, "Barkamol insonni baholash" testi, "Vatanparvarlik xis-tuyg'usini baholash", "Muloqotmandmisiz", "Yolg'izlikka moyilmisiz" va prof. B.R Qodirovning "Sinf zukkolarini tanlash metodikasi", Iqtidorli bolalarni aniqlash metodikaalri (A va B varianti), "Kasbiy yo'nalganlikni aniqlash" (K.B.Qodirov). Bundan ko'rinadiki psixologik testlarni moslashtirish, ularni modifikatsiya qilishdan, ularni yaratish masalasiga o'tganligi Respublikamizda psixologik testlar tarixida o'sishni ko'zatishtga olib keldi. Bizning bu yo'nalishda e'tiborimini tortadigan yana bir jihati psixologik tadqiqotlarda diagnostik metodikalarning tatbiq etilishi va ularning qo'llanilish darajasini tahliliga bag'ishlandi.

O'zbekistonda psixodiagnostik metodikalardan foydalanish istiqbollari psixologik testlarni qo'llash va yaratishni o'zi bilan yuqori natijalarga erishib bo'lmasdir, ammo ularning xarakteristikasi, ularning tadqiqotlarda qo'llanilishi bo'yicha aniq rejalar zarurligi va bu boradagi jahon psixologiyasi tajribalariga tayanib ish ko'rish lozim bo'ladi. Muammoni shu tomonlarini hisobga olib, psixodiagnostik metodikalarni ilmiy maqsadlarda qo'llash uchun istiqbolda quyidagilarni amalga oshirish lozim.

Psixodiagnostik metodikalarni yaratish, modifikatsiya qilish va moslashtirish masalalarini boshqaruvchi muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish va ular Respublika psixologlari assosatsiyasining tarkibida ish yuritishi; Psixodiagnostik testlarni qo'llanilishi, ularning ilmiy xarakteri va psixometrik talablarga mos-mos ejmaslik holatlarini bayon etuvchi "Yilnomani" tashkil etish; Vaqti-vaqti bilan psixologik metodikalarni psixologik tadqiqotlardagi reytingi e'lon qilib borishni tashkil etish va uning monitoringini tashkil etish; Psixologik metodikalar bankini yaratish bo'yicha ishchi guruh faoliyatini yo'lga qo'yish; psixologik metodikalarni tatbiq etishning kompyuter tizimini Respublika bo'yicha yaratish va uni joriy etish; psixodiagnostik metodikalarni tarixi bilan bog'liq sajarani yaratish kabi jarayonlar psixologiya fanida

psixodiagnostik amallarni ta'minlashga to'rtki bo'luvchi omil sanaladi.

7-MAVZU SPORTDA PSIXIK HOLATLAR VA UNI DIAGNOSTIKASI

Reja

7.1. Emotsional holatlar diagnostikasi.

7.2. Stress holatlar diagnostikasi.

Psixomotor jarayonlar diagnostikasi. Emotsional holatlar diagnostikasi. Ziddiyatli vaziyatlar sharoitini, stress holatlarini aniqlash va xulq psixogigienasi. Psixologik-pedagogik konsiliumning bosqichlari. Sportchining mavjud psixologik holati va xususiyati haqida qaror qabul qilish

7.1. Emotsional holatlar diagnostikasi.

Hissiyot yoki tuyg'u - emotsiya sportchi shaxsida ruhiy hayotining shunday tomoniki, bunda tashqi ta'sirotning xarakteri va shaxsning unga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Ba'zi predmetlar, voqealar, xarakatlar shaxsni quvontiradi, huzur bag'ishlaydi, xursand qiladi. Ba'zi predmetlar esa shaxsni xafa qiladi, qaxr-g'azabini qo'zg'aydi, behuzur qiladi. Tashqi ta'sirotning xarakteriga (ijobiy yoki salbiyligiga) qarab shaxs unga nisbatan o'zining munosabatini bildiradi. Tashqi ta'sirotning yoqimli tomonlari shaxsda ijobiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Maza kilish, qoyil qilish, huzur-halovat, sevinch, quvonch, xursandchilik kabi holatlar ijobiy munosabatning ko'rinishlaridir. Tashqi ta'sirotning noxush, yoqimsiz tomonlari shaxsda salbiy munosabatlarni paydo qiladi g'azablanish, ranjish, xafalik, qo'rqish, behuzur bo'lish kabilar salbiy munosabatning ko'rinishidir. Sportchi shaxsida o'zining kundalik faoliyatida turli-tuman hissiy xolatlarini boshdan kechiradi. Agar u xavf ostida bo'lsa. qo'rquvni his qiladi, muvaffaqiyatga erishsa, zavqlanadi, intilish va xarakatlari to'g'ri, unumli ro'yobga chiqsa, quvonadi, ruhi ko'tariladi. Demak, shaxsda turli his-tuyg'ularning vujudga kelish manbai uning ehtiyojlari, natijalari va istaklaridir.

7.2. Stress holatlar diagnostikasi

Stress –(inglizcha –stress) –so'zidan olingan bo'lib, bosim, zo'riqish, tanglik degan ma'noni bildiradi. Stress inson organizmining holatlarida haddan tashqari zo'riqish natijasida paydo bo'ladigan tanglik jarayonidir. Stress ko'rinishiga qarab ikkiga bo'linadi:

1. **Konstruktiv** -biz turidagi(ko'pchilik orasida).

2. **Destruktiv** – men turidagi (yakka shaxs o'zi bilan) kechadigan jarayon.

Stressning **fiziologik** va **psixologik** turlari mavjud. Stressorlarning (stressga olib keluvchi omil) xarakteriga va xususiyatlariga qarab, **fiziologik stress** – bu o'ta jismoniy zo'riqish, biror og'riq, qo'rquv, kasalliklar natijasida vujudga keladi.

Tashqi **muhit** sharoitlariga bog'liq nerv psixik kasalliklarining vujudga kelishi va taraqqiyotida stresslarning ta'siriga katta ahamiyat beriladi, ayniqsa, bu yurak-

qon tomir kasalliklariga tegishlidir. Shu bilan birga stressga ijobiy ta'sir, ya'ni ish qobiliyatini oshirish xislati xos. Shuning uchun ham stressni **“hayot tuzi”** deb atashadi. Tuzdan foydalanishda me'yoriy rol o'ynaganidek, stressning ham me'yoriy mehnat unumdorligini oshirishi mumkin yoki me'yordan ortishi sog'liq uchun zararli bo'lishi mumkin. Inson aqlli mavjudot sifatida, agarda u bilimlar, tartib, irodaviy xislatlar va faollikka ega bo'lsa stressning to'g'ri dozasini o'zi uchun aniqlashi mumkin.

Stress bu atrof-muhitning uzoq vaqt ta'siri bo'lib, individ uchun hissiy organizmning boshqariluvchi tizimida va markaziy nerv sistemasida unga mos reaksiyalarni vujudga keltiradi. Atrof-muhitning stress ta'sirlari har xil bo'lib, qo'zg'ovchining ko'pligi ta'sirida bo'lishi mumkin (shovqin, shoshilinch, ishni bajarish muddatining qisqaligi insonlar orasidagi munosabatlarning yaxshi emasligi, yuqori talabchanlik) yoki qo'zg'atuvchilarning yetishmasligi oqibatida (bir xillik, talabning yengilligi, ijtimoiy izolyatsiya, aloqalarning yetishmasligi), nizolar ko'rinishida (qaror qabul qilg'i bilan bog'liq jarayonlarning buzilishi, aqliy va hissiy jarayonlarning o'zaro ta'sirida buzilish, irodaning kuchsizligi, ehtiyojlar va ularning qondirilishi orasida muvofiqlikning yo'qligi, shubhalanish) yoki vaqtinchalik boshqaruvning buzilishi sifatida (samoletda sayr qilish natijasida vaqtni ajrata olmaslik, hayotda va ishda qat'iy kun tartibining yo'qligi, hayotning tartibsizligi, ishni muddatida topshira olmaslik).

Stress ta'sirlari uchun organizmning hissiy reaktivligi katta ahamiyatga ega. Masalan, yurak qon-tomir kasalliklari, ayniqsa, yuqori qon bosimi (gipertoniya)ni **“hissiyot kasali”** deb atashadi.

Insonning har qanday faoliyati, avvalo, aqliy, ijodiy, va jismoniy ishlari zo'riqishni talab qiladi. Shunday yo'l bilan insonlar hayotiy vaziyatlarda oldilarida turgan vazifalarga uzoq vaqt diqqatlarini jamlab, ularni ishonch bilan to'liq yecha oladilar. Inson faoliyatining kritik nuqtalariga yaqinlashgan sayin ularda zo'riqish kuchayib boradi. Inson ishni muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng yengillashish va bo'shashish hissini boshidan kechiradi. Bu holat bo'shashish deb ataladi. Nerv va garmonal yo'llar orqali zo'riqib, funksiyaning organik kuchayishi (stress) muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi. U inson uchun zararli hisoblanmaydi, agar sarflangan energiya tezda bo'shashish orqali qayta tiklansa, tanaffuslar va bo'sh vaqtni unumli foydalanish yo'li bilan bo'shashishga erishish mumkin. Bo'shashishga boshqa faoliyat turiga ko'chish orqali ham erishish mumkin.

Lekin zo'riqish inson ijodiy faoliyatini tormozlashi, ish qobiliyatini pasaytirishi, sog'liqqa zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar bo'shashish yetarlicha bo'lmasa, yuqoridagi holatlarni kuzatish mumkin. Bunday uzoq vaqt zo'riqish holatlari har xil hayotiy vaziyatlarda vujudga kelishi mumkin. Ularga shaxsiy hayotda va ishdagi nizoli vaziyatlar, shaxslararo munosabatning buzilishi, kelajakka ishonmaslik, xavf-xatardan qo'rqish, ishni doimo qisqa muddatda topshirish tufayli o'z vaqtida ulgura olmaslikdan qo'rqish va boshqalarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga jamoadagi nosog'lom psixologik iqlim, shaxs xarakterining bo'shligi, qo'rqish, muvaffaqiyatsizliklar, o'z imkoniyatlarini yuqori boholash,

boshqa kishilar bilan munosabat (aloqalar)ning yetishmasligi, ijtimoiy ajralib qolish ham uzoq zo'riqish holatiga olib kelishi mumkin. Barcha stress holatlarida salbiy hissiyotlar rol o'ynaydi. Ular inson faoliyatiga va uning organizmiga buzuvchi ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik stress – odamning ruhiy holatiga voqealarning ta'siri tufayli sodir bo'ladigan stress. Psixologik stress bu ruhiy iztirobga tushishdir.

Psixologik stress :

- a) informatsion stress;
- b) emotsional stress turlariga ajratiladi.

Informatsion stress – insonda haddan tashqari axborotlarni ko'p qabul qilish, inson oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishda bir qancha yechimlar bo'lsa-da, aniq ulardan qaysi birini tanlash, yuqori darajadani shiddat bilan qaror qabul qilishda ikkilanadi.

Emotsional stress- ta'qiq qilish, falokat, hayotiy o'zgarishlar, kundalik tashvishlarda ko'rinadi. Psixologlar Maykl Shayer va Charlz Karver fikricha, optimist inson eng og'ir qiyin vaziyatda ham yaxshi deb oldinga intiladi. Birinchi bo'lib stress bo'yicha 1932 yilda fiziolog Uolter Kenon va 1936 yilda vrach Gans Selelar chuqurroq tushuncha berishga harakat qilganlar. Sele stress haqidagi tadqiqotlarini o'zining “Disstressiz stress” asarida umumlashtirgan. Stressda 3 bosqich farqlanadi:

1. Xavotirlik bosqichi.
2. Moslashish bosqichi.
3. O'ta charchash bosqichi.

Inflyatsiya, ishsizlik stresslarning ijtimoiy omili hisoblanadi.

Stress muammosini hal qilishda, 3 jihatga e'tibor berish zarur.

1. Hissiy stress omillarini yo'qotish.
2. Hissiyotni tarbiyalash. O'z hissiyotimizni boshqarish orqali ko'pgina stress holatining oldini olishimiz mumkin. Hissiyotni shunday boshqarish, mashq qildirish muhimki, salbiy hissiyotni paydo bo'lishi, ijobiy hissiyot uchun signal bo'lsin. Ana shunday javob berish usuli doimiy mashq qilinsa, inson salbiy hissiyotlarini boshqarishga o'rganadi va ijobiy hissiyotlarini oldinga chiqaradi.
3. Zo'riqish va bo'shshishni doimiy almashtirib turishga erishish uchun ishda tanaffuslarni tashkil etish va bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish zarur. Inson tuzilishidagi individual xususiyatlar ham stressning namoyon bo'lishida rol o'ynaydi. Bir insonda stress paydo qilgan omil boshqasiga faqat undovchi ta'sir etishi mumkin.

Tasodifiy stress bilan qanday kurashish mumkin?

Tasodifiy ko'ngilsizliklarga javob reaksiyasi, kutilmagan kelishmovchiliklar va boshqa har xil o'lchamdagi favqulodda hodisalar meditsina psixologiyasi nuqtai nazaridan o'tkir stress deb ataladi. Tasodifiy stressga qarshi tura olish uchun uning paydo bo'lgan dastlabki daqiqasida o'zingizni to'g'ri tutishingiz muhimdir. Stress bilan bog'liq bo'lgan sharoitlar, ob'ektlar, odamlardan jismonan va psixologik jihatdan uzoqlashish zarur. Bunga qanday erishsa bo'ladi?

Eng asosiysi stress bilan psixologik kurash olib borishda yanada

og'irlashtiradigan salbiy fikrlar oqimini to'xtatish kerak. Hammasini o'ylab qaror qabul qilish uchun hech bo'lmaganda bir necha daqiqalik dam olishni tashkil etish kerak. Axir sir emas-ku, odam stressning birinchi daqiqalarida sovuqqonlik bilan fikrlay olmaydi. Ko'pincha odam ayni shunday vaqtlarda o'ylab ko'rilmagan xatti-harakatlarni amalga oshiradi yoki oxir-oqibat afsuslanishga olib keladi, ya'ni atrofda qilargana haqoratli so'zlarni aytishi mumkin. Bunga esa uning ongida paydo bo'lgan noto'g'ri salbiy fikrlar aybdordir. Asab buzarlklardan so'ng dastlabki daqiqalarda fikrni nima bilan band etish kerak? Masalan, 1 dan 10 gacha, so'ng teskari tartibda sanash. Buni organizmning tabiiy-fiziologik jarayoni bilan, masalan, har nafas olish va chiqarishni yoki puls urishini bog'lash mumkin. Ayniqsa, salbiy emotsiyalar oqimi bilan tezda kurashishga sekin va ritmik nafas olish. Ayniqsa, chuqur nafas olish foydali (agar siz pulsingizni sanayotgan bo'lsangiz), nafas olish yurak urishi bilan moslashganini sezasiz). Stressli vaziyatda qorin bilan nafas olish maslahat beriladi. Bunda til tanglayga yopishgan bo'lishi kerak. Tasodifiy stress bilan kurashishda tana sezgilari bilan ishlash muhim ahamiyatga ega. "Yuragim tovonimga tushib ketdi" degan ibora to'g'ri aytilgan. Bundan tashqari odamning ahvolidagi o'zgarishlar mutlaqo tabiiydir. Tovuq sohasida psixologik himoya nuqtasi borligidan dalolatdir. Psixoterapevt A. Louening ta'kidlashicha, psixologik tana "og'irlik markazi" qanchalik pastda bo'lsa, odam o'zini shunchalik chidamli va himoyalangan his qiladi. Shuning uchun odam stress vaqtida shunchaki, "yerga qo'nishi", yer bilan bog'lanishni his qilishi kerak, buning uchun oddiy mashq qilish taklif etiladi. Oyoq uchida turiladi va birdaniga butun tananing og'irligi bilan oyoq yerga qo'yiladi.

Agar tanada noxush sezgilarni aniqlashga, (stress bilan bog'liq) muvofiq bo'linsa, ulardan turli usullar yordamida qutulish kerak. Nafas olish, relaksatsiya. Hozirgi taklif etilayotgan metodlar shaxsning qaysi psixologik tipga mansubligi, informatsiyaning qaysi kanali o'ta muhimligiga bog'liq, ya'ni eshituvchi, ko'ruvchi, jismoniy (harakatlanuvchi).

Agar siz "ko'ruvchi" tipidagi odam bo'lsangiz, atrofingizdagi o'rab turgan predmetlarni nomini aytib bering. Fikran yoki shivirlab, lekin aniq va lo'nda predmetlar nomini aytib bering. Agar siz "eshituvchi" tipdagi odam bo'lsangiz, musiqa eshitishingiz mumkin, yoki yaxshi ko'rgan kuyingizni eslang va xayolan qayta tiklang. Agar siz "harakatchan" tip bo'lsangiz, darhol 10-15 minutli muskullar faolligi va harakat bilan bog'liq biror bir faoliyat bilan shug'ullaning. Bu yugurish yoki sport zalidagi mashq bo'lishi shart emas. Uyda bu idish tovoq yuvish, ishda esa stol ustidagi qog'ozlarni tartibga keltirish bo'lishi mumkin. 20-30 minut o'tgandan so'ng hissiyotlar qizishi o'tib, stress chaqirgan holatlarni tahlil qilib, unga chetdan qarab turganday munosabatda bo'lib, bosiqlik bilan yechish mumkin.

8-MAVZU SPORT JAMOALARI YOKI GURUHLARDA SPORTCHINING XULQ-ATVORINI DIAGNOSTIKA QILISH.

Reja

8.1. Shaxsda xulq-atvor diagnostikasi

8.2. Sport jamoalari va guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilish.

Sport jamoalari yoki guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilish. Sport faoliyatidagi ehtiyojlar, motivlar va qiziqishlarni tadqiq etish. Sportda ziddiyatli xulq va uni his qilishning yosh va jins xususiyatlarini aniqlash. Guruhiy testlar va diagnostik metodlarni qo'llash. Sport jamoalari yoki guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilish.

8.1. Shaxsda xulq-atvor diagnostikasi

Shaxs hulq atvor dunyoqarashi, tasavvurlari va xulqi masalasi psixologiyada shaxsning rivojlanishi muammosi doirasidagi o'rganilgandir. Xususan, chet el psixologiyasida bu masala «Ahloq psixologiyasi» yo'nalishida maxsus tadqiqotlar doirasida o'rganiladi. «Ahloq psixologiyasi» ning predmeti shaxs hulq atvor taraqqiyoti va kamoloti masalasi bo'lib, u hulq atvor va ahloqiy ong va xulqning turli vaziyatlarda namoyon bo'lishi qonunlarini o'rganadi va fan sifatida emperik psixologiya, amaliy etika hamda amaliy, tadbqiqiy pedagogikaning o'ziga xos tarzidagi sintezidir. Bu yo'nalishda faoliyat ko'rsatgan olimlar orasida Jan Pijae ishlari, uning boladagi ahloqiy fikrlashlarning paydo bo'lishiga bag'ishlangan tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. U ahloqiy tushunchalar va hulq atvor tasavvurlar shakllanishining 3-bosqichini farqlaydi: 1. Ahloqiy realizm – 10-11 yoshli bolalarda kuzatiladi; 2. Ahloqiy kooperatsiya – o'smirlar tafakkuri va fikrlashlariga taaluqli; 3. Tenglik ahloqi – o'spirinlik davriga xos tasavvurlar. J.Pijae tadqiqotlarining bizning izlanishimiz doirasidagi ahamiyati shundaki, u o'smirlar va ilk o'spirinlik yoshida ahloq, odob, ma'naviyat borasidagi tasavvur va bilimlarning o'zgarishida shaxsni o'rab turgan muhit va munozarali sharoitlarning rolini alohida yoritib bergan. Ya'ni guruhda to'g'ri tashkil etilgan gurunglar, baxslar va munozaralar boladagi nafaqat hulq atvor tasavvurlar va tushunchalarga ta'sir etadi, balki uni egoistik mavqedan kechish, ijtimoiy motivlarning kuchayishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Bu qarashlar ta'sirida paydo bo'lgan G'arb nazariyalaridan biri «Kognitiv taraqqiyot nazariyasi» bo'lib uning tarafdorlari –Lourens Kolberg, Tomas Laykon, Jon Raytlar asosiy e'tiborni shaxsdagi hulq atvor va ahloqiy taraqqiyot bosqichlariga, xususan, har bir bosqichda ahloqiy bilimlar, ularning o'zlashtirilish shartlariga qaratganlar. L.Kolberg nazariyasi shu darajada mashhur bo'lib ketganki, uni «Ahloqlashtirish nazariyasi» ham deb atashadi (192). Kolberg asosan diqqatni ahloqiy tasavvurlarni qanday shakllanishiga, uning shaxsdagi tushunish darajasiga bevosita bog'liqligiga hamda uni mantiqqa aloqador ekanligiga qaratadi. U bu jarayonning uch bosqichini ajradati: «ahloqqacha bo'lgan bosqich», «ahloqning konvensial bosqichi» va «avtonom ahloq» bosqichi. Har bir bosqichda shaxs tushunchasi va tasavvurlari doirasi turlicha bo'ladi. Masalan, «ahloqqacha bo'lgan» bosqichda bolani emotsional munosabatlari muhim rol o'ynab, undagi asosiy paradigma quyidagicha: «Men xohlagan va menga ma'qul bo'lgan narsalarning barcha yaxshi». Buning xulqida qay darajada ifodalanishiga qarab, bola normalar tilida yo rag'batlantiriladi, yoki jazolanadi. «Konvensial ahloq» darajasining mohiyati shundaki, bola endi o'zi uchun ahamiyatli shaxslar fikriga murojaat qila boshlaydi, ya'ni referent guruh shakllanadi. Konformlilik kuchli bo'lishiga qaramay, shaxs tipik holatlarga qabul qilingan ahloq normalariga

bo'ysunishga o'rgana boshlaydi. Eng yuqori, mukammal bosqich hisoblangan «avtonom ahloq» bosqichi esa Kolberg fikricha, har qanday ahloqiy va hulq atvor qadriyatlarga shaxsning ichki tuyg'usi, munosabati borligi bilan izohlanadi. Ya'ni, shaxs go'yoki jamiyat bilan o'zicha, o'z nuqtai va tasavvurlari doirasida «shartnoma tuzadi» va universal etik normalarga bo'ysunishga o'zini majbur qila oladi. Aynan shu davri «vijdon» kategoriyasi asl holda paydo bo'ladi, lekin bunda tashqi muhit, tashqi ta'sirlar roli katta bo'ladi. L.Kolberg nazariyasini tahlil qilar ekanmiz, undagi ayrim jihatlarni alohida ajratishni joiz deb hisoblaymiz. Birinchidan, bu nazariya ahloq - odob va ma'naviyatni o'ziga xos, betakror soha sifatida ajratadi, ya'ni u aynan shaxsning ahloqiy, hulq atvor taraqqiyotiga qaratilgandir. Ikkinchidan, bu nazariya aynan tabiiy xarakterga ega bo'lib, tarbiyachi va pedagoglar G'arb shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda, yoshlar hulq atvor tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar rolini amalda idrok qilishga imkon beradi. Bu bilimlar tarbiyaviy ta'sirlarga differensial yondashuvni ta'minlaydi. Uchinchidan, bu nazariya ahloqiy mulk mezonlarini tushunishga imkon beradi va bunda shaxsdagi bilimlar, tasavvur va tushunchalarni ahamiyatli ekanligiga tadqiqotchilar diqqatini qaratadi. Ahloq va ahloqsizlik, to'g'ri-noto'g'ri tushunchalar doirasida shaxsdagi altruizm, egoizm holatlarining namoyon bo'lishini ko'rsatish bilan, u ahloqiy tasavvurlar o'zgaruvchan va dinamik jarayon ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ya'ni ahloqiy xulq va hulq atvor qiyofa tushunchalari boshqariluvchan bo'lib, ularni maxsus ijtimoiy ta'sir va tadbirlar vositasida o'zgartirish mumkin. Rus olimi I.S.Kon fikricha, bu G'arbda tan olingan va o'ta mashhur nazariyalar qatorida bo'lsa-da, lekin uni yagona va eng mukammal nazariyalardan, deb tan olib bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha, Islom dini hukmron bo'lgan mamlakatlarda ayni o'sha model bo'yicha tadqiqotlar ham o'tkazilishi lozim edi. Bizningcha, Sharq mamlakatlari, xususan O'zbekistonda ilk o'spirinlik yoshi davridagi yigit-qizlarning hulq atvor tasavvurlari shakllanishida bevosita muloqot tizimi, ta'lim-tarbiya vositasi, umumbashariy xulq normalaridan tashqari, milliy urf-odatlar, qadriyatlarning roli benihoya katta va bu omillar rolini hisobga olmaslik mumkin emas. Qolaversa, O'zbekistonlik psixolog V.A.Tokarevaning fikricha, shaxs ahloqiy taraqqiyoti darajasini uning «bilimlari va aqliy salohiyati bilangina chamalab bo'lmaydi. Chunki u bir tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning mahsuli bo'lsa, ikkinchi tomondan, shaxs tomonidan ahloqiy, hulq atvor yetuk bo'lish xohishi bo'lishiga ham bog'liq jarayonidir».

Shaxs kamolotida hulq atvor tushunchalar va tasavvurlarning o'rnini o'rgangan g'arbdagi mashhur nazariyalardan yana biri neofreydizm bo'lib, uning ildizlari bevosita Z.Freydning psixoanaliz nazariyasiga borib taqaladi. Ma'lumki, Freyd «yegoizm», «ahloqsizlik», «vijdon» va «ahloqiylik» tushunchalari atrofida ko'plab psixoanalitik tadqiqotlar o'tkazgan bo'lib, ularning manbaini ongsizlik sohasida ro'y beradigan psixologik jarayonlarga olib borib taqagan edi. Shaxsning jamiyat bilan munosabatlarini boshqaruvchi psixologik mexanizmlarga «vijdon» va «yegoizm» hislarini kiritgan Freyd, ahloqiy tasavvurlarning mazmuni ko'proq shaxsning ustanovkalariga, hissiyotlariga, ongsiz instinktlariga bog'liq, deb e'tirof etgan edi. Lekin uning hozirgi zamondagi tarafdorlari, masalan, Erix Fromm ushbu

masalaga gumanistik etika nuqtai nazaridan yondashib, ahloqiy normalar va xulqning manbai insonning o'zi va uning jamiyat ta'sirida shakllanadigan qarashlaridir, deydi. Uning fikricha, shaxsda konformistik xulq asosi borki, uning ta'sirida odam batamom ommaga aralashib, qorishib ketadi. Shaxsda jamiyatning standartlari, normalariga bo'ysunishga moyillik mavjud. Aslida, Freydda ham, Frommda ham shaxsni jamiyatga qarama-qarshi qo'yish, undagi faollikni mensimaslik, hattoki, inobatga olmaslikka moyillik bo'lsa-da biron yangi neofreydistlardagi bir muhim jihatni o'zimiz uchun ajratib olamiz. Bu shunday xulosaki, shaxs jamiyatimiz mavjud bo'lolmaydi. Unda ko'pchilik fikriga ergashish, ulardan o'zi uchun ma'qulini tanlab olish va ergashish, ijobiy ma'noda konformist bo'lishga tayyorlik-ustanovka bor. Asrlar mobaynida xalq ruhiyati va xotirasida saqlanib, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlar, qadriyatlar shunday ijtimoiy foydali omillarki, ular shaxsni ma'naviyatli, oriyatli bo'lishga chorlaydi va psixologik nuqtai nazardan hozirlaydi. Shu ma'noda shaxsdagi ahloq tushunchalari va hulq atvor tasavvurlar mazmunidan xalq durdonalari bo'lishi va ularning ta'siri tabiiy holatdir. Shaxs ahloqiy va hulq atvor taraqqiyoti kabi murakkab, keng qamrovli muammo bu tadqiqotlarda bir necha yo'nalishlar bo'yicha olib borilgan, masalan, ahloqiy tasavvur va tushunchalarni o'rganish (A.Alyakinskaya, A.P.Gutkina, G.V.Dragunova, V.A.krutetskiy, P.I.Rasmoslov, T.V.Rubtsova, A.A.Shnirman va b.q.), shaxs ahloqiy xatti-harakatlarining motivlari va motivatsiyasi (L.I.Bojovich, N.A.Jidaryan, Ye.V.Subbotskiy, P.M.Yakobson, S.G.Yakobson va b.q.), shaxsning ahloqiy ideallarini o'rganish (V.Bittsev, F.R.Gonsales, Z.I.Grishanova, N.I.Zagorenko, L.Yu.Dukat, M.G.Kazakina, L.Ye.Raskin, Z.Safonov, N.I.Sudakov va b.q.), alohida ayrim ahloqiy hislatlarning shakllanishi (N.B.Andrianova, R.Ibroximova, K.Muzdiboev, M.Sh.Rasulova, V.A.Tokareva va bashqalar), ahloqiy e'tiqodlarning shakllanishi (A.M.Bardian, I.M.Krasnobaev, A.L.Maliovanov va b.q.) bo'yicha ilmiy ahamiyatga moyilik ishlar amalga oshirilganki, ular ahloqshunoslik nazariyasi va amaliyotini qimmatli ma'lumotlar bilan boyitadi. Shu o'rinda, alohida ta'kidlash joizki, ahloqiy va hulq atvor taraqqiyot masalalariga bag'ishlangan ishlarning deyarli ko'pchiligi shaxs taraqqiyotining maktabgacha va o'spirinlikkacha bo'lgan davrini qamrab olgan. Ya'ni ilk o'spirinlik yoshi va talabalik yillariga bag'ishlangan ishlar salmog'i ancha kam. Shuning uchun o'tkazilgan tadqiqotlar orasida aynan bizni qiziqtirgan ilk o'spirinlik yoshiga to'g'ri keladigan ishlarning muhimlarigagina to'xtalamiz. A.V.Zosimovskiy shaxs ahloqiy taraqqiyoti bosqichlari ichida yuqori sinf o'quvchilari taraqqiyot bosqichiga tegishli ayrim ilmiy natijalarni ham qo'lga kiritgan. Jumladan, u yuqori sinf o'quvchilarida namoyon bo'ladigan ahloq normalariga munosabatning bevosita tafakkurga bog'liqligi, uning dialektik va o'zgaruvchan xarakteriga e'tibor bergan. U o'tkazgan tadqiqotlarda yuqori sinf o'quvchilarida ahloqqa nisbatan mas'uliyat hissining ortiqligi va ularning o'z-o'zini baholash va yaqin do'stlarini baholashga aloqadorligi isbot qilingan. Uning xulosa qilishicha, «o'spirinlik davriga kelib, ahloqiy sohadagi o'zgarishlar va shakllanishlar asosan nihoyasiga yetadi. A.Zosimovskiy fikriga to'liq qo'shilmagan holda shuni ta'kidlash mumkinki, ahloq va hulq atvor normalarni egallab beriladigan bilimlar ko'lami va

hajmi, yoshlarning aqliy kamolot darajalari muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu davrda ahloqiy tasavvurlar shakllanib bo'lgan va yetuk katta yoshli odamlar tasavvurlariga aynan mos deb baholash mumkin emas, chunki shaxs ahloqiy dunyoqarashi va hulq atvor tasavvurlari dinamik jarayonlar mahsuli bo'lib, ular tashqi muhit va hulq atvor normalar o'zgarishi, jamiyatdagi tub islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy, shart-sharoitlar o'zgarishiga hamohang o'zgarib boradi. Ayniqsa, ilk o'spirinlik davrida ahloq hulq atvor qadriyatlar mohiyatiga yetish hissi va ehtiyoji shu darajada kuchli bo'ladiki, bu jarayonni shu davrda nihoyasiga yetadi deyish, ilmiy cheklanish hisoblansa kerak. Bundan tashqari, ayrim tadqiqotlar talabalardagi ahloqiy tasavvurlar va ahloqiy xulqni o'rganishga bag'ishlangan. Masalan, ahloqiy sifatlar va qadriyatlarning taraqqiyoti dinamikasi I.L.Baskakova, Z.V.Kuzmina, N.R.Vdovina, A.G.Vlaskin, Ye.F.Mosinlar tomonidan, ahloqiy va hulq atvor munosbatlarning shaxs tomonidan baholashi – o'z-o'zini baholash M.M.Kovaleva, A.Ye.Soloveva, O.V.Shekochixin, L.I.Soboleva va boshqalar tomonidan talabalardagi ahloqiy ong va o'z-o'zini anglash D.S.Shimanovskiy, A.S.Frants, S.M.Godnik, V.I.Kunchenkolar tomonidan o'rganilgan. Ularda to'plangan ma'lumotlar ham ilmiy qimmatga ega bo'lib, o'spirinlik davrida maxsus ta'lim-tarbiya jarayonida ahloqqa va ma'naviyatga munosabat qanday o'zgarishi xususida aniq xulosalar olingan. Barcha o'tkazilgan ilmiy izlanishlarga munosib baho bergan holda talaba-yoshlar hulq atvor va ahloqiy dunyoqarashi fazilatlarining shakllanishi va shaxs tomonidan idrok qilinishiga bag'ishlangan muhim yana bir tadqiqot diqqatga sazovor bo'lib, bu ham yurtimiz professor V.A.Tokarevaning uzoq yillar mobaynida longityudial metod yordamida to'plangan ilmiy ma'lumotlaridir. Tadqiqotchining fikricha, o'quv faoliyati jarayonida talaba tomonidan turlicha qiyinchiliklarni yengish, ularga bardosh berish nafaqat aqliy mukammallik va faollikni, balki ahloqiy va hulq atvor chiniqishni ham talab etadiki, bu odamlar bilan bo'ladigan turli-tuman o'zaro munosabatlar mohiyati va yo'nalishini ham belgilaydi. Bu o'rinda muallif tomonidan inobatga olingan yana bir muhim jihat shuki, shaxsning ahloqiy va hulq atvor kamoloti avvalo real hayotiy vaziyatlarni ongli tarzda tahlil qilish oqibatida va asosida ro'y beradi. Yosh bolalardan farqli o'spirinlik davriga xos bo'lgan maksimalizm – har qanday hodisalarga o'ta jonsaraklik bilan munosabatda bo'lish, hodisalar mazmunidan ko'ra, oqibatiga ko'proq e'tibor berish, hayotiy vaziyatlarda idrok qilinayotgan narsa va hodisalar mohiyatini teran tushunish va o'ziga ahamiyatlarini faol saralab olishga imkon beradi. Bu o'spirinlik davrining hulq atvor qadriyatlarini o'zlashtirishga qulay davr ekanligini yana bir marotaba ta'kidlaydi. Bu xulosalar yana bir rus olimi K.A.Abulxanova-Slavskayaning nazariy taxminlariga to'g'ri keladi: uning ishiga, «..Shaxsning taraqqiyoti uchun maxsus tarzda yo'naltirilgan ijtimoiy ta'sirlar ... uning nafaqat o'z faolligidan, balki ularning shaxs hayotiy tarziga adekvat ta'sir ko'rsata olishiga, ... tarbiya ham shaxs shaxsiy tajribasiga hamohangligidan iboratdir» Demak, tarbiya vositalarining shaxs real hayotiga mosligi, ularning yosh va taraqqiyot xususiyatlariga to'g'ri kelishi samaradorlik omilidir. V.A.Tokarevaning o'zi shunday bir xaq fikrni ilgari suradiki, o'tkazilgan tadqiqot o'spirinlik davrida shaxs ahloqiy va hulq atvor taraqqiyot rivojlanishining bir jihatidan qamrab olgan, xolos.

Kelgusidagi tadqiqotlarda esa, «..ahloqiy qobiliyatlarning tuzilishi va tizimi chuqurroq tahlil qilinishi, turli taraqqiyot davrlarida ahloqiy sifatlarning namoyon bo‘lish va shakllanish qonuniyatlari izchil o‘rganilishi..» zarur (148, 133). Muallif ochib bergan «pishib yetilagn muammo»ning muhimligidan kelib chiqib, biz ham ilk o‘spirinlik davrida – ya’ni shaxs atrofidagi o‘zi uchun ahamiyat kasb etishi mumkin bo‘lgan hulq atvor qadriyatlar va ahloqiy normalariga faol munosabat bildirish mumkin bo‘lgan davrda uning hulq atvor tasavvurlari mazmunini belgilovchi ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik omillarni maxsus tadqiqotlar doirasida o‘rganish zarurligini angladik. Shu o‘rinda yana O‘zbekistonda o‘tkazilgan bevosita bo‘lmasa ham, bilvosita bizni qiziqtirgan muammoga yaqin tadqiqotlarga qisqacha to‘xtab o‘tamiz. Milliy an‘analar, urf-odatlar, qadriyatlar masalalari etnograflar, filosoflar, tarixchi-pedagoglar tomonidan keng, chuqur o‘rganilib kelingan tadqiqotlarda ularning kelib chiqishi, hulq atvor-madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy tomonlari batafsil o‘rganilgan.

«Hulq atvor tasavvur» shaxsning umumiy tasavvurlari tarkibida bo‘ladi. Tasavvur – shaxsning atrof borliq to‘g‘risidagi bilimlari, uning shaxsiy tajribasi bilan bog‘liq hodisalar tizimi. U yoki bu ob‘ekt yoxud hodisa bilimning yo‘qligi tasavvurning ham yo‘qligidan darak beradi. Hulq atvor tasavvurlar «ma’naviyat» tushunchasi bilan uyg‘unlashib, jamiyatning, millatning hamda aynan shaxsning ichki ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchadir. Hulq atvor tasavvurlar – shaxsning shunday tasavvurlari tizimiki, ular vositasida shaxs «ma’naviyat» tushunchasi atrofidagi barcha hodisa va ob‘ektlarni tushunadi va ularga nisbatan ma’lum munosabatni shakllantirgan bo‘ladi. Ular ijtimoiy bo‘lgani uchun ham «ma’naviyat»ning deyarli barcha sohalarini: Vatan taqdiri bilan o‘zini bog‘lash, o‘z Vatani tarixi bilan faxrlana olish, fan, din, diniy va milliy qadriyatlar, an‘analar, insoniyat yaratgan hulq atvor durdonalar haqidagi tasavvurlarni o‘z ichiga oladi. Shaxsning eng muhim afzalliklaridan biri – uning tashqi muhitni bilishi, turli vaziyatlarda unga moslanish hamda adekvat maqbul xulq-atvor normalarini o‘zida tarbiyalay olishidir. Chunki inson jamiyatning ijtimoiy va madaniy yutuqlarini bilishi va qadrlashi, ularni ruhan va aqlan xis qila olishi kerak. Bu narsa unga o‘z zamonasini to‘g‘ri idrok qilish va tushunish imkoniyatini berib, shaxs tasavvurlari dunyosini egiluvchan va sermazmun qiladi. Shundan mantiqan kelib chiqib, biz hulq atvor tasavvurlar yaqqol shaxsni aniq vaziyatlarda, jamiyatdagi qadriyatlarga nisbatan tutadigan xulq-atvori, xatti-harakati uchun go‘yoki yo‘naltiruvchi va moslashtiruvchi mezon rolini o‘ynashi bilan ahamiyatlidir. Hulq atvor tasavvurlar ijtimoiy tasavvurlarning bir tarmog‘i bo‘lib, u qotib qolgan ma’lum kognitiv narsalar emas, balki ular doimiy rivojlanishda, harakatda va taraqqiyotda bo‘ladi. Uning dastlabki bosqichi idrok qilish bosqichi bo‘lib, unda bevosita ongda aks etadigan ma’lumotlar qabul qilinishi, ular anglanganlik va shaxs uchun zarurat nuqtai nazaridan saralanishi ro‘y beradi. Undan so‘ng ikkinchi bosqich – assotsiativ bog‘lanishlar bosqichi ro‘y beradi, ya’ni bunda ongdagi yangi xabarlar eskilar bilan solishtirilib, assotsiativ va hulq atvor bog‘lanishlar o‘rgatiladi. Yuqoridagi ikkinchi bosqichning umumiy xususiyati umumlashtirish– generalizatsiyadir. Keyingi bosqichlar ko‘proq tafakkur va tushunchalar sohasiga taaluqli bo‘lib, unda har bir ma’lumot yoki

xabar differensial holda individ uchun ahamiyatlilik nuqtai nazaridan ajratiladi va shu asosda ma'lum ustanovkalar shaklida shaxs xulq-atvori yo'nalishini belgilaydi.

8.2. Sport jamoalari va guruhlarda sportchining xulq-atvorini diagnostika qilish.

Sport jamoasini o'z doirasida muayyan sport faoliyatini amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilma sifatida ko'rib chiqish mumkin. Ayni paytda jamoa kichik, tashkillashtirilgan guruh sifatida ham baholanishi mumkin. Zero u kichik guruhlarga xos bo'lgan barcha belgilarga va umumiy xususiyatlarga egadir. Sport jamoasi sportdagi o'ziga xos kichik guruhlardan biridir. Ushbu guruh ixtiyoriy tarzda tarkib topadi. Jamoadagi sportchilar hamkorlikka asoslangan faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Ular umumiy maqsad va vazifalarga egalar, hamda o'zaro jismoniy va psixologik muloqotda bo'ladilar.

Sport jamoasini muayyan bir tizim sifatida o'rganayotganda asosiy urg'uni alohida sportchilarga emas, balki ularning o'zaro muloqot va munosabatlariga qaratish lozim. Sportchilar ularni bir joyga to'plaganlari uchungina jamoani tashkil etishmaydi, balki o'zaro muloqot va yaqin munosabatlar hisobiga yaxlit jamoaga birlashadilar. Jamoa a'zolarining aynan shunday o'zaro munosabati shakllari jamoaning yaxlitligini ta'minlaydi.

Sport jamoasining yaxlitligi uning nisbatan mustaqilligini ko'zda tutadi, ya'ni jamoa boshqa sport guruhlariga nisbatan funksional avtonom holatda bo'ladi. O'zgalardan ajralib chiqar ekan, guruh o'z yaxlitligini saqlab qoladi. Sport jamoasining alohida ajralib turishiga murabbiy shaxsi, alohida sportchilar, o'ziga xos sport libosi, ko'krak nishonlari, emblemalari, shuningdek, jamoa haqidagi afsonalar, uning tarixi kabilar asos bo'ladi. Sport jamoasining alohida a'zosi yagona bir yaxlitlik – sport jamoasining bir elementi sifatida qaraladi. Guruhdagi xulq—atvorning individual shakllari sezilarli darajada o'zgaradi. Ba'zan bunday xulq-atvor faqat guruh tarkibidagi hamkorlik faoliyati doirasida mazmun va mohiyat kasb etadi.

Guruhda shaxs o'zining individual hayotida namoyon etmaydigan bir qator psixologik xususiyatlarga egaligini kashf etadi.

Sport jamoasining kichik guruh sifatidagi belgilari

Kichik guruhning asosiy belgilaridan biri bu uning a'zolari miqdoridir. Odatdagi talablarga ko'ra, kichik guruh a'zolari soni o'ttizdan ortmasligi, juda ko'pi bilan qirq kishi atrofida bo'lishi kerak. Kichik guruhning eng kam a'zolar soni 2-3 kishidan iborat.

Sport jamoasi kichik guruh sifatida uning har bir a'zosi uchun umumiy maqsadning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Maqsadlarning umumiyligi guruh

a'zolarini o'zaro hamkorlikka chorlaydi. A'zolarining o'zaro ta'siri jamoaning kichik guruh sifatidagi yana bir jihati bo'lib xizmat qiladi. Zero, jamoa a'zolari faqat o'zaro ta'siri vositasidagina o'z maqsadlariga erishishlari mumkin. Guruh a'zolarining o'zaro hamkorligi sportchilar erishishga intilayotgan maqsad bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'zaro hamkorlik va ta'siri kichik guruh va sport jamoasining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur jihatdir.

Kichik guruhning yana bir muhim belgilaridan biri – uning har bir a'zosining mazkur guruhga mansubligini his etishidir. (Bu ayniqsa kollektivlar uchun xarakterli xususiyatdir). Sport jamoasining maqsadlari odatda ijtimoiy mazmun kasb etsa-da, (jamoat, shahar, mamlakat sha'nini himoya qilish) shu bilan birga ular shaxsiy va guruhning o'zigagina dahldor bo'ladi (musobaqada aynan mana shu sportchilardan iborat jamoa, guruh g'alaba qozonishi lozim). Shu bilan bog'liq ravishda aytish mumkinki, sport jamoasining yana bir o'ziga xos belgilaridan biri - uning tevarakdagilardan ongli ravishda ajralib chiqishi va o'zgalarga nisbatan avtonom faoliyat yuritishidan iborat.

Sport jamoasining kichik guruh sifatida ijtimoiy rivojlanishi darajasi

Ijtimoiy yetukligi darajasiga ko'ra sport jamoalarini diffuz guruhlariga, assotsiatsiyalarga, kooperatsiyalarga va kollektivlarga ajratish mumkin.

Diffuz guruhga misol qilib endigina tashkil etilgan futbol jamoasini keltirish mumkin. Uning a'zolari bir birlarini hali yaxshi bilmaydilar, hatto bazan ular umuman notanish bo'ladilar. Bunday holda ular bir biriga hayrixoh ham bo'lmaydilar, shuningdek ular orasida bir-birini yoqtirish va yoqtirmaslik hislari ham kuzatilmaydi. Bunday holdagi o'zaro muloqotda tashabbus va rag'bat ham ko'zga tashlanmaydi.

Assotsiatsiya darajasida guruh a'zolari umumiy maqsad tevaragida birlashadilar, biroq ularning barchasi ham ushbu maqsadni bir xil darajada qabul qilmaydi; garchi guruh azolarining xatti-harakatlari u qadar muvofiq kelmasa va ularning fikrlarida tarqoqlik mavjud bo'lsada, guruhiy faoliyatning amalga oshishi kuzatiladi. Bunday hollarda guruh doimiy ravishda rahbarning aralashuviga ehtiyoj sezadi, uning aktivlari endigina qaror topa boshlaydi. Guruh a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar nisbatan tez qaror topadi, biroq do'stlar davrasiga xos munosabatlar tarzida ular hali aniq namoyon bo'lmaydi.

Kooperatsiyalar darajasida guruh a'zolarining yakdil harakatlari aniq namoyon bo'ladi, ularning qarashlari yagona, qadriyatlari umumiy, unga intilishlari ham bir xil bo'ladi. Guruh tartiblashgan tizim sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkin bo'ladi. Guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar va muloqot ishchanlik harakteriga ega bo'lib, ular umumiy maqsadga erishish uchun yo'nalgan bo'ladi.

Ammo bu darajada ham guruh faoliyatining yo‘nalishi u qadar muhim ahamiyat kasb etmaydi, shuning uchun ham uning ijobiy tomonga, ya‘ni jamoa tomon o‘shishi ham, shuningdek salbiy tomonga – korporatsiya tomon og‘ishi ham yuz berishi mumkin (Korporatsiya – guruhning salbiy rivojlanish tarmog‘ini ifodalaydi; u kollektiv manfaatining aksi bo‘lib, korporatsiyaning paydo bo‘lishini ijobiy baholab bo‘lmaydi).

Ijtimoiy (sotsial) psixologiyada yana referent guruhlar ham farqlanadi. Referent yoki etalon guruhlar deyilganda, guruh tomonidan belgilangan me‘yorlar, ko‘rsatma va yo‘nalishlar kishi tomonidan o‘z ijtimoiy hulq – atvorini shakllantirishda e‘tiborga olinibgina qolmay, balki ular hulq-atvorining yetakchi motiviga aylanadi. Inson bir paytning o‘zida bir qancha guruhlarining a‘zosi bo‘lib (mansublik guruhlarining a‘zosi) hisoblanar ekan, u o‘zini hamma bilan ham identifikatsiyalashni istamaydi. Bunda inson uchun shunday guruhlar ham mavjudki, ularning fikri mazkur jamoa a‘zosi uchun o‘ta muhim hisoblanadi. Masalan, sportchi o‘zi muayyan bir jamoada o‘ynab turib, boshqa bir jamoaning taktikasi va o‘yin uslubini qo‘llab -quvvatlashi mumkin, bunday hollarda uning uchun referent guruh bo‘lib o‘zining jamoasi emas, balki raqib jamoasi hisoblanadi.

Referent guruhlarining o‘rni shundaki, ular o‘ziga xos standartlarni (me‘yorlarni) yaratib beradi, mazkur me‘yorlar asosida kishi o‘ziga va boshqalarga baho beradi, ular ta‘sirida uning ijtimoiy qadriyatlari va ustanovkalari shakllanadi. Muayyan guruhning standartlarini o‘z xatti-harakatlari uchun namuna sifatida qabul qilar ekan, kishi ayni paytda mazkur jamoani o‘zining referent guruhi sifatida e‘tirof etadi.

Sport jamoasining tarkibi: Jamoa tarkibining elementlari – bu mazkur jamoaning a‘zolari bo‘lgan sportchilardan iboratdir. Biroq sport jamoasining tarkibi faqat ulardangina iborat emas. Sportchilar o‘zaro muloqotda bo‘lib, hamkorlikda harakat qilar ekanlar, jamoaning ichida ham ko‘plab kichik guruhchalar tashkil topadi va bu guruhlar biri –biri bilan duch kelib, juda rang-barang va turli qiyofaga ega bo‘lgan guruh pozitsiyasini tashkil etadilar. Ushbu kichik guruhlarining ayrimlari tashqi tomondan murabbiy yordamida muayyan mashg‘ulot yoki musobaqaviy vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladi. Bunday hollarda sportchilarga oldindan muayyan xatti-harakatlar va munosabatlar dasturi taqdim etiladi. Shuning uchun ham bunday kichik guruhlar rasmiy guruhlar deb atash mumkin. Boshqa kichik guruhlar esa jamoadagi o‘zaro muloqotlar asosida, sportchilarning o‘zaro simpatiyasi, hurmatlari vujudga kelganda, ularning umumiy qiziqishlari mavjud

bo'lganda paydo bo'ladi. Bunday kichik guruhlarni norasmiy guruhlar deb ham ataydilar.

Jamoadagi shaxslararo munosabatlar sotsiometriya usuli vositasida o'rganiladi. Ushbu usul asoschisi J. Moreno kishilarning o'zaro munosabatlari asosida o'ziga xos sintonlik, ya'ni har qanday insonga xos bo'lgan va hech qanday asosga ega bo'lmagan, boshqalarga nisbatan ixtiyoriy simpatiya yoki antipatiya yotadi, deb hisoblaydi. Shaxslararo munosabatlarni garchi bu jihatlar guruh tarkibi, uning uyushganligi va hokazolarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etsada, faqat kishidagi emotsional psixologik fenomenlarning (simpatiya yoki antipatiya) ifodasi sifatida talqin etish mumkin emas. Shaxslararo munosabatlarni me'yorlar, qadriyat yo'nalishlari, guruhda (sport jamoasida) hosil bo'lgan vazifa va topshiriqlar bilan bog'liq ravishda va guruh barcha a'zolarining jadal faoliyati asosida ko'rib chiqish lozim.

Sotsiometriyaning quyidagi ta'riflari mavjud: sotsiometriya – bu individlarning shaxslararo munosabatlar va o'zaro hamkorlik jarayonida paydo bo'ladigan muayyan narsaga nisbatan yoqtirish yoki befarqligini, shuningdek xushlamaslik jihatlarini aniqlab beruvchi ayrim usullar tizimidan iborat. Sotsiometriyada ko'plab usullardan foydalanish mumkin, biroq ularning barchasi guruh a'zolarini tanlashga asoslanadi, ya'ni ulardan kimlarni yoqtirish, kimlarnidir rad etish kerak bo'ladi. Tanlovlar erkin yoki qayd etilgan tarzda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holda tanlangan shaxslarning soni cheklanmaydi; ikkinchisida esa tanlangan shaxslarning soni ko'rsatiladi (masalan, “eng yaxshi 5 ta o'yinchining nomini ayting”). 10-15 nafar kishidan oshmaydigan guruhlarda (sport jamolarning deyarli barchasi ana shu toifaga kiradi) saylanganlar sonini cheklamaslik maqsadga muvofiqdir, 30-40 kishidan iborat guruhlarda esa (sport sinfini tadqiq etishda) tanlovni 3-5 sub'ekt bilan cheklash tavsiya etiladi.

Sportchining sotsial guruhdagi faoliyati uning xislatlariga muayyan ta'sir ko'rsatib, uning ijtimoiy ongini, hayotiy prinsiplarini shakllantiradi. Boshqa kishilar bilan muloqotda bo'lish sport bilan shug'ullanuvchilarda nafaqat raqiblik effektini (musobaqalashuv reaksiyasini) hosil qiladi, balki ayni paytda ularda birgalikda faoliyat yuritish bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy fazilatlarni ham tarbiyalaydi.

Ana shunday fazilatatlardan biri bu kollektivizm, ya'ni insonning jamoa maqsadi bilan mushtaraklik tuyg'usi bo'lib, uning tarkibiga jamoaning ideallari va qadriyatlar yo'nalishiga amal qilish, ularni qadrlash kiradi. Jamoa tuyg'usi shakllangan sportchilarda mas'uliyat va burch hissi, do'stona hamkorlik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik fazilatlari paydo bo'ladi.

Kollektivning ta'siri ostida sportchida yana boshqa bir qator shaxsiy hususiyatlar ham tarkib topib, ulardan biri – o'zini tanqidiy baholash hissidir. Sportchida adekvat darajada o'zini tanqidiy baholash hissini (o'ziga- o'zi baho berishni) shakllantirish o'ta muhim. Zero tanqidiy baho me'yoridan oshib ketishi sportchida o'ziga ishonchsizlikni yuzaga keltiradi, agar bu hissiyot yetishmasa sportchida o'ziga yuqori baho berish yuzaga keladi. Ularning har ikkisi ham sportchi muvaffaqiyatsizlikka uchraganda yuz beradigan frustratsiya nomli salbiy va noxush emotsional holatning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Kollektiv faoliyat sportchining jamoa oldidagi vazifalarni hal etishga bor imkoniyatlarini safarbar etish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Qator tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, jamoaviy, ya'ni kollektiv musobaqalashuv motivlari shaxsiy motivlarga nisbatan sportchi faoliyatining yaxshilanishiga ko'proq ta'sir qiladi. Shunday sportchilar ham uchraydiki, ular jamoa uchun kurash olib borayotganlarida, o'z shaxsiy hisoblari uchun bo'ladigan bellashuvlardan ko'ra yaxshiroq natijalarni qo'lga kiritadilar. Kollektiv tarkibida bo'lish sportchining mojaroli vaziyatlarda yuzaga keladigan tajovuzkorligi darajasini hamda yo'nalishini o'zgartiradi. Yuqori tajovuzkorlik hususiyatiga ega shaxslar doimo kollektivda bo'lishlari evaziga hosil qiladigan empatiya tuyg'usi (o'z jamoasidagi do'stlariga hamdard bo'lish, o'zining emotsional holatini boshqalarga muvofiqlashtirish) evaziga bu hisni kamaytiradilar. Natijada ulardagi tajovuzkorlik "sportchi g'azabi"ga aylanib, raqib tomon yo'naltiriladi. Sportchining kollektiv darajasida yetilgan sport guruhiga kirishi, unda tayyorgarlik mashg'ulotlarga ongli ravishda va maqsadli tarzda munosabatda bo'lishini shakllantiradi, undagi ma'naviy fazilatlarini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sportchi o'zi va guruhi o'rtasidagi bog'liqlikni his etar ekan, o'zini guruhning ajralmas qismi deb biladi va butun jamoasiga soya tashlaydigan noma'qul xatti-harkatalarni qilishdan, jamoani o'ziga qarshi qilib qo'yishdan tiyiladi.

Psixologik muhit deyilganda quyidagilar tushuniladi: jamoaning emotsional holati, sportchilar o'rtasidagi ijobiy yoki salbiy shaxsiy munosabatlar, jamoada mojaroli holatlarning yo'qligi yoki mavjudligi kabi guruhiy jarayonlar. Psixologik muhit har bir sportchining kayfiyatidan tarkib topadi: sportchining tetikligi, hotirjamligi yoki aksincha vahimaligi, uning ushbu jamoa tarkibida ekanligidan qoniqishi psixologik iqlimning asosiy omillaridir.

Emotsiyalar, psixologik iqlimning bir tomonini aks ettiradi. Uning yana bir muhim tomonlaridan biri bu jamoada shakllangan ma'naviy, axloqiy me'yorlar hamda qadriyatlardan iboratdir. Nohaq va g'irrom yo'l bilan qo'lga kiritilgan g'alaba agar jamoadagi o'yinchilarni xursandligiga sabab bo'lsa, demak ushbu

jamoadagi psixologik iqlimni ijobiy baholash mumkin emas. Shu sababli ham jamoada ma'naviy axloqiy me'yorlarni shakllantirish, ya'ni sportchilarning jamoadagi hulq atvorlarini belgilab beruvchi qoida va talablarni shakllantirish sog'lom psixologik iqlimni shakllantirishning eng muhim va bosh vazifalaridan biridir.

Jamoaning psixologik iqlimi haqida faqat uning g'alabani qanday kutib olishigina emas, balki muvaffaqiyatsizlikni qanday boshdan kechirishi ya'ni jamoadagilarning mag'lubiyatga sabab bo'lgan omillarni ochiq va oydin ravishda tahlil etishga o'zlarida kuch topa olishi, o'yinda yuz bergan kamchilik va tushkunlikni bartaraf etish xususiyati ham muhim dalil bo'lishi mumkin. Bir xokkey jamoasining mashhur murabbiysi bu haqida shunday yozgan edi: "Muvaffaqiyatlar, hammaga ma'lumki, jamoadagilarni birlashtiradi.

Sport jamoasining uyushganligi va uning faoliyat samaradorligi: Uyushganlik – bu guruhga xos maxsus ijtimoiy psixologik hodisadir. Uyushganlik – shunday bir integral jihat-ki, u jamoaning haqiqiy birligi va yaxlitligini ifodalaydi. Uyushganlikning asosida guruh va jamoa a'zolarining maqsadlari, motivlari, dunyoqarashlaridagi yakdillik, ularning umumiy maqsadlarga erishish, umumiy qadriyatlarni qaror toptirish uchun tayyor ekanligi va bu borada kurasha olish qobiliyatlari yotadi. Uyushgan sport jamoasi qiyinchiliklarni osongina yengib o'tish, barcha kuch-qudratini o'z maqsadiga safarbar etish, tayyorgarlik mashqlari jarayonida ham, musobaqalar jarayonida ham fikrlarning turli-tumanligiga, mojaroli vaziyatlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik, har bir sportchining imkoniyatlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yarata olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Sport jamoasining uyushganligi sport natijalariga ham, jamoa to'g'risida ijtimoiy fikrning shakllanishiga, g'alabalarni ham, mag'lubiyatlarni ham bir xilda hamjihat bo'lib his etishga, yuqori intizomni tutib turishga, jamoadoshlar orasida o'zaro bir-birlarini tushunishning barqarorligiga, shuningdek, jamoa tarkibining doimiyligiga ta'sir ko'rsatadi.

Sport jamoasining uyushganligi tushunchasi guruhga xos bo'lgan yagona jamoaviy kayfiyat, jamoaviy tafakkur kabi o'ziga xos fenomenlar bilan chambarchas bog'liq. Sport jamoalaridagi uyushganlik haqida gapirilganda nafaqat sportchilar o'rtasidagi o'zaro hissiy-emotsional munosabatlarni nazarda tutish, balki ularning o'yin davomidagi munosabatlarini ham inobatga olmoq joizdir. Zero, sportchilarning ushbu jamoada doimiy qolishlarida nafaqat ularning bir-biriga bo'lgan xayrixohliklari asosiy o'rinni tutadi, balki bunda ularning umumiy maqsadga erishish borasidagi motivatsiyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham musobaqalashuv vaziyatida, ya'ni gap bellashuvda g'alaba qozonish

haqida ketganida sportchilar orasidagi o'yinga xos o'zaro munosabatlar juda kam hollardagina buzilishi mumkin. Chunki bunday paytlarda sportchilarning o'zaro bir-biriga nisbatan yoqtirmaslik hislari yoki adovatlari ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Shu sababli ham sport jamoalaridagi uyushganlik tushunchasini ikki jihatdan ko'rib chiqish zarur. Ularning birinchisi ishchanlik nuqtai nazaridan bo'lsa, ikkinchisi emotsional jihatdir.

Ko'plab sport psixologlarining e'tirof etishlaricha, ijobiy emotsional iqlim va jamoaning uyushganligi, uning ish samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Sport amaliyotida bunga nihoyatda ko'plab misollar uchraydi, o'yin paytida u yoki bu jamoaning ko'rsatkichlari tushib ketishiga ko'pincha jamoa o'yinchilari o'rtasidagi uyushqoqlikning sustligi sabab bo'ladi.

Jamoaning uyushganligi ko'plab ob'ektiv va sub'ektiv xarakterdagi omillarga bog'liq. Ular qatoriga masalan, quyida biz baholashga harakat qiladigan shaxsning bir qator jihatlari ham kiradi. Shaxsning qaysi tomoni baholanishiga ko'ra (ishchanligi yoki emotsional his-tuyg'ulari) uyushganlik (jamoadoshlar o'rtasida bir-birini baholashdagi yakdillik, o'zaro bir-biriga ko'maklashish, shodlik va quvonchni birgalikda baham ko'rish va hokazolar,) o'rtacha yoki yuqori darajada bo'lishi mumkin. Sport jamoalari o'z tarkibiga ko'ra xilma-xil bo'ladi va bu jamoaning uyushganligida ham o'z ifodasini topadi. Sportning sport o'yinlari turidagi jamoalarda barcha o'yinchilar yagona murabbiy (bosh murabbiy) tomonidan tarbiyalanib, ular asosan faqat bosh murabbiyning ko'rsatmalarini bajaradilar; sportning individual turlari bo'yicha terma jamoalarda esa bu holat tamoman boshqacha (yengil atletika, suzish, velopoygalar, figurali uchish, gimnastika va hokazolarda). Birinchi holatda sportchilarning uyushganlik darajasi yuqori bo'ladi. Chunki sport o'yinlari bo'yicha jamoadagi barcha a'zolar o'zaro bir-birlari bilan nafaqat musobaqalarda, balki tayyorgarlik mashg'ulotlarida ham yaqin aloqada bo'ladilar. (Sport mashg'ulotlari yig'inlarida bir xil sharoitda yashaydilar). Ularda doim umumiy maqsad, o'zaro aloqa mavjud bo'ladi. Ikkinchi holatda esa, aksariyat hollarda jamoaning uyushganlik darajasi ancha past bo'ladi. Bunday jamoalarning uyushishiga erishish nihoyatda og'ir kechadi va uzoq vaqt talab qiladi. Bu maqsadga erishishda terma jamoalarda o'z o'quvchilariga ega bo'lgan murabbiylarning o'rni nihoyatda kattadir.

9-MAVZU SPORT FAOLIYATIDA TASHKILOTCHILIK VA BOSHQARUV JARAYONLARI PSIXODIAGNOSTIKASI.

Reja

- 9.1. Sport faoliyatida boshqaruv psixologiya uni psixodiagnostikasi.
- 9.2. Guruhda lider psixologiyasi va uni aniqlash usullari.

Psixologiyada boshqaruv usullari. Sport faoliyatida tashkilotchilik va boshqaruv jarayonlari psixodiagnostikasi. Guruhda lider psixologiyasi va uni aniqlash usullari. Guruh-Jamoa psixologiyasi unda shaxsning ishtiroki va ijtimoiylashuvi.

9.1. Sport faoliyatida boshqaruv psixologiya uni psixodiagnostikasi.

Har bir murabbiyning o'zoq yillik ish faoliyati jarayonida sportchilar guruhini yoki alohida sportchilarni boshqarish borasida faqat uning o'zigagina xos bo'lgan individual boshqaruv uslubi shakllanadi.

Boshqaruv uslubi deganda nimani tushunmoq kerak? Boshqaruv uslubi deganda rahbarning jamoaga ta'sir qilishdagi, sportchi yoki jamoani boshqarish maqsadida amalga oshiradigan usullari tizimi, uslublari, yo'llarining nisbatan qat'iy va barqaror mushtarakligini anglamoq kerak.

Psixologiyaga oid adabiyotlarda boshqaruvning bir-biridan keskin farq qiluvchi 3 ta uslubini alohida ajratib ko'rsatadilar va ular quyidagilardan iborat: **avtokratik** (avtoritar, direktiv), **demokratik** (kollegial), **liberal** (o'ta keng fe'l-lik,



A B C D mehribonlik va erkinlik asosidagi) boshqaruv usullari.

Avtokratik boshqaruv ish uslubi murabbiyning yolg'iz o'zi tomonidan boshqarilishini anglatadi, ya'ni barcha qarorlarni qabul qilish faqat murabbiy zimmasida bo'ladi. Avtokratik boshqaruv uslubida rahbarlik qiluvchi barcha murabbiylarning ta'siri asosan buyruqlar, ultimatum shaklidagi talablar, farmoyishlar tarzida bo'ladi.

Direktiv boshqaruv uslubida ish yurituvchi murabbiylar odatda o'zining har qanday taklifiga rozi bo'laveradigan sportchilarga alohida hurmat va xayrixohlik bilan qaraydi. Shu sababli ular boshqaradigan jamoalarda odatda o'ziga xos "erkatoylar" mavjud bo'ladi va ular odatda o'z o'rtoqlari orasida har doim hurmat-e'tiborga sazovor bo'la olmaydilar. Boshqa o'quvchilari bilan avtokrat murabbiylar muomalada muayyan masofani saqlaydilar, o'z o'quvchilari bilan munosabatda

ular samarali va bir maromdagi ohangni topa bilmaydilar. O‘quvchilari muvaffaqiyatsizlikka uchraganda juda kuchli asabiylashadilar, xatto so‘kish, haqorat so‘zlarni ham qo‘llay oladilar. Oqibatda sport jamoasida nosog‘lom psixologik muhit va mojaroli vaziyatlar yuzaga keladi.

Avtokrat murabbiyning shaxsiy sifatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: o‘ziga haddan ziyod ishongan, prinsipial, talabchan, o‘zini tutib tura bilmaydigan, mehribonlik tuyg‘usidan holi, turli mojaroli va nizoli vaziyatlarga moyil.



Demokratik boshqaruv uslubi turli masalalarni va hamkorlikka oid takliflarni hal etishda yetarli darajada muhokamalarga, kelishuvlarga izn beradi. Jamoaning a‘zolari qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishga keng tarzda jalb etiladi. Biroq, bunda murabbiy hech qachon “o‘z izmi”ni sportchilarga mutlaqo berib qo‘ymaydi. U o‘z qo‘l ostidagilarning shaxsiy munosabatlaridan ham yaxshi xabardor bo‘ladi. U guruhdagi barcha a‘zolar bilan bir xil muomalada bo‘ladi. Ularning birortasini ham alohida ajratib yaxshi ko‘rmaydi yoki yomon ham ko‘rmaydi. Uning muloqotida tarbiyaviy axborot ustuvorlik qiladi. U asosan iltimos qilish, maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish shaklida o‘z boshqaruvini amalga oshiradi. Gap ohangi asosan bir maromda, ba‘zi hollarda esa hazil-mutoyiba va do‘stona muloqot turlaridan foydalanadi.



Liberal boshqaruv uslubi murabbiyning jamoa faoliyatiga juda kam aralashishi bilan izohlanadi. Bunday murabbiy odatda mashg‘ulotlar jarayonida mashqlar va qiyinchiliklarni tanlashda o‘z qo‘l ostidagilarga keng erkinlik beradi. Sportchilarga maksimal darajadagi mustaqillikni berib, aksariyat hollarda o‘zi ham “ularning izmida” bo‘ladi. Sportchilarning shaxsiy munosabatlarini yaxshi bilmaydi. O‘z qo‘l ostidagi yetakchi va muayyan obro‘ga ega sportchilarning fikr –

mulohazalariga quloq soladi. Liberal murabbiyning sportchilar bilan muloqotida talab, maslahat, tavsiyalar deyarli bo'lmaydi. Ularning o'rnini iltimos va kelishuvlar egallaydi. Qo'l ostidagilar tomonidan intizomni buzish, topshiriqlarni bajarmaslikka oid har qanday tushuntirishlarni u hech qanday tanqidiy baholarsiz qabul qilaveradi.

Liberal murabbiyning shaxsiy fazilatlarini: kirishimli, bosiq, birovni xafa qilmaydigan, xushmuomala, xayrixoh, muomalada juda sodda, talabchanlikdan holi, haddan ziyod bag'rikeng.

Yuqorida jamoani boshqarishning bir-biridan keskin farq qiluvchi 3 ta uslubi keltirildi. Biroq, ulardan qaysi biri jamoani tarbiyalash, o'qitish, uning sport natijalarini yuksaltirish va hokazolar borasida samaraliroq degan haqli savol tug'iladi. Quyida biz ularning har biri haqida muayyan xulosalarni chiqaramiz.

9.2. Guruhda lider psixologiyasi va uni aniqlash usullari.

Psixologik ma'noda guruh – bu umumiy belgilar, umumiy faoliyat, muloqot hamda umumiy maqsad asosida birlashgan kishilar uyushmasidir. Demak, odamlar guruhi tashkil topishi uchun albatta qandaydir umumiy maqsad yoki tilaklar, umumiy belgilar bo'lishi shart. Masalan, talabalar guruhi uchun umumiy narsalar ko'p: o'quv faoliyati, bilim olish, yoshlarga xos birliklar (o'spirin yoshlar), ma'lum o'quv yurtida ta'lim olish istagi va hokazo. Ko'chada biror tasodif ro'y berganligi uchun to'plangan kishilar uchun ham umumiy bo'lgan narsa bor – bu qiziquvchanlik bo'lib o'tgan hodisaga guvohlik, unga umumiy munosabatdir. Guruhni alohida shaxslar tashkil etadi, lekin har bir guruh psixologiyasi uni tashkil etuvchi alohida shaxslar psixologiyasidan farq qiladi va o'ziga xos qonuniyatlariga bo'ysunadi. Ayni shu qonuniyatlarni bilish esa turli tipli guruhlariga boshqarish va ana shu guruhlarini tashkil etuvchilarni tarbiyalashning asosiy mezonidir. Guruhlarning turlari ko'p, shuning uchun ham ularni turli olimlar turlicha klassifikatsiya qiladilar. Bizning nazarimizda, G.M.Andreevaning “Ijtimoiy psixologiya” darsligidagi klassifikatsiya guruhlarining asosiy turlarini o'z ichiga qamrab olgan. U har qanday kishilar guruhini avvalo shartli va real guruhlariga bo'ladi. Real guruhlar aniq tadqiqot maqsadlarida to'plangan laboratoriya tipidagi hamda tabiiy guruhlariga bo'linadi. Konkret faoliyat va odamlarning ehtiyojlari asosida tashkil bo'ladigan bunday tabiiy guruhlarining o'zi kishilarning soniga qarab katta, kichik guruhlariga bo'linadi. Katta guruhlar uni tashkil etuvchilarning maqsadlari, fazoviy joylashishlari, psixologik xususiyatlariga qarab uyushgan va uyushmagan turlarga, kichiklari esa o'z navbvtida endi shakllanayotgan – diffuz hamda taraqqiyotning yuksak pog'onasiga ko'tarila olgan jamoa turlariga bo'linadi. Guruhlarning ijtimoiy psixologiya uchun ayniqsa muhim hisoblangan turlariga ta'rif berish va ularning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan holda, bevosita katta guruhlarining ijtimoiy psixologik qonuniyatlarini o'rganishga o'tamiz. Katta guruhlar psixologiyasiga xos xususiyatlar va ularni ilmiy tadqiq qilish prinsiplari. Katta guruhlar kishilarning shunday birlashmalariki, undagi odamlar soni avvalo ko'pchilikni tashkil etib,

ma'lum sinfiy, ilmiy, irqiy, professional belgilar ularning shu guruhga mansubligini ta'minlaydi. Katta guruhlarni tashkil etuvchilar ko'p sonli bo'lganligi va ular xulq-atvorini belgilovchi mexanizmlarining o'ziga xosligi tufayli bo'lsa kerak, ijtimoiy psixologiyada olimlar ko'pincha kichik guruhlarda ish olib borishni afzal ko'radilar. Lekin katta kishilar uyushmasining psixologiyasini bilish juda katta tarbiyaviy va siyosiy mafkuraviy ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlarning kamligi bir tomondan, aytib o'tilganidek, ko'pchilikni qamrab olishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchi tomondan, katta guruhlar psixologiyasini o'rganishga qaratilgan metodik ishlar zahirasi kamligidir, ya'ni, katta guruhlarning psixologiyasini o'rganishga mo'ljallangan maxsus metodikalar kam ishlab chiqilgan. Masalan, ishchilar yoki ziyolilar sinfi psixologiyasi o'rganilishi kerak, deylik. Avvalo o'sha ishchilarning soni ko'p, qolaversa, ishchilarning o'zi turli ishlab chiqarish sharoitlarida ishlayotgan, turli iqlim sharoitlarida yashayotgan turli millatga mansub kishilardir. Ularning barchasini qamrab oladigan yagona ishonchli metodikani topish masalasi tadqiqotchi oldiga juda jiddiy muammolarni qo'yadi. Shuning uchun ham har bir katta guruhga taalluqli bo'lgan asosiy, yetakchi sifatni topish va shu asosda uning psixologiyasini o'rganish hozircha ijtimoiy psixologiyadagi asosiy metodologik yo'llanma bo'lib kelmoqda. Qolaversa, katta guruhlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida shakllangan guruhlar bo'lgani uchun ham har qanday guruhni o'rganishdan oldin, xoh bu sinflar bo'lsin, xoh millatlar yoki xalqlar psixologiyasi bo'lsin, uning hayot tarzi, unga xos bo'lgan odatlar, udumlar, an'analar o'rganiladi. Ijtimoiy psixologik ma'noda, hayot tarzini o'rganish deganda, u yoki bu guruhga taalluqli bo'lgan kishilar o'rtasida amalga oshiriladigan muloqot tiplari, o'zaro munosabatlarda ustun bo'lgan psixologik omillar, qiziqishlar, qadriyatlar, ehtiyojlar va boshqalar nazarda tutiladi. Ana shularning umumiyliigi tufayli har bir shaxsda, ya'ni u yoki bu katta guruhga mansub bo'lgan shaxsda tipik xislatlar shakllanadi. Masalan, 90-yillar yoshlariga xos bo'lgan tipik sifatlar ana shu yoshlar o'rtasida keng tarqalgan urf-odatlar, moda, so'zlashish xususiyatlari, qadriyatlar, qiziqishlar va hokazolar tufayli shakllanadi. Shuning uchun ham 20 yoshli kishining psixologiyasini to'liq ravishda o'rganish uchun undagi bilish jarayonlarining o'ziga xosligi, shaxsi, xarakteri va boshqa individual psixologik xususiyatlaridan tashqari, yana unga o'xshash yoshlarda ustun bo'lgan psixologik xislatlarning qanchalik namoyon bo'lishini, u mansub bo'lgan va asosan vaqtini o'tkazadigan guruhlar psixologiyasini, milliy sifatlarini ham nazarda tutish va ularni o'rganish zarur. Bu degani, har bir shaxs ongida uning yakka, alohida orttirgan shaxsiy tajribasiga aloqador psixologik tizimlardan tashqari, uning qaysi millat, elat sinfga mansubligiga aloqador psixologik xususiyatlar ham mavjuddir va uni ilmiy tadqiqotchi inkor etmasligi kerak. Kichik guruhlar muammosi ijtimoiy psixologiyada eng yaxshi ishlangan va ko'plab ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan ob'ektlardandir. Bu an'ana Amerikada asrimiz boshida o'tkazilgan ko'plab eksperimental tadqiqotlardan boshlangan bo'lib, ularda olimlar oldiga qo'yilgan asosiy muammo shu ediki, individ yakka holda yaxshi ishlaydimi yoki guruhda yaxshiroq samara beradimi, boshqa odamlarning yonida bo'lishi uning faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi kabi savollarga aniq ilmiy asoslangan javob topish

zaruratidir. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday sharoitlarda individlarning o'zaro hamkorligi (interaksiya) emas, balki ularning bir vaqtda bir yerda birga bo'lganligi faktining (koaksiya) ta'siri o'rganildi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, boshqalar bilan hamkorlikda bo'lgan individ faoliyatining tezligi oshadi, lekin harakatlar sifati ancha pasayishi aniqlandi. Bunday ma'lumotlar amerikalik N.Triplett, nemis olimi A.Mayyor, rus olimi V.M.Bexterev, yana bir nemis olimi V.Myode va boshqalarning tadqiqotlarida ham qayd etildi. Bu psixologik hodisa ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy fatsilitatsiya nomini oldi, uning mohiyati shundan iborat ediki, individning faoliyat mahsullariga uning yonida bo'lgan boshqa individlarning bevosita ta'siri bo'lib, bu ta'sir avvalo sensor kuchayishlar hamda ish-harakatlarning, fikrlashlarning tezligida namoyon bo'ladi. Lekin ayrim eksperimentlarda teskari effekt ham kuzatildi, ya'ni, boshqalar ta'sirida individ reaksiyalaridagi tormozlanish faoliyatining susayishi holatlari kuzatildi. Bu xodisa fanda ingibitsiya nomini oldi. Lekin olingan faktlarning qandayligidan qat'i nazar, olimlar uchun kichik guruhlar asosiy tadqiqot mavzuiga aylanib qoldi va ular natijasida qator qonuniyatlar ochildi. Birinchidan, kichik guruhlarining hajmi, uni tashkil etuvchi shaxslar soni xususida shunday fikrga kelindiki, kichik guruh "diada" ikki kishidan tortib, to maktab sharoitida 30-40 kishigacha deb qabul qilindi. Ikki kishilik guruh deyilganda, avvalo oila – yangi shakllangan oila ko'proq nazarda tutiladi. Lekin samarali o'zaro ta'sir nazarda tutilganda "plyusmunis 7 – 2" kishi nazarda tutiladi. Bunday guruh turli ijtimoiy psixologik tadqiqotlar uchun ham, sotsial psixologik treninglar o'tkazish uchun ham qulay hisoblanadi. Ikkinchidan, guruhning o'lchami qanchalik katta bo'lsa, uning alohida olingan shaxslar uchun qadrsizlanib borish xavfi kuchayadi. Ya'ni, shaxsning ko'pchilikdan iborat guruhdan o'zini tortish va uning normalarini buzishga moyilligi ortib boradi. Uchinchidan, guruhning hajmi kichiklashib borgan sari shaxslararo o'zaro munosabatlar taranglashib boradi. Chunki, shaxslarning bir-birlari oldida mas'uliyatlarining oshishi va yaqindan bilishlari ularning o'rtasidagi aloqalarda doimo aniqlik bo'lishini talab qiladi. Munosabatlardagi har qanday disbalanslar ochiq holdagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. To'rtinchidan, agar guruh a'zolarining soni toq bo'lsa, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar juft bo'lgan holdagidan ancha yaxshi bo'ladi. Shundan bo'lsa kerak, boshqaruv psixologiyasida odamlarni biror lavozimlarga saylashda, saylov kompaniyalarida nomzodlarni elektoratga taqdim etishda va umuman rasmiy tanlovlarda guruhdagi odamlar soni toq qilib olinadi. Beshinchidan, shaxsning guruh tazyiqiga berilishi va bo'ysunishi ham guruh a'zolarining soniga bog'liq. Guruh soni 4-5 kishi bo'lgunga qadar, uning ta'siri kuchayib boradi, lekin undan ortib ketgach, ta'sirchanlik kamayib boradi. Masalan, ko'chada sodir bo'lgan baxtsiz hodisaning guvohlari soni ortib borgan sari, jabrlanganga yordam berishga intilish, mas'uliyat hissi pasayib boradi. Bu qonuniyatlarni bilish, tabiiy guruhlarni boshqarish ishini ancha yengillashtiradi. Bu qonuniyatlar ayniqsa, maktab pedagoglari va murabbiylar uchun ahamiyatli hisoblanadi. Chunki ular aslida ta'lim-tarbiya jarayonida muayyan kichik guruhlarni tashkil etuvchilarni tarbiyalaydilar, buning uchun esa ular mansub bo'lgan guruh faoliyatini boshqarish, guruh orqali ayrim-alohida shaxsni tarbiyalashni zimmalariga oladilar. Tarixan kichik guruhlarni

rasmiy va norasmiy turlarga bo‘lish qabul qilingan. Bunday bo‘linishni amerikalik olim E.Meyo taklif etgan edi. Uning fikricha, rasmiy guruh har bir a‘zolarning rasmiy rollarga ega ekanligi, ular mavqeining va guruhda tutgan o‘rnining aniqligi bilan xarakterlanadi. Bunday guruhlarda munosabatlar asosan “vertikal” tarzda ro‘y berib, guruhning bir yoki bir necha a‘zosida “hokimiyat” bo‘lganligi uchun ham, ular boshqalarni boshqarish, ularga buyruq, rasmiy ko‘rsatmalar berish huquqiga ega bo‘ladilar. Rasmiy guruhga misol qilib har qanday birgalikdagi faoliyat maqsadlari asosida shakllangan jamoalarni – ishlab chiqarish brigadasi, talabalar guruhi, sinf o‘quvchilari, pedagogik jamoa va boshqalarni olish mumkin. Rasmiy guruhlardan farqli o‘laroq norasmiy guruhlar ham mavjud bo‘ladiki, ular asosan stixiyali tarzda, aniq maqsadsiz tarkib topadi va ularda a‘zolarning aniq mavqelari, rollari oldindan belgilangan bo‘lmaydi. Ko‘pincha norasmiy guruh rasmiy guruh tarkibida tashkil topadi va ularni boshqarish ham oldindan belgilangan bo‘lmay, odamlar ichidan u yoki bu shaxsiy sifatleri tufayli ajralib chiqqan a‘zolar norasmiy rahbarlik rolini bajarishlari mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy psixologiyada referent guruh tushunchasi ham bor. Bu tushuncha fanga birinchi marta amerikalik tadqiqotchi G.Xaymen tomonidan 1942 yilda kiritilgan edi. U o‘z tadqiqotlarida shuni isbot qildiki, ma‘lum bo‘lishicha, guruh a‘zolari uchun shu guruh ichida yoki boshqa doiralarda shunday shaxslar guruhi mavjud bo‘lar ekanki, u o‘z xattiharakatlari, fikrlari va yo‘nalishlarida o‘sha guruh a‘zolariga ergashish, ularni tanqidsiz qabul qilishga moyil hamda tayyor bo‘lar ekan. Shunday shaxslar guruhi referent guruh nomini oldi. O‘quvchi uchun bunday guruh rolini maktabdagi bir necha o‘qituvchilar, otasi yoki onasi, yaqin do‘sti yoki qarindoshlaridan kimdir o‘ynashi mumkin. Shunisi xarakterliki, shaxs doimo shu guruhga ergashadi, uni qadrlaydi, u bilan muloqotda bo‘lishga intiladi. Rus psixologlari bu guruhni odatda shaxs uchun mavjud haqiqiy guruh (a‘zolik guruhi) tarkibida yoki unga qarshi bo‘lgan guruh sifatida qaraydilar. Nima bo‘lganda ham ana shunday guruhning mavjudligi shaxs uchun ahamiyatli bo‘lib, uning xulq-atvori uchun etalon hisoblanadi. Tadqiqotchi yoki tarbiyachining vazifasi, ana shu guruhni aniqlay olish va aniqlagandan so‘ng nima uchun aynan shu guruh referent rolini o‘ynaganini bilish muhimdir. Referent guruhga qarab shaxsga baho berish, uning xulqatvorini bashorat qilish mumkin. Ma‘lumki, guruhda to‘plangan kishilar o‘rtasida doimiy muloqot va munosabatlar mavjud bo‘ladiki, ularning mazmuni va yo‘nalishiga ko‘ra, o‘ziga xos sotsial psixologik muhit shakllanadi. Bu muhit guruhning taraqqiyotini ham, undagi turli jarayonlarni ham belgilaydi. Guruhning dinamik jarayonlari deganda avvalo uning shakllanish jarayoni, liderlik va guruhda turli qarorlarni qabul qilish jarayoni, guruhning har bir shaxsga ta’siri kabilar tushuniladi. Guruhning shakllanishi, uning paydo bo‘lishi haqida gapiriladigan bo‘lsa, avvalo shuni ta’kidlash lozimki, guruh jamiyat ehtiyojlari va ijtimoiy talablar asosida paydo bo‘ladi. Masalan, sinf jamoasi doimo bolalarning tug‘ilishi, rivojlanishi va ularning maktablarda ta’lim olishlari kerakligi uchun, talabalar guruhi ham shunga o‘xshash oliy ma‘lumotli shaxslar kerak bo‘lganligi uchun paydo bo‘ladi va hakoza. Lekin bu masalaning ijtimoiy tomoni. Uni sof psixologik tomoni ham borki, u odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo‘lishi bilan bog‘liq. Chunki har bir normal insonda muloqotga bo‘lgan ehtiyoj

hamda turli hayotiy vaziyatlarda o‘zini ijtimoiy himoyada sezish ehtiyoji borki, bu narsa turli kichik jamoalarda ularning bo‘linishi taqozo qiladi. Lekin guruhga a‘zo bo‘lish bilan birgalikda har bir individ qator guruhij jarayonlarning guvohi bo‘ladi. Birinchidan, guruh o‘z a‘zolariga ma‘lum tarzda psixologik ta‘sir ko‘rsatadi. Bu hodisa psixologiyada konformizm deb ataladi (o‘zbek tilida “moslanish” ma‘nosini bildiradi). Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, u individning guruhda qabul qilinadigan normalar, fikrlar, hulq-atvor standartlarini qanchalik qabul qilish yoki qabul qilmasligi bilan bog‘liq. Guruh fikrini qanchalik tez qabul qilish, uning ta‘siriga berilish individ bilan guruhning ziddiyatlarini oldini olishi mumkin. Shuning uchun ham individ ana shunday hatti-harakat qilishga intiladi. Lekin ana shunday guruh fikriga, harakatiga qo‘shilish turli shakllarda bo‘lishi mumkin: tashqi konformlilik - individ guruh fikriga nomigagina qo‘shiladi, aslida ruhan u guruhda qarshi turadi: ichki konformlilik – individ guruh fikriga to‘lig‘icha qo‘shiladi va ruhan qabul qiladi. Ana shunday hollarda individ bilan boshqalar o‘rtasida ziddiyat yoki konfliktlar paydo bo‘lmaydi. Bu o‘rinda yana bir tushuncha ham bor, u ham bo‘lsa “negativizm” tushunchasidir, bu individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o‘zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishidir. Bu tabiiy individ uchun noqulay, lekin mustaqil fikr, odil harakatlar doimo hurmat qilinadigan jamoalarda negativizm hodisasi yomon illat sifatida qabul qilinmaydi. Guruhlardagi yana bir jarayon - bu guruhning uyushqoqligi muammosidir. Guruh a‘zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashliri, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini yaxshi tasavvur qilishlari bunday uyushqoqlikning birinchi omilidir. Ikkinchi asosiy omil - bu o‘sha gurhni birlashtirib turgan faoliyat maqsadlarini, uning yo‘nalishi va mazmunini bilishdagi g‘oyaviy birlikdir.

Umuman, eksperimental tadqiqotlarda qayd etilgan guruhga oid fikrlardagi umumiy uyushqoqlikka ijobiy zamin hisoblanadi. Guruhlardagi liderlik va umumiy qarorlarga kelish ham dinamik jarayonlarga kiradi. Jamoaning shakllanishi quyidagi bosqichlardan iborat. 1. Moslashish (adaptatsiya) bosqichi. Guruh a‘zolari bir-birlarini o‘rganadilar. Har bir a‘zo o‘zining ijobiy tomonlarini ko‘rsatishga intiladi. Salbiy tomonlarini esa yashiradi. Guruhning a‘zolari orasida o‘z o‘rnini izlash boshlanadi.

2. Kelishmovchiliklar yuzaga kelish bosqichi. Guruh a‘zolari birbirlarini yetarli o‘rganadilar. Guruhda o‘rin va mavqei uchun kurash boshlanadi. 3. Hamjihatlik bosqichi. Guruh a‘zolari orasida asta-sekinlik bilan kelishuv-murosa paydo bo‘ladi. Chunki, bu davrga kelib kim nimaga qodirligi ayon bo‘lib qoladi. 4. Kooperatsiya (yoki kooperativ) bosqich. Jamoa a‘zolari hissiy yaqinlashishi kuchayadi. Ba‘zi hollarda o‘z jamoasi boshqa jamoalardan yuqori ko‘yishga intilish («jamoaviy egoizm») kuzatiladi. Rivojlanishning yuqori darajasiga yetgan jamoa a‘zolari orasida o‘zaro yordam berish, yaxshi va yomon kunlarda birgalikda bo‘lish kabi sifatlar shakllanadi. Jamoa a‘zolari orasida o‘zaro hurmat, yordam, ishonch, bir-birini tushinish jamoada ijobiy psixologik muhitni ta‘minlaydi.

Liderlik va uning belgilari: Lider (leader) – inglizcha so‘z bo‘lib, tarjima qilinganda “Yetakchi, boshqaruvchi” degan ma‘nolarni anglatadi. Liderlik

tushunchasining o'ziga xos xususiyati ijtimoiy psixologiyadagi ikkita fenomen - yetakchilik va rahbarlik fenomenlarining qiyosiy tahlilida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Ushbu masalani tadqiq etgan olimlar yetakchilik, ya'ni liderlik deganda odatda guruhda hosil bo'ladigan psixologik munosabatlarning "yuqoridan quyiga", ya'ni guruhda kimningdir liderlik qilishi va kimningdir unga bo'ysunishi ma'nosini ko'zda tutadilar. Rahbarlik tushunchasi esa guruh faoliyatini tashkil etishda ushbu jarayonni boshqarish bilan bog'liqdir. Ushbu ikkala tushunchalar o'rtasidagi farq ayniqsa B.D.Pariginning ishlarida yanada batafsil ochib berilgan. Mazkur olimning fikrlariga ko'ra bu ikki tushuncha o'rtasidagi farqlar quyidagilardan iborat:

1. Lider asosan ijtimoiy tashkilot bo'lgan guruhda shaxslararo munosabatlarni boshqaruvchi shaxsdir.

2. Liderlikni mikro muhit sharoitida aniqlash mumkin (mikro muhit deyilganda kichik guruh nazarda tutiladi). Rahbarlik - bu makro muhit unsuridir, ya'ni u ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog'liq.

3. Liderlik stixiyali tarzda, ya'ni o'z-o'zidan yuzaga keladi, har qanday sotsial guruhning rahbari esa yo tayinlanadi yoki saylanadi. Nima bo'lganda ham rahbar bo'lish jarayoni stixiyali tarzda kechmaydi, aksincha, sotsial tarkibning turli qismlari nazorati ostida maqsadli tarzda amalga oshadi.

4. Liderlik hodisasi nisbatan beqarordir, chunki guruhdagi liderlarni saylash ko'proq guruh a'zolarining kayfiyatiga bog'liq bo'ladi. Ayni paytda rahbarlik hodisasi esa ancha barqarordir.

5. Rahbarlik maqomidagi shaxs liderdan farqli o'laroq, o'z qo'l ostidagilar bilan munosabatda bo'lishda turli-tuman sanksiyalarga, ya'ni ta'sir ko'rsatish vositalariga ega, liderda esa bunday imkoniyat mavjud emas.

6. Rahbar tomonidan qarorlar qabul qilish jarayonida bir qator murakkab va turli shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'ladigan jihatlar mavjud bo'lsa, lider guruh faoliyatiga aloqador muammolarni ancha erkin va bevosita hal etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

7. Liderning faoliyat sohasi asosan u liderlik qilayotgan kichik guruhdir, rahbarning faoliyat sohasi ancha keng bo'lib, u kichik guruhni ham nisbatan kengroq ijtimoiy tizimda ifodalaydi.

Shunday qilib, lider deganda guruhdagi norasmiy yoki qat'iy belgilanmagan shaxslararo munosabatlarni boshqaruvchi guruh a'zosi tushuniladi. Rahbar deyilganda esa, liderdan farqli o'laroq guruhdagi rasmiy shaxslararo munosabatlarni boshqaruvchi shaxs tushuniladi. Shu sababli ham aksariyat

hollarda liderni norasmiy yetakchi, rahbarni esa rasmiy yetakchi deb atashadi. Ba'zi hollarda rahbarning o'zi norasmiy lider bo'lishi ham mumkin.

Odatda liderlarni biror-bir vaziyatga xos, ya'ni situatsion liderlar va doimiy liderlarga ajratadilar. Birinchi toifaga, masalan o'zlarining omadli o'yinlari bilan butun jamoani ruhlantirib yuborgan o'yinchilarni (ilhomlantiruvchi liderlar) kiritish mumkin. Shu narsa ham aniqlanganki, ana shunday liderlikning jamoa o'yinchilari idrokida boshqa vaziyatlarga ko'chirilish hollari ham kuzatiladi: agar biror sportchi muayyan bir vaziyatda liderlik fazilatini namoyon qilgan bo'lsa, atrofdagilar undan boshqa vaziyatlarda ham ana shunday liderlikni kuta boshlaydilar. Psixolog Fidler esa liderlarni vazifaga yo'nalgan va jamoadagi o'zaro munosabatlarga yo'nalganlarga bo'ladi.

Ishchan va emotsional liderlarning qiyosiy tavsifnomasi.

Muayyan vazifaga yo'nalgan lider (ishchan lider)

Afzalligi	Kamchiligi
Ancha samarador, barcha kuch-quvvati asosan oldidagi vazifaga yo'naltirilgan.	Guruhning ayrim a'zolarida vahimalik darajasini oshirib yuborishi mumkin.
Shaxsararo muloqotga kam vaqt sarflaydi.	Maqsadga muvofiq ish tutish evaziga guruh a'zolarining o'ziga bo'lgan ishonchini va xotirjamligini qurbon qiladi.
Muammolarni aniq va puxta hal etish talab etilgan vaziyatlarda vazifalarni juda tez taqsimlay oladi.	Nisbatan o'rtacha stress vaziyatlarida, ya'ni guruh a'zolari o'zaro muloqot qilishga intilayotganda nisbatan samarasi kamroq seziladi.
Liderlik uchun juda qulay, vaziyatlarda juda samarador, ya'ni liderning kuchli ta'siri zarur bo'lganda. Shuningdek lider uchun o'ta noqulay vaziyatlarda – liderning ta'siri u qadar kuchli bo'lmagan holatlarda, kutilmagan vazifalarni hal etishda guruh a'zolari norozilik va e'tirozlar bildirganda ham samarali faoliyat yurita oladi.	Jamoa faoliyatida muhim o'rin tutuvchi a'zolar bilan ishlashda u qadar muvaffaqiyatga ega emas, shuningdek, o'zgalarning ikkilamchi liderlik borasidagi ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Guruhga yo'nalgan lider (emotsional lider)

Afzalligi	Kamchiligi
-----------	------------

Vazifa hal etilmagan vaziyatlarda vahima tuygʻusini tushira oladi.	Masalani muvaffaqiyatli hal etishga katta ahamiyat bermaydi.
Oʻziga ishonmagan kishilar bilan yaxshi ishlaydi.	Ekstremal stress vaziyatlarida yoki lider juda katta taʼsir kuchini koʻrsatishi kerak boʻlganda nisbatan samarasiz.
Liderlik uchun nisbatan qulay boʻlgan sharoitlarda yaxshi faoliyat yuritadi, shuningdek jamoa aʼzolariga qaror qabul qilishda katta erkinlik berilgan holatlarda ham yaxshi faoliyat yuritadi.	Vazifani hal etishga yoʻnaltirilgan jamoa aʼzolarida vahima tuygʻusini keltirib chiqarishi mumkin

Sport amaliyoti uchun liderlikni barqaror psixologik hodisa sifatida tushunish katta qiziqish uygʻotadi. Doimiy liderlar jamoaning ikkita tarkibiga toʻgʻri keladi: ishchanlik va emotsional. Ishchanlik boʻyicha lider guruh oldida turgan vazifani hal etishga yoʻnalgan boʻladi; emotsional lider esa dam olish paytida yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarga yoʻnalgan boʻladi. Murabbiylar hamjihatlikda sport faoliyatini yurita oladigan shaxslarni, birgalikda faoliyat olib borishni tashkil etish borasidagi liderlarni yaxshi farqlaydilar (tayyorgarlik mashgʻulotlarida, musobaqalashuv faoliyatlarida). Ammo sportchilarning maishiy hayotlarida, shaxslararo munosabatlarni qaror toptirishda va tashkil etishda kimlar lider ekanligini yaxshi farqlay olmaydilar. Bu ayniqsa bolalar va oʻsmirlar jamoalarida koʻp kuzatiladi.

Ishchan liderlar (vazifaga yoʻnalgan) odatda shaxslararo munosabatlar bilan kam qiziqadilar. Ular yo juda qulay, yoki juda ham noqulay vaziyatlarda nihoyatda samarali faoliyat yuritadilar. Oʻrtacha shart-sharoitlarda esa shaxslararo munosabatlarga yoʻnalgan liderlar ancha samarali faoliyat yuritadilar. Ularning rahbarlik uslubi ancha demokratik boʻlib, ular jamoaning eng noshud aʼzolariga ham hurmat bilan munosabatda boʻladilar.

Liderlikning ishchanlik va emotsional turlari shaxsning turli yoʻnalishlari negizida paydo boʻladi: yaʼni bular ishchanlik, shaxsiy va ijtimoiy yoʻnalishlardan iboratdir. Sportchilarning ishchan yoʻnalishiga ishchan liderlik muvofiq keladi. Shaxsiy va ijtimoiy yoʻnalishga esa – emotsional liderlik muvofiq keladi.

MUSTAQIL TAYYORGARLIK

10-MAVZU PSIXOLOGIYADA TASHXIS TUSHUNCHASI UNING MOHIYATI VA RIVOJLANISHI, SHAKLLANISH QONUNIYATLARI

Мустақил тайёргарликда тингловчилар psixologiyada tashxis

tushunchasi va uning mohiyati. Psixodiagnostika, uning rivojlanishi va psixologik diagnostikaning shakllanish qonuniyatlari. psixodiagnostikaning yuqori hamda kam shakllangan metodikalari. Psixodiagnostikani tashkillashtirish va uni amalga oshirishga aloqador bo'lgan amaliy masalalar haqida tasavvurga ega bo'lishlari uchun mustaqil adabiyotlar bilan ishlaydilar va mavzu yuzasi b'uyicha ma'ruza, slayd, test savollari tayёрlab ўzlarini чиқишлари билан маълумот алмашадилар.

V. TEST
SPORT PSIXODIAGNOSTIKASI
moduli bo'yicha test savollari

1. Psixodiagnostika so'zini asl ma'nosi ?

- +psixologik tashxis qo'yish.
- psixologik xulosa
- psixologik aniqlik
- to'g'ri javob yo'q

2. "Diagnos" so'zi qaysi tildan olingan ?

- ruscha so'zdan olingan
- +grekcha so'zdan olingan
- inglischa so'zdan olingan
- to'g'ri javob yo'q

3. "Psixologik diagnostikani psixologik tadqiqotlarga qaratilgan yo'nalish" deb kim ta'riflagan ?

- K.K.Platonov
- V.V.Stolin
- +B.G.Ananev
- to'g'ri javob yo'q

4. "Psixologik diagnostikani psixik xodisalarning xossa va xususiyatlarini o'rganish haqidagi fan" deb kim hisoblagan ?

- +K.K.Platonov
- V.V.Stolin
- B.G.Ananev
- to'g'ri javob yo'q

5. Diagnos so'ziga ta'rif bering?

Yosh davrlari psixologiyasi kabi sohalarga asoslanadi va individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish.

+cinaluvchining alohida ko'rsatkich va xarakteristikalarini chuqur tahlil qilish asosida uning xususiyati va holati haqidagi xulosadir.

-psixodiagnostik tekshiruv vazifalaridan kelib chikib, tavsiyalar ishlab chikishga karatilgan psixolog faoliyatining sunggi natijasidir.

- to'g'ri javob yo'q

6. Psixodiagnostikaga bir qator ijtimoiy-axloqiy talablar qo'yilgan va bular qaysilar?

- Psixodiagnostika sirlarini saqlash;
- Psixodiagnostik metodikalarning ilmiy asoslanganligi;
- Sinaluvchiga ziyon yetkazmaslik;
- + Barcha javoblar to'g'ri

7. «Validlik» atamasi ... ?

+«to‘laqonli», «yaroqli», «mos».

-«ishonchli», «kerakli», «mos».

-«ishonchli», «asosli», «mos».

-to‘g‘ri javob yo‘q

8. Nazariy validlikka ta‘rif bering ?

-sinaluvchining reaksiyasi va hatti-harakatini kuzatish orqali, uning haqqoniy xulqidagi diagnostik ko‘rsatkichlarining bir-biriga mosligi bilan tekshiriladi.

+qo‘llanilgan metodika yordamida olingan ko‘rsatkichlarni, boshqa metodik vositalardan olingan ko‘rsatkichlar bilan ya‘ni ko‘rsatkichlar orasida nazariy asoslangan bog‘liqlik borligini va tadqiq qilinayotgan sifat ko‘rsatkichlari mosligi bilan aniqlanadi.

-metodikadagi topshiriqlar, subtestlar, mulohazalarning umumiy maqsadga mosligini anglatadi.

-to‘g‘ri javob yo‘q

9. Emperik validlikka ta‘rif bering ?

+sinaluvchining reaksiyasi va hatti-harakatini kuzatish orqali, uning haqqoniy xulqidagi diagnostik ko‘rsatkichlarining bir-biriga mosligi bilan tekshiriladi.

-qo‘llanilgan metodika yordamida olingan ko‘rsatkichlarni, boshqa metodik vositalardan olingan ko‘rsatkichlar bilan ya‘ni ko‘rsatkichlar orasida nazariy asoslangan bog‘liqlik borligini va tadqiq qilinayotgan sifat ko‘rsatkichlari mosligi bilan aniqlanadi.

-metodikadagi topshiriqlar, subtestlar, mulohazalarning umumiy maqsadga mosligini anglatadi.

-to‘g‘ri javob yo‘q

10. Ichki validlikka ta‘rif bering ?

-sinaluvchining reaksiyasi va hatti-harakatini kuzatish orqali, uning haqqoniy xulqidagi diagnostik ko‘rsatkichlarining bir-biriga mosligi bilan tekshiriladi.

-qo‘llanilgan metodika yordamida olingan ko‘rsatkichlarni, boshqa metodik vositalardan olingan ko‘rsatkichlar bilan ya‘ni ko‘rsatkichlar orasida nazariy asoslangan bog‘liqlik borligini va tadqiq qilinayotgan sifat ko‘rsatkichlari mosligi bilan aniqlanadi.

+metodikadagi topshiriqlar, subtestlar, mulohazalarning umumiy maqsadga mosligini anglatadi.

-to‘g‘ri javob yo‘q

11. Tashqi validlikka ta‘rif bering ?

-sinaluvchining reaksiyasi va hatti-harakatini kuzatish orqali, uning haqqoniy xulqidagi diagnostik ko‘rsatkichlarining bir-biriga mosligi bilan

tekshiriladi.

-qo'llanilgan metodika yordamida olingan ko'rsatkichlarni, boshqa metodik vositalardan olingan ko'rsatkichlar bilan ya'ni ko'rsatkichlar orasida nazariy asoslangan bog'liqlik borligini va tadqiq qilinayotgan sifat ko'rsatkichlari mosligi bilan aniqlanadi.

+sinaluvchining hulqiga taalluqli asosiy tashqi ko'rinishlarning ko'rsatkichlari bilan metodikadagi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratiladi.

-to'g'ri javob yo'q

12. Metodikaning ishonchliligi diganda nimani tushunasiz?

+metodika yordamida barqaror, qa'tiy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

-qo'llanilgan metodika yordamida olingan ko'rsatkichlarni, boshqa metodik vositalardan olingan ko'rsatkichlar bilan ya'ni ko'rsatkichlar orasida nazariy asoslangan bog'liqlik borligini va tadqiq qilinayotgan sifat ko'rsatkichlari mosligi bilan aniqlanadi.

-sinaluvchining hulqiga taalluqli asosiy tashqi ko'rinishlarning ko'rsatkichlari bilan metodikadagi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratiladi.

-to'g'ri javob yo'q

13. Metodikaning aniqligi diganda nimani tushunasiz?

-metodika yordamida barqaror, qa'tiy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

+psixodiagnostik tadqiqot paytida biror bir xususiyatni baholashda ozgina o'zgartirishga ham javob qaytarish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

-sinaluvchining hulqiga taalluqli asosiy tashqi ko'rinishlarning ko'rsatkichlari bilan metodikadagi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratiladi.

-to'g'ri javob yo'q

14. Psixodiagnostikaning asosiy metodlari sanang?

+kuzatish,so'rov, test,eksperiment, model.

-kuzatish, intervyu, test,eksperiment, model.

-kuzatish, test,eksperiment, model.

-to'g'ri javob yo'q

15. Psixokorreksiya so'zi qaysi tildan olingan?

-ruscha so'zdan olingan

-grekcha so'zdan olingan

+inglischa so'zdan olingan

-to'g'ri javob yo'q

16. Psixokorreksiya qanday ma'noni anglatadi?

+to'g'irlamoq

-tashxis

-konsultatsiya

-to'g'ri javob yo'q

17. Psixoterapiya berilgan qatorni toping ?

-raqs, musiqa, kuzatish, ertak terapiyalari

-eksperiment, qum, qo'g'irchoq terapiyalari

+raqs, musiqa, ertak, sport, biblioterapiyalari

-to'g'ri javob yo'q

18. Psixogimnastikaga ta'rif bering ?

-metodika yordamida barqaror, qa'tiy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

+guruh a'zolarining o'zini namoyon qila oladigan va nutqsiz munosabatga kirisha olishini ta'minlovchi metoddir.

-sinaluvchining hulqiga taalluqli asosiy tashqi ko'rinishlarning ko'rsatkichlari bilan metodikadagi ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratiladi.

-to'g'ri javob yo'q

19. Musiqa terapiyasiga ta'rif bering ?

-metodika yordamida barqaror, qa'tiy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi.

-guruh a'zolarining o'zini namoyon qila oladigan va nutqsiz munosabatga kirisha olishini ta'minlovchi metoddir.

+ hissiyotlarni pasayishida, qo'rquvda, til bilan bo'lgan muommolarda, tarbiyaning buzilishi kabi nuqsonlarda yordam beradi.

-to'g'ri javob yo'q

20. Qum terapiyasiga ta'rif bering?

+bolalarni mayda qo'l muskullarini rivojlantiradi hamda o'z fikrini so'z bilan ifodalashda qiynaladigan bolalarda qo'llaniladi.

-guruh a'zolarining o'zini namoyon qila oladigan va nutqsiz munosabatga kirisha olishini ta'minlovchi metoddir.

-hissiyotlarni pasayishida, qo'rquvda, til bilan bo'lgan muommolarda, tarbiyaning buzilishi kabi nuqsonlarda yordam beradi.

-to'g'ri javob yo'q

21. Bolaning tez yetilishi va rivojlanishi nima deb ataladi?

-Anaraksiya

-Longityud

+ Akseleratsiya

-To'g'ri javob yo'q

22.– birlashtirilgan testlar degan ma'noni bildiradi ?

+Kombinatsiya

- Anaraksiya
 - Longityud
 - To‘g‘ri javob yo‘q
- 23.....- bu psixologik ulchash degan ma‘noni anglatadi ?**
- Kombinatsiya
 - +Psixometrika**
 - Longityud
 - To‘g‘ri javob yo‘q
- 24.....- tashxis kuyish degani**
- Longityud
 - +Diagnoz**
 - Kombinatsiya
 - To‘g‘ri javob yo‘q
- 25.....- tavsiflash degan ma‘noni bildiradi**
- Longityud
 - Diagnoz
 - Kombinatsiya
 - +Xarakteristika**
- 26.....- suzli test tajribasini utkazishga aytiladi**
- +Verbal**
 - Longityud
 - Diagnoz
 - Kombinatsiya
- 27.....- suzsiz, ya‘ni rasm chizish va tayyor anketa savollariga yozma ravishda javob berish demakdir**
- +Noverbal**
 - Diagnoz
 - Kombinatsiya
 - Xarakteristika
- 28.....- insonning asosiy nerv jarayonlari xarakatchanligi turini, ixtiyoriy diqqat darajasini, ishga kobilyatlilik sur‘atini xarakterlaydi.**
- + Sensamotor soxasi**
 - Diagnoz
 - Kombinatsiya
 - Xarakteristika
- 29.....-tuzatish, ya‘ni tugri yo‘lga solish degani ma‘noni bildiradi.**
- Noverbal
 - Diagnoz
 - +Korrektura**
 - Xarakteristika

VI.SUHBAT SAVOLLARI

- 1.Diagnostika tarixi
- 2.Qobilyat va intellekt diagnostikasi haqida tushuncha bering?
- 3.Bola shaxsini psixodiagnostik baholash va temperament diagnostikasi-bu?
- 4.Bolani turli xil fobiyalardan korreksiyalash-bu?
- 5.Bolaning bilish jarayonlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan metodikalar qaysilar?
- 6.Yangi terapiya usullari-bu?
- 7.Bolalarda o'tkaziladigan relaksatsiya mashqlari deganda nima nazarda tutiladi?
- 8.Yangi psixologik xizmat ko'rsatish usullariga misol keltiring?
- 9.Shaxsning individual psixologik xususiyatlari deganda nima nazarda tutiladi?
- 10.Psixik jarayonlar bu-?
- 11.Shaxsning umumiy va maxsus ijtimoiylashuv o'rtasida qanday umumiylik hamda farq mavjud?
- 12.Temperamentga shaxsning psixik xususiyati sifatida yoritib bering?
- 13.Qobiliyatga shaxsning psixik xususiyati sifatida ta'rif bering.
- 14.Qobiliyat bilan shaxsning bilish va boshqa psixik jarayonlari o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
- 15.Qobiliyatlar klassifikatsiyasi.
- 16.Emotsional holatning asosiy turlarini aytib bering.
- 17.Affekt nima?
- 18.Faoliyat va uning asosiy turlariga ta'rif bering.
- 19.Shaxsning individual psixologik xususiyatlariga nima kiradi?
- 20.Mashg'ulot jarayonini boshqarish deganda nimani tushunasiz?

VII. KEYSLAR BANKI

1.Keys: umumiy tushuncha

Keys-stadi (inglizcha sase – vaziyat, holat, study -o‘rganish). Keys-stadida bayon qilingan va ta‘lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun‘iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan o‘qitish usulidir.

Keys-stadi - o‘qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta‘lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta‘minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir.

2.Keys-stadi tipologiyasi

Tipologik belgilari	Keys-stadi turi
Asosiy manbalari	1. Daladagi 2. Kabinetdagi
Syujet mavjudligi	1. Syujetli 2. Syujetsiz
Hajmi	1. Qisqa (lo‘nda) 2. O‘rtacha miqdordagi 3. Katta (o‘zun)
O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli	1. Savolli 2. Keys-stadi topshiriq
Didaktik maqsadlari	1. Muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlash 2. Treningli, o‘quv mavzui/predmeti bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar orttirishga mo‘ljallangan 3. Tahlil va baholashga o‘rgatuvchi 4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o‘rgatuvchi 5. Vaziyat sub’ekti rivojining yangi strategiyalari va yo‘llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag‘batlantiruvchi
Rasmiylashtirish usuli	1. Bosma 2. Elektron 3. Video-Keys-stadi 4. Audio-Keys-stadi 5. Multimedia-Keys-stadi

3. Keys-stadiga asoslangan o'quv mashg'ulotining texnologik chizmasi 1-variant (keys-stadi savolli)

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys kichik yoki o'rtacha o'lchamli.

Билимларни фаоллаштириш (блиц-сўров, ўйланг-жуфтликка бўлининг-фикр алмашинг, аукцион)



Кейс-стадига кириш



Кейс-стади билан таништириш



Кейс-стади билан якка тартибда ишлашни ташкил қилиш (Ўқув топшириғини тарқатиш, йўриқнома бериш).



Кейс-стадини жамоавий тарзда ечиш (мунозара – унинг тузилиши кейс оҳирида келтирилган саволлар билан белгиланади, - муаммоли вазиятни таҳлил қилиш ва ҳал этиш, бундай амалий вазиятдаги фаолият бўйича тавсияларни ишлаб чиқишга қаратилган)



Ўқитувчи резюмеси



Тингловчиларнинг ўқув ютуқларини баҳолаш

2-variant (keys-stadi savolli)

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas.

Билимларни фаоллаштириш (блиц-сўров, ўйланг-жуфтликка бўлининг-фикр алмашинг, аукцион)



Кейс-стадига кириш



Кейс-стади билан таништириш



Кейс-стади билан якка тартибда ишлашни ташкил қилиш (Ўқув топшириғини тарқатиш, йўриқнома бериш)



Кейс-стадини жамоавий тарзда ечиш (мунозара – унинг тузулиши кейс охирида келтирилган саволлар билан белгиланади, - муаммоли вазиятни таҳлил қилиш ва ҳал этиш, бундай амалий вазиятдаги фаолият бўйича тавсияларни ишлаб чиқишга қаратилган)



Ўқитувчи резюмеси



Тингловчиларнинг ўқув ютуқларини баҳолаш

3-variant (keys-stadi-topshiriq)

Keys-stadi bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys-stadi o'rtacha o'lchamli

Билимларни фаоллаштириш (блиц-сўров, ўйланг-жуфтликка бўлининг-фикр алмашинг, аукцион)



Кейс-стадига кириш



Кейс-стади билан таништириш



Кейсни кичик гуруҳларда ечиш (ўқув топшириқни бажариш, гуруҳ иши наатижаларини тақдимотга тайёрлаш)



Таклимот



Муаммоли вазиятни тақдим этилган ечим вариантларини жамоавий тарзда муҳокама қилиш



Гуруҳ ишини ўзаро баҳолаш



Ўқитувчи резюмеси



Тингловчиларнинг ўқув ютуқларини баҳолаш

O‘quv modul: “Sport psixodiagnostikasi”.

Mavzu: O‘quvchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash

Keys-stadining asosiy maqsadi: Hozirgi kunda o‘quvchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash haqida tushuncha berish. Yoshlar ongida mustahkam dunyoqarash, qalbida sog‘lom e‘tiqodni shaqllantirish, muammoli vazifalarni yechishda nazariy bilimlarini qo‘llash; muammoni aniqlab, uni hal qilishda yechim topishga o‘rgatish.

O‘quv faoliyatidan kutiladigan natijalar: keys mazmuni bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko‘rish; o‘quvchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlashni to‘g‘ri tahlil qilish; lokaydlik va beparvolik yo‘lidagi nuqsonlarni ko‘rsatib berish; aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taqliflar kiritish; muammoli vazifalarni yechishda nazariy bilimlarini qo‘llash; muammoni aniqlab, uni hal qilishda yechim topish.

Ushbu keys-stadini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan o‘quvchilar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmoqlari zarur:

O‘quvchi bilishi kerak: o‘quvchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlashni to‘g‘ri tahlil qilishni sportda kibr, lokaydlik, beparvolik, xudbinlik kabi muammolar.

O‘quvchi amalga oshirishi kerak: mavzuni mustaqil o‘rganadi; muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; g‘oyalarni ilgari suradi; ma’lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi; o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lib, mantiqiy xulosa chiqaradi; o‘quv ma’lumotlar bilan mustaqil ishlaydi; ma’lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

O‘quvchi ega bo‘lmog‘i kerak: kommunikativ ko‘nikmalarga; taqdimot ko‘nikmalariga; hamkorlikdagi ishlar ko‘nikmalariga; muammoli holatlarni tahlil qilish ko‘nikmalariga.

Axborot olish manbalari ro‘yxati :

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.T.-T.; “O‘zbekiston”,2008y
2. Asadov Y.M.Ruhiy holatlar diagnostikasi va korreksiyasi. – T.: O‘qituvchi, 2000.
3. J.A.Po‘latov Kasb-hunar kollejarining xatar guruhiga mansub o‘quvchilarini kasbga moslashtirish texnologiyasi– T.: Chashma-Print, 2013.
4. Babushkin G.D. Psixologiya fizicheskogo vospitaniya. - Omsk: SibGAFK, 1998.
5. Gapparov Z.G. “Sportivnaya psixologiya”. Uchebnik dlya stud. In-ta Fiz-ry. – Tashkent, OOO “Mexridaryo”, 2009.
6. Gapparov Z.G. “Sport psixologiyasi”. Darslik. – Toshkent, OOO “Mexridaryo”, 2011.
7. Gapparov Z.G. “ O‘quvchini psixologik tayyorlash” (erkin kurash misolida), Toshkent , OOO “Mexridaryo” 2010.

Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keys-stadining tavsifnomasi:

Keys hayotiy, syujetsiz keyslar kategoriyasiga kiradi va statistik materiallar

asosida to‘ziladi. Keys qisqa, to‘zilmalangan. Bu keys-topshiriqdir.

Keys didaktik maqsadlariga ko‘ra vaziyat sub‘ektini rivojlantirishning yangi strategiyalari va yo‘llarini ishlab chiqishga rag‘batlantiradigan keyslar toifasiga kiradi.

Keys-stadi: “O‘quvchilarni musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash”

Kirish. “O‘quvchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash” mavzusi “Sport psixologiyasi” modulidan muammoli vaziyatlarni hal etish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotda Keysga asoslangan o‘qitish texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

O‘quvchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash har bir murabbiyning dolzarb vazifasidir. O‘quvchilarda musobaqalarga beparvolik, lokaydlik va o‘z manfaatini jamoat manfaatidan ustun qo‘yish salbiy psixologik harakterdir. O‘z jamoasini, yurtini, kelajagini uylagan o‘quvchi hech kachon musobaqa oldi holatlariga beparvo bulmaydi. Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, kaerdaki o‘quvchilarda mashg‘ulotlarda va musobaqalarga beparvolik va lokaydlik bilan qarasa birgini uning mag‘lubiyati yetishib chiqayotgan yosh o‘quvchilarning ruhiyatiga salbiy ta’sir qiladi.

Ushbu keysda keltirilgan o‘quvchilardagi muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida o‘rganilgan o‘quv mavzusi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartib yoki guruhlarda qabul qilish ko‘nikmalarini egallashga, ijodiy va o‘rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam beradi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavzu bo‘yicha o‘quvchilarni musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur. Keys-stadidagi asosiy muammo o‘quvchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash jarayonlarida alohida e’tibor qaratishdan iborat.

O‘quvchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash.

Hozirgi zamon jahon sporti uchun xos bo‘lgan xususiyatlar sifatida sport natijalarining izchil va sezilarli darajada o‘ssishi, sport musobaqalari ishtirokchilari tomonidan nafaqat jismoniy, balki ayni paytda juda katta psixik kuch –quvvatni sarflashni tilga olish mumkin. Agar o‘quvchi shaxsining psixik funksiyalari va psixik hususiyatlari keraqli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, hatto jismoniy va texnik jihatdan juda yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan o‘quvchining imkoniyatlari baland bo‘lganda ham musobaqada g‘alabaga erisha olmasligi mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, o‘quvchining takomillashishida psixologik tayyorgarligi xuddi uning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi kabi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchining psixologik tayyorgarligi, sportdagi ta'lim tarbiya jarayonining muayyan bir qismidir. U muayyan sport turidan kelib chiqqan holda shaxsning psixik funksiyalarini hamda xususiyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish muhim dolzarb muammo sifatida qarash lozim. Musobaqalarda o'quvchilarning imkoniyatlarini aniqlash va belgilab olish. Bu ham psixodiagnostikaning eng zaruriy bo'limlaridan biri hisoblanadi. O'quvchining start oldidagi psixik holatiga asoslangan holda musobaqadan oldingi prognozlariga ayrim o'zgartirishlar kiritiladi. Musobaqalardan oldingi diagnostika birinchi navbatda boshqaruv vositalarini yoki star toldi emotsional holatlarini o'z-o'zini tartibga solish vositalarini zamonaviy tarzda qo'llay bilish uchun zarurdir. O'quvchini «Menga nima» deb karash, lokaydlik, bepisandlik, shuxratparastlik, murabbiyni eshita, tushuna bilmaslik, tankidga chidamaslik, xatosini tan olmaslik – bu egotsentrizm dardiga duchor bo'lgan o'quvchining belgilari. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin;

O'quvchining holati va xatti-harakatlarni boshqarish quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

1. Muayyan motivlarni tanlashda (o'quvchini izchil ravishda o'tkaziladigan sport mashg'ulotlariga ko'niktirish.).

2. Muloqotning o'ziga hosligida (tayyorgarlik mashg'ulotlari va musobaqalar chog'ida yuz beradigan turli vaziyatlarda o'quvchiga nimani va qanday aytishni bilish).

3. Startoldi holatlarida o'quvchining o'z holatini boshqarish va o'z – o'zini tartibga solishiga yo'naltirilgan hamda mashg'ulotlar yoki musobaqalardagi kuchli zo'riqlardan so'ng o'zini qayta tiklab olishga yo'naltirilgan maxsus psixologik tadbirlardan foydalana bilishda.

O'quvchilarni o'rgatish va tayyorlashda tipik xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratib individuallashtirish alohida e'tiborga loyiqdir. Ana shunday uslubni qo'llab, ya'ni o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini qadrlab, ularni muayyan tiplarga ajratib ish yuritish orqali maxsus psixologik adabiyotlarda taqdim etilgan amaliy tavsiyalardan foydalanish mumkin bo'ladi. Ayni shunday ishni olib borish uchun mutaxassis-psixologlardan ham aniq maslahat va tavsiyalarni olish mumkin.

Savollar:

1.Sizning fikringizcha ushbu maqolada muallif qanday muammoni ko'tarib chiqqan?

2.Maqolada muammoni tasdiqlovchi qanday dalillar mavjud?

3.O'quvchidagi beparvolik, loqaydlik tufayli vujudga kelgan holatlarni ajratib oling hamda ushbu muammoning kelib chiqish sababi nimada deb uylaysiz?

4.Muallif o'z maqolasida muammoni oldini oldish yo'llarini qanday bayon

etgan?

5.Sizning fikringizcha ushbu muammoni qanday yechish mumkin?

Amaliy vaziyatni bosqichma-bosqich tahlil qilish va hal etish bo'yicha o'quvchilarga metodik ko'rsatmalar

Keys-stadini yechish bo'yicha individual ish yo'riqnomasi

1.Avvalo, keys-stadi bilan tanishing. Muammoli vaziyat haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqing. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga harakat qiling.

2.Birinchi savolga javob bering.

3.Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni quyidagi harflar yordamida belgilang:

“D” harfi – muammoni tasdiqlovchi dalillar,

“S” harfi – muammo sabablarini,

“O.O.Y.” harflari – muammoni oldini olish yo'llari.

4.Ushbu belgilar 2,3,4 savollarga yechim topishga yordam beradi.

5. Yana bir bor savollarga javob berishga harakat qiling.

Guruhlarda keys-stadini yechish bo'yicha yo'riqnomasi

1.Individual yechilgan keys-stadi vaziyatlar bilan tanishib chiqing.

2. Guruh sardorini tanlang.

3.Vatman qog'ozlarda quyidagi jadvalni chizing

Muammoni tahlil qilish va yechish jadvali

Muammoni tasdiqlovchi dalillari	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muallif tomonidan taqlif qilingan yechim	Guruh yechimi

1. Ishni yakunlab, taqdimotga tayyorlang.

Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

O'quvchilar ro'yxati	Asosiy muammoajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan maks. 6 b	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sababi va dalillari aniq ko'rsatilgan maks. 4 b	Vaziyatdan chiqib ketish harakat-lari aniq ko'rsa-tilgan maks. 10 b	Jami maks.20 b

Auditoriyada bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhlar ro'yxati	Guruh faol maks. 1 b	Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi maks.4 b	Javoblar to'liq va aniq berildi maks.5 b	Jami maks.10 b

8-10 ball –“a’lo”, 6- 8 ball – “yaxshi”, 4- 6 ball – “qoniqarli” , 0 -4 ball – “qoniqarsiz”

O‘qituvchi tomonidan keys-stadini yechish va tahlil qilish varianti

Keys-stadidagi asosiy muammo

O‘quvchilarning musobaqa oldi holatlari va ularni psixologik tayyorlash jarayonlarini izchil amalga oshmayotganligi.

Muammoni tasdiqlovchi dalillar

O‘quvchilarning musobaqa oldi holatlariga beparvolik, xudbinlik, lokaydlik, manmanlik sifatlarini namoyon etish:

1. «Menga nima» kabilida ish yuritish.

2. Psixologik tayyor emasligi.

3. O‘z-ustida ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarish ko‘nikmasini shaqllanmaganligi.

Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari: Murabbiyning o‘quvchini mashg‘ulotlarida va tarbiyasidagi xatoliklariga e’tibor bermaslik, mas’uliyatsizlik, ota-onani farzandini nazorat kilmaslik.

Muallif o‘z maqolasida muammoni oldini olish quyidagi yo‘llarini ko‘rsatib bergan: Murabbiyni o‘quvchini mashg‘ulotlariga va tarbiyasiga katta e’tibor berish, soglom muxit o‘rnatish, milliy urf-odatlar ruxida kamol toptirish.

Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari: O‘quvchini mashg‘ulotlarda qatnashishini nazorat qilish, ota-ona + maktab + maxalla uchligi bilan ish yuritish.

Yakuniy xulosa

Psixologik tayyorgarlikning umumiy maqsadi o‘quvchining sportda yuqori darajadagi yutuqlarga erishishi uchun zarur bo‘lgan psixik sifatlarni rivojlantirish, unda psixik barqarorlik va mas’uliyatli musobaqalarda ishtirok etishga tayyorlik holatini qaror toptirishdan iboratdir. Biroq o‘quvchini psixologik tayyorlashning maqsadli yo‘nalishi faqatgina shundan iborat emas. Uning oldiga jahon sport rekordlarini o‘rnatish uchun shart- sharoitlar yaratish, sport iste’dodlarini yetishtirish yo‘llarini izlash va shu kabi yana bir qator maqsadlarga erishish motivini shaqllantirish lozim.

VIII.GLOSSARIY

ADAPTATSIYA (lot.adaptare -moslashtirmoq) - sezgi a'zolarining qo'zg'ovchi kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o'zgarishi. Adaptatsiya xodidasida sezgirlik ortishi hamda kamayishi mumkin: kuchli ta'assurotdan kuchsiz taassurotga o'tganda sezgirlik: asta-sekin ortib boradi; taassurot kuchayganda esa, sezgirlik aksincha kamayib boradi. Adaptatsiya konuniyati barcha sezgilarga xosdir.(qo'ruv adaptatsiyasi, eshitish adaptatsiyasi, teri adaptatsiyasi).

AKSELERATSIYA (lot.aceleratio - tezlanish) - bolalar va o'smirlarda oldingi avlodga nisbatan bo'y-basti va jinsiy taraqqiyotining tezlanishi, jadallashishi.

AMNEZIYA (lot. a - inkor etish, mnesus - xotira) - miyaning turli qismlari jaroxatlanishi natijasida xotiraning yo'qolish holati.

AMALIY TAFAKKUR - ko'pincha vaqt tanqisligi sharoitida yuzaga keladigan va xatti-harakatlarning maqsadini aniqlash; reja, loyixalarni ishlab chiqish bilan bog'liq.

ANALIZATOR (yunon. analisis- bo'laklarga ajratish) - murakkab neyrofiziologik tizim, odamga ta'sir etuvchi qo'zgalishlarni idrok etish va uni taxlil qilish. Analizator retseptor, nerv yo'llari, miya bilan bog'lanadigan qism va miyaning maxsus bo'limlarini o'z ichiga oladi.

ANALOGIYA (yunon. analogia- o'xshashlik) psixik xodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o'xshashligi.

ANALITIK PSIXOLOGIYA - psixologiyadagi oqim, unga 1913 yili K.G.Yung asos solgan. U psixikani idealistik talqin etib, ong bilan g'ayri shuuriylikning o'zaro kompensatsiyasiga asoslangan o'z-o'zini boshqaruvchi sistema deb qaraydi; shunga ko'ra ong va g'ayrishuuriylik integratsiyasi shaxsning bir butunlikka erishishi individuallashishi yo'lidir. Analitik psixologiya psixopatologiya va psixo terapiya, shuningdek, falsafa, antropologiya, madaniyat va b. fanlar bilan bog'liq va ularga ta'sir ko'rsatgan.

APATIYA (yunon. apatheia - xissiyotsizlik) - kishining tevarak-atrofdagi odamga nisbatan hech qanday qiziqishlarsiz befarqlik holati. Apatiya og'ir kechinmalar yoki kasalliklardan toliqish natikasida kelib chiqadi.

APPERSEPSIYA (lot. Ar - ga, qarashli, regsertio - idrok) - shaxs idrokining avvalgi bilim va tajribalariga hamda uning umumiy qiziqish, xavaslariga bog'liqligi.

ASSOTSIATSIYA (lot.associatio - birlashtirmoq) - psixik xodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik o'xshashlik qarama-qarshilik va b.)

AUTIZM (yunon.auto-o'zim) - individning o'zini atrofdagi odamlardan chegaralab, o'zining kechinmalariga berilishdan iborat psixologik begonlashuv.

AUTOGEN MASHQ (yunon.autos - o'zim, denos - kelib chiqaman) - o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan pegkoterapevtik usul.

AFFEKT (lot. affectus- ruxiy hayajon, extiros) - kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat.

VERBAL (lot.verbalis - og'zaki) atama. Verbal nutq - og'zaki ifodalaniladigan nutq.

GENETIK METOD (genetikos - kelib chiqishga oid, methodos - tekshirish, tadqiqot) - psixik holatlarning paydo bo'lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o'rganish usullari.

GURUX - odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilariga asoslangan ijtimoiy jamoa. Guruhlar real va shartli bo'lishi mumkin.

DEPRESSIYA (lot.depressio - ruhan tushish) - tushkunlik kayfiyati; odamda intilishlarning susayishi, xarakatlarning tormozlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan ruhiy holat.

DINAMIK STEREOTIP (yunon. dynamicos - kuchli, stereos- qattiq, tipos- iz) - bosh miya katta yarim sharlarining faoliyatini yaxlitlab turish turi bo'lib, u shartli reflekslarning ketma-ketligini ta'minlab turadi. Dinamik stereotip inson odatlari, mehnat malakalarining fiziologik asoslaridir.

DIQQAT - ongimizning muayyan ob'ektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat. Diqqat ixtiyorsiz, ixtiyoriy, va ixtiyoriydan keyingi turlarga ajratiladi.

IDEAL (yunon. idea - g'oya, tushuncha, tasavvur) - biror narsaning namunasi, ayrim odam, gurux va sinf xatti-harakatlari va intilishini belgilovchi oliy maqsad. Ideal shaxsning mukammal sifati va insonlarning o'zaro go'zal munosabatlar, xar taraflama rivojlangan odamlar haqidagi tasavvurlar.

IDROK- sezgi a'zolariga ta'sir etib turgan narsa va xodisalarni bevosita yaxlitligicha aks ettirish jarayoni.

INTROVERSIYA - shaxsning o'z fikrlari, sezgilari, kechinmalarining o'z-o'ziga tayanishi.

KASB TANLASH - ijtimoiy foydali mehnatga o'z xissasni qo'shish zarurligini anglash natijasida kasbga yo'nalish.

KONSEPSIYA (lot. conceptio - idrok etmoq) - faoliyat maqsadlari o'z ichida saqlanib qolgan, faqat o'zi uchungina xizmat qiladigan moslanishdan qo'zg'alish holatga o'tish qobiliyati.

KORRELYATSION TAXLIL (lot. correlativus - o'zaro munosabat) - tekshirilayotgan xodisalar yoki omillarning shakllari, belgilarining aloqadorlik darajasini (bir-biriga bog'liqligini) baholashning statistik metodi.

LAYOQAT - nerv tizimining ba'zi determinlashgan anatomfiziologik xususiyati. Odamda qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki yakka, tug'ma, tabiiy zaminidir.

MA'LUMOT - bir tartibga kiritilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni hamda natijasi. Ma'lumot olishning asosiy yo'li o'quv muassasalarida yoki musatqil o'qishdan iborat.

MELANXOLIK (yunoy. melas - qora, shole - o't, safro) - temperament turlaridan, psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

MEN-KONSEPSIYA (lot. conceptio - qabul etish, - odamning o'zi tug'risida nisbatan barqaror, aniqlangan, o'z kechinmalarida ifodalanadigan tasurotlar tizimi. Men konsepsiyasi asosida odam boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi va o'ziga bo'lgan munosabatni belgilaydi.

MOTIVATSIYA - odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

MUXANDISLIK PSIXOLOGIYASI - psixologiyaning tarmog'i, odam mehnatining psixologik xususiyatlarini, faoliyat jarayonida texnika vositasi bilan munosabatda bo'lishini o'rganadi. Shu bilan birga muxandislik psixologiyasi mashina va uskunalarning loyixasini yaratishda inson omillarini hisobga olish talablarini ishlab chiqadi.

OLIY NERV FAOLIYATI TURI - oliy nerv faoliyati xususiyatlarining barqaror yig'indisi (kuchi, vazminligi, harakatchanligi va boshqalar). Bu ason nerv tizimining xususiyatlari yig'indisi bilan ifodalanadi.

ONG - ob'ektiv borliqni psixik aks ettirishning faqat insongagina xos yuqori usuli. Odamlarning ijtimoiy tarixiy faoliyati vositasida paydo bo'lgan.

OPERATIV XOTIRA (lot. operatio- harakat) - xotira turlaridan biri, bu ma'lum faoliyatni bajarish jarayonida ifodalanadi, uzoq muddatli xotiradan vaqtincha foydalanadn.

PARAPSIKOLOGIYA (yunon.para - oldida, yonida psyche - rux, lodos - ta'limot - psixologiya tadqiqot soxalaridan biri, sezgi a'zolari ishtirokisiz idrok qilish shakllarini, shu bilan birga tirik mavjudotning fizik xodisalarga mushak kuchisiz ta'sir etish turlarini o'rganadi. Parapsixologiya muammosi baxsga moyil soxadir.

PATOPSIKOLOGIYA (yunon.pathos - azoblanish, psixologiya) - psixologiyaning bo'limi. U bosh miya zararlanishi yoki uning yetarlicha rivojlanmaganligi natijasida kelib chiqadigan psixik kasalliklarni o'rganadi, psixiatriya bilan uzviy bog'liq.

PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA (yunon. Paidagogika - tarbiya, psixologiya) - psixologiya tarmog'i, ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini psixologik asoslarini o'rganadi.

PERSEPTIV HARAKATLAR (lot. perceptio- idrok etmoq) - idrok jarayonining asosiy tuzilish birligi, bu idrok ob'ektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iborat.

PRINSIP (yunoy. principium- boshlanish, asos) - biror bir narsaning ta'lim nazariyasi yoki fan, dunyoqarashning kelib chiqish asoslari. U odamning ichki e'tiqodi bo'lib, o'ziga borliqqa, boshqalarga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

PROEKTIV METOD (lot. projektos - oldinga tashlangan, yunon. tadqiqot) - shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metodda mos, tajriba vaziyatlarida rasmlar idrok qilinib, unng talqini beriladi.

PROFORIENTATSIYA (lot.professio- kasb, yunon. oriens- sharq) - yoshlarni xoxish-istaklari, qiziqishlari qobiliyatlariga qarab xalq xo'jaligi mutaxassislarga bo'lgan extiyojidan kelib chiqqan holda psixologik-pedagogik va tibbiy kasbga yo'naltirish.

PSIXIKA (yunon.psychikos - ruxiy) - yuksak darajada tashkil topgan materiya -miyaning funksiyasi. Uning moxnyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirshdan iborat.

PSIXIK JARAYONLAR - u yoki bu psixik maxsulot va natijalarni (psixik obrazlar, holatlar, tushunchalar, hissiyot va x.k.) hosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.

PSIXODIAGNOSTIKA - (Yunon diagnostikos - bilishga qodir) - shaxsning individual psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o'lchashni ishlab chiqaruvchi psixologiya usuli.

PSIXOLOGIYA (yunon. rsysche - rux, logos - bilim) - odamning ob'ektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u hissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

REAKSIYA - (lot. re - qarshi, astio - harakat) - psixologiyada va fiziologiyada ichki va tashqi muxitning turli ta'sirlariga a'zolarining javob reaksiyasi.

REFERENT GURUX - (lot.referentis - bildiruvchi) - shaxsning har tomonlama ishongan, o'ziga yaqin tutgan guruhi.

REFLEKS - (lot. reflexus - aks etish) - organizmning markaziy nerv tizimi orqali ichki yoki tashqi muhit omillari ta'sirida retseptorlar qo'zgalishiga javoban ko'rsatiladigan reaksiyasi. Refleks a'olarining ichiki va ularning o'zaro ta'sirini tartibga kelitirishda, organizm bir butunligini saqlash hamda yashash sharoitiga moslashishda katta ahamiyatga ega.

RETSEPTOR - {lot. recipere - qabul qilmoq) - analizatorning qo'zgalishini qabul qiluvchi ichki qismi.

SANGVINIK - (yunon.sanguis - kon) - temperament turlaridan. Bu tur chaqqon, harakatchan ta'surotlari tez-tez o'zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mehribonlik qilish hislatlari bilan xarakterlanadi.

SEZGILAR - psixik aks etirishning oddiy usuli tariqasida xayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat. Voqelikdagi narsa va xodisalarni ayrim belgilari va xususiyatlarini bilib olishni ta'minlaydi.

SENZITIVLIK - (lot.sensus - hissiyot) - turli ta'sirga nisbatan sezgilarning tez va kuchli qo'zg'alishi.

STRESS - (png.stress - zo'riqish) - kuchli qo'zg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy xolat.

TASAVVUR - sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan narsa va xodisalrning yaqqol hissiy obrazi.

TAFAKKUR - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi, idrok va tasavurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa va xodisalar tafakkurda ongli ravishda aks etadi. Tafakkur jarayonida fikr vujudga keladi, bu fikrlar inson ongida xukm, tushuncha, xulosa shakllarida yuzaga keladi.

TEMPERAMENT - (lot.temperamentum - qismlarning bir-biriga munosabati) -shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui. Bu kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emotsional tomonlari bilan xarakterlanadi.

TEST - (ing.test - tekshirmoq) standartlashtirilgan psixologik sinov. Buning natijasida u yoki bu xoldagi psixik jarayon baholanadi, shaxs bir-butunligicha yoki uning ayrim qismlari o'rganiladi.

TUShUNChA - voqelikdagi narsa va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruxi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

USTANOVKA - (rus. Ustanovka - yo'nalish, yo'naltirish) - kishining tevarak atrofdagi odamlarga yoki ob'ektlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni ma'lum darajada idrok qilish, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorgarligini anglatadigan holati.

FAOLIYaT - insongagina xos, ong bilan boshqariladigan extiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligi.

FAOLLIK - tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir, shu asosda faollik ko'rsatish bilan xarakterlanadi.

FENOMEN - (yunon. phainomenon- yuz beruvchi, sodir bo'luvchi) - xis-tuyg'ular bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha.

FRUSTRATSIYa - (Yunon frustration - addanish, bexuda ko'rish, xafagarchilik, rejalarning izdan chiqishi) - kishining maqsadga erishish yo'lida uchraydigan, ob'ektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladigan psixik holati.

HAYoL - mavjud tasvvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy hayol turlariga ajratiladi.

XARAKTER (yunon.character - xususiyat belgi) - kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga, atrofdagi narsa va xodisalarga, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. Xarakter muayyan sharoit xatti-harakatlarni belgilab beradigai individual psixologik xususiyatlar yig'indisidir.

XOLERIK (yunon.chole - safro, sariq o't) - temperament turi, u hissiyotning jo'shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi.

XOTIRA - aks ettirilgan narsa va xodisalarni, tajribani esda qoldirish, esda saqlash va zarur bo'lganda esga tushirishda iborat psixik jarayon.

ShAXS - ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ulanuvchi betakror odam.

EKSTRAVERSIYa - (lot.extra - xaddan tashqari, versio- o'zgarish) - shaxsning tevaraka-atrofdagi odamlarga, tashqi xodisalarga yo'nalnshi. Ekstraversiya qiziqishlarning kishidan tashqaridagi narsa va xodisalarga ko'chishi demakdir.

EKSTREMAL - (lot.extremus -so'nggi, keskin) - oxirgi, o'ziga xos, ilojisi bo'lmagan holat.

EMOTSIYA - (lot. *emovere*— uygʻotish, toʻlqinlantirish) — odam yoki hayvonlarni subʼektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qoʻzgʻovchilar taʼsiriga javob reaksiyasi.

EMPAPIYA - (yunon. *empathia* birgalikda dardlashmoq) - boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati.

EXTIYOJ - odam va hayvon faolligining asosiy manbai, aniq sharoitlar bilan bogʻliq zaruriyatning ichki holati.

EXTIROS - muayyan faoliyat turiga kuchli intilish bilan bogʻliq davomli va barqaror emotsional xolat.

EʼTIQOD - maslakni amalga oshirish, shaxsning kundalik extiyojiga aylangan intilishi, xatti-harakati.

QIZIQISH- shaxsning oʻzi uchun qimmatli va yoqimli boʻlgan muayyan narsa yoki xodisalarga munosabati. Qiziqish keng va tor, chuqur va yuzaki, barqaror boʻlishi mumkin.

QOBILIYATLAR - shaxsning maʼlum faoliyatidagi muvafaqiyatlarni va osonlik bilan faoliyatni egallay oishni taʼminlaydigan individual psixologik xususiyatlar.

HISSIYOAT - odamning yuksak extiyojlarini qondirish yoki qonidirmaslik qobiliyatlarining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak-atrofidagi olamga boʻlgan munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayon.

XUKM - tafakkur usullaridan, u narsa va xodisalar oʻrtasida oʻzaro biron-bir bogʻlanishlarning borligini tasdiqlash yoki inkor qilinishida ifodalanadi.

IX. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent: O‘zbekiston. – 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
3. Abduraxmonov F., Davletshin G.M. Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yoshdashish kerak. – T.: 1996.
4. Allikmets K.P., Metsa A.A. Pogovorim. . . posporim. - L.: 1991.
5. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovanie: V 2 KN. Per, s.ang: Pod. red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo. - M.: Pedagogika. 1992.
6. Adizova T.M. O‘qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari. - T.: 1999.
7. Adizova T.M., Usmanova E.Z. Psixologicheskie trudnosti v obuchenii mladshyx shkolnikov. –T.: 1995.
8. Ayzenk G. Supertesti IQ. - M.: EKSMO. 2008. – 208 s.
9. Axmedova M. Shaxs psixodiagnostikasi. – T.: 2006. – 40 b.
10. Axmedova M. Shaxs xususiyatlarini o‘rganish metodikasi. – T.: 2009. - 40 b.
11. Batashev A., Alekseeva I., Mayorova Ye. Diagnostika professionalno vajnix kachestv. - Piter.: 2007. – 186 s.
12. Bleyxer V.M., Burlachuk L.F. Psixologicheskaya diagnostika intellekta i lichnosti. - K.: Vysshaya shkola, 1978. – 142 b.
13. Blayxer V.M. Klinicheskaya patopsixologiya. - T.: Meditsina, 1976. – 326 b.
14. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. –315 b.
15. Burlachuk L.F., Psixologiya lichnosti. – K.: Zdorovya, 1989. – 168 b.
16. Gudvin Dj. Issledovanie v psixologii. –Spb.: Piter, 2004. – 558s.
17. Gurevich K.M. Psixologicheskaya diagnostika. Problemy issledovaniya. – M.: Pedagogika, 1981.
18. Davletshin M.G., Kovalev A.G., Kruteskiy V.A. Qobiliyat va uni diagnostikasi. – T.: 1979.
19. Diagnostika psixicheskogo razvitiya: Per. s cheshek. - Praga: Avitsenum, 1978. -388 b.
20. Dunasariy Sh. Odamni bilish ilmi. – T.: Yozuvchi, 1994. – 22 b.
21. Yeliseev O.P. Praktikum po psixologii lichnosti. –Spb.: Piter. 2002. -512s.
22. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. M.G.Davletshin tahriri ostida. 1974. Toshkent.
23. Jalpanova L.J. Kak chitat cheloveka. Rasshifrovka mimiki i jestov. - M.: 2006. – 62 s.
24. Insonni o‘rganish ilmi. – T.: Yangi asr avlodi. 2006. – 63 b.
25. Klimov Ye.A. Kak vybrat professiyu. - M.: 1991. - 144 s.
26. Leonova A.B. Psixodiagnostika funktsionalnyx sostoyaniy cheloveka. - M.: Izdvo Mosk. Unv-ta, 1984. – 198 s.
27. Lindeman X. Autogennaya trenirovka. - M.: 1980.
28. Men kimman? Psixologik testlar to‘plami. – T.: 2008.- 55 b.
29. Modelirovanie v pedagogicheskix situatsiyax. - M.: 1981.

30. Noss I.N. Rukovodstvo po psixodiagnostike. - M.: Izd-vo institut psixoterapiya, 2005. – 688 s.
31. Nemov R.S. Psixologiya. Kniga 3. - M.: 2003.
32. Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya. Poznanie sebya: vliyanie na lyudey – M.: VLADOS, 2004. – 320 s.
33. Nishanova Z. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. - T.: 2004.
34. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S., To‘laganova Sh. Psixodiagnostika. – T.: 2008. – 314 b.
35. Obshchaya psixodiagnostika. Pod.red. A.A.Bodaleva. - M.: MGU, 1987. – 305 b.
36. Platonov K.K. Kratkiy slovar sistemy psixologicheskix ponyatiy. - M.: Vysshaya shkola, 1981. – 174 s.
37. Praktikum po obshchey psixologii. - Sverdlovsk.: 1988.
38. Proshchinskaya Ye.N. VybiraYTE professiyu. - M.: 1991. - 141s. (102-104).
39. Psixologiya. Qisqacha izohli lug‘at. – T.: 1998. – 45 b.
40. Psixologicheskie testy. Tom 2. Pod redaksiyey A.A.Kalerina. - M.: 1999.
41. Psixologiya individualnyx razlichiy: Testy pod red. Yu.B.Gippenreyter, V.Ya.Romanova. - M.: 1982.
42. Psixodiagnostika: teoriya i praktika: Per.s nem. - M.: Progress, 1986. -207 b.
43. Ratanova T.P. Psixologicheskie metody izuchenie lichnosti. - M.: 1998.
44. Rogova Ye.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa v obrazovanii. - M.: 1996.
45. Rubinshteyn S.Ya. Eksperimentalnye metodiki patopsixologii. – M.: Eksmo-Press. 1999. - 414s. - S 163-167.
46. Siz kimsiz? Psixologik testlar to‘plpmi. – T.: 2008. – 55 b.
47. Snikovskaya A.S. Profilaktika detskiX nevrozov. - M.: 1988.
48. Stolin V.V. Samosoznanie lichnosti. - M.: 1983.
49. Sizanov A.N. Psixologicheskie igrы. - Minsk.: «Vysshaya shkola», 1995. – 302 s.
50. Talizina N.F., Karpov Yu.V. Pedagogicheskaya psixologiya. - M.: MGU, 1987.
51. Tertel A.L. Psixologiya. Kurs leksiy: Uchebnik. posobie. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. – 248 s.
52. TolstyX A.B. Morально-эстетические проблемы psixologicheskoy praktiki. - M.: 1988.
53. Toшимов P.Ю., Fозиев Э.Ф. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. - T.: 2004. - 131 б.
54. Шевандрин Н.И. Psixodiagnostika, korrelyatsiya i razvitiya lichnosti. M.: Владос, 1999.
55. Шепел В.М. Имиджелогия. Секреты личного обаяния. - Ростов-на-Дону.: Феникс, 2005.
56. Шой М. Если Ваш ребёнок сводит... - M.: 1998.
57. Сюзен Н.В., Пономов Psixotренинг. - M.: 1989.
58. Qoplonova M., Avlaev O.U. Rahbar shaxsining psixologik jihatlari. - T.: 2006. – 32 b.
59. Qoplonova M. O‘smirlar bilan o‘tkaziladigan psixologik o‘yinlar. – T.: 2006. – 20 b.

- 60.G'oziev E.G', Azizova Sh.V. Tashkiliy psixologiya. 1-kitob. – T.: Universitet, 1999. – 92 b.
- 61.G'oziev E.G', Mamedov K.Q. Kasb psixologiyasi. – T.: 2003. – 154 b.
- 62.G'oziev E. va boshqalar. Psixologiya muammolari. – T.: 1999.
- 63.G'oziev E.G'. Aqliy kamolotingizni aniqlay olasizmi? - T.: Universitet, 1996.

«Психодиагностика»

Психологик диагноз (diagnosis - грекча, аниқлаш, билиш деган маънони англатади)-шахс индивидуал-психологик хусусиятларининг Ҳозирги Ҳолатига баҳо бериш, ривожланишини олдиндан айтиб бериш (прогноз қилиш) ва психодиагностик текширув вазифаларидан келиб чиқиб, тавсиялар ишлаб чиқишга қаратилган психолог фаолиятининг сўнгги натижасидир.

атамаси “психологик ташхис қўйиш” деган маънони англатиб, шахснинг руҳий Ҳолатида тўлиқ ёки бирор бир алоҳида хусусияти Ҳақида хулоса чиқаришдир, бунда “ташхис” шахснинг тараққиёт кўрсаткичи ва тавсифномаларни биргаликда таҳлил қилиш асосида синалувчининг Ҳолат ва хусусиятлари Ҳақидаги хулосалардан иборатдир.

«Психодиагностика»

атамаси “психологик ташхис қўйиш” деган маънони англатиб, шахснинг руҳий Ҳолатида тўлиқ ёки бирор бир алоҳида хусусияти Ҳақида хулоса чиқаришдир, бунда “ташхис” шахснинг тараққиёт кўрсаткичи ва тавсифномаларни биргаликда таҳлил қилиш асосида синалувчининг Ҳолат ва хусусиятлари Ҳақидаги хулосалардан иборатдир.

Психодиагностик тадқиқотлар амалиётида психологик диагноз қўйишнинг 3 босқичи фарқланади.

- 1.Симптоматик диагнозда дастури мавжуд Ҳар қандай ЭХМ бажариши мумкин бўлган тадқиқотда олинган натижалар қайта ишланади.**
- 2.Этнологик дагнозда (келиб чиқиш сабаблари) бирор хусусиятнинг мавжудлигини эмас, балки унинг вужудга келиш сабаблари Ҳам Ҳисобга олинади.**
- 3.Типологик дагнозда синалувчи шахс тузилишида олинган натижаларнинг ахамияти ва ўрни аниқланади.**

Болаларни психодиагностик тадқиқ қилиш ёш хусусиятларига, у ёки бу ёш даври учун етакчи фаолият турининг таъсирига, индивидуал типологик тавсифномаларнинг тараққиёт даражасига боғлиқ равишда баъзи хусусиятларга эга. Бола тараққиётининг ҳар бир ёш даври болалар билан ишлашнинг усуллари ва вазифаларини талаб қилади.

Тест турлари

- **Intellectual testlar** shaxsni aqliy faoliyati rivojlanganlik darajasi va ularni alohida bilish jarayonlarini (idrok, diqqat, xayol, xotira, nutq) baholashda qo'llaniladi.

Рухий тестлар – алоҳида турни бирор-бир руҳий ҳолат ёки хусусиятни ривожланиши ёки ҳолатини даражасини ўлчашнинг стандартлаштирилган усулидир. Психокоррекция доирасида тестлар миқдори муаммоси турига қараб танланади ва идеалда жараён динамикасини кузатиш учун психокоррекциянинг бошида, ўртасида, охирида қўлланилади.

- Рухий қўллаб-қувватлаш бутун руҳий ёрдам давомида олиб борилади ва вербал (имзосиз) ҳамда новербал (имзосиз бўлмаган) босқичларда мутахассисни миқдорга нисбатан энтанациясини ифодаланиши билан намоён бўлади.

Психогимнастика

- бу гуруҳ аъзоларининг ўзини иамоён қила оладиган ва нутқсиз муносабатга кириша олишини таъминловчи методдир. Бу самарали восита ёрдамида шахснинг ижтимоий ҳодисаларни идрок қилиши учун энг қулай шароит яратилади, „тана тили„га эътибор берилади, атроф-ҳаёт муносабатларини ифодалашга имконият яратилади. “Психогимнастика” термини кенг ва тор маънода қўлланилади. Гуруҳ аъзоларининг асосий коммуникация воситаси имо-ишорали ҳаракатлар билан таъсир ўтказиш ҳисобланади.

Боладаги билиш жараёнлар

- Сезгилар;
- Идрок;
- Хотира;
- Тафаккур;
- Диққат;
- Нутқ;
- Тасаввур.



Психотерапия

- «Психотерапия» сўзи грекча сўздан олинган бўлиб, «пси-хо» - руҳ, жон ва «терапия» - ғамхўрлик, парваришlash, даволаш маъноларини англатади.
- Аънанавий равишда психотерапияда психик бузилишларни даволаш тушунилади

**ЭЪТИБОРИНГИЗ УЧУН КАТТА
РАХМАТ!**

**УШБУ ДАРСИМИЗ
ВА МЕТОДИК
ТАВСИЯЛАР,
СИЗГА ЯҚИНДАН
ЁРДАМ БЕРИШИГА
ИШОНЧ
БИЛДИРАМИЗ.**

**РУҲИЙ
БАРКАМОЛЛИК
ЎЗ ҚЎЛИНГИЗДА!!!**

